Хожа Аҳмад Яссавий асос солган яссавийлик таълимоти Самарқанддан Туркистонга олиб бориб шакллантиргач, мазкур силсила Тошкент орқали Самарқандга кириб келади. Натижада Шайх Али шайх, Мавдуд шайх, Ходим шайх, Жамолиддин Азизон, Худойдод Валий, Дарвеш шайх азизон, Пирим шайх азизон, Мўмин шайх, Тоҳир шайх, Олим шайх азизон, Мавлоно Усмон, Муҳаммади Имло Бухорий каби тариқат намояндалари Зарафшон воҳаси бўйлаб фаолият олиб боради.

Олим шайхнинг Охунд Мулла Шариф Бухорий орқали Мулла Боқимуҳаммад Қоракўлийга, ундан Охунд Мулла Тошмуҳаммадга, ундан Мулла Ҳожи Шайх Хоразмийга, ундан Мулла Ниёзмухаммад Қоракўлийга яссавия силсиласи етган. Бунга кўра Қоракўл худудига нақшбандия ва кубровия силсиласи қаторида яссавия ҳам ёйилган.

Шайх Худойдод Валийнинг шогирди Хожа Мавлоно Нурий орқали: Шайх Оташин, Шербек суфи, Камол шайх, Шайх Дўст Али, Шайх Сафои, Суфи Поянда Кафшдоний ва Қосим шайхга етади. Қосим шайхдан Пирим шайхга етган силсила Олим шайх азизон Алиободий ва Мирзо Али шайхга етади. Мирзо Али шайхдан Ҳусайн шайхга, ундан Хожа Муҳаммад Ўтрорийга, ундан Мавлоно Аваз Муҳаммад Басирга, ундан Эшон Ниёз Муҳаммад Бухорийга [Силсила, ЎзР МДАФ и-323 р-2 иш-90. – Б. 1 варак] етади. Эшон Ниёз Муҳаммад Бухорий яссавия силсиласини Имло Бухорий ва Мавлоно Аваз Муҳаммад Басир орқали қабул қилгани аниқланди.

Яссавийликнинг иқония тармоғи. Яссавия тариқатининг намояндаси Шайх Камолиддин Туркистоний-Иқоний XIV аср бошларида Туркистон вилоятининг Чимкент мавзеси Иқон қишлоғида таваллуд топган.

Камолиддин Иқоний қабри бугунги кунда «Яканчик» зиёратгоҳи номи аталувчи қабристонда, яъни ҳозирги Жомбой ва Пайариқ туманлари чегарасида жойлашган, Булунғур канали ва Мирза ариқ атрофидаги Довчар ариқ мавзесида жойлашган. Зиёратгоҳ «Яканчик» номи билан аталиб, маҳаллий аҳоли «Якон шайх», «Якум шайх», «Яканшиқ», «Яканчик» каби турли кўринишларда талқин этиб келинган.

«Ламахот» асарида Шайх Камолиддиннинг лақаби Иқоний бўлиб, Туркистон ноҳияларидан бири Иқон қишлоғида туғилган [Носириддин Бухорий, 1324/1904: 137]. Бир неча йил Самарқанднинг Алиобод мавзесида яшаб, шу ерда вафот этган («Мажмаъул ансоб вал ашжор» асарида 1492 йил деб кўрсатилган). Қабри табаррук зиёратгоҳ, деб маълумот берилади.

У яссавия силсиласи вакили Шайх Мавдуд даргоҳида тарбия топиб, камолга етган. Шайх Мавдуд ўз навбатида шайх Алишайхнинг шогирди, у эса Ямин бобонинг, у Садр Отанинг, у Занги Отанинг, у Ҳаким Ота (Сулаймон Боқирғоний)нинг, у соҳиби ҳикмат – Ҳазрат Султон Хожа Аҳмад Яссавийнинг қоййим-мақом халифасидир [Абд ал-Қодир, 2005; Муҳаммад Олим шайх, 2020]. Камолиддин шайхлик мартабасини олгач, Шайх Камолиддин Иқоний нисбаси билан машҳур бўлган ва яссавийликнинг иқония тармоғига асос солган.

Мазкур зиёратгоҳ ва мавзе номи маҳаллий аҳоли тилида «Яканчик» тарзида талаффуз қилинган. Шайх Камолиддин Иқоний исми халқ орасида ҳурмат юзасидан «Шайх Иқоний» деб юритилган. (550 йилдан ортиқроқ) вақт ўтиши натижасида «Шайх Иқоний» сўзи, талаффузларда «Иқон шайх», «Якон шайх», «Якум шайх», «Яканшиқ», «Якканчик» дея, умумий маъно ўзгармасдан, маҳаллий халқ бугунги кунга қадар, бу даргоҳни муқаддас билиб, кунда зиёрат тарк этилгани йўқ.

Шайх Камолиддин – Иқоний таҳаллуси билан шеър ва ҳикматлар ёзгани ҳақида «Рашаҳот»да: «Аз кибор асҳоби Мавдуд турғонин билдирадир. Ҳижрий 1093 (милодий 1680)да бухоролик муфтий Зинда Алининг «Самаратул машойих» отли китобда ҳам, «Ламахот»да ҳам Камол шайхнинг таржимаи ҳоли ёзилганда «Мазкур Эшоннинг лақаби Иқоний бўлиб, Самарқанднинг Алиобод мавзеидан ва шу ерда вафот этган» [Фитрат, 2000: 33], деб маълумот бериб ўтган.


Манбаларда, Камол шайх кексайган вақтида ҳам зикр-завқи пайтида ўқдек тўғри, дадил ва эшитувчи бўлар, бу ҳолдан чиққач яна эгилиб қолгани айтилади. Шайх Камолиддин шогирди Сайид Аҳмадга йигирма йиллик тарбиядан сўнг рухсати кул (шайхлик қилишга рухсат, иршод) берган.

Яссавия тариқатининг тараққий этишида Зарафшон воҳасидаги Суғд шаҳри, Офарин (Кумуш)кент, Шероз (Жомбой) туманидаги Ғазира ва Алиобод (Паяриқ) ҳудудларида тариқат марказ-мактаблари вужудга келган.

Зарафшон воҳасида XVIII асрнинг ўрталари ва XIX асрларда яссавия тариқати фаолияти бироз сусаяди. Асосан ўлкада нақшбандия, кубровия тариқатлари билан уйғунлашган ҳолда кўзга ташланади. Жумладан, Зарафшон воҳасида фаолият олиб борган Муҳаммад Имло Бухорий, Муҳаммад Ислон шайх Каррухий, Мирзо Абул Ҳасан, шайх Абул Фатҳ каби тариқат муршидлари нақшбандия тариқатида фаолият олиб борган бўлишсада, аммо кубровия, қодирия ва суҳравардия каби яссавия тариқатини ҳам биргаликда юритишган. Яъни «чор сулук», «тўрт йўл» тушунчаси кенг тараққий этган. Натижада яссавия таълимоти XX асрларда ҳам бошқа тариқатлар билан уйғун ҳолда давом этди.

Марказий Осиё (Самарқанд)да тасаввуф мактаблари орасида яссавия тариқатининг кенг ёйилишида олдинги ибодат шаклларига бегона бўлмаган кўчманчи туркийлар катта ҳисса қўшгани айтилади [Фитрат, 2000]. Бундай ҳулосага келиниши албатта тариқат асосчиси ва ҳудуд нуктаи назаридан илгари сурилган. Яссавия дастлаб Туркистонга ва унга яқин бўлган ҳудудларга ёйила бошлади.

Дастлабки даврлар (Темурийлар замони)да яссавия тариқати Ўрта Осиёда нақшбандия тариқатидан кейинги ўринда турган. Кейинги давр (Шайбонийлар даври)га келиб яссавия тариқати ўз мавқеини юқори чўққисига чиқади. Бунга ҳукмдорларнинг яссавия тариқати пирларига бўлган муносабати деб қараш мумкин. Ёки тариқат муршидларининг ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётда катта мавқега эга экани, тариқат намоёндалари кўп сонли бўлганидан дарак беради.



Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Абд ал-Қодир ибн Муҳаммад-Амин. Маджма ал-ансоб ва-л-ашдjar. Араб, форс ва туркчадан таржимонлар; Ш.Х.Вохидова, А.К.Муминова, Б.Б.Аминова. – Алматы: 2005.
2. Муҳаммад Олим шайх. Ламаҳот мин нафаҳотул қудс. Тарж. Каттаев К. – Т.: Қакнус, 2020.
3. Носириддин Бухорийнинг «Тухфатуз зойирин» асарида ҳам таъкидлаб ўтилган. Қаранг: Форсча. – Бухоро: 1324/1904.
4. Силсила. Қўлёзма. ЎзР МДАФ и-323 р-2 иш-90. – Б. 1 варақ.
5. Фитрат. Яссавия мактаби шоирлари тўғрисида текширувлар // Танланган асарлар. II-жилд. – Т.: Маънавият, 2000.

Annotatsiya: Ma'lumki hamma davrlarda ham inson ilmu tafakkurining rivojida, uning ma'naviy ma'rifiy yutuqlarining yuksalishida, komil inson, yoki mukammal shaxs sifatida shakllanishida ajdodlarimiz merosi, otasoz qudrati, izdoshlik adabiy an'alarining xizmati nihoyatda katta bo'lgan. Ushbu ishimizda fikrimizni inson ma'naviy kamolotini yuksaltirish yo'lida asrlar osha yashab kelayotgan izdoshlik adabiy an'analari talqinida ifodalangan ezgu insoniy fazilatlar bilan dunyoga mashhur ajdodlarimiz ijodiga nazar tashlaymiz. Zotan ajdodlar ishini davom ettirish, avlodlar uchun ham qarz, ham farzdir.

Kalit so'zlar: *Devon, hikmat, rahmat suvi, ilohiy ishq, didaktik, nafs, jonga mahram, jonga qozi, Hadis, adab, mumtoz, Qur'on, qit'a, turkiy, tarbiya, tanbih, sadoqat, qanoat, sabr.*

Didactic doctrinal harmony in the work of Ahmad Yassawi and Yunus Emro

Annotation: Ma in all periods of time, in the development of human science and thought, in the rise of its spiritual educational achievements, in the formation of a perfect person, or as a perfect person, the heritage of our ancestors, the power of the father, the service of pandoma didactic works was extremely great. In this work, we focus our opinion on the educational significance of the interpretation of didactic works in human spiritual perfection and look at the work of our world-famous ancestors with noble human qualities.

Keywords: Devonian, wisdom, water of mercy, divine work, didactic, nafs, jonga mahram, jonga Qazi, Hadith, adab, classical, Quran, continent, Turkic, nurture, tanbih, devotion, contentment, patience

Сочетание дидактического учения в творчестве ахмада Яссави и Юнуса Эмро

Аннотация: Во все времена в развитии научного мышления человека, в подъеме его духовных просветительских достижений, в становлении совершенным человеком, или совершенной личностью наследие наших предков, сила отцовского слова, панднома заслуга дидактических произведений была чрезвычайно велика. В данной работе мы акцентируем свое внимание на воспитательном значении толкования дидактических произведений в духовном совершенствовании человека и рассматриваем творчество наших всемирно известных предков с благородными человеческими качествами.

Ключевые слова: *Девон, мудрость, вода благодарности, Божественная любовь, дидактика, нафс, Махрам на душу, Казин на душу, хадис, Адаб, классика, Коран, континент, тюркский, воспитание, танбих, верность, удовлетворение, терпение.*

Turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondasi, XI asr diniy-tasavvufiy she'riyat vakili, hikmatlar qiroli Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", "Umring yeldek o'taro", "Haqdin o'zgani dema" kabi asarlari yoshlar tarbiyasida benihoyat katta o'rin tutishini aytib o'tish joiz deb o'ylaymiz. XIII asrga kelib unga izdosh turkiy xalqlarning sevimli ijodkori, mutasavvif shoir Yunus Emro qarashlari va Ahmad Yassaviy ijodi ta'sirida shoirning "Rislatu-n-nus'hiyya" nomli falsafiy-didaktik asari dunyo yuzini ko'rganligi ham hech kimga sir emas.

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" (Yangi topilgan namunalar) hamda "Umring yeldek o'taro" nomli hikmatlar to'plami ushbu tadqiqotimizning asosiy obektlari bo'ldi va ba'zi

hikmatlarni tahliliga to'xtaldik. O'tmishda ulug' ajdodlarimiz o'z turmush tarzlarini, ma'naviy-axloqiy qarashlarini nihoyatda sodda, samimiy va jonli hamda jozibali tarzda ifodalab berganlar. Didaktik asarlarning eng qadimgi namunalaridan (XI asr) bo'lgan, Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" to'plamidan joy olgan: "Qul Xoja Ahmad toat qil, Umring bilmam necha yil, Asling bilsang qaro gil, Yana gilga ketaro."- degan jummalari hayotiy haqiqat ekanligi va uni har birimiz anglab yetishimiz hamda bu o'tkinchi dunyoga havas qo'ymasdan umrimizni faqat yaxshi ishlarga sarflashimiz nazarda tutiladi. Ana shu jihatlari bilan ham ushbu hikmatlar bebaho, noyob durdona pandnoma asar sifatida qadrlanib kelmoqda. Ahmad Yassaviyning rangin hikmatlari Oллоhga oshiqlik, poklik, iymon-e'tiqod, insof-diyonat, diniy-tasavvufiy qarashlarni ifoda etadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati. Adabiy-ma'naviy merosimizga munosib hissa qo'shgan Ahmad Yassaviy diniy-tasavvufiy adabiyot vakilidir. Shoirning nafis va ichkin hikmatlari Yassaviya tariqatini va haqiqatini ayon qilguvchi asarlardir. Shu bois uning turkiy zaminning ma'naviy-ma'rifiy asoslaridan biri sifatida e'tirof etamiz. Yassaviy hikmatlari nafaqat madaniyatimiz tarixi, balki tafakkur dunyosining yoritguvchi bir nur sifatida abadul-abad charaqlab turguvchi yorug' manbadir.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tub mohiyatida komil inson tarbiyasi va uning bilim hamda amalini to'g'ri yo'lga boshlovchi tuyg'ular ustuvor. Hikmatlardagi komil inson tushunchasi Yassaviy ta'limotida ma'naviy kamolotga erishgan, axloqan yuksalishni maqsad qilib olgan ruhan yetuk hilqat egasidir. Bugungi kunda ham faqatgina moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg'iz o'zini o'ylab atrofda bo'layotgan voqealarga loqayd qaraydigan xudbin kishilar Yassaviy tarbiyasiga muhtojdir. Bugungi kunda komil inson tushunchasini hozirgi hayot tarzidan, yoshlarni qiziqtirgan masalalardan uzoqlashmagan holda talqin etishimiz lozimdir. Buning uchun Yassaviy tariqati, ularda ilgari surilgan komil inson tushunchalarining ahamiyati juda kattadir. Yassaviy "turk shoirlarining dohiylaridan", deb ta'riflagan Abdurahmon Sa'diy.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning ta'kidlashicha, "Fors-tojik tasavvuf she'riyatini yangi va yuksak bosqichga ko'targan Sanoiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi singari mutasavvuf shoirlarning ijod namunalari bilan qiyoslaganda, albatta, "Devoni hikmat"dagi lirik tamoyil yo'nalishi alohida bir o'zgacha ma'no kasb etadi". Aslida didaktikaning maqsadi ham ta'lim berish, o'qitish va o'rgatishdan iboratdir. Ahmad Yassaviy birinchi bo'lib hikmatnavislik an'anasini boshlab berishi bu bir jihatdan didaktik asarlar hududini yanada kengaytirishi va boyitishi bo'lsa, ikkinchi tarafdin maqsad sari yo'naltirilgan o'rgatish usulini ravon va shirador olib borishga yo'l edi. Yassaviy hikmatlarining bosh fazilati va xosiyati shundaki, eng avvalo ular she'rxonni ilohiy ishq kuchiga ishontiradi, ilohiy ishq shavqi bilan ko'ngilni poklaydi va ko'ngilga oyna tutadi. Yassaviy hikmatlarini o'qigan kishi go'zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu muhibi kabi yashay boshlaydi, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'tkinchi dunyo da'volaridan yiroqlashib, ma'no va mohiyatga yuz tutadi. Chunki Ahmad Yassaviy ko'zlagan bosh maqsad oqilona, orifona maqsad bo'ladi. Shuning uchun ham u o'z ijod namunalariga hikmat nomini bergan. Ahmad Yassaviy hikmatlari asosan diniy-tasavvufiy manzumalar bo'lib, X asrdan e'tiboran "Hikmat" deb atalgani haqidagi ba'zi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan manbalar mavjud.

Bizning adabiyotshunos olimlarimiz aytishicha, Yassaviyning o'zi "Devoni hikmat" nomi bilan kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning shogirdlari tomonidan tartib berib tayyorlangan. Biroq, bu fikr Yassaviy ijodiga hech qanday soya sololmaydi. Unda ilohiy ishq va oshiqlik, ma'rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari juda go'zal tarzda samimiy va ta'sirli ohanglar va ranglarda yoritilgan. Ayni paytda Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari

she'riy didaktik asar bo'lib, unda muallif o'z fikrini she'riy yo'l bilan o'quvchining qalbiga rangin ohanglar orqali yetkazib beradi.

*Muhabbatning daryosig'a o'zum ottim,
Rahmat suyi – ulug' daryo cho'mub bottim.
Ming oltunliq qiymatimni birga sottim,
Banda bo'lub tegdi qulluq yo'li mango.
Kichiklikda qilg'on ishdin emdi yondim,
Tavba to'nin kiydim, tavfiq qurin tongdim.
Nafs qofini markab qilib, tepib mindim,
Ondin tegdi tariqatni yo'li mango. [Yassaviy 2020:284.]*

Yassaviy muhabbatning daryosig'a o'zim ottim deya nazarda tutgani ilohiy ishq iztirobining nahri edi. Bunda shoir daryoga g'arq bo'lib o'lim topishi emas, aksincha, "Rahmat suviga" cho'milib ulug'lik, poklik va haqqa erishmoq sari intiladi. Yana o'zini naqadar bebaho hayotini ming oltindan ham qimmatliroq bo'lgan borlig'ini, qadrini, borini birga sotgani ya'ni bergani, evaziga esa banda bo'lgani, qullik yo'lini olganini e'tirof etadi.

Ahmad Yassaviy ijodining jahoniy e'tirofi. Ahmad Yassaviy yassaviyona yo'li va uslubi bilan turkiy xalqlar orasida ilk marotaba yangi tariqatga asos solgan mashhur shayx bo'ldi. Bu tariqat– yo'nalish e'tibori bilan turkiy tasavvuf yo'li edi. Ahmad Yassaviy o'zbek tasavvuf she'riyatini boshlab bergan mutasavvuf shoirdir. Ahmad Yassaviy hikmatlari xalqchil, sodda, ravon va yod olinishi oson bo'lgan she'rlar bo'lib, asrlar mobaynida turkiy xalqlar ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida muhim o'rin tutib kelganligi hech kimga sir emas.

Ushbu jihatlar tufayli, yirik yassaviyshunos olim F.Kuprulizoda "Devoni hikmat" asarini xalq og'zaki ijodi bilan diniy-tasavvufiy ruhni hamohang ifodalagan ilk asar hamda turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimiy va eng sara obidasi ekanini ta'kidlaydi. Yassaviy ijodi taqiqlangan sho'ro zamonlarida xalqimiz nazaridan chetda qolmaganligining asosiy sababi ham mana shunda edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin Ahmad Yassaviyning hayoti, tariqati va she'riyatiga doir bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning turkiy she'riyat taraqqiyotidagi xizmatlari hali to'la ko'rsatib berilganicha yo'q. Bu faqat o'zbek olimlari tomonidan hal qilinadigan ish bo'lmasdan, uni turkiy tilli xalqlarning olimlari hamkorlikda amalga oshirmoqlari lozim bo'ladi. Bu borada yana shuni ham e'tirof etishimiz joizki, Yassaviy hazratlari sevimli turkiy xalqlar shoiri Yunus Emroning ulug' salaflaridan ekanini unutmasligimiz lozim. Zotan, Yassaviy ijodidan tasirlangan Yunus Emro she'rlarida ham diniy-falsafiy ruh kuchayadi. U o'zining ko'ngil pokligi, ilohga oshiqlik kabi holatlarida dunyoviy va falsafiy fikrlarini juda yuqori pardalarda kuylay oladi.

Yunus Emro ijodida izdoshlik adabiy an'analari. Buyuk diniy-tasavvufiy shoir Ahmad Yassaviyni jahoniy e'tirofi XIII asrga kelib, ulug' turk mutasavvif shoiri Yunus Emro tomonidan o'z isbotini topdi. Uning go'zal badiiyat uyg'unligida yaratilgan irfoniy mazmundagi nodir she'rlari buni namoyon etib, "Rislatu-n-nus'hiyya" nomli falsafiy-didaktik asari dunyo yuzini ko'rdi. Ushbu asar inson va uning kamoloti, e'tiqodi, ma'rifati, Yaratgan haqiqati mavzularini qamrab olgan edi.

"Yunus Emro nazmiy asarlarini tahlil etish natijalari ularda "Turkiston mulkining shayxul-mashoyixi" (hazrat Alisher Navoiy ta'rifi – N.J.) Xoja Ahmad Yassaviy an'analari munosib davom ettirilganidan dalolat beradi. Ulug' shoirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev so'zboshisi bilan, atoqli olim va shoir Mirzo Kenjabek tarjimai asosida nashr etilgan

“O‘lmas ko‘ngul” saylanma she‘rlar to‘plamidagi hikmatlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari mazkur nashrga yozilgan so‘zboshida mana bunday ahamiyatli fikrlarni aytgan: “...hazrat Yassaviy izdoshlarining, jumladan, Yunus Emroning turkiy xalqlar ma‘naviyatiga ko‘rsatgan hayotbaxsh ta‘sirini o‘rganish borasida olimlarimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi va biz bu yo‘lda faol hamkorlik qilishimiz zarur”. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”idagi she‘rlarni Yunus Emro nazmiy asarlari bilan qiyosiy o‘rganish, an‘ana va yangilik, izdoshlik va badiiy takomil nuqtai nazaridan ilmiy baholash turkiy xalqlar adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb ilmiy muammolardandir.”

Bizningcha, ikkala shoir ijodining ruhan yaqinligi, g‘oyaviy maqsadlar ifodasining uyg‘unligi ular ijodining yoritilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, Ahmad Yassaviy she‘rlarida qalamga olingan qator so‘zlar Yunus Emro ijodida ham qo‘llanadi. Masalan, Ahmad Yassaviy she‘rlarida:

*Tavba qilib, Haqqa yong‘on oshiqlarg‘a
Ujmoh ichra to‘rt arig‘da sharbat bor.*

Yoki, Yunus Emro ijodida:

*Āşik mi diyem ben ana Tanri’nun Uçmagin seve
Uçmak dahi tuzadimiş mü‘min cānlarin tutmaga.*

Har ikkala parchada ham Haq-Tangri, yoki Ujmoh-Ucmag so‘zlari til, uslub va ma‘no jihatidan ham bir xilda qo‘llangan. Bunday qiyosiy tahlillar ikkala shoir ijodidagi adabiy izdoshlik an‘analarini dalillashga xizmat qiladi.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida bu holat yana shunday kuzatiladi:

*Do‘st tilagan ul bo‘stonda qaror qilmas,
Haqiqatlik oshiqlari ishqsiz bo‘lmas.
Ko‘ngul mulkin bersa anga ko‘zga ilmas,
Taqvo qilur ichar nabot sharbatinda. [Nurboy Jabborov 2021:118.]*

Yuqoridagi hikmatda Ahmad Yassaviy Tangriga murojaat qilar ekan, uni o‘ziga do‘st tutadi. Unga yetishishga intiladi. Shu do‘stlikka atalgan ilohiy ishq, oshiqligi, ko‘ngil mulki, Haqqa qancha intilmasin uning jamoliga yetolmaslik, biroq bu yo‘ldan qaytmaslik, taqvo qilish, bu yo‘l iztirobi, qanchalik og‘ir bo‘lmasin novvot sharbat kabi totli, rohatli ekani ifodalanadi.

*Mening tilim qush tilidur,
mening qo‘lim Do‘st qo‘lidur,
Men bulbulman, Do‘st gulimdur,
biling, gulim so‘lmas mening.
Ul Do‘st menga kelsin demish,
sundim qadah, olsin demish,
Oldim qadah, ichdim sharob,
endi ko‘nglim o‘lmas mening! [Nurboy Jabborov 2021:118]*

Yunus Emro ham o‘z she‘rida ko‘nglini butunlay Do‘stga bag‘ishlashini e‘tirof etadi. Tili qush tili ekani, qo‘li do‘st qo‘li ekani, o‘zi bulbul bo‘lib, Do‘sti hech qachon so‘lmas gul ekanligini ta‘riflaydi. Ul Do‘stni chorlagani, unga ishq sharobini sunganini, ul sharobni ichgani, ul sharob mangu oshiqlik, mangu hayot sharobi ekanini, “endi ko‘nglim o‘lmas meni” satri orqali ifodalab beradi. Har ikkala holatda ham shoirlarning ruhan bir-biriga yaqin bo‘lgan bunday qarashlari ular ijodida diniy-tasavvufiy ma‘noni kuchaytirib beradi. Bunday qiyoslar Ahmad Yassaviy hamda Yunus Emro ijodi uyg‘unligi haqida hali qator tadqiqotlar olib borish ishlariga xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari hamda Yunus Emro ijodida ilgari surilgan omil inson

kamoloti g'oyalari bugungi kunda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular ijodini keng miqyosda o'rganish, avlodlar istiqboli uchun zarur bo'lgan odob-axloq, insof-diyonat, sabru-qanoat, imon-e'tiqod masalalaridagi muammolar yechimidir.

Yuqorida tilga olganimiz ustoz shoirlar ijodidagi komil inson, ma'naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo'ygan komil insonlar bo'ladi. Bugun ham faqatgina moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg'iz o'zini o'ylab yashayotgan, atrofdagilarga loqayd qaraydigan xudbin faqat o'zinigina sevadigan insonlar bor. Bugun ular ulug' ajdodlarimizning tarbiyasiga, har doimgidanda ko'proq muhtojdir. Avlodlar komillik g'oyalarini zamonaviy dunyoqarashdan ajratmagan tarzda tushunib yetsalargina ko'zlangan maqsadlariga erishishlariga amin bo'lamiz.

Komillikning bu qoidalari Ibn Sinoning "Donishnoma" asarida, Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlarida to'liq ifodalangan. Izdoshlik borasidagi tarbiya jarayonida o'tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to'g'ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni yuksaltirish, balki, zamon bilan uyg'unlashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axir inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik, adolat, do'stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, imon, e'tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizning asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko'zga yaqqol tashlanishi tabiiydir.

Ta'lim jarayonida tarbiyaviy xususiyatga ega, Inson tafakkurining mahsuli sifatida izdoshlik an'alariga asosan dunyoga kelgan badiiy didaktik asarlar qatoridan o'rin olgan hikmatlar va hikoyatlar mazmunining ham xizmati katta. Jumladan bunga misol qilib Hazrat Ahmad Yassaviy hikmatlari, Yunus Emro she'rlaridan keltirdik. Garchi bu durdona asarlar sirasiga qator taniqli ajdodlarimizning mashhur asarlarini kiritgan bo'lsakda, hozir maqsadimiz yuqoridagi ikki shoirimizning tarbiya masalasida qoldirgan meroslari haqidadir. Har ikki shoirimiz ham diniy tasavvufiy yo'nalishda aytgan so'zlari biz uchun abadul-abad dasturil amal sifatida xizmat qiladi. Yassaviy hazratlarining ilohiy ishq, dunyo va oxirat tushunchalari halollik, poklik, diniy qonun-qoidalar, odob-axloq tamoyillariga chorlasa, Yunus Emroning ilohiy ishq o'z uslub va so'zlari bilan insoniyatni vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, sevgi-sadoqat, oliyjanoblik, ezgu fazilatlar sohibi bo'lishga undaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim bo'lgan jarayondir. Albatta bu o'ta muhim va zarur hamdir. Shuning uchun ham bu tushuncha didaktik asarlarni o'rganish jarayonida odatiy holday ko'zga tashlanadi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini didaktik asarlarga qarata olishi ham muhim jarayon hisoblanadi. Qiziqarli va ibratli bo'lgan pand-nasihatnoma asarlar qator sanab o'tiladi, uning oqibatlari bilan bir qatorda sabab hamda voqealari ham inobatga olinadi. Pedagog o'qituvchi bunday asarlarni tushuntirishda keltirilgan pand-nasihatlarni real voqelik bilan bog'lay olishi yoki o'quvchilarga bajariladigan vazifa tariqasida berib, ularni bajarishga undashi lozim bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan asarlarda nasihatlar voqelik bilan bog'lanadi. Ammo o'quvchi buni ko'z oldida yorqin gavdalanitira bilishi uchun aynan uning hayotiga daxldor voqea-hodisa bilan o'qituvchi tomonidan tushuncha berilishi, o'quvchining o'zi ham real voqelik bilan bog'lay olishi asarni to'la his qilishiga ko'maklashadi. Shuningdek, o'quvchining hayratini oshirishi lozim bo'ladi. Ular bir necha asrlar oldin yashab o'tgan

bobolarimiz, hozirgi hayotni ham ko'ra bilgan ekanlar deyishadi va asarga bo'lgan mehri boshqacha tovlanadi.

Yoshlarni ta'lim jarayonida didaktik asarlar mohiyatini chuqurroq anglashlari uchun qilayotgan mehnatlarimizning boisi biz hammani yaxshilar qatorida bo'lishini xohlashimizdir. Negaki yaxshilar barcha ezgu xislatlarga ega bo'lgan odamlikka xos odamlar bo'ladi.

Ta'limda izdoshlik ta'sirida vujudga kelgan asarlar tahlilining tarbiyaviy ahamiyati ta'lim jarayonini faollashtiruvchi pedagogik usullar orasida alohida o'rin egallaydigan ta'limiy munosabat bo'lib, u o'zida maqsadga yo'naltirilgan mutaxassislikning kasbiy faoliyatini qamrab oladigan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro bog'liqlikni tashkil qiladi. Bunda biz bunday asarlar tahlilining ta'lim jarayonida tarbiyaviy ahamiyati nechog'li yuksak ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'quvchi o'z istagi bilan bunday asarlar manbaini o'zlashtira boshlaydi.

Bunday asarlar tahlil o'qitish va uning mazmunini o'rgatish qonuniyatlarini aniqlaydigan ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, asarlarning alohida jihatlari, ezgu tushuncha va tamoyillari maqsadga xizmat qilish, natijaga erishish yo'lida nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Bu borada ilmiy adabiyotlar hamda Qur'on va Hadislarning ham o'rni beqiyos. Asrlar mobaynida ajdodlarimiz qoldirgan meros, adabiy bilimlar manbai, avlodlar ta'lim-tarbiyasi borasida beqiyos xazina sifatida ravshan mayoq vazifasini o'tab kelmoqda.

Badiiy voqeylikni o'zlashtirish jarayonida inson idroki yuqori darajadagi tushuncha vazifasini bajarar ekan, biz bunda yana bir karra didaktik asarlar tahlili hamda tadqiqiga to'xtalishimizda izdoshlik adabiy an'alarini o'rganishimizga to'g'ri keladi. Zero hamisha pand-nasihat mazmunidagi didaktik asarlar va ularni yaratishdagi izdoshlik an'analari insoniyatni, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlab kelishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. (Yangi topilgan namunalar). –Toshkent, 2005.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o'taro. – Toshkent. Ma'rifat nashriyoti, 2020. B.400.
3. Tatci, Mustafa. Yunus Emre divani. – Istanbul, 2021.
4. Xoja Ahmad Yassaviy. "Haqdin o'zgani dema...". Hikmatlar (Nashrga tayyorlovchilar Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan). – Anqara, 2021.
5. Yunus Emro. O'lmas ko'ngil. Saylanma she'rlar (Tarjimon: Mirzo Kenjabek). – Toshkent, 2020.
6. Nurboy Jabborov. Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlarida adabiy ta'sir va izdoshlik. (Maqola) Anjuman-Boku. B.119-125.

Sayidahmad Vasliy Samarqandiy qalamida Ahmad Yassaviy ta'rifi

Muxitdinova Badia Muslixiddinovna,
Samarqand davlat universiteti professori,
E-mail: badeamuhitdinova@gmail.com

Annotatsiya: Vasliy Samarqandiy ijodida irfoniy g'oyalar, ishqiy, diniy-irfoniy mavzudagi g'azallari va didaktik-axloqiy mavzudagi poetik asarlarida ham aks etgan. Uning turkiy "Tuhfat ul-ahbob" devonida diniy-irfoniy mavzular yetakchilik qilar ekan, ular barcha janrlardagi asarlar – g'azal, muxammas, musaddas, musamman, qasida va ruboiylarda badiiy talqin etilgan. Bu g'oyalarning aks etishida Ahmad Yassaviy va boshqa ulug' zotlarning ta'siri yuqori bo'lgan. Ushbu maqolada Vasliy Samarqandiy yirik mutasavvif Xoja Ahmad Yassaviy sha'niga ham madh bag'ishlaganligi, muborak oltin zanjirning yirik halqalaridan biri bo'lganligi uchun o'z ehtiromi va muhabbatini ifoda etganligi haqida fikr yuritiladi hamda asarlarida uning "Hikmat"lar devonini malakutlar olamining tasbehiga qiyoslaganligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *irfoniy g'oyalar, ishqiy, didaktik-axloqiy mavzudagi g'azallar, yirik mutasavvuf, oltin zanjirning yirik halqa, "Hikmat"lar devoni, malakutlar olami*

The definition of Ahmad Yassaviy in Sayidahmad Vasliy Samarkandiy's works

Annotation: In Vasliy Samarkandiy's works religious ideas reflect both religious-romantic ideas, as well as ghazals on religious-romantic and poetic works on didactic-moral subjects. When in his Turkish divan, "Tuhfat ul-ahbob" religious-romantic themes leading, they are artistically explained with all of genres in works-ghazals, muhammas, musaddas, musamman, ode and rubaiyats. Ahmad Yassaviy and other great poets greatly influenced the development of these ideas. This article examines the fact that Vasliy Samarkandiy also paid tribute to the great perfect thinker Khuja Ahmad Yassaviy, expressing his respect and love for one of the great rings of the blessed golden chain, and analyzing how he compared in his divan, "Hikmat" (wisdom) to the rosary of the divine world in his writings.

Key words: *religious-romantic ideas, ghazals on romantic, didactic-moral theme, great perfect thinker, a major ring of the golden chain, "Hikmatlar" (Wisdom) divan, divine world*

XX asrning ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlaridan biri, zullisonayn adib Saidahmad Vasliy Samarqandiy g'azaliyotida ishqiy mavzudagi g'azallar katta qismni tashkil etadi. Uning lirikasida Go'zallik, Komillik, Ruh, Axloq, Din, Falsafa, Ma'rifat va Haqiqat kabi tushunchalar salmoqli o'rin egallaydi. Har bir bayt ezgulik va to'g'rilikka, alal oqibat ma'rifat va haqiqatga xizmat qiladi. Zero, shoirning birdan-bir niyati gunohlarga tavba qiluvchi, barcha amallarini vijdonan bajaruvchi, suyumli bandasi maqomiga ko'tarilishdir. Vasliy ijodining bosh missiyasi esa o'quvchini ma'rifat sari yetaklamoqdir. Shunday ekan, ishqiy mavzudagi she'rlarni to'g'ridan to'g'ri tushunish va talqin etish xato bo'ladi. Agar devondagi she'rlarni diqqat bilan kuzatsak, Yorga ham, Allohga ham nisbatan qo'llangan ba'zi tashbehlar, tasvirlar, murojaatlar, tazarrular orasida o'xshashlikni, takrorlarni ko'ramiz. Bu esa shoirning mumtoz adabiyotdagi tasavvufiy an'analar bilan uzviy bog'liq ekani, an'analarning davomchisi bo'lganini, o'z ma'naviy ildizlaridan uzilmaganini ko'rsatadi.

Vasliy Samarqandiy hayoti va faoliyatiga diqqat qaratsak, u ijod bilan birga ham pedagog sifatida madrasalarda dars bergan. Vasliy ijodida ilm egasi bo'lishga, ta'lim olishga targ'ib kuchli edi. Uning asarlari konsepsiyasida diniy-irfoniy g'oyalar orqali insonni ma'rifatga chorlash

maslagi yotadi. Ma'rifat va haqiqatning badiiy-tasavvufiy talqinlari Vasliy she'riyatining asosiy o'q ildizidir.

“Tuhfat ul-ahbob” devonidan o‘rin olgan g‘azal, muxammas, musaddas, musamman va ruboiylarda Islom diniga muvofiq halollik va ezgulik g‘oyalari tarannum etilgan. Devonning hamd va na‘t bilan boshlanishi shoirning diniy-irfoniy qarashlari yuksak bo‘lganining bir isbotidir. Devonda ishqiy mavzudagi g‘azallardan keyin miqdor jihatidan diniy-irfoniy mavzudagi g‘azallar turadi.

Devondan o‘rin olgan g‘azallar ichida bag‘ishlov-yodnoma xarakteridagi g‘azallar ham salmoqli o‘rin egallaydi. “Naqshband”, “Bir butega bo‘ldum oshiq...” (Furqat yodga olingan), “Muvashshah – Solehjon”, “Ba‘ze kirom-ul-mashoyix madhi”, “Fi madhis suluk val murshid”, “Yo Hafiz” (munojot ba dargohi Qoziyul hojat), “Dar madhi Shohi Zinda(ning) Qusam ibn Abbos raziyollohu anhumo”, “Sulton ul-orifin”, “Xoja Ahrori Valiy” g‘azallari shu tipdagi asarlar sirasiga kiradi. Ularda shoir o‘zi ixlos qo‘ygan, havas qilgan, e‘zozlagan insonlariga murojaat qiladi, ularni alqaydi, ezgu sifatlarini madh etadi.

Irfoniy g‘oyalar Vasliyning ishqiy, diniy-irfoniy mavzudagi g‘azallari va didaktik-axloqiy mavzudagi poetik asarlarida ham aks etgan. Bag‘ishlov-yodnoma xarakteridagi lirik asarlari ham asosan irfoniy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan. Misol o‘rnida, Ahmad Yassaviyga bag‘ishlangan g‘azalga diqqat qaratamiz.

*Ko‘nglimdadur muhabbat Sulton-ul-orifin,
Qildim bale ziyorat Sulton-ul-orifin [1; 47].*

Ahmad Yassaviy “Sulton ul-orifin”, ya‘ni “Oriflar sultoni” deb ulug‘langan. Alisher Navoiy Yassaviy haqida bunday yozadi: “Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va as‘hob g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish” [2; 200].

Ahmad Yassaviy tasavvufning yetuk namoyandalaridan biri bo‘lib, “yassaviya” tariqatiga asos solgan. Zero, Yassaviyning asosiy ijodiy merosi “Devoni hikmat”da jamlangan. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning yozishicha, “Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she‘riyatdan ham foydalangan”. Abdurauf Fitratning Yassaviy haqidagi qaydlari ham muhim: “adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she‘rlar bilan barobar”, [3; 36] deya qayd etgan.

Vasliyning o‘zidan salkam 900 yil avval yashab o‘tgan oriflar sultonining ijodiga bo‘lgan ulkan muhabbati, ixlosi va ehtiromi cheksiz bo‘lgan. Bunga “Sulton ul-orifin” radifli g‘azali dalil bo‘la oladi. Vasliy ko‘nglida Yassaviyga chuqur muhabbati borligini, uning qabrini ziyorat qilganini aytadi. Shoirning fikricha, Yassaviy yotgan tuproq “dunyo yuzining ravzasidir”. Uning “Hikmat” lar devonini malakutlar olamining tasbehiga qiyoslaydi.

*Ul Xoja Ahmadi Yassaviy ma‘dani ulum,
Olamg‘a fosh shuhrati Sulton-ul-orifin[1; 47].*

Xoja Ahmad Yassaviyni “olimlarning ma‘dani”dir deya ta‘kidlab, uning shuhrati butun olamga tarqalganini cheksiz faxr-iftixor bilan bayon etadi. Vasliy “Hikmat” kitobiga nisbatan muhabbatini ham ko‘tarinki misralar orqali bildirib o‘tadi. Qayerda “Hikmat” kitobi o‘qulsa, o‘sha joyda “fayz yog‘ilur”, deydi. Sulton ul-orifinning karomati har yerda zohir bo‘ladi deb ul zotni alqaydi.

*“Hikmat” kitobi gulshani as‘hobi ma‘rifat,
Faqr fanog‘a rag‘bat Sulton-ul-orifin[1;47].*

Vasliy “Hikmat” kitobini “ma’rifat as’hobi”, Yassaviyning o’zini “faqru fano”g’a” rag’bat deb ataydi. Ul zot bir umr Haq birligining shavqida mast edi, “Hikmat” kitobi esa Sulton ul-orifinning “vahdat sharobi”dir deydi.

Yo Rab! Bu borgohda qil hojatim ravo!

Bergil murod, hurmati Sulton-ul-orifin [1; 48].

Vasliy lirik asarlariga xos umumiy bir konsepsiya mavjud. Poetik asar dastlab shikoyat, ahvolidan norozilik yoki gina-kudurat ruhida boshlansa ham, yakunda bu Allohdan faqat yaxshilik kutish umidi va iltijoga – duoga aylanadi.

Vasliy cheksiz hurmat va ehtirom bilan Bahouddin Naqshband ruhi pokiga ham bir g’azal bag’ishlagan. 15 baytdan iborat bo’lgan “Sulton ul-orifin” radifli g’azalida Vasliyning Yassaviyga bo’lgan cheksiz havasi ham o’z aksini topgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, Vasliy Xoja Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshbandlarni o’ziga diniy rahnamo deb bilgan, ularning hayotini ibrat bilib, ularday dinga xizmatda yashashga harakat qilgan.

Vasliy Samarqandiy yirik mutasavvuf, piri tariqat Xoja Ahmad Yassaviy sha’niga ham madh bag’ishlaydi. Garchi, shoir yassaviya tariqatining vakili bo’lmasa-da, bu tariqatning o’zi rasman kirgan tariqat-naqshbandiya bilan bir davrda tamal toshlari qo’yilib, yuzaga kelganligi, uning asoschisi esa muborak oltin zanjirning yirik halqalaridan biri bo’lganligi uchun ham o’z ehtiromi va muhabbatini ifoda etadi (ma’lumki, naqshbandiya tariqatining 8 rashhasiga Hazrati Xoja Abduholiq G’ijduvoni (q.s.) tarafidan asos solingan. G’ijduvoni Hazrati Yusuf Hamadoniyni uchunchi, Yassaviy esa to’rtinchi xalifalari bo’lganlar). Ushbu madh ruhidan quyidagicha:

Dar madhi Sulton ul orifin Xoja Ahmad Yassaviy (q.s.)

Ko’nglumdadur muhabbati sulton ul-orifin,

Qildim bale ziyorati Sulton ul-orifin.

Dunyo yuzida ravzasidur Jannat fayz,

Ko’rdim hujjati jannati sulton ul-orifin.

Tasbehi olami malakut oni hikmati,

Ayni futuhi hikmati Sulton ul-orifin [1; 47-6].

Shoir Samarqandda istiqomat qilar ekan, bu yerda dafn etilgan aziz avliyolar ruhiga ham shakarrez qalami vositasi bilan hurmat bajo keltiradi.

“Yo Rab, sango xos erur...”, “Fido”, “Hajnoma”, “Saharda xobi g’aflatdan mani bedor qil...”, “Hadis”, “Muhtoj”, “Fit-tasavvuf”, “Biru Boro, shar’imizga ber...”, “Fin na’t”, “Hikoyati ibrat voya” kabi ko’plab diniy-irfoni mavzudagi g’azallarda Vasliyning din kishisi sifatidagi ma’naviy qiyofasi namoyon bo’ladi. Nomi zikr etilgan g’azallar asosan tavba-tazarru, iltijo, munojot mazmunidadir.

Vasliy Samarqandiyning diniy-irfoni mavzudagi g’azallarini tushunish, ma’nolar xazinasini ochish o’quvchidan diniy bilim talab qiladi. Islom dinidagi tushunchalar, rivoyatlar, payg’ambarlar va shayxlarning hayotidan turli misollar keltirib, ularni shunchaki emas, balki timsol va ramzlar tili bilan poetik ifoda qiladi. Shoir bu foni dunyoning o’tkinchiligini eslatadi, uning kishi ko’ziga jilvalanib ko’ringuvchi saroblariga aldanib qolmaslikka, Haqning imtihonidan yorug’ yuz bilan o’tishga, abadiy farog’at va saodatga yetish yo’lida gunohlardan tiyilish va nafs qutqusiga yengilmaslik ekaniga da’vat qiladi:

Ey ko’ngul, jismi bebaqodin kech,

Istagil Haqni, mosivodin kech.

Qildi rasvo sani havovu havas,

Bulhavas o'lmagil, havodin kech[1;14].

Bebaqo jismni ko'ngil boshqarmog'i lozim. Haqni istamagan ko'ngil bu dunyoning fitnalariga aldanib qolgaydir. Hoy-u havas kishini rasvo qilib, oxir-oqibat zalolatga yetaklaydi. Shoirning bu ogohlantiruv qabilidagi satrlari zamirida chuqur ma'no mujassam.

Vasliy Samarqandiyning diniy-irfoniy mavzudagi lirikasi Haq yo'lga chog'langan, haqiqat va ma'rifat istagida bo'lgan kishini yo'ldan og'maslikka undaydi. Zotan, Vasliyning diniy-irfoniy mazmundagi g'azallari, muxammaslari va musaddaslari ma'rifat yo'lini yorituvchi mayoqqa o'xshaydi. Unga qarab intilish, uning shu'lasidan bahramand bo'lish kishi ko'ngliga bebaho ma'naviy ozuqa ulashadi.

Vasliy Samarqandiyning "Tuhfat ul-ahbob" devonida diniy-irfoniy mavzular yetakchilik qilar ekan, ular barcha janrlardagi asarlar – g'azal, muxammas, musaddas, musamman, qasida va ruboiylarda badiiy talqin etilgan. Bu g'oyalarning aks etishida Ahmad Yassaviy va boshqa ulug' zotlarning ta'siri yuqori bo'lgan. Vasliy bu ziyo ahlining nafaqat ijodiga, balki har bir musulmon uchun sharafligi bo'lgan hayot yo'liga, yashash tarziga va dinu millat uchun xizmatiga havasmand bo'lgani sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Васлий Самарқандий. Тухфатул-аҳбоб. – Тошкент: Порцев матбааси, 1913
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 17-tom. Nasoyim ul-muhabbat. T.: FAN. – 2001.
3. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

Ahmed Yesevî eserleri üzerine Türkiye’de yapılan çalışmalar hakkında

Dr. Ixtiyor Yoqubov

Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü Dr. Öğretim üyesi

E-mail: ixtiyoryoqubov08@gmail.com

Orcid: 0009-0006-7914-725X

Özet: Bu makalede, Türk tasavvufunun öncülerinden biri olan Ahmed Yesevî’nin eserleri üzerine Türkiye’de yapılan akademik çalışmalar ele alınmıştır. Özellikle Divan-ı Hikmet başta olmak üzere Yesevî’ye atfedilen eserlerin neşri, tercümeleri, edebi ve tasavvufi analizleri, doktora ve yüksek lisans tezleri çerçevesinde değerlendirilmektedir. Türkiye’de Ahmed Yesevî’ye olan ilginin özellikle 20. yüzyılın ikinci yarısından itibaren artış gösterdiği ve bu doğrultuda türkoloji araştırmacıların birçok bilimsel araştırmaları yapıldığı gözlemlenmiştir. Çalışmada, Ahmed Yesevî’nin Türk-İslam düşüncesi üzerindeki etkisinin anlaşılmasına katkı sağlayan bu araştırmaların genel bir değerlendirmesi yapılmış, mevcut literatürün güçlü ve eksik yönleri ortaya konmuştur.

Anahtar kelimeler: Ahmed Yesevî, yesevîlik, tasavvuf, eser, kültür, nüsha, yayım, çalışma, makale

Türkiye’de Ahmed Yesevî ve Yesevîlikle ilgili çalışmalar 20. yüzyılların sonlarına doğru dönemlerde başlamıştır. İlk çalışmalar Divân-ı Hikmeti baskıya hazırlayıp okuyucularıyla buluşturmak olmuştur. Böylece Divân-ı Hikmetin ilk baskısı 1299 yılında Şükrü Süleyman Efendi tarafından yapılmıştır [S.Utabekov 2020: s. 58-59]. *Divân-ı belâğat-’unvan-ı Sultânü’l-Arifin Hâce Ahmed-i Yesevi* adıyla yayımlanan bu baskı 139 varak, 278 sayfadan ibarettir. Günümüzde Kayseri Raşit Efendi Kütüphanesinde 25798 no’lu kayıta bulunmaktadır (Karaörs, 1996: 237-238). *Divân-ı Hikmet*, 1909 yılında *Terceme-i Dîvân-ı Ahmed-i Yesevî* adıyla Osmanlı Türkçesine ilk aktarılmış ve çevirinin birinci cildini İstanbul’da Hürriyet Matbaası’nda yayımlamıştır.

Ahmed Yesevî ve Yesevîlik üzerinde yapılan ilk kapsamlı çalışmanın sahibi Mehmed Fuad Köprülü’dür. Yazarın bu konuda 1918 yılında yazdığı *Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar* adlı eseriyle birlikte birkaç makalesi vardır. 1912-1913 yılında Köprülü Ahmed Yesevî’yi ilk kez bilim dünyasına tanıtan *Hoca Ahmed Yesevî, Çağatay ve Osmanlı Edebiyatları Üzerindeki Tesiri* adlı makalesini yayımlar (S.Utabekov 2020: s. 58-59). 1978’de de İslam Ansiklopedisi’nde *Ahmed Yesevi* (ss. 210-215), 1980’de *Türk Edebiyatı Tarihi* adlı eserinin *Tasavvufî Halk Şiirinin Başlangıcı* adlı bölümünde (ss. 192-198) Yesevî’nin Türk edebiyatı ve tasavvuftaki yeri gibi konular ele alınmıştır. Yesevî’yle ilgili çalışmaların birçoğu Kemal Eraslan tarafından yayımlanmıştır. Kemal Eraslan, 1977 yılında Ahmed Yesevî’nin *Fakrnâme*’sini ele alan bir makale yazmıştır. Makale, Yesevî ile ilgili ilk gramer çalışması olarak büyük bir önem taşımaktadır. Metnin dil özelliklerini incelemekle birlikte Türk tasavvufunun ilk kaynaklarından olan *Fakrnâme*’nin transkripsiyonunu ve çevrisini içermesi makalenin değerini daha da artırmaktadır. Kemal Eraslan’ın ikinci çalışması da 1983’te yayımladığı *Ahmed Yesevi Dîvân-ı Hikmet’ten Seçmeler* adlı kitabıdır. Eraslan eserinde Yesevî’nin hayatı, edebî şahsiyeti, hikmetlerinin nüshaları ve tesiri gibi konular üzerinde genel bilgi sunulduktan sonra divandan seçtiği 70 hikmetin çevriyazısını yapmış ve Türkiye Türkçesine aktarmıştır. Yazarın bununla birlikte Ahmed Yesevî’yle ilgili ansiklopedi maddeleri ve eserlerinin nüshaları, dili, muhtevası gibi konuları ele alan birkaç çalışması yayımlanmıştır [K.Eraslan 1989. 159-161]. Bunlarla birlikte Ahmet Kabaklı’nın *Türk Edebiyatı*, Necla Pekolcay ile Selçuk Eraydın’ın *İslâmî Türk Edebiyatı*,

Zeki Velidi Togan'ın *Bugünkü Türkili ve Yakın Tarihi* adlı eserlerinde Ahmed Yesevî'yle ilgili önemli bilgilere yer verilmiştir.

Son dönemlerde Türk dünyasında kültürel ilişkilerin gelişmesiyle Ahmed Yesevî'yle ilgili çalışmaların da arttığı görülmektedir. 1991'den bu yana Türkiye ve Türkiye dışında birçok bilgi şöleni, konferans, panel, bilimsel toplantılar düzenlenmiş ve bu faaliyetlerde sunulan bildiriler kitap olarak basılmıştır. Yesevî ve Yesevîlik hakkında son dönemlerde çeşitli çalışmalar kaleme alınmıştır. Makaleler, bildiriler, telif eserler, tezler yayımlanmıştır. Her sene çeşitli yerlerde *Milletlerarası Hoca Ahmed Yesevî Sempozyumu Bildirileri* ve başka bilimsel toplantılar yapılmaktadır. Kemal Eraslan, Yusuf Azmun, Abdurrahman Güzel, Namık Kemal Zeybek, Hayati Bice gibi birkaç araştırmacının eserleri bu konuda yapılan ciddi çalışmalardandır. Kemal Eraslan, daha önce yayımladığı eserlerini yeni bulgularla genişleterek tekrar yayımlamıştır. 1994'te Yusuf Azmun tarafından *Divân-ı Hikmet*'nin Emel Esin nüshası [Eraslan, 2000. s. 49.] üzerinde bir kapsamlı çalışma yapılmıştır. Bu çalışmada, 101 sayfadan oluşan ve 49 hikmet ve bir münacat bulunan Emel Esin nüshasının Türkmen Türkçesine uyarlanmış bir transkripsiyonu yapılmış, Türkiye Türkçesine aktarmış ve İngilizceye çevirmiştir. Sonunda da nüshanın tıpkıbasımı eklenmiştir.

Son yıllarda Hayati Bice, Ahmed Yesevî ve *Divân-ı Hikmet*'le ilgili çalışmalarıyla dikkat çekmektedir. Yazarın, *Hoca Ahmed Yesevi Divan-ı Hikmet* (2015), *Hoca Ahmed Yesevî Günümüzün Aşk Yolcusuna Dîvân-ı Hikmet* (2016), *Hoca Ahmed Yesevi, Divan-ı Hikmetten Seçmeler* (2016), *Pîr-i Türkistan Hoca Ahmed Yesevî* (2016) vb. kitaplarda ve *Pîr-i Türkistan Hoca Ahmed Yesevî'nin Hayatı, Eseri ve Etkileri* (2014), *Ahmed Yesevî ve Yesevîlik Üzerine Çalışmalar* (2019), vb. makale ve bildirileri, son dönemlerde ortaya çıkan bilgilerden yararlanılarak genişletilmiştir. En önemlisi *Hoca Ahmed Yesevi Divanı Hikmet* (2015) adlı eserinde Türkiye'de yayımlanmamış birçok hikmetin Latin harfleriyle transkripsiyonunu yapmış ve Türkiye Türkçesine aktarmıştır. Sahaya ait bazı ses özellikleri ve standart transkripsiyonun kurallarına uyulmamasına rağmen bu çalışma, F. Köprülü, K. Eraslan çalışmalarından sonraki en önemli eser niteliğindedir. Tasavvufî Türk edebiyatı üzerinde birkaç eseri bulunan Abdurrahman Güzel'in de Ahmed Yesevî hakkında önemli çalışmaları vardır. Bunlardan *Ahmed Yesevî'nin Fakr-nâm e'si Üzerine Bir İnceleme* adlı çalışmasında sadece *Fakr-nâme* değil, Yesevî ve Yesevîlikle ilgili konuları da geniş ölçüde ele almıştır. Şairin hayatı, eserleri, edebî şahsiyeti vb. konularla ilgili genel bilgiler verildikten sonra hikmetler her yönüyle ele alınmış, *Fakr-nâme*'nin muhtevası, tasavvufî adap, makam, mertebe gibi konular üzerinde durulmuştur. Aynı şekilde eser, dil ve üslup, ses ve şekil bilgisi, kelime hazinesi vb. hususlar titizlikle incelenmiştir (2008). Namık Kemal Zeybek'in *Ahmet Yesevi Yolu* (2002), *Allah'a Aşk ile Ulaş* (2015), *Aşk Yolu, Hoca Ahmet Yesevi ve Hikmetleri* (2014) adlı kitapları, buna benzer yazmış olduğu birkaç makale ve bildirisi de büyük mutasavvıfın Türk kültürüne tesiri, İslam'ın yayılmasındaki yeri ve hikmetlerin konularını ele alması bakımından önem teşkil etmektedir.

Aslında, Türkiye'de Kemal Eraslan ile Abdurrahman Güzel'in *Fakr-nâme* üzerinde yayımlanmış oldukları bazı makale ve bildiriler dışında Ahmed Yesevî'nin eserlerinin dili üzerinde ciddi çalışmalar ortaya konulmuş değildir. Bu konuyla ilgili yazılan yazılarda genellikle Kemal Eraslan'ın yaptığı transkripsiyondan yararlanılmıştır. Efrasiyap Gemalmaz'ın 1994 yılında yayımladığı *Ahmedi Yesevi'nin Hikmetlerinin Dili* (1994) adlı makalesi örnek olarak gösterilebilir. Makalede, Kemal Eraslan'ın incelediği nüshadan yararlanılarak hikmetlerin ses ve şekil bilgileri ile ilgili bazı hususları belirtilmeye çalışılmıştır. Ek olarak kelime hazinesi hakkında da bilgi verilmiştir.

Zeki Kaymaz, *Divân-ı Hikmet'te Atasözleri ve Kullanılış Özellikleri* (2018) adlı makalesinde ise Kemal Eraslan, Hayati Bice ve Yusuf Azmun Yesevi hikmetlerin halk arasında yaygınlaşması ve benimsenmesinde atasözlerinin etkisinin yüksek olduğunu vurgulamıştır. Yasin Karadeniz'in *Divân-ı Hikmet'teki Eski Türkçe Unsurlar* adlı makalesinde ise hikmetlerde korunmuş bazı dil unsurları üzerinde durulmuştur. Karadeniz, tespit ettiği örnekleri isim, fiil, edat, zarf olarak kelime türlerine göre ayırmış, eski ve çağdaş lehçelerdeki örnekleri karşılaştırarak kayda değer bir çalışma ortaya koymuştur (2016). Bazı bibliyografik çalışmalarda da 1993'ten 2016'ya kadar Türkiye'de 8 yüksek lisans, 1 doktora, 82 te lif eser, 215 makale ve 326 bildiri hazırlanmıştır (Bozkurt, 2016: 288). Son dört yıl için de ise birçok sempozyum, kongre, konferans düzenlenmiştir. Dolayısıyla günümüze yaklaştıkça yapılan araştırmaların sayısı bakımından daha da arttığı gözlenmektedir. Aynı durum yapılan lisansüstü çalışmalarda da kendini göstermektedir. Daha önce Yüksek öğretim Kurulunun Tez Kataloğunda Dosya Keşfetay'ın 2003 yılında yazdığı Hoca Ahmet Yesevi'nin Düşünce Sistemi adlı doktora tezi bulunurken 2018 ve 2019 yıllarında Ahmet Yesevi ile ilgili daha iki tez kataloğtaki yerini almıştır. Bunlar Necip Fazıl Kurt'a ait Tercüme-i Divan-ı Ahmed-i Yesevi'nin Metin Dilbilim Açısından İncelenmesi (Giriş-Metin Dilbilim İnceleme-Metin-İndeks-Tıpkıbasım) (2018) ve Ayfer Ay'a ait Divan-ı Hikmet'te Manevî Ayet İktibasları (2019) adlı tezlerdir.

Sonuç. Ahmed Yesevî'nin eserleri üzerine Türkiye'de yapılan çalışmalar, hem akademik hem de kültürel açıdan önemli bir birikim oluşturmıştır. Bu çalışmalar, Yesevî'nin tasavvufi mirasını ve Türk-İslam düşüncesine katkılarını derinlemesine inceleyerek, onun etkilerini günümüze taşımaktadır. Özellikle Divân-ı Hikmet üzerine yapılan araştırmalar, metin incelemeleri ve dil analizleri, Yesevî'nin öğretilerinin anlaşılmasına katkı sağlamıştır. Ayrıca, Yesevî'nin Anadolu'daki etkileri ve takipçileri üzerine yapılan sosyolojik ve tarihî çalışmalar, onun düşüncelerinin yayılımını ve etkisini ortaya koymuştur.

Ancak, mevcut literatürde bazı eksiklikler de göze çarpmaktadır. Özellikle Yesevî'nin eserlerinin farklı coğrafyalardaki etkileri ve bu etkilerin karşılaştırmalı analizleri konusunda daha fazla çalışmaya ihtiyaç vardır. Ayrıca, Yesevî'nin öğretilerinin günümüz toplumuna nasıl yansıtılabileceği ve bu öğretilerin modern dünyadaki yeri üzerine yapılacak araştırmalar, onun mirasının daha iyi anlaşılmasına katkı sağlayacaktır. Sonuç olarak, Ahmed Yesevî üzerine Türkiye'de yapılan çalışmalar, onun düşünce dünyasını ve etkilerini anlamada önemli bir temel oluşturmıştır. Ancak, bu alandaki araştırmaların daha da derinleştirilmesi ve genişletilmesi, Yesevî'nin mirasının daha kapsamlı bir şekilde değerlendirilmesine olanak sağlayacaktır.

Kaynakça:

1. Karaörs, Metin (1996). Kayseri'de Bulunan Bir Divan-ı Hikmet Basmısı, Ahmed Yesevi'nin Yayınlanmamış Hikmetleri. Türk Kültürü Araştırmaları. Ankara, s. 212.
2. Divân-ı Hikmet'in Dil İncelemesi - Kökşetav Nüshası - (Metin - Gramer - Dizin). (2020) Doktora Tezi. Türkiye, Muğla, s. 676.
3. Eraslan, Kemal (2000). Ahmed Yesevi Divân-ı Hikmet'ten Seçmeler. Ankara: T. C. Kültür Bakanlığı Yayınları.
4. Akpınar, Bahar (2006). Divân-ı Hikmet ve Etkileri. Türk Edebiyatı Tarihi. I.cilt. Türk Kültür ve Turizm Bakanlığı Ankara, s. 211 -217 .
5. Alper, Ay (2019), Divan-ı Hikmetle Manevî Ayet İktibasları, Sivas Cumhuriyet Üniversitesi Doktora Tezi, Sivas.
6. Aydın, Erhan (1995). Ahmed Yesevî Üzerinde Bir Bibliyografya Denemesi. Bir Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, Yesevi Yayıncılık, Sayı: 3, s. 7-34.
7. Bice, Hayati (2016). Hoca Ahmed Yesevî Günümüzün Aşk Yolcusuna Divân- ı Hikmet. Ankara: Yayınları

Tasavvuf tarixida Yassaviya ta'limotining o'rni

Rasulov Baxtiyor G'ulomovich

tarihçi akademisyen Bõriboy Ahmedov'un da ifade ettiđi üzere, XV-XVI. yüzyılların sosyal-siyasi ve kültürel hayatını aydınlatmada araştırmacılar bu kaynađa başvurmakdadır. Kaynađın çok sayıda el yazması ve hatta Harezmi'de Eski Özbek Türkçesine tercüme edilmiş bir nüshası da Özbekistan Cumhuriyeti Şarkiyat Enstitüsü El Yazmaları Fonu'nda muhafaza edilmektedir. “Reşehat”ta belirtildiđine göre, aslında Andak, Arap tarihçileri tarafından Andak şeklinde yazılmış olup, Buhara'dan 3 fersah mesafede yer alan ve günümüze kadar aynı adla anılan bir köydür. “Andak” kelimesi, Özbek dilinin açıklayıcı ve etimolojik sözlüklerinde “biraz, azıcık, pek az, küçücük” gibi anlamlara gelmektedir [3: <https://izoh.uz/word/andak>: 2004]. Andakî, âlimin nisbesi (dođduđu yere işaret) olup, köyün adından alınmıştır. Bu toponim ise cođrafî konumdan kaynaklanmış olmalıdır. Hoca Hasan, meşhur fakih Ebülkerim ibn Hanife Andakî'nin torunuydu. Andakî, 1158 yılında Ramazan ayının sonlarında vefat etmiş ve Semerkant'ın Andaksoy köyünde defnedilmiştir. Zamanla kabri bir ziyaretgâha dönüşmüştür. Yerel halk tarafından türbenin yeniden inşası, onun mirasına duyulan saygıyı göstermektedir [1: Ali Sofiy, 2003, 14]. “Reşehat”ta ise hicri 552 (miladi: 1057) yılında, Ramazan ayının 27. günü vefat eden Hasan Andakî'nin mübarek kabrinin Buhara'nın dışındaki Şeyh Ebubekir Kalabadi'nin türbesinde, Şeyh'in kabrinin dođu tarafında yer aldığı [1: Ali Sofiy, 2003, 14] bilgisi verilmektedir. Bu yer, günümüzdeki Navoi vilayeti Kızıltepe ilçesi Toşrabot mahallesi Hoca Hasan köyündeki mezarlık olarak kabul edilmektedir [2: Hasaniy, Razzoqova; 2021]. “Tezkire-i Nakşibendiye” eserinin müellifi Tahir İşan Harezmî'nin ifadesine göre, Hoca Hasan Andakî, Berkî'nin kabrinin arka tarafındadır. Hâlâ iki kabir bir yerde bitişik gibidir. Ve iki kardeşi de hemen hemen aynı yerde medfundur [2: Hasaniy, Razzoqova; 2021]. Bu bilgi, başka bir kaynakla da desteklenmektedir. “Kızıltepe Kadimiyetinden Levhalar” adlı araştırmada, günümüzdeki Navoi vilayeti Kızıltepe ilçesi Toşravot çiftliği Hoca Hasan mahallesinde Andak köyü ve burada bulunan kadim “Hoca Hasan Andakî” mezarlığı bulunmaktadır [5: Mirzaahmedov, Odilov; 2002, 44]. Burada, Hâcegân tarikatı pirleriyle birlikte anılan âlimin adını taşıyan bir kabir de mevcut olup, belirtilen kaynaklardaki bilgilerin doğruluđunu teyit etmektedir. Konuyla doğrudan ilgili olmasa da belirtmek gerekir ki, Katta-Kurgan ilçesindeki Andaksoy toponimi de tesadüf değildir. Buna “göç eden isimler” olarak bakmamız gerekmektedir. Yani, bir noktadaki halk başka bir noktaya göç ettiğinde kendi adını “taşımıştır”. Tarihte bu tür olayların çokça yaşandığı, toponimik kaynaklarda sıklıkla kaydedilen bir gerçektir.

1.2. Eğitimi. Andakî, ilk eğitimini Buhara'nın tanınmış âlimlerinden biri olan Ebu Muhammed Abdülaziz Halvai (Şemsü'l-Eimme) yanında fıkıh ve hadis ilimleri üzerine almıştır. VIII-XII. yüzyıllarda yaşamış olan Özbekistanlı âlimlerin hayatlarına dair bilgiler içeren Abdülkerim Sem'ani'nin “Nesebnâme” (el-Ensâb) adlı eserinde şu ifadeler yer almaktadır: Ebü'l-Muzaffer Abdülkerim ibn Ebi Hanife el-Andakî imam, fazıl, zâhid ve takva sahibi bir zat olup, tevazuu ve güzel ahlakıyla tanınmıştır. “Şemsü'l-Eimme” (imamların güneşi) Ebu Muhammed Abdülaziz el-Halvai'den fıkıh ve hadis ilimlerini tahsil etmiştir. Hicri 400 (miladi 1010) yılında doğmuş ve hicri 481 (miladi 1089) yılının Şaban ayında vefat etmiştir. Torunları Ebu Muhammed Hasan ibn Hüseyin el-Andakî ise kendi döneminin tarikat ve tasavvuf ilmi şeyhlerindendi. Bu kişi ömrünü müritler yetiştirmekle geçirmiştir [6: *Es-Sem'ani*; 2017, 10-11]. “İmamların Güneşi” (Şemsü'l-Eimme) Ebü'l-Muzaffer Abdülkerim ibn Ebi Hanife el-Andakî, Hoca Hasan Andakî'nin dedesi olup, ilmi, zühdü, mütevazı ahlakı ve güzel siretiyle tanınmış şahsiyetlerden biriydi. İlk eğitimini ailesinde alan âlim, köyünden 3 fersah uzaklıktaki Buhara'da medresede öğrenimine devam etmiştir. Andakî medresede öğrenim gördüğü sıralarda, İslam felsefesinin yetkin temsilcisi,

Hâcegân tarikatının kurucusu, büyük manevi pîr Yusuf Hemedanî Buhara'ya gelmiştir. Kaderin bu büyük lütfuyla Hemedanî ile tanışmış ve onun yanında tahsil görmeye başlamıştır.

1.3. Dinî ve Felsefî Tesiri. Söz konusu âlim, kendi döneminin tarikat ve tasavvuf ilmi önderlerindendi. Tüm ömrünü ilim tahsiline ve müritlerini eğitip yetiştirmeye adanmıştır. Peygamberimiz Muhammed aleyhisselamın sünnetlerine titizlikle riayet ederdi. İnsanları Allah'a ibadet etmeye ve riyazatı gerekli görmeye davet ederdi. Andakî'nin öğretisi ve dini-manevi yolu, üstadı Yusuf Hemedanî ile sıkı bir ilişki içerisindeydi. Yusuf Hemedanî'nin en üst düzeydeki öğrencisi olarak kabul edilen Andakî, onun ikinci halifesi olup, tarikatın yönetiminde önemli bir konuma sahipti. Hemedanî ile birlikte Harezmi ve Bağdat gibi bölgelere seyahatler yaparak, tasavvufi düşüncelerin yayılmasında aktif rol almıştır. Hasan Andakî, Hâcegân tarikatının prensiplerinin şekillenmesinde ve yayılmasında büyük katkılar sunmuştur. Onun öğretileri, Sünnet'e kesin bağlılığı, manevi disiplini ve ahlaki temizliği teşvik etmiştir. Kısa süreli bir çile çekerek tarikat yolunda mertebesi yükselir. Tamamen bu işle meşgul olup, kendi ailesini bile unuttur. Bundan haberdar olan pîri Hemedanî, "Sen dervişsin, ancak ailen de var. Riyazata aşırı derecede dalıp, kendi aileni unutup, onları muhtaç duruma düşürmek, akıllı bir insanın işi değildir. Bu yaptığın ne akla ne de şeriata uygundur," diyerek onu uyarır. Bu konuda "Reşehat"ta şu ifadeler yer almaktadır: Andakî, üstadına cevaben, "Benim halim riyazat ve ibadet etmeye yeterli, başka bir şeye yetmez," der. Verilen cevaba öfkelenen üstadı Andakî'yi azarlar. Akşam rüyasına Hak Teâlâ girer ve "Ey Yusuf, sana akıl verdim ve Hasan'a büyük bir akıl ve gönül verdim," der. Bundan bir sonuç çıkaran âlim, Andakî'yi son derece değerli görür ve onun dünyevi işlerine karışmaz, o tüm ömrünü tarikat yoluna, ilim öğrenmeye ve onu yaymaya adanır. Bu durum, Hoca Hasan Andakî ile birlikte çıktığı seyahatlerden ve onun halinden de anlaşılabilir. Yukarıda bahsedilen kaynaktaki belirtildiğine göre, Hoca Yusuf, Andakî ile birlikte Harezmi ve Bağdat şehirlerinde seyahatlerde bulunmuş, ilim ve irfan yolunu teşvik etmiş ve vasiyetinde, "Beni Hoca Abdullah Berkî yıkasın, Hoca Hasan Andakî defnetsin," diyerek Andakî'ye büyük bir lütufta bulunmuştur. Buradan çıkarılabilecek sonuç, Hemedanî'nin Andakî'ye büyük bir saygı duyduğudur.

1.4. Sosyo-Kültürel Tesiri. Abdülkerim Sem'ani'nin "Nesebnâme" (el-Ensâb) adlı eserinde belirtildiğine göre *Andakî, Muhammed aleyhisselamın sünnetlerine ve edep kurallarına âlim ve amil idi. İnsanları Allah'a ibadet etmeye, ibadeti ve riyazatı gerekli görmeye davet ederdi. Yusuf ibn Eyyub el-Hemedanî'nin özel ve sevilen müritlerinden olup, onunla birlikte Harezmi'e, ardından Bağdat'a gitmiştir. Kendisini ilk kez Merv'de "Şeyh" hankahında, daha sonra Buhara'da gördüm ve ondan birçok rivayet yazdım. Hasan el-Andakî bana son derece saygı gösterirdi. Ben ondan, şeyh Yusuf el-Hemedanî'nin rivayet ettiği hadislerden ders aldım. Hicri 460 (miladi 1069) yılında doğmuş ve hicri 552 (miladi 1158) yılının Ramazan ayının 27. gecesi (Kadir Gecesi) vefat etmiştir* [[6: Es-Sem'ani; 2017, 11]]. Hoca Hasan Andakî'nin etkisi sadece tasavvufi-ruhani alan ve yönelimle sınırlı kalmamış, sosyal ve kültürel hayata da derinlemesine nüfuz etmiştir. O, toplumda ahlaki normları güçlendirmeye, ilme saygıyı artırmaya ve kamusal faaliyetleri teşvik etmeye büyük önem vermiştir. Ahmed Yesevî, Abdullah Berkî, Abdülhalik Gucdüvanî gibi çağdaşlarıyla olan ilişkileri, İslami mirasın zenginleşmesine ve genişlemesine hizmet etmiştir. Andakî, Abdülhalik Gucdüvanî gibi onlarca müridi yetiştirmeye büyük önem vermiştir. Yusuf Hemedanî'nin dini-felsefî okulu ve onun 4 halifesi hakkında birçok kaynaktaki bilgi bulunmaktadır. Örneğin, mutasavvıf şair Ali Şir Nevâî, kendi tasavvuf ehli ve şeyh-meşayihler hakkındaki Türkçe eseri "Nesayimü'l-Muhabbet"nin Ahmed Yesevî'ye ayrılan bölümünde şu kısa notu düşmektedir: *Türkistan mülkünün şeyhülmeşayihidir. Makamı ali ve*

meşhur, kerameti mütevâli ve gayr-ı mahsur imiş. Mürid ve ashabı gayetsiz ve şah ile gedain iradet ve ihlası eşiğinde nihayetsiz imiş. İmam Yusuf Hemedanî kuddise sirruhinun ashabındandır. Hoca Abdülhalik Gucdüvanî kuddise sirruhu ile sohbet etmiştir ve Hoca Abdullah Berki ve Hoca Hasan Andakî rahimehullah ile ki, hem İmam Yusuf Hemedanî rahmetullahi teâlâ aleyhinin müritleridirler, İmam nice yüksek mertebelere erişmişlerdir, musahip olmuşlardır ve zamanın meşayihinden birçok büyük zat onun terbiyesini bulmuşlardır [7: Ali Şir Nevâî; 2023]. Onların başarıları, Andakî'nin ilmi ve ruhi etkisinin kanıtıdır. Ahmed Yesevî ile olan ilişkileri ise tasavvufi hikmetleri derinlemesine anlamada büyük bir etki yaratmıştır. Andakî'nin tarikatta hayati uygulamaya vurgu yapması, toplumda Allah'a hizmet etmeye çağırması, sadeliği ve riyazatı teşvik etmesi önemlidir. Tahir İşan Harezmi'nin verdiği bilgilere göre, onun yaşadığı XVIII. yüzyılda bile Ebu'l-Hasan Andakî ve diğer Hâcegân pîrlerinin manevi etkisi büyüktü ve kabri sürekli ziyaret edilmekteydi. Müellif, kendisinin de 15 yıl arayla iki kez ziyaret ettiğini belirtmektedir. Andakî'nin nitelikleri hakkında yazarken Tahir İşan, "Tezkire-i Nakşibendiye" adlı eserinde bir beyit aktarmaktadır: "Boz az Yusufam ba Andoki // Nisbet omad zi sakiyi baki." Farsça olan bu mısralarda, baki sıfatlı Yusuf'tan Andakî'ye velilik nispetinin geldiği vurgulanmaktadır. Buradan da anlaşılmaktadır ki, Ebu'l-Hasan Andakî üstadı gibi büyük bir veli âlimdi [2: *Hasaniy, Razzoqova*; 2021]. Hasan Andakî hakkında kısa bilgi verilen bir diğer kaynak olan Mevlevi Gulam Server el-Lahuri'nin "Hazinatü'l-Asfiya" (Saf Kalpler Hazinesi) adlı tezkiresinde 2 beyit şiir yer almakta olup, burada âlimin vefat tarihi ebced hesabıyla verilmiştir: "*Çün Hasani muhsin veliyyi ehli Hasan // Ez cihan varzid der cennet vatan. Sali vaslaş "fethi din" uman ayan // Hem rakam şud "arifi abid" Hasan.*" Manası: *İyi insanlardan olan iyiliksever Hasan, dünyadan ayrılıp cennette yer edindi. Vefatının yılı "fethi din" oldu.* Yine "arifi abid" de vefat yılıdır. Ebced hesabına göre "fethi din" ve "arifi abid" şekinden Andakî'nin vefat tarihi 552 (1157) yılı çıkmaktadır. Lahurî'nin bu eseri 1864 yılında yazılmış olup, 1902 yılında yayımlanmıştır. Andakî ve onun yol arkadaşlarının ilim ve irfan yolunda gerçekleştirdiği çalışmaların XIX. yüzyılda da yüksek düzeyde takdir gördüğü, onun etki alanlarının hatta Hindistan diyarına kadar hissedildiği anlaşılmaktadır. Ayrıca, "Tuhfetü'z-Zairin" adlı eserin müellifi Nasîrüddin Buharî, Andakî'yi büyük bir âlim, ârif, keramet ve makam sahibi olarak tanımlamaktadır. 1906 yılında yazılıp tamamlanan bu eser, büyük evliya ve peygamberlerin kabir ziyaretleri, bulundukları yerler ve ziyaret adabı hakkında olup, diğer kitaplar gibi âlimin yol arkadaşlarıyla birlikte anılmaktadır. İncelenen kaynaklarda Andakî ve onun sireti ile ilgili bilgiler, Hâcegân tarikatı yol arkadaşlarıyla birlikte verilmektedir. Onun makamları, Nakşibendiye ve onun devamı olan Yeseviye, Kübreviye, Bektaşîye, Kadiriye gibi irfanî yollar vasıtasıyla tüm Türk-İslam kültür coğrafyasına yayılmış olup, halkların doğru yola yönlendirilmesi, gelecek nesillerin dini-maarifi yolda yetiştirilmesi, insan ve onun değerinin yüceltilmesine odaklanmıştır. Bu hususlar, Türk-İslam edebiyatına, özellikle Ahmed Yesevî'nin hikmetleriyle bütünleşmiş olup, manevi birliğin güçlenmesine hizmet etmiştir. Onun tarikat prensipleri günümüzde de önemini yitirmemiştir. Ebu'l-Hasan Andakî ve Ahmed Yesevî öğretilerinin uyumu modern tasavvufta devam etmektedir.

2. Değerlendirme. Andakî'nin hayatı, ruhani adanmışlık ve ilmi araştırmaların bütünleşmiş bir örneğiydi. Onun Yusuf Hemedanî ve Ahmed Yesevî gibi çağdaşlarıyla olan yakın ilişkileri, sufilik mektebinin şekillenmesini ve toplumu dönüştürmedeki rolünü göstermektedir. O, öğrencilerine eğitim vermek suretiyle yalnızca tarikatın yönelimlerini pekiştirmekle kalmamış, aynı zamanda bu hareketlerin gelecek nesillere ulaşmasını da sağlamıştır. Andakî'nin rehberliğinde Hâcegân tarikatı, dünyevi ve ruhani yükselişin önemli bir hareketi haline gelmiştir.

Ahmed Yesevî ile Andakî'nin ilişkileri ise sufilik düşüncelerinin zenginleşmesine hizmet etmiştir. Bu iki büyük şahsiyetin işbirliği, ruhani ve ahlaki meselelerde geniş kitleleri birleştirmede önemli bir değere sahipti.

Hoca Hasan Andakî ve onun görüşleri, Anadolu'yu da derinlemesine etki etmiştir. Ahmed Yesevî tarikatı aracılığıyla Hacı Bektaş-ı Veli gibi şahsiyetler, tasavvufu geniş kitlelere yaymak ve toplumu manevi açıdan zenginleştirmede aktif rol almışlardır. Andakî'nin Hâcegân tarikatı prensipleri, Anadolu'da sufilik değerlerini geliştirmede önemli bir yer edinmiştir. Özellikle Andakî'nin öğretisi ve Yesevî'nin düşünceleri bütünleşerek, Bektaşilik tarikatının şekillenmesine etki etmiştir. Bu süreçler aracılığıyla Andakî'nin dini ve kültürel mirası, tüm İslam dünyasında derin izler bırakmıştır.

Andakî, yalnızca manevi alanda değil, ilmi alanda da derin bir etki yaratmıştır. Onun öğretileri ve fikirleri, sadece kendi döneminde değil, günümüzde de önemini korumaktadır. Tasavvufun toplumda ruhani ve ahlaki uyumu oluşturmaya olan katkısı, Andakî gibi şahsiyetler aracılığıyla en mükemmel ifadesini bulmuştur. Andakî'nin mirası, onun modern tasavvufî ve ilmi araştırmalar için manevi bir rehber olarak konumu ve önemini ortaya koymaktadır.

Sonuç. Hoca Hasan Andakî'nin tasavvuf ve İslami ilimler sahasındaki katkısı, Orta Çağ İslam dünyasında ruhani ve entelektüel çabaların karşılıklı etkileşimini gözler önüne sermektedir. Onun yaşamı ve eserleri, Yusuf Hemedanî'nin öğretileri temelinde şekillenmiş ve onun takipçileri aracılığıyla devamlılık kazanmıştır. Ahmed Yesevî ile olan ilişkileri ise tasavvufun çeşitli boyutlarını zenginleştirmeye olanak sağlamıştır.

Türbesinin yeniden inşası ve mirasına duyulan saygı, Andakî'nin süregelen önemini işaret etmektedir. Bu şahsiyetin incelenmesi yoluyla yalnızca tarihi İslami kültür değil, aynı zamanda modern tasavvufa dair önemli bilgiler de derinleştirilebilir. Bu nedenle Andakî'nin hayatı, eserleri ve öğretileri hakkında daha kapsamlı araştırmalar yapmak, onun mirasını çağdaş nesiller için daha çok değerli kılmak ve doğru bir şekilde yorumlama imkanı sunmaktadır. Onun yaşamı ve çağdaşlarıyla olan ilişkilerine dair yapılacak ek araştırmalar, o dönemin tarihi ve kültürel dinamiklerini daha derinlemesine anlamayı mümkün kılacaktır. Bu bağlamda Andakî'nin mirasının değeri, yalnızca tarihi değil, manevi açıdan da büyük bir önem arz etmektedir.

Kaynakça:

1. Faxriddin Ali Safiy. (2003). *Rashahat* (s. 13-14). Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
2. Hasaniy, M., & Razzoqova, M. (2021). *Xojagon tariqati va Xo'ja Hasan Andoqi*. Samarqand.
3. izoh.uz. (2024, Aralık 30). *Andak*. Erişim adresi: <https://izoh.uz/word/andak>
4. Ibodov, B. (2024). *Abulhasan Andoqiyning hayot yo'li*. Erişim adresi: <https://www.bukhari.uz/?p=18028&lang=oz>
5. Mirzaaxmedov, J., & Odilov, Sh. (2002). *Qiziltepa qadimiyatidan lavhalar* (s. 44). "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nasriyoti".
6. Es-Sem'ani, Abdülkerim. (2017). *Nesebnâme (el-Ensâb)*. Taşkent.
7. Ali Şir Nevâî. *Nesayimü'l-Muhabbet*. (s.39). Erişim adresi: <https://ziyonet.uz/uploads/books/47828/57ff0e27720.pdf?UCSFXdWUknyit0Uam4xJd>

Ahmad Yassaviy hikmatlarining ma'rifiy-irfoniy tahlili

Otayarova Umida Bolibek qizi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, PhD, dots.v.v.b.

E-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

Annotatsiya: Ahmad Yassaviy nafaqat tasavvuf tarixining yirik vakili, turkiy xalqlar orasida islom ma'rifatini keng yoygan alloma sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning eng mashhur asari – “Devoni hikmat” – diniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy va irfoniy qarashlarning soddalashtirilgan, xalqchilikka asoslangan namunasi hisoblanadi. Ushbu hikmatlar orqali u diniy bilimni keng ommaga tushunarli tilda yetkazdi. Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarining ma'rifiy va irfoniy qatlamlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *so'fiylik, tasavvuf, iymon, hikmat, islomiy aqida, shariat, tariqat, haqiqat, ma'rifat.*

A Spiritual and educational analysis of Ahmad Yassavi's Hikmats

Abstract: Ahmad Yassavi is not only one of the prominent figures in the history of Sufism, but also a great scholar who played a key role in spreading Islamic enlightenment among Turkic peoples. His most famous work, *Devoni Hikmat* (The Book of Wisdom), is a simplified and popularized expression of religious, ethical, spiritual, educational, and mystical concepts. Through these hikmats, he conveyed religious knowledge in a language accessible to the broader public. This article analyzes the educational and spiritual (ma'rifiy and irfoniy) dimensions of Ahmad Yassavi's hikmats.

Keywords: *Sufism, mysticism, faith, wisdom, Islamic belief, Sharia, tariqa, truth, enlightenment.*

Ahmad Yassaviy tasavvuf adabiyotining yirik vakili, yassaviya tariqatining asoschisi hisoblanadi. U hikmatlarini she'riy usulda yaratib, islom ahkomlarini xalq orasida keng yoyilishiga hissa qo'shdi. Avval Arslon Bob, keyinchalik Yusuf Hamadoniy qo'lida arab tili va tasavvufdan tahsil olgan shoir tez orada ma'naviy murshidga aylanadi. Harzat Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bejizga “Turkiston elining shayxul-mashoyixi” deb ta'riflamaydi.

“Devoni hikmat” uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan to'plam bo'lib, unga kiritilgan hikmatlarning mazmun-mohiyati va g'oyalari asrlar o'tsa-da o'z salmog'i va ahamiyatini yo'qotmay keyingi avlodlar uchun muhim dasturilamal bo'lmoqda. Zero Ahmad Yassaviy ma'naviy olami va badiiy tafakkuri hamda Qur'oni Karim oyatlari asosida vujudga kelgan hikmatlar islomiy aqidalarni aks ettiradi.

Yamon so'zdin bu tilimni emdi yig'sam,

Egri yo'lg'a kirgonlarni urub-so'ksam.

Namoz o'qub, riyozatda belim buksam,

Belim bukmay o'lub ketsam, netgum mano? [Ahmad Yassaviy, 2004: 9]

Insoniyat, ya'ni insoniylik uchun muhim hisoblangan yaxshi amal, yaxshi so'z ushbu to'rtlikning ham asl mohiyatini aks ettiradi. Ahmad Yassaviy umr bo'yi ezgu amallaridan ko'ngli to'lmay o'zini gunohkor deb bilgani hikmatlar mazmunidan ko'rinib turadi. Yuqoridagi to'rtlikda ham endi namoz o'qimoqchi bo'lib riyozatga bel bog'lagan lirik qahramon tilga olingan. Garchi mutasavvuf shoir hayotining tub mohiyati ro'za, namoz kabi islomiy amallar bo'lsa-da umr bo'yi

o‘zida qoniqish his qimaydi. Shu bois tavba qilsam, ibodatlarim ko‘payib nafsim yomonliklardan qaytarmikan deb qayg‘uga tushadi:

*Tavba qilsam, piri mug‘on tortormukin?
Kundin-kunga toatlarim ortormukin?
Nafsim mani yomon yo‘ldin qoytormukin,
Qoytormayin o‘lub ketsam, netgum mano?* [Ahmad Yassaviy, 2004: 9]

Ahmad Yassaviy maqtada o‘lmasdan avval tavba qilib, gunohlardan forig‘ bo‘lishga chaqiradi:

*Qul Xoja Ahmad, tavba qilg‘il o‘lmas burun,
Haq taolo so‘ro‘g‘-savol qilmas burun.
Ro‘zi mahshar tarozusin qurmas burun,
Amal qilmay o‘lub ketsam, netgum mano?* [Ahmad Yassaviy, 2004: 10]

So‘z uzoq asrlardan buyon qadrlanib kelgan va uni uqqan kishigagina gapirish lozimligi ta’kidlangan. Hazrat Navoiy esa so‘zni “guhari sharif” deb e’zozlaydi. Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmatida ham so‘zni ma’nosiga tushungan kishiga gapirish lozimligi ta’kidlanadi:

*So‘zni aytgil so‘z qadrig‘a yetgonlarga,
Ixlos bilan so‘zga quloq solg‘onlarga,
So‘zni chaynab mazosig‘a yetgonlarga,
Beixloslar so‘z qadrig‘a yetgoni yo‘q.* [Ahmad Yassaviy, 2004: 20]

Chunki ma’nidan bexabar insonlarga gapirishning foydasi yo‘q. Shu bois dono bilan suhbat qurgan kishigina murodiga yetishi mumkin:

*So‘zga yetmas bexabarga essiz ma‘ni,
So‘zni aytsang, donog‘a ayt, durni koni,
Xizmat qilmay yetgon bormu, bilsang muni,
Xizmat qilmay eranlarga yetgoni yo‘q.* [Ahmad Yassaviy, 2004: 20]

Ahmad Yassaviy fikrlarini davom ettirar ekan Haq visoliga yetishish uchun sahar turib ibodat qilish lozimligini ta’kidlaydi va ilohiy ishq bilan ko‘ngilni poklashga chorlaydi. Zero muhabbat shunday ulug‘ tuyg‘uki, unga muhtalo bo‘lgan kishi yomonlikdan yiroq bo‘ladi.

*Tavbam qabul bo‘lsun desang, sahar yig‘la,
Jondin kechib, moldin kechib, beling bog‘la,
Muhabbatning o‘ti bilan yurak dog‘la,
Mundog‘ bo‘lmay Haqqa vosil bo‘lg‘oni yo‘q.* [Ahmad Yassaviy, 2004: 22]

Mutasavvuf olim tasavvufdagi Shariat, Tariqat, Haqiqat va Ma’rifat yo‘llarini bosib o‘tmagan har qanday so‘fiy murodiga yeta olmasligini she’riy usulda aks ettirib beradi. Inson shariatsiz tariqatga, tariqatsiz haqiqatga, haqiqatsiz ma’rifatga erishib bo‘lmaydi.

*Shariatdin tariqatga qadam qo‘ygon,
Dunyo ishin tark aylabon Haqni suygon.
Haqiqatning asroridin ma‘no olg‘on,
Ma‘rifatni maydonida uryon bo‘lur.* [Ahmad Yassaviy, 2004: 28]

Ahmad Yassaviy she’rlari boy va serma’no. Uning ijod namunalari “Hikmat” deya juda mutanosib nomlangan. Chunki hikmatlarni o‘qigan har qanday kitobxonning ma’naviy olami boyiydi, ko‘nglini ezgulik va xalovat qurshaydi; iymon tuyg‘usi uyg‘onadi.

Ahmad Yassaviy uslubi sodda va ravon. Shu bois XII asrda yaratilgan ijod namunalari vaqt tanlamay doimo o‘z o‘quvchilari va tadqiqotchilarini jalb etib kelmoqda. Hikmatlarning xalqonaligiga sabab xalq uchun yaratilganidadir. Mutasavvuf shoir shu orqali o‘z tariqatini xalq

orasida keng yoya olgan. Turli nasihat-u amri ma'ruflarga nisbatan sodda tilda aytilgan she'rlar xalq ko'nglidan joy olib, ularni ma'rifatga boshlashga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YATI

1. Alimov Sh. Tasavvuf va uning o'ziga xosliklari. Toshkent: TDYMI, 2007, 24-bet.
2. Ahmad Yassaviy. Devoni Hikmat. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1992.
3. Qodirov M. Tasavvuf ilmi va tariqatlar tarixi. Samarqand: SamDU, 2015, 67-bet.
4. Babadjanov B. "Yassaviylik va O'rta Osiyo islomiy tafakkurida uning o'rni". Sharq Yulduzi, 2002, №6, 56-bet.
5. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar) – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
6. Yusupov H. "Ahmad Yassaviy va Yassaviya tariqati". Tafakkur, 2010, №1, 45-bet.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hikmatlarida dunyo mazammati (dunyoni yomonlash) markaziy mavzulardan biri bo'lgan Ahmad Yassaviyning tasavvufiy qarashlari asosida dunyoni aldovli, o'tkinchi, nafsni quvvatlovchi bir sinov maydoni sifatida tasvirlashi, uning "Hikmatlar" asarida dunyoni mazammamat qilish, ya'ni uni tanqid ostiga olish orqali oxiratga tayyorgarlik, tavba va Haqqa intilish zarurligi targ'ib qilinganligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Dunyo, Haq, nafs, jafo, mehnat, tasavvuf, musulmon, farog'at, farovon.*

Annotation: This article discusses the mystical views of Ahmad Yassavi, where one of the central themes in his wisdom is the criticism of the world. It depicts the world as a deceptive, transient space that serves as a trial for nurturing desires. The article highlights how his work "Hikmatlar" criticizes the world to emphasize the need for preparation for the afterlife, repentance, and striving for the Truth.

Keywords: *World, Truth, desires, hardship, labor, mysticism, Muslim, tranquility, prosperity.*

Dunyo – charx mavzusi mumtoz sharq she'riyatida, islomdan oziq olgan tasavvuf adabiyotida keng ishlangan mavzulardan sanaladi. Dunyo masalasiga ikki xil qarash bor: birinchi qarash, Tangri taolo dunyoni inson tufayli bino etgan. Undagi bor ashyo – tajalliy. Odam farzandlari dunyoda o'zlarini topmoq uchun yashaydilar.

Ikkinchi qarash, dunyo zindon. Dunyoga aldanib qolish, unga berilish insoniylikdan chiqaradi. Dunyo hayoti Tangri Taolo qoshida arziyas bir matoh ekanligi borasida ko'plab oyatlar nozil bo'lgan. Payg'ambarimiz (s.a.v)dan ham bu borada ko'plab hadislar rivoyat qilingan. Xususan, Termiziy rivoyat qilgan Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Agar Allohning nazdida dunyo chivinning qanotichalik qimmatga ega bo'lganida, kofirga undan bir ho'plam suv ham bermas edi», dedilar».

Shuning uchun ham Alloh taolo O'ziga kufr keltirgan kofirlarga ham bu dunyo ne'matlarini beraveradi. Agar dunyo Alloh taoloning nazdida biror qimmatga ega bo'lganida, undan kofirga hech narsa bermas edi (Shayx Muhammad Sodiq, 2016, 17-s).¹

Dunyoning Yaratuvchi va Odam bolasi o'rtasidagi to'siq ekani tan olingan holda inson zoti o'zini yaratgan Zotni bilishi, uning mo'jizalarini anglashi uchun dunyoni bilishi zarur. Zero Professor N. Komilov ta'kidlaganlaridek "...tashqi dunyo va undagi narsalar mohiyat emas, balki hodisadir. Mohiyat — ruhi mutlaq yoki orif ko'nglidagi ma'rifat. Ayni vaqtda, moddiy dunyo — shakl, ruh esa — mazmun. Inson hodisa va shakllarga mahliyo bo'lmasligi kerak, uning maqsadi va vazifasi mohiyat-mazmunni bilishga qarab borish. Demak, tasavvufda dunyo Mutlaq ruh bilan inson orasida to'siq deb hisoblansa-da biroq, baribir, dunyoni bilish shart qilib qo'yilgan, dunyoni bilmasdan turib, mohiyatni (haqni) idrok etish mumkin emasligi tan olingan"².

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Зухд ва ҳаё. – Toshkent: HILOL NASHR, 2016 йил, 17-бет

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov-timsollar-timsoli-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>

Shuning uchun tasavvuf ta'limotidagi dunyoni buyuk Yaratuvchidan to'suvchi mavjudlik deb qarash, unga berilib ketmaslik, Allohga yetish uchun undan qutulish kerakligini uqtirish, dunyo uchun g'am chekmaslik motivlari adabiyotga ham ilhom baxsh etgan. Ulug' zotlar dunyoning o'tkinchi ekanligini bilib, unga bog'lanib qolmaslik uchun harakat qilganlar. Chunki dunyo ne'matlari uchun intilish, dunyo ne'matlariga erishmoq uchun yashash insonni alal-oqibat xorlikka olib boradi. Masalan, insonning qorni bir kosa ovqatga to'yadi, bir piyola suv uning tashnaligini qondiradi. Hatto ikki quloq joy uning uxlashi, orom olishi uchun kifoya. Holbuki, biz turfa taomlar bilan dasturxonlar to'ldiramiz, ichimliklarning sarasini olib kelamiz, dam olishimiz uchun shohona o'rinlar orzulaymiz. Maqsadimiz ne'matlarga erishishdan iborat bo'lib qoladi. Shu orzular yo'lida ayrimlarimiz xatolar qilamiz, o'zganing haqini yeymiz, kishilarning noroziligiga uchraymiz. Aslida, halol mehnat va Yaratganning zikri bilan osuda va farovon turmush kechirish mumkin. Rizq g'amida qalbimizni qayg'uga solmasligimiz kerak. Chunki musulmonlar rizq – Allohning ishi deb biladi. Banda esa harakat qilsa, yetarli. Unga atalgan barcha rizqlar oqib kelaveradi.

Ahmad Yassaviy bu masalada atroflicha fikr yuritgan. U o'zining hikmatlarida dunyoning o'tkinchi ekanligini ta'kidlagan. Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarixiy hodisalar, ijtimoiy hayot, davr zulm-u jabrlariga norozilik motivlari bilan birga, tasavvufiy g'oyalar, zuhd va taqvo, zikr va shavq kabi tushunchalar ham kuylanadi. Buyuk so'fiy har bir misrada bir ezgu g'oyani ilgari surar ekan, insoniyatni hamisha yaxshilikka da'vat etadi. Sirdan qaraganda, Yassaviy hikmatlarida nafs bilan kurashishda zohidlik – dunyo lazzatlaridan butunlay voz kechishga da'vat qilingandek tuyuladi, ammo unday emas. Yassaviy dunyo inson uchun yaralgan, undan butkul kechish no'o'rin ekanligini quyidagi hikmatda ta'kidlaydi:

Sizni, bizni Haq yaratdi toat uchun

Ey bulajab, ichmak, yemak rohat uchun. (5;58)

Ushbu misralardan anglashiladiki, inson Haqqa yetishmoq uchun, tariqat maqomotlarini egallash uchun dunyodan, uning lazzatlaridan butunlay voz kechishi to'g'ri emas, balki toatda bo'lib, Alloh halol qilgan yaratilqlar va noz-ne'matlardan bahramand bo'lish kerak. Halol yeb-ichmoq ham asli toat, degan fikrlarni yuqoridagi misralardan anglash mumkin.

Shoir hikmatlarining birida "yoronlar" – ya'ni do'stlarga murojaat qilib, bu dunyoda rohat yo'qligini bildiradi. "Farog'at" – bu tinchlik, huzur, osoyishtalik demakdir. Undan keyingi misrada esa Payg'ambar Muhammad (s.a.v) vafotidan keyin qayg'uga botgan, motam tutgan holda bu hayotga kirganini aytadi. Bu misralar shoirning diniy tuyg'ulari, ruhiy iztirobi va bu dunyo fano ekanini anglashini ko'rsatadi:

Yer ostida xorlik torttim, ko'p mashaqqat,

To'shak, yosti toshdin qilib, chektim mehnat,

Ey yoronlar, bu dunyoda yo'q farog'at,

Mustafoga motam tutib kirdim ma'no. (1;30)

Shoir keyingi baytning birinchi misrasida o'zining ilohiy yo'lga kirganini bildiradi. "Zokir bo'lub" – ya'ni Allohni zikr qiluvchi bo'lib, "shokir bo'lub" – sabrli va shukrli bo'lib Haqni (Allohni) topdim, deydi. Bu ichki ma'naviy uyg'onish holatini ifodalaydi. Ikkinchi misrada esa dunyoga va oxiratga bo'lgan munosabat o'z aksini topadi: "Dunyo uqbo harom qilib" – ya'ni bu dunyo ham, u dunyo (oxirat) ham menga harom bo'ldi; "yachhib teftim" – yuz o'girib, chekinib ketdim. Bu yerda shoir tasavvufiy ruhda dunyo va oxiratni emas, balki faqat Haqni (Allohni) izlashni maqsad qilganini aytmoqda:

Zokir bo'lub, Shokir bo'lub Haqni tobtim,

*Dunyo uqbo harom qilib, yachchib teftim,
Shaydo bo'lib, rasvo bo'lub jondin uttim,
Beg'am bo'lub yer ostiga kirdim ma'no. (1;32)*

Keyingi misralarda dunyo va oxirat ne'matlaridan kechgan Yassaviy oshiq bo'lib, odamlar nazarida xor, past bo'lib, – jonimdan kechdim, deydi. Ya'ni bu yo'lda muhabbat uni jondan o'tishga olib kelganini, dunyo g'amidan holi bo'lib, bu hayotdan o'tib, tuproq bag'riga kirdim, deya ta'kidlash orqali o'limni istirohat deb bilgan sof sufiyning holatini ko'rsatadi. Dunyo va nafsni tark etib, faqat ilohiy visolni maqsad qilish g'oyasi bayon etilgan.

Shoir ishonch bilan shunday deydi: bu dunyo hech kimni abadiy saqlab qolmaydi, ya'ni dunyo hayotining o'tinchiligini ta'kidlab, har kim undan ketadi. Bu misrada fano dunyo tabiatining beqarorligi ta'kidlanmoqda. Mol-dunyoga ishonma, chunki bir kun kelib u sendan ketadi. “qo'lingdan chiqib ketar”, egasini tashlab ketar. Shoir bu bilan mol-mulk va dunyoviy boyliklarga aldanmaslik kerakligini uqtirmoqda:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan utaro,
Inonmagil molingga, bir kun quldin ketaro. (1;33)*

Bu misrada shoir dunyo uchun qayg'urma, vaqtincha narsalarga bog'lanma deya insonni dunyo tashvishlaridan yiroq bo'lishga da'vat etmoqda. “Haqdin o'zgani dema” – bu esa Allohdan boshqasini maqtama, iltijo qilma, degani. Bu tasavvufiy fikr bo'lib, unda ilohiy haqiqatdan boshqa barcha narsalar yolg'on va o'tkinchi deb qaraladi. Faqat Allohga bog'lanish kerakligi ta'kidlanmoqda:

*Dunyo uchun g'am yema haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema sirot uzra o'taro. (1;33)*

Shoir “Ayo do'stlar” deya murojaat qilib, o'zining tanlagan yo'lini e'lon qilmoqda. Pok ishq – bu oddiy dunyoviy sevgi emas, balki ilohiy, sof, xatardan holi, Haqqa bo'lgan ishqdir. Uni qo'lga oldim deyishi - bu yo'lni ongli ravishda tanlaganini bildiradi. Tasavvufda bu holat ishqiy hol (holati ishq) deb nomlanadi. Dunyoni dushman deb bilish - bu dunyoviy nafsiy quvonch va qulayliklarni rad etish, Allohdan chalg'ituvchi vosita sifatida ko'rishdir. “Ma'no” so'zi bu yerda “botin” yoki “ichki haqiqat” ma'nosini anglatib, bu ishning mohiyatini tushunib qilganini bildiradi. Misralar davomida shoir o'zini ruhan yalang'och, ojiz, kambag'al holatda ko'rsatib, Alloh huzuriga kelgan. Bu – to'liq tavba, taslim bo'lish, o'zini Haqqa topshirish ramzidir. Bu eng chuqur va jasoratli misradir. Shoir ilohiy ishq yo'lida, Mansur Halloj kabi bo'ldim, deya o'zini ilohiy ishq yo'lida fano topganlarga qiyoslaydi. Mansur Halloj – mashhur sufi bo'lib, “Anal-Haqq” (Men Haqman) degani uchun shahid qilingan. Bu bayt shoirning ishq yo'lida o'zini unutib, Haqda “yong'in” bo'lgan darajasini bildiradi:

*Ayo do'stlar pok ishqini qo'lg'a oldim,
Bu dunyoni dushman tutib yurdim ma'no,
Takam tutib hazratig'a sig'inib keldim,
Ishq bobida Mansur sifat bo'ldim ma'no. (1;33)*

“Rasul” – ya'ni Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) “dunyo jifa” — ya'ni dunyo bu najas, chirigan narsadir, deganlar. Shoir bu so'zga quloq tutib, dunyoni tark etganini bildiradi: “Qo'ydim ma'no” – ya'ni bu so'zning ma'nosini anglab, ichki haqiqatga yetib, dunyoga butunlay yondoshganman, deb bildiradi:

*Ishq o'tig'a kuygan oshiq rangi o'char,
Uqbo sari jadal qilib, mundin ko'char,
Munda bo'lg'an girixlarni onda ochar,*

Rasul, dunyo jifa, dedi, qo'ydim ma'no. (1;37)

Qolaversa, gunoh qilib, tavba qilmaydigan, ko'nglida pushaymonlik yo'q kishilar dunyoni sevib qolgan, unga bog'langan, undan ajralishni istamaydi. "Bilur" - shoirdan o'quvchiga ogohlantirish: shuni bilinki, tavbasiz kishi dunyoga yopishib qoladi, oxiratni unutadi:

Tavbasizlar bu dunyodin kechmas bilur,

O'lib borsa go'r azobin ko'rmas bilur,

Qiyomat kun tong arosat otmas bilur,

Hayhot, hayhot, navha-faryod kunlari bor. (1;55)

Shoir quyidagi baytda o'quvchiga murojaat qilib, "Ko'rgil" ya'ni "ko'r, angla" deb undamoqda. Agar sen shu o'tkinchi dunyo uchun ko'p mashaqqatlar chekayotgan bo'lsang, buning ma'nosini yaxshilab o'ylab ko'r. Bu dunyo uchun mehnat qilish, jabr ko'rish, o'z joniga ozor berish oxir-oqibat behuda bo'lishi mumkinligini eslatmoqda. oqibatda, so'ngida hech qanday dunyo boyligi, qudrati, shon-shuhrati qolmaydi. oxiri hammasi tuproqqa aylanadi, yo'q bo'ladi. Bu kuchli tasvir orqali shoir dunyoning o'tkinchi, fano bo'lishi muqarrar ekanini ta'kidlamogda:

Ko'rgil ushbu dunyo uchun ko'b jafolar aylasang,

Oxiri hech bir dunyo, yer bilan yakson etar. (1;60)

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviy hikmatlarida dunyo nafsoniy istaklar manbai, aldovli sinov, va Allohdan chalg'ituvchi vosita sifatida mazammat qilinadi. Unga ko'ra, chin dervish dunyoni tark etib, qalbini poklab, faqat Haqqa yuz tutmog'i kerak. Bunday dunyoqarash tasavvufning markaziy g'oyasi - "tarki dunyo" (dunyodan voz kechish) ni yaqqol ifodalaydi. Bilginki, fikrning ma'nosi uchinchisi ma'rifat(ilm)ni hosil qilish uchun qalbdagi ikki ma'rifat(ilm)ni hozirlashdan iborat. Bunga misol shuki, kim bu dunyoni xohlasa, hayoti dunyoni afzal bilsa va oxiratni bu dunyodan ustun qo'yish a'loroq ekanini bilishni istasa, buning uchun ikki yo'l mavjud: (Birinchisi) oxiratni bu dunyoga nisbatan afzal ekanini boshqadan eshitib, unga taqlid qiladi va mohiyatini anglamasdan tasdiqlaydi; o'z amali orqali uning so'ziga ishonib oxiratni ustun qo'yadi. Bu "taqlid" deb ataladi. Lekin u ma'rifat(ilm) emas. (Ikkinchi yo'l) boqiy qoluvchi narsani afzal ekanini aniq bilishdir. Shundan keyin u oxirat boqiyroq ekanini to'liq anglaydi. (2;4)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Abu Homid G'azzoliy. Ilhyou ulumiddin. Tafakkur kitobi. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent,2007
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: "Movarounnahr".2004.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 3-tom. - Toshkent:"Fan",1984.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 137-bet
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Зухд ва ҳаё. – Toshkent: Hilol nashr, 2016
7. Umurova N. Ahmad Yassaviy hikmatlarida tasavvufiy tushunchalar talqini. Interdiscipline innovation and scientific research conference british international science conference
6. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Xasanova M.J. Jahon foniydurur, ey xoja, zinhor... "Alisher Navoiy va adabiy ta'sir masalalari: badiiy ijod, komparativistika va Renessans"//Samarqand, 2025-yil 16-may
8. Xasanova M.J. "Ogahiy, chiq ondin-u faqr-u fano yo'lig'a kir". Muhammad Rizo Ogahiy ijodining bugungi avlod ta'lim va tarbiyasidagi beqiyos o'rni" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Xorazm, 2024-yil 7-dekabr

Abulvajd Forig'iy "devon"i va uning nashri masalasiga doir mulohazalar

Xolikulova Gulsanam Yorqulovna

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Sharof
Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
E-mail: gulsanamyorqulovna@mail.ru*

Annotatsiya: Hindistonda o'z mavqiyeni tiklab olgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodkorlarni o'z atrofiga chorlaydi. Natijada boburiylar saroyiga Xuroson, Movarounnahr va Erondan juda ko'plab ilm-fan, madaniyatga daxldor tarixiy shaxslar kela boshladi. Hindistonda turkiy va forsiy tillarga asoslangan yangi adabiy muhit vujudga keldi. Ana shu adabiy muhitning zullisonayn vakillaridan biri - bu Shayx Abulvajd Forig'iydir. Abulvajd Forig'iy Bobur hukmronligi davrida Hindistonga kelib, e'tibor qozongan, hukmdor nazariga tushgan. Humoyun podshoh davrida "malik ush-shuaro" unvoniga sazavor bo'lgan. Undan bizgacha forsiy va turkiy tildagi g'azallardan tashkil topgan "Devon" yetib kelgan. Mazkur maqolada Abulvajd Forig'iy va uning adabiy merosi haqida manbalar asosida ma'lumotlar umumlashtirildi.

Kalit so'zlar: *Hindiston, boburiylar adabiy muhiti, Abulvajd Forig'iy, "Devon", zullisonayn shoir, "malik ush-shuaro".*

Reflections on Abulvajd Forighi's "Devan" and its publication

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur, who has restored his position in India, calls creative people to his side. As a result, many historical figures related to science and culture from Khorasan, Transoxiana, and Iran began arriving at the Mughal court. A new literary environment based on Turkic and Persian languages emerged in India. One of the bilingual representatives of this literary environment is Sheikh Abulvajd Farigi. During the reign of Babur, Abulvajd Farigi came to India, gained attention, and caught the ruler's attention. During the reign of Humayun, he was awarded the title of "malik ush-shuaro." From it to us has come the "Devon," consisting of ghazals in Persian and Turkic languages. This article summarizes information about Abulvajd Farigh and his literary heritage based on sources.

Keywords: *India, Mughal literary environment, Abulvajd Al-Fariqi, "Devon," bilingual poet, malik ush-shuaro.*

Abulvajd Forig'iy XV asrda Hirotda tug'ilgan bo'lib, Shayx Vajihuddinining farzandidir. U Sohibi devon zullisonayn shoir, olim, tarixnavis, din arbobi sifatida tanilgan. Otasi Shayx Vajihuddin esa mashhur Shayx Zayniddin Xavofiy avlodidan. Abulvajd Forig'iyning tavallud yili noma'lum, ismi Abulvajd, ayrim manbalarda Abulvajid, Abul Vojid, Abdulvohid ham deb tilga olinadi. Forig'iy uning adabiy taxallusi. Abulvajd Forig'iy Hirotda ulg'ayib, shu yerda shoir sifatida taniladi, zamonaning mashhur ijodkorlaridan Alisher Navoiy nazariga tushadi. U temuriylar saltanati tanazzulga uchragach, Hirotni tark etib, amakivachchasi Shayx Zayn bilan birga Hindistonga, Bobur huzuriga boradi. Boburiylar saroyida katta hurmat-e'tibor qozongan shoir Humoyun podshoh tomonidan 1532-yil "malikush shuaro" unvoni bilan taqdirlanadi. Abulvajd Forig'iy umrining oxirigacha boburiylar saroyida xizmat qilib, 1534-yil (hijriy 940) Agrada vafot etadi.

Abulvajd Forig'iy haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Xondamirning "Qonuni Humoyun", Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lam", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Alavuddavla Qazviniyning "Nafais ul-

maosir”, Mir Husayn Do‘st Sanbahliyning “Tazkirayi Husayniy” kabi tarixiy, tazkira xarakteridagi asarlarda ma’lumotlar uchraydi. [Qarang: Jo‘rayev J., Xoliqulova G., 2023: 137-146]

Abulvajd Forig‘iy hayoti va adabiy merosi haqida adabiyotshunoslikda bir qancha olimlar tomonidan muxtasar bo‘lsa-da, tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi bo‘lib filologiya fanlari doktori, professor Saidbek Hasanov “Hindistonda Bobur davri o‘zbek adabiy muhiti” nomli maqolasida Forig‘iy adabiy merosiga ilmiy jamoatchilik etiborini qaratgan. [Hasanov, 1983: 50-53] Keyinchalik R. Inomxo‘jayev, N. Nizomiddinovlar o‘z maqola va tadqiqotlarida Forig‘iy shaxsiyati va “Devon” qo‘lyozmasiga oid muhim ma’lumot hamda xulosalarini, qo‘lyozma surati hamda g‘azallardan namunalarni taqdim qilgan. [Inomxo‘jayev, 1991: 15-16; 1993: 58-66; Nizomiddinov, 2005: 272]. Shuningdek, fors olimlari Maqsud Ali Gundamoniy, Ali Rizo Karimiy va Murtazo Davlatobodiy larning “Digargunii mavqeyati jo‘ngoni farhang va ijtimoiy dar davrai temuriyoni Hirot dar ruzgori safaviy” nomli maqolasida Forig‘iyning Hindistonga safari e’tirof etilgan bo‘lsa, pokistonlik olim Sayid Karim Purmoniyning “Zaboni forsiy dar davrai temuriyon” nomli maqolasida bir qancha forsiyzabon shoirlar qatorida Forig‘iy nomi qayd qilib o‘tilgan. [Jo‘rayev J., Xoliqulova G., 2023: 137-146]

Abulvajd Forig‘iydan bizgacha bir qo‘lyozma “Devon” yetib kelgan bo‘lib, u Hindistonning Haydarobod shahridagi Solarjang kutubxonasida 1098–raqami ostida saqlanadi. “Devon” qo‘lyozmasi mikrofilmi professor Hamid Sulaymon boshchiligida Hindistonga uyushtirilgan ekspeditsiya chog‘ida professor Saidbek Hasanov tomonidan mamlakatimizga keltirilgan. Qo‘lyozma noma’lum xattot tomonidan hijriy XVII asrda Dekan degan joyda ko‘chirilgan. “Devon” qora rangli siyohda, go‘zal nastaliq xati bilan yozilgan. Matnning dastlabki olti misralik ikki sahifasi zarvaraq bilan bezatilgan. She‘rlar ikki ustunda yozilib, ularning o‘zaro ajratilgan joylariga, bo‘sh o‘rinlariga hind miniatura maktabiga xos uslubda xilma-xil qush, hayvon, gul, erkak va ayol rasmlari chizilgan.

Qo‘lyozma 41 sahifadan iborat bo‘lib, har betiga asosan 11 yoki 12, ba‘zan 13-14 qatordan turkiy va forsiy tillardagi she‘rlar joylashtirilgan. “Devon”dan 182 ta g‘azal o‘rin olgan bo‘lib, shundan 12 tasi turkiy tilda, 166 tasi forsiy tilda, 4 tasi shir-u shakar usulida turkiy va forsiy tillarida yozilgan. G‘azallar asosan Bobur adabiy muhitida keng tarqalgan g‘azal hajmida, ya’ni besh baytda (161 g‘azal) yaratilgan bo‘lib, ikki (1 g‘azal), uch (3 g‘azal), to‘rt (12 g‘azal), olti (4 g‘azal), yetti (1 g‘azal) baytlilari ham uchraydi. Forig‘iy “Devon”i sahifalarida joylashtirilgan g‘azallar hajmi 1790 misradan iborat. “Devon” qo‘lyozmasining fotonusxasidan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pgina sahifalar tushib qolgan. Ayrim sahifalarning bo‘yalib ketganligidan o‘qish imkoniyati yo‘q. “Devon” an’anaga ko‘ra g‘azallar alifbo tartibida joylashtirilgan.

“Devon” qo‘lyozmasida she‘rlarning yozilgan vaqti ko‘rsatilmagan. Bizningcha, qo‘lyozmaga kirgan turkiy g‘azallar shoirning shu tildagi ijodiy merosidan kichikkina bir lavha bo‘lsa kerak. R. Inomxo‘jayev qayd qilganidek, Forig‘iy devonining hozirda ma’lum qo‘lyozmasidagi she‘rlar shoir haqida ma’lumot beruvchi tazkiralarning birortasida uchramasligi va devon qo‘lyozmasidagi varaqlarning yetishmayotgani fikrimizni quvvatlaydi. [Inomxo‘jayev, 1993: 65].

Demak, Forig‘iyning Hindistonga kelgunga qadar Xurosonda yaratilgan ijod namunalari bizga noma’lumligicha qolmoqda. Bu esa Forig‘iy ijodining hajmi 1790 misradan ortishini va uning ijodkorlik mahorati to‘g‘risida tugal xulosaga kelishimizga erta ekanligini, izlanishlarni davom ettirish lozimligini ko‘rsatadi.

Umuman, “Devon”da ham klassik shoirlar kabi tarix qo‘yish, g‘azalni yozilgan vaqtini ko‘rsatish odati ko‘zga tashlanmaydi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘lyozmaga shoirning barcha davrlarda yozgan g‘azallari kirmagan ko‘rinadi. Bunday xulosaga kelishimizga sabab yuqorida tilga olingan manbalar orqali yetib kelgan Forig‘iy she‘rlarini “Devon” qo‘lyozmasida uchratmaganimiz. Demak, Forig‘iyning Hindistonga kelgunga qadar Xurosonda yaratilgan ijod namunalari bizga noma‘lumligicha qolmoqda. Bu esa Forig‘iy ijodining hajmi 1790 misradan oshiqqligini va uning ijodkorlik mahorati to‘g‘risida tugal xulosaga kelishimizga erta ekanligini, izlanishlarni davom ettirish lozimligini ko‘rsatadi. Hozirda ana shu “Devon”ning nashr ishlari ustida faoliyat olib borilmoqda.

Umuman, “Devon”da ham klassik shoirlar kabi tarix qo‘yish, g‘azalni yozilgan vaqtini ko‘rsatish odati ko‘zga tashlanmaydi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘lyozmaga shoirning barcha davrlarda yozgan g‘azallari kirmagan ko‘rinadi. Bunday xulosaga kelishimizga sabab yuqorida tilga olingan manbalar orqali yetib kelgan Forig‘iy she‘rlarini “Devon” qo‘lyozmasida uchratmaganimiz. Demak, Forig‘iyning Hindistonga kelgunga qadar Xurosonda yaratilgan ijod namunalari bizga noma‘lumligicha qolmoqda. Bu esa Forig‘iy ijodining hajmi 1790 misradan oshiqqligini va uning ijodkorlik mahorati to‘g‘risida tugal xulosaga kelishimizga erta ekanligini, izlanishlarni davom ettirish lozimligini ko‘rsatadi. Hozirda ana shu “Devon”ning nashr ishlari ustida faoliyat olib borilmoqda

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 9-jild. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012. –B. 768.
2. Жўраев Ж. Фориғий ва унинг адабий мероси. Қўлёзма ҳукукида. Диплом иши. -Т.: 1992. -Б.31.
3. Jaloliddin, J., & Xoliqulova, G. (2023). Abulvajd Forig‘iy va uning adabiy merosi. // Роль наследия Захириддина Мухаммада Бобура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1). -Т.: 2023, 25-26-sentyabr. 137-146-betlar.
4. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Шарк, 2002. –Б. 336.
5. Иномхожаев Р. Тюркско-персидское двуязычие в литературной жизни Индии XVI в. – Т.: Фан, 1993. –С. 210.
6. Иномхўжаев Р. Бобур ва Ҳиндистондаги туркийзабон адабиёти // Адабий мерос, 1991. 4-сон. –Б. 13-19.
7. Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср).–Т.:“Fan va texnologiya”, 2012. - Б.516.
8. Низомиддинов Н. Ҳиндистон туркийзабон адабиёти (XV-XIXаср). –Т.: 2005. Б. –272.
9. Низомиддинов Н.Ф. Фориғий ва Дийда ижодидан лавҳалар.//Адабиёт кўзгуси. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.3-сон, 3-7-бетлар.
10. Ҳасанов С. Фориғий шеърлари // Шарк юлдузи. –Тошкент, 1983. –№ 4. –Б. 110–115.
11. Ҳасанов С. Ҳиндистонда Бобир даври ўзбек адабий муҳити.// “Ёшлик” журнали, 1983 йил 4 апрел. 50-53-бетлар.
12. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б. 344.
13. Yorqulovna, X. G. (2023). Abulvajd Forig‘iy adabiy merosi. Issue 4 of 2023 (140/1), 4(135), 5-11.
14. Xoliqulova, G. Y. (2021). Bobur adabiy muhiti va uning manbalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 974-981.

“Девони ҳикмат”нинг Ўзбекистонда сақланаётган қўлёзмалари

ф.ф.н., доц. Марям Эшмуҳамедова

Токент давлат Шарқшунослик университети

Аннотация: Ушбу мақолада “Девони ҳикмат” Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Ҳамид Сулаймон фондида сақланаётган қўлёзмалар ҳақида маълумот берилган. Бу фонддаги мазкур асар қўлёзмаларининг сони 95 тани ташкил қилади. Мана шу қўлёзмаларларнинг ўзига хос жиҳатлари ва манбашунослик олдида турган долзарб вазифалар ҳақида сўз борган.

Калит сўзлар: ахлоқ, ҳикмат расмий фонд, қўлёзма, каталог, матн, нусха, мажмуа, баёз, хаттот, ҳикматнавис.

The manuscripts of "Devoni hikmat"

Annotation: This article provides information about the manuscripts of "Devoni hikmat" preserved in the Khamid Sulaymon collection at the Institute of Oriental Studies named after Abu Raykhan Beruniy, under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The number of handwritten copies of this work in the collection amounts to 95. The article discusses the unique features of these manuscripts and the pressing tasks facing the field of source studies.

Keywords: ethics, wisdom, official fund, manuscript, catalogue, text, copy, collection, bayaz, calligrapher, creator of the book of wisdom.

Хожа Аҳмад Яссавий туркий халқлар тарихида чуқур из қолдирган шахс. Унинг ҳикматлари (шеърлари) ўрин олган асар “Девони ҳикмат” номи билан машҳур. Бу асар Мовароуннаҳр, Волгабўйи, Сибир, Онадўли ва бошқа ерларда, шунингдек, умуман туркий халқлар яшайдиган ерларда севиб мутолаа қилинган. “Девони ҳикмат” машҳур асар бўлганлиги сабабли унинг қўлёзма нусхалари кўп. Ҳозирги кунда бу асар қўлёзмалари Туркия, Татаристон, Туркменистон, Қозоғистон, Берлин, Кембриж, Санкт Петербург, Москва, Украина, Париж, Принстон каби жойларда сақланади [3, 5]. Шунингдек, Хитойнинг Шинжон Уйғур Мухтор ўлкасида ҳам бу асар қўлёзмаларининг мавжудлиги ҳақида маълумот бор. [1,16] Бундан ташқари, кўп сонли адабиёт мухлислари кутубхоналарида ҳам мазкур асар қўлёзма нусхалари сақланади. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг расмий фондларида “Девони ҳикмат” асарининг 187 та қўлёзмаси мавжуд бўлиб, улар қуйидаги фондларда сақланади:

1. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райхон Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази фондида 67 та.

2. Шу марказнинг дублет фондида 11 та

3. Мазкур марказнинг Ҳамид Сулаймонов фондида 94 та.

4. ЎзРФА Алишер Навоий номидаги давлат адабиёт музейи фондида 15 та.

5. Бунга яна Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонаси, Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси, Ислом цивилизация маркази ва бошқа расмий фондларда сақланаётган қўлёзмаларни киритиш мумкин. Табиийки, бу рақам яна ортиб кетади. Биз бу мақолада сарлавҳада таъкидланганидек, ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги

Шарқшунослик институти Ҳамид Сулаймонов фондида сақланаётган “Девони ҳикмат” қўлёзмаларига тўхталамиз.

ЎзРФА Ҳамид Сулаймонов номидаги собиқ қўлёзмалар институти (мазкур институт иш фаолияти 1988 йили тўхтатилган, фондидаги қўлёзмалар Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институтида Ҳамид Сулаймонов фонди номи билан сақланмоқда) олимлари томонидан тузилиб, 1988-1989 йиллар оралиғида чоп этилган 2 жилдли каталогда эса Аҳмад Яссавий ҳикматлари ўрин олган қўлёзмалардан 22 тасининг тавсифи берилган[4]. Мустақилликдан сўнг бу асарни ўрганиш яна кучайди, унинг каталоги бир неча марта чоп этилди.

2003 йили мазкур сатрлар муаллифи томонидан “Девони ҳикмат” қўлёзмалари каталоги нашр этилиб, унда бу асарнинг 100 та: Абу Райҳон Беруний номидаги институтнинг асосий фондида сақланаётган 42 та ва шу институтнинг Ҳамид Сулаймонов фондида сақланаётган 58 та қўлёзма нусхасининг тавсифи берилган эди.[4]

Кейинги йилларда Аҳмад Яссавий ижодига бўлган қизиқиш ва эътиборнинг ортиши натижасида Девони ҳикмат нинг яна бир каталоги нашр этилди. Бу каталогда ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти фондида сақланаётган 67та, шу институтнинг Ҳамид Сулаймонов фондида сақланаётган 95 та, институтнинг дублет фондида сақланаётган 11 та жами 173 донга қўлёзманинг тавсифи берилган. [3]

Орадан йиллар ўтди. Қўлёзма фондлари бойиб, фондга Аҳмад Яссавий ҳикматлари ўрин олган янги қўлёзмалар келиб тушди. Энди аввал тузилган “Девони ҳикмат” қўлёзмалари каталогини тўлдирилган қайта нашрини амалга ошириш зарурияти туғилди. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, 2006 йили Туркистонда чоп этилган каталогда ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи фондида сақланаётган Аҳмад Яссавийга мансуб ҳикматлар ўрин олган қўлёзмалар тавсифланмаган.

Шу мақсадда “Девони ҳикмат” қўлёзмаларининг янги нашри чоп этилди. Мазкур каталогда “Девони ҳикмат” нинг 187 қўлёзмаси тавсифи берилган[2]. Улардан 67 та қўлёзма шарқшунослик институти асосий фондида сақланади, 95 та қўлёзма институтнинг Ҳамид Сулаймонов фондида сақланади, 11 та қўлёзма мазкур институтнинг дублет фондида сақланади ва 15 та қўлёзма ЎзРФА Алишер Навоий музейи фондида сақланади.

Демак, бу ўринда фақат Ҳамида Сулаймонов фондида сақланаётган “Девони ҳикмат” қўлёзмалари ҳақида сўз кетади. Эътибор берилса мазкур асар қўлёзмалари сони Навоий асарлари қўлёзмалари сонидан кам эмас. Лекин тенг бўлмаган жиҳатлари бор. Навоий асарлари қўлёзмалари турлича китобат қилинган. Бу хилма-хиллик турли давр ва “турли ижтимоий табақаларнинг маънавий дунёси, талаби ва эстетик завқининг ифодаси ўлароқ дунёга келган”[3,8], “Девони ҳикмат” қўлёзмаларида эса бу ҳолатни кузатмаймиз. Уларнинг деярли ҳаммаси содда, оддий халқ талабидан келиб чиқиб кўчирилган қўлёзмалардир.

Навоий асарлари қўлёзмалари орасида шоир ҳаёт чоғида кўчирилган, “ўша давр хаттотлик ва бадий қўлёзма санъатининг ютуқларини акс эттирган” мукаммал нусхалари ҳам бор[3,9]. Лекин “Девони ҳикмат” нинг бундай қадимий нусхаларини учратмадик. “Девони ҳикмат” қўлёзмаларининг аксарияти оддий нусхалардан иборат. Шарқшунослик институти Ҳамид Сулаймонов фондида мазкур асарнинг 95 та қўлёзмаси сақланади. Улардан фақат 27 нусханинггина кўчирилган йили аниқ. Булар асосан XVIII ва XIX асрларда кўчирилган.

Навоий асарлари қўлёзмаларининг аксариятини хаттоти маълум. “Девони ҳикмат” қўлёзмаларининг ана шу 95 тадан 9 тасининг хаттоти маълум. Айтиш мумкинки, Яссавийнинг ўзи каби оддий халқ эҳтиёжидан келиб чиқиб кўчирилган, шу боис кўпининг хаттоти ҳам тарихи ҳам номаълум. Яна мазкур асарнинг саҳҳофи, муқова санаси ҳақида ҳам шу ҳолатни кузатамиз. 95 та қўлёзмадан 7 тасининг саҳҳофи, 1 нусханинг муқовадаги санаси қайд этилган. Бу қўлёзмаларнинг қоғози ва хати ҳақида маълумот берадиган бўлсак, асосан Қўқон қоғозига турли хил: чиройли, ўртача ва чиройли настаълиқда кўчирилган. Айрим нусхалардагина шикаста элементи мавжуд бўлган настаълиқ хатида кўчирилганини учратиш мумкин.

“Девони ҳикмат” қўлёзмаларининг аксариятида дастлабки, босма нақшли муқова. Улар ичида кейинчалик картон ва абру қоғозидан муқова ишланганлари ёки муқовасизлари ҳам бор.

Яссавий ҳикматлари ўрин олган қўлёзмаларнинг бирортаси йўқки, ундан фақат улуғ шайх қаламига мансуб асарларгина ўрин олган бўлсин. Улардан, албатта, унинг асарлари ўз издошлари асарлари билан аралаш ҳолда ёки Яссавий асарлари сўнгида издошларининг асарлари ўрин олган. Кўринадiki, улуғ шайх асарлари қанчалик машҳур бўлган бўлса, издошлари асарлари ҳам ўшандай кенг тарқалган экан.

Шунингдек, бу қўлёзмаларни турли савиядаги хаттотлар кўчирган. Баъзилари саводли, туркий тилга хос бўлган сингармонизмга тўлиқ амал қилинган ҳолда кўчирилган. Айримлари эса савод даражаси биров паст бўлган хаттотлар томонидан кўчирилган. Ўтиборни жалб этадиган жиҳати улар гарчи кейинги даврда кўчирилган бўлса ҳам тил қадимий, туркий тилнинг қадимги элементлари учрайди. Демак, бу қўлёзмаларга қадимий нусхалар асос бўлиб хизмат қилган экан.

“Девони ҳикмат” қўлёзмаларида ҳикматлар сони ҳам ҳар хил. Айримида 50 та, бошқасида 100 дан ортиқ, яна бирида 20 та, ҳатто 1 тагина ҳикмат ўрин олган нусхалар ҳам учрайди. Шу ўринда алоҳида таъкидлаш лозимки, Аҳмад Яссавий ҳикматлари ўзи каби содда халқ талабидан келиб чиқиб китобат қилинган. Ҳикматлар аввал оғзаки ҳолда яратилган ва Яссавий дарвешлари орқали туркий ўлкаларга оғиздан-оғизга ўтган ҳолда тарқалган. Маълум давр ўтгач улар китобат қилинган.

“Девони ҳикмат” қўлёзмалари устида олиб борилган изланишлар бир қўлёзмадан ўрин олган ҳикматнинг иккинчи қўлёзмадаги шеърларнинг айримлари ёки буткул янги ҳикматлар ўрин олганини кўрсатди. Бу эса ўтган давр мобайнида ҳикматларнинг бир неча хаттот томонидан турлича кўчирилганини билдиради ва натижада эса асл нусхадан четга чиқиш ҳолати юзага келган.

“Девони ҳикмат” қўлёзмаларининг миниатюралари нусхасини учратмадик. Ўтибор билан кўчирилган, китобат санъати учун аҳамиятга эга бўлган нусхалари мавжуд, улардан айримига қисқача тўхталамиз:

1. 412 рақами билан сақланадиган қўлёзманинг кўчирилган санаси – 1296/ 1878-79 йил. Котиби номаълум. Матн Шарқ қоғозига шикаста элементи бор бўлган настаълиқ хатида қора сиёҳ билан кўчирилган. Шарқ муқоваси, нақшида шундай ёзув бор: “Оқибати хайр бод”, 1282/1865-66 йил қайд этилган. Бу қўлёзмадан Яссавийнинг юздан ортиқ ҳикмати ўрин олган.

2. 829 рақами билан сақланадиган қўлёзманинг кўчирилган санаси – 1240/ 1824-25 йил. Котиби номаълум. Матн Шарқ қоғозига настаълиқ хатида қора сиёҳ билан кўчирилган. Яссавийнинг етмишдан ортиқ ҳикмати бу қўлёзмадан ўрин олган. Ва ҳоказо...

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, бу ўрин да фақат бир институтнинг битта фондида сақланаётган “Девони ҳикмат” қўлёзмаларига қисқача тўхталдик, бундай расмий фондлар бир қанча, уларда сақланаётган мазкур асар қўлёзмалари ҳам кам эмас. Бу қўлёзмаларнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этиш галдаги вазифалардандир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Коллектив. Хожа Аҳмад Яссавий. (Ҳаёти, ижоди ва анъаналари) Келдиев Қ. Туркменистонда Аҳмад Яссавийнинг ўрганилиши. Тошкент, 2001.
2. М. Эшмухамедова. Аҳмад Яссавий ҳикматлари ўрин олган қўлёзмалар каталоги (қайта тўлдирилган нашри), Т., 2010.
3. М. Ҳақимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент, 1983 й.
4. Hofman H.F. Turkist literature A bio-bibliographical survey. Utrecht; The library of the University of Utrecht., 1969. Part 1, Vol. 6.
5. Ўз РҲА Шығыстану институтындағы Кожа Ахмет Иасау Хикметлериниң, қолжазба Каталоги. Туркистон, 2006.
6. Каталог фонды института Рукописей. I, II том. Т., 1988, 1989 г.
7. №1576 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
8. №1910 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
9. №5715 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
10. №12441 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
11. №1322 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
12. №7488 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
13. №11416 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
14. №7488 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
15. №895 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
16. №5716 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма
17. №3764 Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти фондида сақланувчи қўлёзма

Alisher Navoiy ijodida Ahmad Yassaviy ijodiga izdoshlik masalasi

f.f.n., dots. Rohila Ruzmanova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
huzuridagi Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti

E-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6539-0511

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida Ahmad Yassaviy tasavvufiy merosiga izdoshlik masalasi tahlil etiladi. Buyuk mutasavvif shoir Ahmad Yassaviyning hikmatlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar, tasavvufiy tushunchalar va ruhiy kamolotga da'vat motivlari Navoiyning asarlarida qanday badiiy va falsafiy ifodasini topgani ko'rib chiqiladi. Xususan, "Lison ut-tayr", "Nasoyim ul-muhabbat", "Xazoyin ul-maoniy" va boshqa asarlar Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan ruhiy va konseptual uyg'unlikda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Navoiy va Yassaviy o'rtasidagi ichki ruhiy va ideologik aloqadorlik, til, uslub va badiiy obrazlarning uzviyligi ochib beriladi. Mazkur izdoshlik o'zbek adabiy tafakkurining tarixiy uzviyligini va tasavvufiy adabiyotdagi davomiylik an'analari namoyon etadi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, tasavvuf, izdoshlik, hikmat, ruhiy kamolot, ma'naviyat, tasavvufiy adabiyot, "Devoni hikmat", "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat", Yassaviy, adabiy an'ana.*

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос преемственности суфийского наследия Ахмада Ясави в творчестве Алишера Навои. Анализируется, как нравственно-духовные принципы, суфийские концепции и мотивы духовного совершенствования, изложенные в «Хикматах» великого суфийского поэта Ахмада Ясави, нашли художественное и философское отражение в произведениях Навои. В частности, произведения «Лисон ут-тайр», «Насоим уль-мухаббат», «Хазоин уль-маоний» и другие анализируются в духовной и концептуальной взаимосвязи с наследием Ясави. В процессе исследования раскрывается внутренняя духовная и идеологическая связь между Навои и Ясави, единство языка, стиля и художественных образов. Эта преемственность свидетельствует о исторической непрерывности узбекской литературной мысли и традиции суфийской литературы.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Ахмад Ясави, суфизм, преемственность, хикмат, духовное совершенствование, духовность, суфийская литература, «Девони хикмат», «Махбуб ул-кулуб», «Насоим уль-мухаббат», Ясави, литературная традиция.*

Annotation: This article explores the issue of spiritual succession to Ahmad Yassawi's Sufi legacy in the works of Alisher Navoi. It analyzes how the moral-ethical principles, Sufi concepts, and motifs of spiritual self-perfection conveyed in the wisdoms (hikmats) of the great Sufi poet Ahmad Yassawi are reflected both artistically and philosophically in Navoi's writings. In particular, works such as Lison ut-Tayr, Nasoyim ul-Muhabbat, Khazoyin ul-Maoniy, and others are examined in terms of their spiritual and conceptual parallels with Yassawi's teachings. The study reveals the intrinsic spiritual and ideological connections between Navoi and Yassawi, as well as the unity of their language, style, and imagery. This succession reflects the historical continuity of Uzbek literary thought and the enduring tradition of Sufi literature.

Keywords: *Alisher Navoi, Ahmad Yassawi, Sufism, spiritual succession, hikmat, spiritual perfection, spirituality, Sufi literature, Devoni Hikmat, Mahbub ul-qulub, Nasoyim ul-muhabbat, Yassawiya, literary tradition.*

Turk dunyosining mashhur vakillaridan biri Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asari bilan jahon adabiyotida ma’lum va mashhurdir. “Devoni hikmat” turkiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan biri bo’lib, muallifning islom dini, kalom falsafasi va tasavvuf, hayot mazmunini chuqur anglaganligining ifodasidir.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida shunday yozadi: *“Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkining shayxul-mashoyixidur. Maqomiyti oliy va mashhur, karomoti matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning ashobidindur (suhbatdoshi)”*. Va Navoiy Yassaviyni Yusuf Hamadoniyning boshqa xalifalari Xoja Abdulxoliq G’ijduvoni, Xoja Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andaqiy qatorida turganligini ta’kidlab, oxirida *“Va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo’lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidir”*¹, – deydi.

Yassaviy dunyoqarashi uning ijodida aks etgan bo’lib, shoir ishq, adolat, haqiqat, qanoat, diyonat kabi qator masalalarni hikmatlari orqali ifodalaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi ma’rifat insonlarni fikrlashga, hayot mazmunini, o’zini anglashga chorlaydi. Shoir inson hayotidagi eng katta kurash, bu uning nafsini taslim etishga xizmat qiladigan kurash ekanligini, nafsga mag’lub shoh aslida qul ekanligi, nafsdan ustunlikka erishgan g’arib esa shoh ekanligini ifodalab, quyidagi hikmatda shunday deydi:

*Nafs yo’lig’a kirgon kishi rasvo bo’lur,
Yo’ldin ozib, tolib, to’zub gumroh bo’lur.
Yotsa, qo’bsa shayton bilan hamroh bo’lur,
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdor*².

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta qismi aynan mana shu masalaga bag’ishlanadi. Shoir ta’rifiga ko’ra, nafs “yabon qushdek qo’lg’a qo’nmas” bir narsa, bu “qush” o’z xohishicha “parvoz” etaversa, insonni kundan-kun to’g’rilikdan ozdiraveradi. Natijada esa, bu nafs insonni yo’ldan adashtirib, hayotini mahv etadi. Xuddi mana shunga o’xshash mazmunni buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodida ham ifodalanganligini ko’rish mumkin:

*Bo’lub nafsing’a tobi’, band etarsyn tushsa dushmanni,
Senga yo’q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band*³.

Alisher Navoiy ijodida ham nafsga tobe bo’lib dushmanni band etmoq mardlik emas, balki eng katta dushman nafsni yenga olish haqiqiy mardlik, shijoatdir, deyiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida nafs mavzusining nihoyatda keng ifodalangani, shoirning nafs bandalariga qarata:

*Nafsim mani yo’ldin urub xor ayladi,
Xaloyiqg’a termulturub zor ayladi*⁴, –

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma jildlik. O’n yettinchi jild, Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 2001. – B. 124.

² Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg’oni [Matn]: nazm/to’plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 123.

³ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. O’n jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 136.

⁴ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg’oni [Matn]: nazm/to’plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 41.

deya nafs uchun xor-u zor bo'lib yurganlarning oqibati nochorlik ekanligidan ogohlantiradi. Shoir nafsning ichki eng katta dushman ekanligini, insondagi butunlikni sindirishini, nafs amriga buysunish ma'naviy osoyishtalikka barham berishini alohida ta'kidlab, to'g'ri va halol hayot kechirish lozimligini uqtiradi. Yassaviy hikmatlaridagi bu g'oyaviy yo'nalish Alisher Navoiy she'riyatida yanada keng rivojlantirilib, yangi-yangi ifodalar bilan beriladi:

*Nafs amrida har nechaki tolping'aysen,
Ko'p garchi butunlik tilasang, sing'aysen.
Kom istayu necha elga yoling'aysen,
Nafsingg'a xilof aylakim, ting'aysen¹.*

Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonlarni halollikka chorlash, nafsga buysunib o'zini xor qilmaslik bilan bir qatorda adolatli va haqgo'y bo'lish, to'g'ri yashashga ham undaydi:

*Zolim agar zulm aylasa, "Alloh" degil,
Ilking ochib, duo aylab, bo'yin sung'il,
Haq dodingga yetmas bo'lsa, zori qilg'il,
Haqdin eshtib bu so'zlarni aydim mano².*

Hazrat Navoiy ham Yassaviyga izdoshlik qilib maxluq, ya'ni yaratilgandanmas, Xoliq – xudodan madad va marhamat so'rashni ifodalaydi:

*Hech ish o'lmas ayru xoliq amridin,
Iltijo maxluqqa keltirma ko'p³.*

Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, mazlum chekkan ranj zoe bo'lmaydi, "zulm-u jafo hosili" naqadar ko'paysa, zulmkorlarning xotirjamligi o'shancha yemiriladi. Navoiy "zolimki erur zulmi jafo hosil anga" deb boshlanuvchi ruboiysida:

*Bo'lmoq xush emas qilg'onidin xush dil anga,
O'z zulmidin-o'q o'lg'usidur qoyil anga⁴, –*

deydi. Bu ayanhli taqdirdan zolim qutulib ketolmaydi. Chunki, unga haqning jazosi tayin. Mazlumlarning oh-u fig'onlari falakka ko'tarilganda yaratuvchi zolimlarni qahr-u g'azab bilan "mukofot"laydi. Navoiyning quyidagi to'rtligi xuddi shu masaladan bahs etadi:

*Zolimki shoir etti jafo poyasini,
O'z voyasin istab oldi el voyasini.
Qaydin topqay hayot sarmoyasini,
Haq ayladi qisqa umrin soyasini⁵.*

Shunday qilib, o'z yovuz manfaatlarini ko'zlab elga jafo o'tkazgan zolim uchun "hayot sarmoyasi" yo'q. Yassaviy hikmatlaridagi chaqiriq "Xudo qahr etsa har qanday zolim yengiladi. Haqni taniganlar haq qadar shijoatli va hech vaqt zolimlarga buysunmaydilar" – mazmunidadir. O'zbek adabiyotida Ahmad Yassaviy g'oyalarini mazmunan davom ettirgan Alisher Navoiy

¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 20.

² Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 72.

³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Uchinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 40.

⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 62.

⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 62.

lirikasida bu fikrlar yanada rivojlantiriladi. Ahmad Yassaviy bir qator hikmatlarida nafsga zolim sifatini beradi:

“Zolim nafsım hech qo‘ymayın o‘tqa soldi”¹.

Haqni tanimaslik, beg‘amlık, takabburlik, g‘iybat va bo‘hton so‘zlardan tilni tiymaslik, nodonlik-bularning barchasi zolim nafsning qilmishlaridir deya talqin qilinadi. Bir hikmatida “nafs boshini” yanchishning chorasi sifatida

“Alloh” dedim, shayton mandin yiroq qochti,

Hoy-u havas, moumanlik turmay ko‘chti”², – derkan, hoy-u havas va barcha manmanliklarning doyasi nafs ham “Alloh” deganda yengilishi, ya’ni, “Alloh sari to‘lg‘onmoq” – nafsdan kechmoqdir, deya ifodalaydi:

Sanga jazo yaratqang‘a yalbormading,

Alloh teyu tunlar qo‘pub ingranmading,

Nafsdin kechib Alloh sori to‘lg‘anmading,

Zolimlaming ilgin uzun qildim mano³.

Shuning uchun ham Yassaviy “nafs boshig‘a yuz ming balo” yog‘dirish tashvishiga tushganlarga qarata, *“Zolim agar zulm aylasa, “Alloh” degil, Ilking ochib, duo aylab bo‘yun sung‘il”⁴,* deydi. Alisher Navoiy ham “To nafsı havo qasrı” yiqitilmaguncha, “El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas” deydi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida nodonlik, bilimsizlikni ham katta kulfat, o‘ziga xos yozuvlik hisoblab, nodon – aql jallodi, deydi. *“Duo qiling nodonlarni yuzin ko‘rmay”*, deya o‘nlab hikmatlarini shu mazmunda bitadi:

Duo qiling nodonlarni yuzin ko‘rmay,

Haq taolo rafiq bo‘lsa birdam turmay.

Bemor bo‘lsa nodonlarni holin so‘rmay,

Nodonlardin yuz ming jafo ko‘rdum mano⁵.

Yassaviy “nodon birla ulfat” bo‘lishdan bag‘ri kuyib, jondan to‘yganligini, egrilik yo‘l ataladigan bo‘lsa, nodonning yo‘li egriligini, uni to‘g‘rilikka yo‘llash samarasizligini, besamar harakat esa dono uchun ayni g‘am zahri ekanligini ifodalaydi.

Ayo do‘stlar, nodon birlan ulfat bo‘lub,

Bag‘rim kuyub, jondin to‘yub, o‘ldum mano.

To‘g‘ri aytsam egri yo‘lg‘a mani to‘lg‘ab,

Qonlar yutub, g‘am zahriga to‘ydum mano⁶.

Yassaviy “zoti bilim libosidin mahrum”, kaltabin va xudparast kimsalarnigina nodon sanamaydi. Balki u “olimman deb kitob” o‘qib, “ma’ni uqmas”lar, fikrsizlik zulmatidan ruhi simsiyoh amaldorlarni ham nodonlar safiga qo‘shadi. Shoir ta’rifiga ko‘ra, “ulug‘ kichik yoronlardan

¹ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 74.

² Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 45.

³ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 72.

⁴ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 72.

⁵ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 65.

⁶ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 64.

adab”ning ketishi ham avvalo nodonlik tazyiqidandir. Shoir halol va haromning farqiga bora olmaydigan nafsparast xaloyiq uchun “maloikdin” sharm qiladi. U “oqil ersang eranlarga xizmat qilg’il”, deganida “muhabbatni maydonida javlon” qilib, “Haqiqatni daryosidan gavhar olg’on” mard kishilarni e’tiborda tutadi.

*Yer ostig’a qochib kirdim nodonlardin,
Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin.
G’arib jonim ming tasadduq donolardin,
Dono topmay yer ostig’a kirdim mano¹.*

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida “Nodon – eshak, balki eshakdin ham kamrak. Eshakka har ne yuklasang ul yon borur, aql va tamiz da’viysi yo’q. bermasang ochdur, bersang to’q. zabunedur borkash, xorkash, balki anborkash. Nodon bu sifatlardan mubarro, zori bilik hulyasidin muarro. Ishi g’urur va takabbur, xayolida yuz fosid tasavvur...”² – deya ta’riflaydi. Qaysiki elda ichki horg’inlik va ruhiy ozurdalik g’olib kelsa, u elda nodonlik avj oladi. Qaysiki yurtida ma’naviy qadriyatlar qimmatini pasayib, adolat ustunlari qulasa, u yurtida g’ofillar baland martaba va mavqelarga ko’tarilmog’i uchun keng yo’l ochiladi. Navoiy “nodonlig’ erur elda malomatg’a dalil”, deya bejiz aytmaydi.

Ahmad Yassaviy donolik to’g’risida ham mukammal ifodalarni beradi. “Oxir zamon olimlari zolim bo’ldi. Xushomad etguvchilar olim bo’ldi”, deganida olimning xushomadi – zolimlik, xushomad orqali olimlikka erishmoq-ilm ahlining ixtiyoriy tarzda zulmkorlar safiga qo’shiluvdur, deydi. Shoir boshqa bir to’rtligida “dono tufroq, nodonlarni ko’ksi baland” ekanligi, “haq taolo”ga “rafiq”likda so’zlaganda ana shu “ko’ksi baland” nodonlarga tanqidiy munosabatini bildiradi:

*Dog’i hijron ezdi bag’rim, qani dardmand?
Dono tufroq, nodonlarni ko’ksi baland.
Oyat, hadis bayon qilsam qilmas pisand,
Ko’ksun teshing, dard-u g’amg’a to’ldum mano³.*

Alisher Navoiy bilmaydigan narsasini so’rab o’rgangan kishini olimga, uyalib so’ramagan odamni zolimga qiyoslagan. Dono bo’lish uchun oz-ozdan o’rganish kerak, daryo ham qatra-qatra yig’ilish orqali paydo bo’ladi. O’rganishdan qochgan kishi dangasa, mehnat bilan azob tortgan inson esa dono hisoblanadi: “Bilmaganni so’rub o’rgangan olim va orlanib so’ramagan o’ziga zolim. Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur. O’rganurdan qochqon lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg’on tanand. Emgak tortib ilm o’rgangan xiradmand”⁴.

Dunyoning o’tkinchi va bevafoqligini tasvirlash turkiy xalqlar she’riyatida g’oyaviy-badiiy an’ana holida shakllanib kelgan va Ahmad Yassaviy hikmatlarida bu mavzu ham o’zi xos teranlik bilan ifodalangan.

*Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o’taro,
Inonmagil molingga, bir kun qo’ldin ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,*

¹ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg’oni [Matn]: nazm/to’plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 65.

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 108.

³ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg’oni [Matn]: nazm/to’plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 65.

⁴ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 122.

To 'rt ayog 'liq cho 'bin ot bir kun sanga yetaro¹.

Dunyoning o'tkinchiligi mohiyatini anglatuvchi ushbu hikmatda faqatgina bu haqda bo'lib qolmasdan, "beshak biling, bu dunyo, borcha xalqdin o'taro"dagi "dunyo", mumtoz shoirlar ifodalaganidek, odamlar bir qo'nib yana ketadigan "rabot" ma'nosida hamdir. U inson umrining ko'zgusi misoli. Taqdirning ayovsizligi oldida mol-dunyoga inonmoq nodonlik va g'ofillikdir. Bu olam shunday bir maydonki, unda hamma oxir-oqibat "to'rt ayog'liq cho'bin ot" ustida ketishga mahkumdur. Hayotning o'tkinchiligini anglash, hayotni ma'rifat bilan qadrlash, uni g'animat bilish, qadrlash, manmanlik va jaholat "tulpor"iga minib o'zni unutmaslik lozim degan mazmunni ifodalaydi.

Alisher Navoiy ijodida yuqoridagi fikrlarga hamohang quyidagi qarashlar e'tiborimizni tortadi:

*Ey ko'ngul, kelkim balo bazmida jomi g'am tutay,
O'z qatiq holimg'a o'lmastin burun motam tutay.
Yig'labon boshimg'a ohim dudidin chirmab qaro,
Motamim el so'ngra tutquncha, o'zum bu dam tutay².*

Ushbu satrlar orqali Navoiy yoshlikni sevis, yoshlikka xos shijoat va muhabbat tug'yonlari qalbni tark etishiga ko'nika olmaslik holatini ifodalaydi. Yassaviy esa yo'lsizlik paytida soadatga bel bog'layolmaslik hislarini ifodalab:

*Ayo do'stlar, hech bilmadim man yo'lumni,
Saodatqa bog'lamadim men bilimni.
G'iybat so'zdin hech yig'madim man tilimni,
Nodonlig'im mani rasvo qildi, do'stlar³.*

Shoir nazdida saodat va haqiqat dunyoviy narsalarga egalik emas, haqiqat yurakda, haqiqat ruhda. Borliq, olam bilan ruhan uyg'unlikka kirishish – oliy saodat, ma'rifat nurlaridan ong va dilni tiniqlashtirish. Inson o'z mavjudligini ruh va ruhiy hayotdagi o'zgarishlar, yuksalishlar orqali idrok etishni istaydi. Yassaviy poetik tushunchalaridagi bu haqiqatlarni hazrat Navoiy mukammal anglaydi. Komillikka erishish, haqqa e'tiqod, mol-u davlat uchun qayg'urmaslikda "Turk piri"dan o'rnak olishga da'vat etadi:

*Har kishi komil erur, bas anga haq bandalig'i,
Mundin o'zga tama'i kasbi kamol aylamangiz.
Olami foniy uchun ranju mashaqqat chekmang,
Mol uchun g'am yemangiz, fikri manol aylamangiz.
Turk piri kebi olamdin etakni silking,
Do'stdin g'ayri tamannoi visol aylamangiz⁴.*

Navoiy "mol uchun g'am yemangiz" deb Yassaviydagi "dunyo" obrazining ma'nosini sharhlaydi. Navoiy she'riyatini to'la anglash uchun Yassaviy hikmatlaridagi g'oya va poetik obrazlarning tarixi va mazmunini chuqur tushunish lozim. Yassaviy bir hikmatida:

¹ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 200.

² Alisher Navoiy. Badoye' ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 401.

³ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 86.

⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 362.

*Tufrog' bo'lg'il, olam sani bosib o'tsun*¹, – deyish orqali insonlarni ezgu xulq sohibi, muruvvatli va xokisor bo'lishga undaydi. Yassaviydagi “tufrog” obrazi xuddi shu mazmunda Navoiy misralarida ham keltiriladi:

*Bu qadar manzilat-u qurbi buyuk poya bila,
O'zini tutquvchi tufrog' ila hamvor qani?*²

Tufrog' ila o'zni teng tutish, buyuklik zaminidir. Kibr va manmanlikdan poklanish, xoksorlikdir. Insoniylik martabasi oldida boshqa narsalarni nazarga ilmaslikdir. Navoiyning yana bir g'azalida keltirilganidek, “bevaforlar o't, vafo ahli erur tufrog'...” misrasidagi “o't” va “tufrog'” so'zlarining ikkalasi ham poetik obraz sifatida keltirilgani, o't obrazi orqali bevaforlik va vafo ahli uchun esa tufrog' qo'llanilgani anglashiladi. Yassaviyning “tufrog' bo'lg'il” ifodasi Navoiyda shunday izohlanadi:

*Ey Navoiy, o'zni maqbul istasang, tufrog' bo'l
Kim, erur mardud ulkim boshida pindori bor*³.

O'zlikni anglash “o'zni maqbul” istashning chorasi tuproqsifatlikdir. Insonni ulug'likka chorlovchi bu misralar orqali shoir insonlarga ona tuproq, Ona Vatan bilan birlashgan kishini nafaqat o'z eli, balki olamning ehtiromiga sazovor bo'lishini uqtirmoqchi bo'ladi. Bunday kishilarni el tushunadi, dunyo taniydi, bunday qudratli insonlarni olam ham yengib, bosib o'tolmaydi, deydi.

Yassaviy hikmatlaridagi ko'plab mana shunday poetik obrazlarning ma'no va mazmuni nihoyatda teran va murakkabdir. Bu barhayot g'oyalar Alisher Navoiy kabi mutasavvif shoirlar ijodi orqali ham davom ettirilgan. Shuningdek, Yassaviy hikmatlarini kitobxonlar ommasiga keng targ'ib qilish va mazmun-mohiyatini to'g'ri tahlillar orqali yetkazish orqali yosh avlod ongida halollik, kamtarlik va vatanparlik kabi bir qator ezgu xislatlarni rivojlantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi I. Haqqulov. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 156 b.
2. Alisher Navoiy. Badoye' ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 724 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 172 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. O'n yettinchi jild, Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001. – 519 b.
5. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 620 b.
6. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 804 b.
7. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 384 b.

¹ Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 96.

² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 360.

³ Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 96.

8. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 458 b.
9. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Uchinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 385 b.
10. Köprülü Fuat. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. – İstanbul: Alfa Yayınları, 2020. – 560 s.
11. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan namunalar). Nashrga tayyorlovchi Nodirxon Hasan. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 83 b.
12. Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – 592 b.

Orta Asya Didaktik Edebiyatında Ahmed Yesevî İzleri
(19.yüzyılın sonu ve 20.yüzyılın başı)

Prof. Dr. Nadirhan Hasan,
Özbekistan Milli Üniversitesi

Hamidulla Taciyeu
Özbekistan Milli Üniversitesi araştırmacısı

Öz: Türkistan halkları edebiyatında “Hikmet” adlı dinî-tasavvufî ekolün kurucusu olarak anılan “Pîr-i Türkistan” Hoca Ahmed Yesevî ve onun kurduğu ilk Türk tarikatı olan “Yesevîlik”, Orta Asya Türklerinin sosyal ve manevî hayatını asırlardır geniş bir şekilde etkilemiştir. Bu etkinin neticesinde Türk dünyasında Ahmed Yesevî’nin fikir ve görüşleri yayılmıştır. Nitekim Süleyman Hakîm Ata, Kul Ubeydî, Kul Umurî, Nimetullah, Miskin Kasım, Halis gibi birçok Yesevî takipçisi manzumeleriyle “Hikmet” geleneğini geliştirmişlerdir. 19.yüzyıldaki dinî-maarifî edebiyata göz attığımızda bu geleneği devam ettiren, Yesevî şiiirlerinden ilham alarak eser veren Hudaydâd, Nizami-Hokandi, Hazini-Hokandi, Kul Nadirî gibi onlarca arif şairi görebiliriz. Yazıda Hoca Ahmed Yesevî fikir ve görüşlerinden etkilenen Azim Hâce İşan, Meczub Nemenganî, Molla Yoldaş Hilvetî gibi marifetçi şairlerin hayatı ve eserlerine kısaca değinilecek, dönem ve edebiyatın bakış açısıyla değerlendirilecektir.

Anahtar kelimeler: *Azim Hâce, Meczub, Hilvetî, Edebiyat, Tasavvuf, Hikmet.*

Abstract: “Pir-i Turkistan” (Saint Teacher of Turkistan) written by Hoja Ahmad Yasavi, who was known as the founder of the religious-mystical school named as Hikmet in the literature of Turkistan peoples, and Yassavian teachings, the first Turkic sect founded by him, has been practicing for centuries in the social and spiritual life of Central Asian Turks. As a result of this effect, the ideas and views of Ahmad Yasavi spread in the Turkic world. As a matter of fact, many Yasavi followers such as Suleyman Hakîm Ata, Kul Ubeydi, Kul Umuri, Nimetullah, Miskin Kasim, Halis developed the tradition of Wisdom with their poetry. They created the literature of Yassavian teachings with their literary and mystical works. When we take a look at religious-marvelous literature in the 19th century, we can see dozens of wise poets such as Hudaydad, Nizami-Hokandi, Hazini-Hokandi, and Kul Nadiri, who continue this tradition and inspired by Yasavi's poems. In the article, the life and works of ingenious poets such as Azim Hâce İşhan, Mejzub Nemengani, Molla Yoldash Hilveti, who are influenced by Hoca Ahmad Yasavi's ideas and opinions, will be discussed with a perspective of period and literature.

Key words: *Azim Hâce, Mejzub, Hilveti, Literature, Tasavvuf, Hikmet.*

Giriş. Orta Asya edebiyatında “Hikmet” adlı dinî-tasavvufî ekolün kurucusu olarak “Pîr-i Türkistan” Ahmed Yesevî anılır. Onun kurduğu ilk Türk tarikatı olan “Yesevîlik” Orta Asya Türklerinin dinî-tasavvufî hayatında olsun, sosyal, manevî, edebî hayatında olsun geniş tesirleri olmuştur. Bu etkinin neticesinde Türk dünyasında Ahmed Yesevî’nin fikir ve görüşleri yayılmıştır. Süleyman Hakîm Ata, Kul Ubeydî, Kul Umurî, Nimetullah, Miskin Kasım, Halis gibi onlarca Yesevî takipçisi manzumeleriyle “Hikmet” geleneğini geliştirmişlerdir. Diğer taraftan da Sufi Muhammed Danışmend, Hüsameddin Sıgnaki, Mevlâna Koylaki, Hoca İşhak Ata, Übeydi, Hudaydâd-ı Veli, Hazinî, Âlim Şeyh, Muhammed Hüseyin Buhârî, Zinde Ali, Molla Hudaydâd gibi mutasavvıf yazarlar ilmî, tarihî ve tasavvufî eserleriyle Orta Asyada Yesevîlik literatürünü oluşturmuşlardır.

Ahmed Yesevî ile başlayan “Hikmet” adlı manzumeler dervişler vasıtasıyla en uzak Türk topluluklarına kadar ulaştırılmaktaydı. Ahmed Yesevî’nin şariat, tarikat, marifet ve hakikatle ilgili kendi görüşlerini sade bir Türkçeyle telkin etmesi, Yesevîliğin süratle yayılıp yerleşmesinin ve daha sonra ortaya çıkan birçok tarikata etki etmesinin başlıca sebebi olmuştur.

19.yüzyıldaki dinî-maarifi edebiyata göz attığımızda Yesevîlik geleneğinden etkilenen Molla Hudaydâd, Meczub Nemenganî, Azim Hâce, Nizamî Hokandî, Hazinî Hokandî, Kul Nadirî, Yusuf Seryamî gibi arif şairleri görebiliriz. Aşağıda 19.yüzyıl ve 20.yüzyılın başında yaşayan ve eserlerinde Ahmed Yesevî’nin etkisi olan bazı şairler üzerine görüş ve mülâhazalar paylaşılacaktır.

Azim Hâce (ö. 1847)

Çağatay edebiyatının son dönem temsilcilerinden Azim Hâce İşân, yani Azîmî, Hoca Ahmed Yesevî’nin “Hikmet” ekolüne mensup mutasavvıf bir şairdir. Onun hayatı ve eserleriyle ilgili elimizde çok az bilgi olmasına rağmen bazı kaynak ve çalışmalar ışığında onun hayatı ve edebî portresini oluşturmaya çalışacağız¹.

“Tezkire-i Kayyumî” eserinde yazıldığına göre, Nizamî-Hokandî² (vefatı hicri 1121/miladi 1709-10) isimli şairin torunu olan Kemâleddin oğlu Azim Hâce³, 18. yüzyılın sonunda doğmuş ve miladi 1847 yılında vefat etmiştir. Türkistan’daki güzel Fergana vadisinin merkezi olan Kokand’da hayatını sürdürmüş olan Azim Hâce, ilk eğitimini babasından almış, Kokand medresesinde tahsil görmüş, daha sonra amcaoğlu Muhammed Celaledin (Celalî) ile beraber Buhara’da eğitime devam etmiştir⁴. Tahsilini tamamlayıp Kokand’a dönünce, meşhur Nakşibendî şeyhi Muhammed Hüseyin Halife’ye (1755-1834) mürit olmuştur. Hocasından aldığı feyizle ilim ve takvada yüksek derecelere ulaşmış, ondan irşat icazeti alarak “kutb ul-aktap” unvanına layık olmuştur. Kokand’ın Kel-Dûşan köyündeki camide kırk sene imamlık yapmıştır. Hayatının sonunda âmâ kalan Azim Hâce, Kokand’da vefat etmiş, Ser-mezar kabristanında dedesi Nizamî Hokandî’nin kabri yanına defnedilmiştir.

Azim Hâce hikmetleri Ahmed Yesevî hikmetlerinde olduğu gibi didaktik konulara, yani din ve iman, takva ve diyanet, dünya ve ahiret, cennet ve cehennem meselelerine ağırlık vermiştir. Örneğin, şair hikmetlerinde halkı insaflı ve diyanetli olmaya, her konuda adaletli davranmaya davet etmektedir. İnsanlığın en parlak göstergesinin eşitlik, tevazu ve yumuşaklık olduğunu vurgulayarak şöyle demektedir:

Bendelikni şartıdur acızlığı-u sinuğluğu,

Sultan bolsang âlemğa hergiz kılma uluğluğu (Hasan, 2011: 139).

Açıklaması: *İnsânî acizlik ve mahzunluk, kulluğun şartıdır. Âleme sultan olsan bile asla kibir taslama. Burada “acizliğ-u sinuğluğu” derken şair tabii ki mütevaziliğe vurgu yapmaktadır.*

Dünya mehrin koymayın Hak yâdını aymayın,

Nefsin kozın oymayın, boynıng bolmas saluğluğu (Hasan, 2011: 139).

Açıklaması: *“Gönlünden dünya sevgisini bırakmayınca, Hakkın zikrini etmeyince ve nefsin gözünü oymayınca boynun bükük, yani mütevazi olamazsın” derken şair, geçici dünyaya fazla sevgi gösterip, fani zevklere aldanmamayı, Hak ve hakikati unutmamayı hatırlatmaktadır. Ona göre, her bir kişinin insanlığı yoldan çıkararak meşum “nefsin gözünü oyması” gerekmektedir. Aksi takdirde nefsin tuzağına düşen kimsenin insan kisvesinden çıkacağı kesindir. Şair burada bir taraftan insanı doğru yoldan saptıran dünyayı ve isyankâr nefsi melamet etmektedir.*

Azim Hâce şiirlerinde Ahmed Yesevî hikmetleriyle benzerlikler çoktur. Adap-ahlak ve yüksek ruhi kemalâta davet eden şiirlerinde Ahmed Yesevî’ye muakkiplik açıkça görülmektedir. Mesela, onun 9 bend, 39 mısradan ibaret olan her bendi nasihat tarzındaki “İlkim alıp yolga salıng ya Mustafa” redifiyle biten hikmetinde Ahmed Yesevî hikmetlerine has olan sufîyâne ruh, tevazu,

doğruluk ve samimiyete davet, iyiliğe teşvik gibi konular ifadesini bulmuştur. Örneğin, Azim Hâce'nin Dîvan'ı ile Hoca Ahmed Yesevî hikmetlerini mukayese ettiğimizde, birçok tasavvufî konunun örtüştüğünü ve onların arasında yakınlıkların ve benzerliklerin olduğunu görebiliriz:

Mesela, Hazret-i Peygamberimiz Muhammed Mustafa'ya (s.a.s) saygı ve muhabbet etmek, Kur'an-ı Kerim'e saygı ve sevgi, her mürid'in tarikatındaki vazifeleri, seher vaktini değerlendirmek, gözyaşı dökmek, erenler, dervişler, tövbe, nefis terbiyesi gibi birçok konuda Azim Hâce'nin Ahmed Yesevî'yi takip ettiği görülmektedir.

Yesevî'ye göre, şeriatı iyi bilen insan, tarikatın makamlarını da anlar ve sonuçta hakikat deryasına dalar:

Şeriatning şeraitin bilgan âşık,
Tarikatni makamını bilur dostlar.
Tarikatni işlerini eda kılıp,
Hakikatni deryasığa batar dostlar (Yesevî, 2017: 175).

Açıklaması: *Ey dostlar, biliniz ki, Şeriat'ın şartlarını bilen âşık, Tarikat'ın makamını da bilir, Tarikat'ın işlerini tamam eyledikten sonra Hakikat'in deryasına batar.*

Azim Hâce'ye göre:
Şeriatga rast muvafık bolmagunca,
Tarikatga talibmen deb yetmes bolur.
İhlas birle sırnı tutub başdın otub,
Tarik kirgan bela tegsa kaytmas bolur (Mirhaldarov, Taciye, 2012: 133).

Açıklaması: *Şeriat'ın hükümlerine uymayana kadar, tarikatı talep etmekle bir yere varamazsın. İhlas'la mânâ sırlarını sıkı tutup başından vazgeçen sâlik, tarikata girerse bela gelse bile asla yolundan dönmez.*

Azim Hâce hikmetleri sanatsal yönden de zengin ve özgündür. Araştırmacıların da kaydettiklerine göre şairin hikmetleri 19. yüzyılda tasavvufî konuda yazılan Çağatayca şiirlerin güzel örneklerindendir⁵.

Kısacası, şairin irfani görüşleri manevi, sosyal hayatta eşitlik ve adaletin yerleştirilmesine, halkın arasında infak-u ihsan yapılmasına, toplumda barışın ve birliğin istikrarına, geçmiş ecdadın hizmetlerine saygı göstermeye bir çağrıdır. Dolayısıyla Azim Hâce, Yesevîlik düşüncesinin teşvikçisi ve bu geleneğin 19. yüzyıldaki takipçisi olarak itibara layık bir şahsiyettir. Demek ki onun hikmetleri sadece Yesevîlik geleneğinde değil, tüm Çağatayca Tasavvufî edebiyatta da önem kazanmaktadır.

Abdülaziz Meczub Nemenganî (ö. 1849/57)

Türkistan'da yetişen mutasavvıflardan biri de, bugüne kadar az bilinen ve son zamanlarda bazı çalışmalarla gün yüzüne çıkartılan, kıymeti yeni anlaşılmaya başlayan Abdülaziz Meczub Nemenganî'dir.

19. yüzyılda yaşayan, edebiyat camiasında pek tanınmayan Nemenganlı Abdülaziz Meczub, Türkistan tasavvuf edebiyatında vecdle dolu şiirleriyle kendine özgü yer edinen bir mutasavvıf şairdir. Bazı bilgilere göre doğum yeri Kokand, bazı bilgilere göre Karşı olarak bilinir. Doğum tarihi ile ilgili bilgi yoktur. Vefat tarihi Karî Kunduzî'nin "Tevarih-i Manzume" eserinde hicri 1256 / miladi 1849⁶ (Corabaye, 2004:25), Polatcan Kayyumî'nin "Tezkire-i Kayyumî" eserinde ise hicri 1273 / miladi 1857 olarak gösterilmiştir⁷ (Kayyumî, 1998:248).

Buhara medreselerinde tahsil görürken Halife Hüseyin Yangikorganî'den tasavvufu öğrenmiş ve onun halifesi olmuştur. Daha sonra Karşı, Semerkand, Kokand gibi şehirlerde

bulunmuş, halkı irşad etmiştir. Mekke-i Mükerrreme ziyaretinden döndükten sonra hayatının son zamanını Nemengan’da geçirmiştir.

Meczub hayatı boyunca birçok öğrenci yetiştirmiştir. Hatta sevenleri ve hayranları günden güne çoğalınca “Meczubiler” adlı bir gürühun ortaya çıktığı uzmanlarca ileri sürülmüştür⁸ (Corabayeve, 2004: 25). Meczub Nemenganî’nin öğrencileri Ahmed Yesevî yolundan giderek tarikatta sesli zikri uygulamıştır.

Meczub Nemenganî, tarikat şeyhi olmakla beraber bir sufi şair kimliği ile de öne çıkmıştır. Meczub’tan günümüze bazı eserleri ulaşmıştır. Onun biri Türkçe ve diğeri de Farsça olmak üzere iki Divanı⁹, “Tezkiretü’l Evliya” (diğeri adı “Menakıb-ı Ehl-i Süluk” veya «Tezkire-i Meczub Nemenganî») ¹⁰ ve Hikmet-i Meczub ¹¹ eserleri mevcuttur. Türkçe divanının bir kısmını çalışan Selver Kuruldak’ın belirttiğine göre şairin “Der Tavzih” isimli bir eseri daha vardır (Kuruldak, 2010: 6).

Meczub’un eserleri arasında en meşhuru ve önemlisi Türkçe Divanı’dır. Toplam 65 şiirden oluşan eserin içeriğini dinî-tasavvufî ve ahlaki konulardaki mesnevi, gazel, muhammes ve murabbalar oluşturmaktadır. Geleneğe göre divan hamd ve naat ile başlamaktadır:

Huda-yı tebarek, Huda-yı te’ala,

Özüng yadı yol açğıl Hak te’ala.

Tüfeyli Muhammed ‘aleyhi’s-selam

Aning al (u) ashabiga hem selam (Divan-ı Meczub, 1.gazel, 1.beyit).

Açıklaması: *Ey Cenab-ı Hak, Muhammed’in (s.a.s.) yüzü suyu hürmeti hakkı Seni zikretmemiz için yolumuzu aç, O’nun ashabına da selamlar olsun*

Eserde Hz. Peygamber Efendimiz’den başlayıp, farklı dönemlerde yaşayan tarikat pîrleri ve Allah dostlarından oluşan, şairin mensubu olduğu Nakşebendî-Rabbanî yolunun silsile mensupları mesnevi ile kaleme alınmıştır:

Tufeyli Ebu Bekir kim yâr-ı ğâr,

Tufeyli Ömer adlde nâm-dâr...

Halife Hüseyin oldı ikkisidin,

Bolub eş Muhammed bu ikkisidin.

İcazet berip uşbu iki aziz,

Ki boldı halife bu Abdu’l-Aziz (Divan-ı Meczub, 1: 2-4).

Açıklaması: *Mağara dostu olan Ebu Bekir Sıddık ve adalette ün salan Ömer, bu iki zatın devamcısı olan Halife Hüseyin ve Muhammed, bu iki azizin verdikleri icazetle Abdulaziz (şair) halife oldu.*

Yukarıda geçen beyitlerden anlaşıldığına göre, Meczub iki murşid: Halife Hüseyin ve Muhammed’den icazet almıştır.

Tasavvuf edebiyatı ananesine göre, Meczub şiirlerinde şekilden daha ziyade, şiirin manevi boyutuna önem vermiştir.

Ali-yi pak Tengrimni arslanıdur,

Hoş elkab anga ey nikukar oku (Divan-ı Meczub, 39:19).

Açıklaması: *Ey işleri doğru olan, bil ki tertemiz olan Hz. Ali, Tanrım’ın arslanıdır, onu güzel isimlerle yâd edip yüceltiriz.*

Geleneğe göre, Arap, Fars ve Türk edebiyatlarında sık sık ele alınan manzum türlerden biri “Sâkînâme”lerdir. “Sâkînâme” mesnevi türündeki eserlerin bir bölümü veya divanlar içinde terciibend, terakibibend ve kaside gibi manzumeler şeklinde yazılır. Meczub da bu geleneğe riayet ederek divanının sonuna bir “Sâkînâme” ilave etmiştir.

Oşal şehd çaykakıdın nuş etib,
Ğam-i ikki âlem ferâmuş etip.

Vefa ehli öğretib ışk eliğa,

Hurd nüktedanını hâmuş etib (Divan-ı Meczub, 66:40-41).

Açıklaması: *O balın kalıntısından içip, iki âlem kaygısını unutup, vefa ehli, aşk ehlini inceliği ile sükûte uğrattı.*

Sâkinâmedeki bunun gibi parçalar Meczubîlerin zikir meclislerinde özel bir ahenkle icra edilmiştir. Şairin bir başka üslup özelliği ise şiirlerini halk dili ile yazmış olmasıdır. Bilindiği üzere Ahmed Yesevî hikmetlerini halkın kolayca anlayabilmesi için sade bir Türkçe ile yazmıştır. Meczub da büyük selefi Ahmed Yesevî'yi takip ederek kendi şiirlerini Yesevîyane tarzda, yani halka yakın bir dil ve üslup ile kaleme almıştır:

Muhabbet târını nâzik rubabîñ fehm eyle,

Niçe Mansur sözi merhabâ deb tâcda oldı (Divan-ı Meczub, 43:18).

Açıklaması: *Muhabbet telini nazik rübabın diye bil, Mansur Hallac'ın "enel-hak" sözünü nice âşıklar taç gibi yükselttiler.*

Sonuç olarak, 19. yüzyıl gibi Yesevîliğin kaybolmaya yüz tuttuğu bir devirde Türkistanlı diğer bazı sufi yazarlar gibi Meczub Nemenganî'nin eserlerinde de Ahmed Yesevî'nin etkisini ve izlerini görmek Yesevîlik çalışmalarında önem arz etmektedir.

Molla Yoldaşbay Törebayoğlu Hilvetî (1858-1921)

Molla Yoldaşbay Hilvetî, bugünkü Özbekistan'ın Nemengân vilayetinin Uyçi ilçesindeki Ciydekapa köyünde 1858 yılında dünyaya gelmiştir. Ailevi sıkıntılardan dolayı babası büyük oğlu olan Yoldaşbay'ı Molla Azım Kadı'nın hizmetine vermiştir. Molla Azım, Yoldaşbay'ın hizmetinden, aklından, idrakından, edeb ve ahlakından memnun kaldığı için onu öz oğlu gibi görmüş, ilim öğretmiş ve dönemin tanınmış âlim ve şairi müderris İnayathan Lengerî'nin hocalık yaptığı Azizhoca Eşan medresesine eğitime göndermiştir.

Daha genç yaşta Hafız Şîrâzî, Molla Câmî, Ali Şîr Nevaî, Babürşah, Fuzûlî, Baba Rahim Meşreb gibi klasiklerin eserlerinden etkilenmiş ve kendisi de onları takip ederek şiirler yazmaya başlamıştır.

Bir yandan Molla Yoldaşbay döneminin şair ve yazarlarıyla tanışmış, zamanının önemli şair ve âlimlerinden olan Nadim Nemenganî ve İshakhan İbret ile görüşüp onlarla çeşitli konularda fikir alış-verişinde bulunmuştur. Bu düşünce birliği neticesinde millî edebiyatta yeni bir geleneğin meydana gelmesi uzmanlarca şöyle belirtilmiştir:

"19. yüzyılın sonlarında ülkenin edebî hayatında mühim değişiklikler meydana gelmiştir. Millî şairler bir araya gelerek, yeni bir edebî hayat meydana getirmiştir. Nâdim, İbret, Hilvetî, Şevkî, Hayret gibi sanatkarlar bu geleneğin önde gelen temsilcilerindendir" (Halilbekov, 1998:91).

Hilvetî'nin hayatı ağırlıklı olarak Fergana vadisinin edebiyat ve kültür hayatıyla iç-içe geçmiştir. Onun kaleme aldığı Türkçe Divanı'nın bir nüshası Özbekistan Fenler Akademisi Şarkşinaslık Enstitüsü'nde, diğer nüshası ise Hilvetî'nin torunu Marufcan Akmalov'un şahsi kitaplığında bulunmaktadır. Divanda gazel, muhammes, kaside, muvaşşah, hiciv, sergüzeşt gibi türlerden oluşan 6886'sı Çağatayca, 770'i de Farsça olmak üzere 7656 beyit manzume yer almaktadır (Abdullah, 2001:170).

Bununla birlikte şair dağ gezisi hatıralarından ibaret "Seyr-i Cibâl" adlı mesnevi şeklinde bir manzume¹¹; "Çerağ-ı Mektep" adlı ahlaki, dinî, terbiyevî eser¹² ve Peygamberimizin (s.a.s) doğumunu anlatan bir "Mevlid-i Şerif"¹³ kaleme almıştır.

Dinî-tasavvufî Türk edebiyatında Peygamber Efendimizin doğumunu ele alan “Mevlid-i Nebî” türünde birçok manzum eser yazılmıştır. Bugüne kadar Anadolu’da Abdî, Abdülkadir Necib, Ahmed, Behiştî, Emirî, Hamdullah Hamdî-Akşemseddinzade, Hocaoglu, Muradî, Nahifî, Selamî Mustafa, Nakşî Şeyhi, Sinanoğlu, Süleyman Çelebi, Şemsî, Visalî (Ali Çelebi), Yahya, Zatî (Aksoy, 2006:759), Orta Asya’da ise Yusuf Köpeyoğlu, Şadi Cangiroğlu, Molla Yoldaş Hilvetî gibi birçok yazar tarafından kaleme alınan “Mevlid”ler günümüze kadar ulaşmıştır.

Arap şairi Seyyid Cafer Berzencî (ö. 1763) tarafından manzum olarak yazılan Mevlid-i Nebî / Mevlid-i Şerif bugüne kadar mevlid merasimlerinde okunmuştur. Ancak eserin dili Arapça olduğundan, sadece âlimlerin açıklamasıyla halk onu anlayabilmiştir.

Kendi zamanının âlimi olan Lengerî Damla da bu ihtiyacı fark edip, öğrencisi Hilvetî’den Türkçe bir Mevlid-i Şerif yazmasını istemiş, şair de bu şerefli işi can u gönülle kabul ederek manzume bir Mevlid kaleme almıştır. Bu eser şimdilik Çağatay edebiyatında tespit edilebilen ilk mevliddir. “Mevlid-i Şerif Türkî” namıyla meşhur olan bu eser kısa zamanda şöhret kazanıp pek çok yerde basılmıştır. Örneğin, 1899 senesinde İstanbul’da, 1908, 1911, 1912, 1916 yıllarında ise Taşkent’te taşbaskı usulüyle basılmıştır.

Hilvetî ilk önce eserin girişinde telif sebebini beyan etmiş, Allah’a hamd ve Peygamber Efendimiz’e salavatlar getirerek eserine başlamıştır. Mevlid-i Şerif’in mahiyeti, onu okuma ve okutmanın faziletlerinden bahsetmiş, çeşitli ibret verici hikâyelerle Peygamber Efendimiz’in dünyaya teşrifini beyan eylemiştir. Nitekim, şair mevlidi beyan ederken Peygamber Efendimiz’in dünyaya gelmesindeki akıl almaz mucizeler; gökyüzü ve zeminin aydınlanması, üzerinde süt gibi bembeyaz, dağ gibi yüksek bir bulutun beklemesi, mübarek çehresinden parlayan nurun etrafa ışık saçması şöyle beyan edilmiştir:

*Amine debdur ki ferzendim resul,
Server-i âlem şafi-yi cüz vu küll.
Tuğulur tunda zemin u asuman,
Boldı ravşan misl u hürşid u cihan (Hilvetî, 1992: 33-35).*

Resulullah’ın (s.a.s.) ümmetlerine bıraktığı en yüce mirası, onun güzel ahlakı, sevgisi, şefkati ve merhametidir. Hilvetî, Cebrail ve Mikail (a.s.)ın kuş şekline girerek Peygamber Efendimiz’in şefkatine tanık olduklarını, mazlumlara yardımcı olduğunu ifade etmektedir:

*Kördü ikki kuş Muhammed şefkatin,
Eylegen mazlumlarga himmetin.
Birisi silkindi boldı Cebrail,
Biri Mikail körüng hükm-i Celil (Hilvetî, 1992: 44).*

Kısaca belirtecek olursak, Mevlid okuma geleneği günümüzde Türklerin hayatında daha da geniş bir anlam kazanarak çok yaygınlaşmış, Peygamber Efendimiz’in doğum günü dışında farklı doğum ve vefat meclislerinde, sünnet düğünlerinde, Kur’ân-ı Kerim hatim merasimlerinde, gençleri askere uğurlama gibi farklı vesilelerle okunmaktadır.

Sonuç ve Değerlendirme. 19.yüzyılın ikinci yarısında Türkistan’daki Kazak, Buhara, Hive ve Hokand hanlıkları Çar Rusya’sının istilasına uğramıştır. Dönemdeki bu siyasî sürecin ve millî kurtuluş direnişinin edebiyata yansısı üzerine muhtasar değinilmiştir. Bunun etkisiyle Türkistan’da oluşan maarifi edebiyatla birlikte, mıntıkada Ahmed Yesevî’nin başlattığı dinî-maarifi edebiyat geleneği de devam etmekteydi. Bu geleneğin temsilcilerinden ve makalede hayatı, eserleri ele alınan Azim Hâce İşan, Meczub Nemenganî, Molla Yoldaş Hilvetî gibi mutasavvıf şairler kendi döneminin itibara layık şahsiyetleri olmuşlardır. Onlar kaleme aldıkları eserleriyle hem klasik hem de dinî-maarifi edebiyatta iz bırakmışlardır. Eserlerinde genel olarak

Şark'ın klasik ve didaktik edebiyatının, özel olarak ise Ahmed Yesevî ve Ali Şir Nevaî'nin etkilerini görmekteyiz. Örneğin, Hakk'a ve mahlukata sevginin, peygamberlere, pîr ve üstatlara saygı ifadelerinin güzel örneklerini bu şairlerde görmek mümkündür. Genel olarak bu dönemde eser veren şairlerde görülen ortak ve müşterek değer, onların irfani görüşleriyle manevi ve sosyal hayatta ki eşitlik ve adaletin hükmedilmesine, halkın arasında infak-u ihsan yapılmasına, toplumda barışın ve birliğin istikrarına, geçmiş ecdadın hizmetlerine saygı göstermeye çağırışlardır. 19.yüzyılda ve 20.yüzyılın başında Türkistan'da etki yaratan diğer dinî-maarifi edebiyat temsilcilerinin de hayatı ve eserleriyle ilgili çalışmalar devam edecektir.

Sonnotlar. Bugüne kadar Azim Hâce İşan'ın hayatı ve eserleriyle ilgili yapılan çalışmalar için bkz: Eraslan, Kemal, "Azim Hâce Hikmetleri", Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, C.19, 1 Ekim 1971, s.193-230; Azim Hâce. Hikmetler. Ed. Seyfeddin Seyfullah. Taşkent, Fen, 1993; Nadirhan Hasan. Çağatay Şairi Azim Hâce ve Hikmetleri. Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi. Nisan 2011, sy.191, s.137-143. Makalemizin Azim Hâce kısmında Türk Dünyası Araştırmaları Dergisinde yayımlanan makaleden istifade edilmiştir.

1. Nizami-Hokandî hakkında bkz: Kayyumî, Polatcan. Tezkire-i Kayyumî, C. I, Taşkent, 1998, s.105-107; Kayyumov, Aziz. Kokand Edebî Muhiti. Taşkent, 1961, s.50-54. Nizami-Hokandî'nin tasavvufî şiirlerinden parçalar "Divan-ı Hikmet" nüshalarında da bulunmaktadır.
2. Kayyumî, Polatcan. Azim Hâce için "Mevlevî-Nemenganî Molla Hoca İşan'ın oğlu" diye kaydetmiştir. Bkz: Tezkire-i Kayyumî, C. I, s.184.
3. "Tezkire-i Kayyumî", C. I, s.184. Celalî hakkında bkz: "Tezkire-i Kayyumî", C. I, s.181-183. Celalî'nin şiirlerinden parçalar "Divan-ı Hikmet" mecmualarında da yer almaktadır.
4. Tezkire-i Kayyumî, C. I, s.184; Azim Hâce İşân. Hikmet, s. 3-14; Azîmî, İslam na territori bivşey Rossiyskoy imperii. Vipusk 4, Moskova, 2003, s. 7.
5. Corabayev, Atabek. Meczubî'yi Biliyor musunuz veya Meczubîlik Hakkında. Özbekistan Edebiyatı ve Sanatı. 2004, 25 Haziran.
6. Kayyumî, Polatcan. Tezkire-i Kayyumî, C.1, Taşkent, 1998, s. 248.
7. Corabayev, Atabek. Meczubî'yi Biliyor musunuz veya Meczubîlik Hakkında. Özbekistan Edebiyatı ve Sanatı. 2004, 25 Haziran.
8. Özbekistan Fenler Akademisi Ebu Reyhan Birunî Şarkşinaslık Enstitüsü, Divan-ı Meczub (Türkçe ve Farsça şiirlerinden oluşmaktadır) no. 2125, 2567, 1123/XVIII; Divan-ı Meczub (Farsça) no.1018; Divan-ı Meczub (Türkçe) no.1481; Divan-ı Meczub (Türkçe) no. 2580. Bu nüshada "Sâkî-nâme" manzumesi de yer almıştır.
9. Özbekistan Fenler Akademisi Biruni Şarkşinaslık Enstitüsü, Tezkire-i Meczub no. 2662.
10. Özbekistan Fenler Akademisi Biruni Şarkşinaslık Enstitüsü, Hikmet-i Meczub no. 2351/II.
11. Hilvetî, Molla Yoldaş. Divan. Özbekistan Fenler Akademisi Ebu Reyhan Birunî Şarkşinaslık Enstitüsü, no.1870, 38^a58^a; Hilvetî, Molla Yoldaş. Seyr-i Cibâl min Seyrir Rical. Ed: Seyfeddin Seyfullah, Azade Baltabayeva. Taşkent: Fen Yayınevi, 2009; Esra Acar, Molla Yoldaş Hilvetî'nin "Seyr-i Cibâl" Eserinin Dil ve Muhteva Açısından Tahlili. Yüksek Lisans Tezi. Danışman: Doç. Dr. Nodirkhon Khasanov. İstanbul, 2015.
12. Hilvetî. Çerağ-ı mektep, Sağlam itikad – mumine necat. Ed. Baltabayeva, Azade, Sayfullayev, Muhammadsadık. Taşkent: Şark Yayınevi, 2014.

Kaynaklar:

1. Kasimov, Begali v.d. (2004). Milli Uyanış Devri Özbek Edebiyatı. Taşkent: Maneviyat Yayınevi.
2. Abdurahimova N.A. (1994). Kolonialnaya sistema vlasti v Turkestane (vtoraya polovina 19 v. - načalo 20 v.) Avtoref. dis. na soiskaniye uç. step. dok. ist. nauk. Taşkent.
3. Kanayoğlu, Şortanbay. (2014). Eserler. “Kazınalı Ontustik” çok ciltli kitaplar, Cilt.236, Almaty: Nurlı Alem.
4. Cumabaev, Mağcan. (2002). Öleğder men poemalar. Almaty: Atamura Yayınevi.
5. Hazinî. (1999). Divan. Taşkent: Maneviyat.
6. Çolpan, Abdulhamid Süleyman. (1994). Üç Ciltli Eserlerinin Toplamı. C.1 (şiiirler, dramlar, tercümeler). Ed. Şarafiddinov, Ozod. Taşkent: G.Gulam Edebiyat ve Sanat Yayınevi.
7. Kızıltaş, Emine. (2012). 17.yy. Sonundan 20.yy. Başına Kadar Yaşayan Fergâna Muhiti Şairleri. Yüksek Lisans Tezi. Danışman: Nodirkhon Khasanov. İstanbul.
8. Tosun, Necdet. (2019). Türkistan Dervişlerinden Yâdigâr. (Orta Asya Türkçesiyle Yazılmış Tasavvufî Eserler) İstanbul: İnsan Yayınları, ikinci baskı.
9. Divan-ı Azimî, Özbekistan Fenler Akademisi Biruni Şarkşinaslık Enstitüsü, 3.kısım, no: 189.
10. Azim Hâce İşân. (1993). Hikmet. Ed. Dr. Seyfeddin Seyfullah. Taşkent.
11. Hasan, Nadirhan. (2011). Çağatay Şairi Azim Hâce ve Hikmetleri. Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi. Nisan 2011, sy.191, s.137-143.
12. Yesevî, Ahmed. (2017). Divan-ı Hikmet. Ed. Tıatçı, Mustafa. Ankara.
13. Mirhaldarov, Mirahmad. Taciyeve, Hamidulla. (2012). Yesevî Takipçilerinin Hikmetleri. Kazınalı Ontustik. Cilt.92, 1.kısım, Almaty: Nurlı Alem.
14. Kuruldak, Selver. (2010). Meczub Nemenganî'nın Türkçe Divanı (37-77.varakların incelenmesi) Yüksek Lisans tezi. Danışman: Dr. Nodirkhon Khasanov. İstanbul.
15. Divan-ı Meczub. Özbekistan Fenler Akademisi Ebu Reyhan Birunî Şarkşinaslık Enstitüsü, Divan-ı Meczub no. 2125, 2567, 1123/XVIII; no.1018; no.1481; no. 2580.
16. Şeyh Muhammed Sadık Muhammed Yusuf. (2008). Ruhî Terbiye. 3. cüz. Taşkent: Şark Yayınevi.
17. Acluni, İsmail ibn Muhammed. Keşful-hafa, Beyrut, 1351, Cilt.1.
18. Alikulova, Naima. (2008). “Meczub Nemengânî'nin Edebi Mirası”, Özbek Dili ve Edebiyatı Dergisi, sy.4.
19. Halilbekov, Alihan. (1998). Nemengân Edebî Muhiti, Taşkent: Ruhefza Yayınevi.
20. İsmetullah, Abdullah. (2001). Molla Yoldaş Hilvetî, Divan, Taşkent: Fen Yayınevi.
21. Hilvetî. (2014). Çerağ-ı mektep/Sağlam itikad-mumine necat. Ed. Baltabayeva, Azade, Sayfullayev, Muhammadsadık. Taşkent: Şark Yayınevi.
22. Hilvetî, (2009). Molla Yoldaş. Seyr-i Cibâl min Seyrir Rical. Ed: Seyfeddin Seyfullah, Azade Baltabayeva. Taşkent: Fen Yayınevi.
23. Beyaz, yazma nüsha, v.137-138, Mirahmad Mirhaldaroğlu'nun özel kütüphanesi.
24. Yesevî, Ahmed (2018). Divan-ı Hikmet. Ed. İbrahim Hakkul, Nadirhan Hasan. Taşkent: Nevruz Yayınevi.
25. Aksoy, Hasan. (2006). Türk Edebiyatında Mevlidler. Türkler. Ankara: Yeni Türkiye Yayınevi, C.12.
26. Hilvetî. (1992). Mevlid-i Şerif, Ed: Hanefî Andicanî, M.A. Andican: Andican Neşriyatı.
27. ----- (1994). Mevlid. Ed. Hayrullah Kasım Eltürk. Namangan: Namangan Hakikati Matbaası.
28. ----- (2000). Mevlid-i Şerif. Ed. Kurbanov A., Abdullayev İ. Nemengan: Nemengan Yayınevi.

XVIII-XIX asr o'zbek she'riyatida Ahmad Yassaviy an'analari

f.f.d. Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna

Samarqand davlat universiteti professori,

E-mail: muxitdinovanazmiya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Qo'qon adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri Mirhasan Sadoiy ijodida Yassaviy an'analari va ularning badiiy timsollardagi ifodasini yoritilishiga bag'ishlanadi. Shoir ijodida orifona qarashlar va uning mavzu ko'lami qator she'rlari qiyosiy tahlili asosida yoritiladi. Hamda, komil inson masalasining badiiy talqini tadqiq etiladi. Shoir devonlaridagi irfoniy mavzudagi she'rlarida salaflar an'alarining badiiy takomili g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy muhit, tasavvufiy qarashlar, g'oyaviylik, badiiy timsol, komil inson, an'ana va o'ziga xoslik*

O'zbek adabiyotining ming yillik tarixini tasavvuf ta'siridan ayri holda tasavvur qilishning aslo imkoni yo'q. Chunki tasavvuf milliy ma'naviy hayot uchun asosiy e'tiqod falsafasi, o'ziga xos mafkura edi. Tasavvufning asl maqsadi axloqqa yo'naltirilgan. Komil inson g'oyasi bu ta'limotning bosh g'oyasi hisoblanadi. Hayotning o'zida shunday g'oya va unga intilishning tayyor nazariyasi va kuchli amaliyoti bo'la turib, adabiyotning bu ta'limotga befarq bo'lishining ham iloji yo'q edi. Negaki inson va uning kamolotiga erishish so'z san'atida ham asl maqsad yanglig' targ'ib etib kelingan.

Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Mashrab, Huvaydolarning barakali ijodlari tufayli ushbu yo'nalishda qalam tebratish, irfoniy g'oya va maslakni badiiy yo'sinda ifoda etish hodisasini deyarli har bir o'zbek shoirining ijodida mushohada etish mumkin. Umumiy ravishda irfoniy g'oyalar va badiiy ijod munosabatlarini shartli ravishda uch guruhga tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi:

Tasavvuf tariqatida muayyan hol va maqom sohibi bo'lgan oriflarning she'riyati. Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy, Boborahim Mashrab, Xo'janazar Huvaydo kabi valiy sifat zotlarning she'r yozishdan maqsadi – ilohiy ma'rifat sir-asrorini badiiy ijod orqali muridlar va ma'rifat talabida bo'lgan o'quvchilarga yetkazish ekanini hisobga olgan holda ularni shu guruhga mansub deb bilish mumkin.

Tasavvuf ta'limotini puxta egallagan, ammo shoirlik iste'dodi oriflik maqomidan ustun bo'lgan mutafakkir zotlar she'riyati. Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning ijodida majoz tariqi va haqiqat asrori qorishiq holda kelgani, ularning merosi tasavvuf va irfon chegaralaridan ham o'zib, umuminsoniy muammolar va g'oyalar badiiyatning eng latif namunalari bilan bezangani bizning shu tariqada fikr yuritishimizga izn beradi.

Ijodiy merosida tasavvuf va irfonga oid tushuncha va tamoyillar ham uchrab turadigan shoirlar sirasiga Atoyi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amiriy, Gulxaniy kabi shoirlar uchinchi katta guruhni tashkil etadi. Bu toifadagi shoirlarning ijodiy merosida inson quvonchu tashvishlari, hayotning turfa jumboqlariga orif yo tarkidunyo qilgan zohid ko'zi bilanmas, balki haqiqatni anglashda turli raviya va fikriy oqimlarning qarashlaridan foydalanish ustunlik qiladi¹.

¹ Ушбу таснифда Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асаридаги шоирлар таснифига таянилди. Батафсилроқ қаранг: Алишер Навоий. 10 жилдлик. 9-ж. “Маҳбуб ул-қулуб”. –Т.: Ф.Фулом номидаги НМИУ, 2011.

XVIII – XIX asr birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari ijodida orifona g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Orif nafaqat Haq ishqida yongan oshiq, balki Olam va Odam falsafasi haqida chuqur mulohaza yurituvchi, dunyoga teran nazar tashlaydigan real inson. Shoirlarning ishqiy kechinmalardan holi, visol va hijron tafsilotlari keltirilmagan, sof so‘fiyona, falsafiy ruhdagi g‘azallarida ham asosiy e‘tibor inson va insoniy jamiyat benuqsonligi, barkamolligi, barqarorligi masalalariga qaratiladi.

Sharq mumtoz she‘riyatining mavzusi ishq, u umuman badiiy adabiyotning o‘lmas mavzusi bo‘lib kelgan. Bu tushuncha, mumtoz ijodkorlar tasnifotida haqiqiy yoki pok ishq deb nomlanib, uning mahbubi Yaratguvchidir. Yassaviy ijodidagi pok ishq g‘oyasi biz o‘rganayotgan davr shoirlari ijodida ham bosh g‘oyani tashkil etadi.

Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari ijodidagi irfoni g‘oyalar badiiy adabiyotda hikmat shakli XX asrgacha yashab, yangi-yangi g‘oyalar va obrazlar bilan boyib bordi. Ishq g‘oyasi keyingi davr ijodkorlari ijodiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Yassaviyona hikmatlariga hamohang satrlar bu davr shoirlari ijodida muhim o‘rin tutadi. Maqolamizda ana shunday irfoni g‘oya va didaktik ruh motivini she‘rlarida davom ettirgan shoirlardan biri - Mirhasan Sadoiy ijodi tahlili misolida XVIII–XIX asr she‘riyatida Ahmad Yassaviy an‘analarining poetik takomilini ko‘zdan kechiramiz.

XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asr boshlarida yashab ijod etgan Mirhasan Sadoiy shoir sifatida o‘ziga xosligini, qalamining originalligini, yangilikka intilishi, o‘z ichki dunyosi va o‘y fikrlarini ifoda eta olish salohiyatini o‘z ijodi misolida isbotlashga harakat qildi. Sadoiy ijod uslubining yana bir xususiyati uning sharq shoirlari adabiy merosiga, an‘analariga nisbatan bo‘lgan munosabatida ko‘rinadi. Bu narsa ham bevosita shoir ijodining g‘oyaviy-badiiy qiyofasini, uslubini namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan Sadoiy badiiy uslubining o‘ziga xosligi, originalligining yana bir qirrasini uning she‘riyatini sharq klassik poeziyasi an‘analari misolida o‘rganganda, ular bilan qiyoslaganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sadoiyning quyidagi g‘azali Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining vazni qofiya va radiflari, mazmuni va g‘oyaviy niyatlarini o‘zida to‘la aks ettiradi. Shoir yozadi:

*Tug‘uldim onadin qay kunki, turluk jafo ko‘rdum mano,
Behuda so‘zlar eshitib, bema’nigo kuldim mano.
Ey do‘stlarim g‘ofil bo‘lib, umrimni yaldek o‘tkarib,
Sahro yuzida loladek ochilmayin so‘ldim mano...
Har subhu shom aylab riyo, qilg‘on ishim bo‘ldi gunoh,
O‘z jonima nafsini uchun behad jafo qildim mano...¹*

Yassaviy yozadi:

*Ko‘nglim qattiq, tilim achchiq, o‘zim zolim,
Qur‘on o‘qib amal qilmas yolg‘on olim.
G‘arib jonim sarf aylayin, yo‘qdir molim,
Haqdin qo‘rqib o‘tqa tushmay pishdim ma‘no.²*

¹ Девони Садойи. Қўлёзма. ЎзФАШИИ Ҳ.Сулаймонов фондида 2619/І инвентар рақами остида сақланаётган нусха. – 3-б. Изоҳ: мақолада келтирилган шеърларда бундан кейинги ўринларда девоннинг ушбу нусхаси саҳифалари қўйилади.

² Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Тошкент. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1991 йил, - 44-бет. Изоҳ: мақолада келтирилган Яссавий ҳикматларига бундан кейинги ўринларда ушбу асар саҳифаси қўйилади.

Boshqa bir shu ruhdagi hikmatida Xoja Ahmad Yassaviy o‘z nafsiga nadomad yog‘dirar ekan, shunday deydi:

Qul xoja Ahmad, g‘aflat birla o‘tdi umring,

Va hasrato, ko‘zdin, tizdin quvvat ketdi.

Vo vaylato, nadomadni vaqti o‘tdi,

Amal qilmay, karvon bo‘lib quchdim ma‘no. 48-bet

Ma‘lumki, Yassaviyning dunyoqarashi, fikrlash tarzi mistik asosga ega. Chunki, Yassaviy o‘z jamiyatining farzandi. U komil iymon egasi va din targ‘ibotchisi. Yassaviy hikmatlarida “orifning ovozi hokim. Ulardan shayxning ovozi eshitiladi. Ba‘zan bir hikmatda ham oshiq, ham darvesh, ham donishmandning ovozi yangraydi. Lekin, bular orasida izchilligi va faolligi bilan yana ikki ovoz alohida ajralib turadi. Ulardan biri – gunoh “falsafasi”ni tasdiqlaydi. Bu – gunohkorligini teran tushungan kishining ovozi. U – shafqatsiz. Bu ovoz xotiraga bamisoli tig‘ bo‘lib sanchiladi, yurak oromini butunlay buzadi”.¹

Biz yuqorida Sadoiyning kuchli malomatiylik ruhi ufurib turgan she‘riyati haqida so‘z yuritgan edik. Bu hodisa unda Xoja Ahmad Yassaviy ijodiga ixlos ko‘rsatish natijasi sifatida yuzaga kelgan. Ma‘lumki, Ahmad Yassaviy malomatiya mazhabining namoyandalaridan biri edi. Bu mazhab namoyandalari kamolot pillapoyalaridan ko‘tarilishda o‘z-o‘zini nafsini qattiq malomat qilish, qusuru nuqsonlarini malomat tili bilan oshkor qilish yo‘lini tanlashgan. Ular o‘zlarining yaxshi fazilatlarini qat‘iyan pinhon tutar ekanlar, illatlarini mardlik bilan fosh etadilar. Bu esa ularning kuchli matonatidan dalolat beradi. Yassaviy hikmatlaridan yorqin ko‘zga tashlanib turgan ana shu matonat keyingi asrlarda Navoiy, Mashrab, Haziniy, Huvaydo va boshqa shoirlar ijodiyotida turli shakl va mazmunda namoyon bo‘ldi. Binobarin, Sadoiy she‘riyatining shaklu shamoyili, mazmun mohiyati asosan Xoja Ahmad Yassaviy ijodiyoti ta‘sirida shakllangan. Uning o‘nlab she‘rlarining tug‘ilishida Yassaviy hikmatlarining ta‘sirini buyuk pir falsafiy, axloqiy, estetik fikrlarning aksini yaqqol ko‘rish mumkin.

«Yassaviy dunyoni butunlay rad etmaydi, ammo dunyoga ko‘ngil bog‘lamaslikni targ‘ib etadi», – deb yozadi adabiyotshunos olim I.Haqqulov. U dunyoning o‘tkinchiligi oxirat ekinzori ekanligi, uni g‘animat bilib, yaxshi amallardan zaxira qilmoq lozimligini uqtiradi. “Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdin o‘taro, Ishonmagil molingga, bir kun qo‘ldan ketaro”, – deb boshlanuvchi hikmatda dunyoning bevafoqlik sifatleri oshkor etiladi. Yassaviyga hamovoz Sadoiy bu tasvirni yanada yorqinlashtiradi, rivojlantiradi:

G‘ofil bo‘lma, ey odam, umrung yeldek o‘taro,

Ko‘ngil berma dunyoga, o‘lum sani eltaro.

Umrung zoe bo‘lg‘uncha, g‘aflat birla yurguncha,

Tun kechalar uyg‘onib, qonimlig‘ing behtaro.

Hozir iki farishta, guvoh bo‘lur har ishta,

Yalg‘on, xayru sharringni qo‘ymay bir-bir bitaro.

Banda bo‘lsang yig‘lag‘il, xayru ehson aylag‘il,

Har kim qilmas amalni hasrat bilan ketaro.

Dunyo sani aldag‘ay, yomon yo‘lg‘a boshlag‘ay,

Pushaymonlar sud qilmas ajdaholar yutaro.

Ketdi bir-bir tengquring, xoh begona xoh eling,

Erta oqshom sanga ham ushbu navbat yetaro.

¹ Ахмад Яссавий. Ҳикматлар. Тош.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1991 й. 19-б.

*Xohi bo'lsun buyuk xon, xohi zaif notavon,
Bu sharbati o'lumni axir bir kun icharo...
Ey odami bemador, o'lumdin bo'l xabardor,
Jon olg'uchi Azroil bir kun yaqong tutaro. 112 a –b.*

Shoir g'azaliyotidan keyin uch turkum – uch mavzudagi marubbalar joylashtirilgan. Ularning barchasi yassaviyona hikmatlardan iborat. Birinchi turkum to'qqiz hikmatdan iborat bo'lib, hazrati payg'ambar (s.a.v) sha'nlariга yozilgan na'tdir. Na't “Xudo amri bila ro'zi qiyomat, Degay olam barisi, yo Muhammad. Agar uyg'onsalar hoki lahaddin, Turar vaqtida degaylar, yo Muhammad!” misralari bilan boshlanadi va oxiriga qadar har baytda “Yo Muhammad” da'vati takrorlanib turadi.

Ikkinchi turkum hikmatlar yettita bo'lib, muridning piri dargohiga yuzlanib qilgan iltijolaridan iborat:

*Birodarlar pir qoshiga borgim kelur,
Jon ko'zi birlan ani ko'rgum kelur,
Umid aylab jamolini ko'rgan vaqtda
Ma'rifatning bayonini so'rgim kelur. [36 b –b.]*

Shoirning uchinchi turkum sakkiz hikmati o'zining eng muqaddas orzu havasi, niyati ifodasidan iborat. Ulardan shoirning hajga borish niyati bo'lganini anglaymiz:

*Yo Iloho! Niyat qilib yo'lga kirsam,
Himmat qilib, belim bog'lab toat qilsam,
Ul xonai muborakni borib ko'rsam,
Boshim qo'yub, yuzlarimni surgim kelur. [34 a –b.]*

Oxirgi hikmatda shoir o'zining eng oliy niyatini bayon etadi. Ya'ni, u o'zining aziz hayotini Rasululloh (s.a.v.) yotgan tuproqda, ul zoti pok oyoqlari ostida yakunlashni orzu qiladi:

*Sadoiy qul aytur mudome: Ka'ba borsam,
Necha yillar Madinada borib tursam,
Umrum o'tub, qazo yetib agar o'lsam,
Rasululloh ayog'ida yotgim kelur. [34 b –b.]*

Shoir Xoja Ahmad Yassaviyga taqlidan o'z nomiga “qul” so'zini qo'shib yozadi. Ushbu yigirma to'rt hikmatni biz avvalo mavzu, so'ng radif, qofiyalar, mazmun nuqtai nazaridan nisbiy tarzda turkumga ajratdik. Chunki, biz bir turkum, degan, muayyan mavzudagi hikmatlar o'zaro fikrning izchil ifodasi, g'oyaviy uyg'unlik jihatidan boshqa turkumdan ajralib turadi.

Sadoiy devonidan o'rin olgan ikki g'azal uning do'stlari va yaqinlariga qilgan vasiyatidir. “Do'stlarim, vaqti safar bo'ldiki, armon, alvido” va “Qilinglar alvido, ey do'stlarim, vaqti safar bo'ldi” deb boshlanuvchi g'azallaridan shoir aziz umri o'tib, holi yomonlashganligi, soch-soqoli oqarib, belidan quvvat ketganligi, xavf-xatarga to'la uzoq yo'lga otlanganligi, qiyomat qo'rqinchlari, hisob-kitobni o'ylab ko'z yoshlari ravon bo'lib yotganligini hazin kayfiyat bilan bayon qiladi. Shoir nihoyatda qarib qolganligi, “gunohlardan” iborat og'ir yuk bilan parishon holda yo'lga tushganligi, ammo “Bul jahon misli rabote, filmasal yo'l ustida, Bir dame qo'ndumu, ketdim, hamnu mehmon ...” bo'lganini hasrat to'la misralarda ifoda etadi. U vasiyatlarida o'zini tuproqqa qo'yishda aziz emas, xor qilishlarini o'tinib so'raydi. Ana shu kuchli malomatiylik ruhi Sadoiy she'riyatining uni boshqa salaf va zamondosh shoirlardan ajratib turadigan o'ziga xos asosiy xususiyatlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Devon nihoyasida joylashtirilgan sharhi hol masnaviysida shoirning do'st-yorlariga qilgan vasiyati o'zi va o'z hayotiga nisbatan isyon darajasiga ko'tariladi:

*Qazo yetib, safar qilsam jahondin,
 Bo'lung xushvaqt qutuldik, deb, yamondin.
 Ki, man o'lsam hama yoru barodar,
 Tamomi jo'ravu, sardoru, sarvar,
 Arig' su birla hargiz yumangizlar,
 Go'riston sari eltib qo'ymangizlar.
 Qachon o'lsam mani zinhor-zinhor,
 Qilingizlarki hayvon jismidek xor.
 Ko'tarsalar janozam barkamola,
 Qiling toshu kesak birla havola.
 Tanim yo'l uzra tashlab, qilmang ikrom,
 Bosib o'tsun tamomi xeshu ham jam. [46a-47b]*

Bu misralarda shoir Sadoiy hazrat Xoja Ahmad Yassaviy (r.a.) sifatidagi chin so'fiy tarzida namoyon bo'ladi. Shoir yassaviyona uslubda juda ko'p she'rlar ijod qilgan. Bu g'azallar pand-o'git, nasihat, ogohlantirish mavzuida yozilgan bo'lib, hikmatlar shaklidagi turlari ham mavjud. Xususan, "G'ofil bo'lma, ey odam, umring yeldek o'taro, Ko'ngul berma dunyoga, o'lum sani eltar" deb boshlanuvchi she'r Xoja Ahmad Yassaviyning mashhur "Beshak biling bu dunyo ..." deb boshlanuvchi g'azaliga payravlik bilan yozilgan bo'lsa, devonda g'azallardan keyingi o'rinda joylashtirilgan uch turkum ruboiylari hikmatlar uslubida yozilgan.

Sadoiy o'z she'riyati bilan Qo'qon adabiy hayotida "Oltin beshik davri" deb nom olgan katta ijodiy muhitning ishtirokchilaridan biriga aylandi. U she'riyatni jamiyat hayoti va undagi muammolarga munosabat bildirishda faol badiiy san'at turlaridan biriga aylanishi uchun imkoni doirasida harakat qildi. U o'zining asosan pandnoma-didaktik ruhdagi asarlarida jamiyat barqarorligi va inson kamoloti masalalarini ko'tarib chiqdi. U yuksak badiiy mahorat bilan maftunkor she'rlar bitgan dilbar shoir edi.

XVIII asr va XIX asr birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitining asosiy xususiyatlaridan biri – unda orifona she'riyatning mavjud ekanligi bo'lib, irfoniy ruh umuman badiiy adabiyotning yetakchi g'oyaviy yo'nalishlaridan edi. Irfoniy tafakkur va ruh barcha shoirlar ijodida aniq, ravshan namoyon bo'lib turgan esa-da, siyosiy cheklashlar tufayli bu haqda so'z yuritishning imkoni yo'q edi. Bugungi adabiyotshunoslik ushbu masalaga o'zining bahosini bermog'i, munosabat bildirmog'i va davr ijodkorlari adabiy merosini yangicha ilmiy nuqtai nazardan o'rganmog'i lozim. Keyingi yigirma yil ichida bu borada ilk ilmiy tadqiqotlarga yaratildi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. 10 jildlik. 9-j. "Mahbub ul-qulub". –T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 768
2. Devoni Sadoiy. Qo'lyozma. O'zFASHI H.Sulaymonov fondida 2619/I inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1991. – B. 256
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009. – B. 290
5. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. O'n jild, yettinchi jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 278

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy ijodi va faoliyati XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat talqinida ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Fitrat Yassaviy ijodining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasavvufdagi o'rnini va "Devoni hikmat" asarining shakllanish tarixini tanqidiy ko'z bilan o'rganadi. Fitrat Yassaviy ijodini faqat diniy-ma'rifiy emas, balki ijtimoiy-hayotiy muhit bilan bog'laydi hamda uning hikmatlaridagi xalqparvarlik, mazlumlar tarafdori bo'lish g'oyalariga alohida e'tibor qaratadi. Biroq Fitrat Yassaviyning "quloch ochib Allohga yuzlanish" va zulmga qarshi faqat sabr va duo bilan kurashish tamoyilini tanqid qiladi, insonning ongli kurash olib borishi tarafdori sifatida chiqadi. Maqolada shuningdek, Yassaviy hikmatlarining turkiy tilida yaratilgani, xalq orasida keng tarqalganligi, hikmatlarning xalq og'zaki ijodidan shakllangani, Yassaviyga ergashgan muridlar va tariqat mafkurasi xususiyatlari ilmiy asosda ochib beriladi. Fitrat Yassaviy ijodini lirik, xalqona va soddaligi bilan yuqori baholaydi, lekin tariqat g'oyalarini tanqidiy yondashuvda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, Devoni hikmat, hikmatlar, tariqat, xalqparvarlik, turkiy adabiyot, murid, ijtimoiy tanqid, ilmiy-nazariy tahlil, og'zaki ijod, jadidchilik, turkiy til, xalq adabiyoti, zamonaviy yondashuv, tarixiy shaxs, ma'rifatparvarlik, pedagogika, Yassaviya tariqati.*

Abstract

In this article, the work and activities of Ahmad Yassavi are analyzed on a scientific and theoretical basis in the interpretation of Abdurauf Fitrat at the beginning of the 20th century. Fitrat critically examines the specific features of Yassavi's work, his place in Sufism, and the history of the formation of "Devoni Hikmat". Fitrat connects Yassavi's work not only with the religious-educational, but also with the socio-vital environment and pays special attention to the ideas of patriotism and support for the oppressed in his wisdom. However, Fitrat criticizes Yassavi's principle of "turning to Allah with open arms" and fighting against oppression only with patience and prayer, and advocates for the conscious struggle of man. The article also scientifically reveals that Yassavi's wisdoms were created in the Turkic language, widely spread among the people, that the wisdoms were formed from folk oral creativity, the disciples who followed Yassavi, and the characteristics of the tariqa's ideology. Fitrat highly appreciates Yassavi's work for its lyricism, folk nature, and simplicity, but analyzes the ideas of the tariqa with a critical approach.

Keywords: *Sufism, Divan of Wisdom, wisdom, tariqa, patriotism, Turkic literature, murid, social criticism, scientific-theoretical analysis, oral creativity, Jadidism, Turkic language, folk literature, modern approach, historical figure, enlightenment, pedagogy, Yassaviya tariqa.*

Ahmad Yassaviy nafaqat o'zbek, balki qardosh xalqlar adabiyoti tarixida ham o'chmas iz qoldirgan mutasavvufdir. Uning ijodini o'rganish kecha yoki bugun emas, balki bir necha asrlar oldin boshlangan. Xususan, Alisher Navoiy ham o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida tasavvufning yirik vakili sifatida Ahmad Yassaviy ijodiga alohida to'xtalib o'tadi (A. Navoiy, 2001). XX asr boshlarida Yassaviy ijodini o'rganish Abdurauf Fitrat nomi bilan boshlangan bo'lsa, asr so'nggida va XIX asr boshlarida, ya'ni mustaqillik sharofati bilan mutasavvuf hayoti va ijodini o'rganishga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, H. Homidiy, I. Haqqul, H. Islomiy kabi adabiyotshunoslar bu borada alohida ilmiy izlanishlar olib bordi.

Fitrat esa Ahmad Yassaviy ijodini ilmiy-nazariy jihatdan o'rgangan ilk olimdir. Fitrat – o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori (1926); jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori bo'lgan. Ahmad Yassaviy ijodini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish uning pedagog-olim sifatida “O'zbek adabiyoti namunalari” darsligini yaratish ehtiyoji bilan bog'lanadi. Chunki siyosiy muhit tufayli Fitrat 1923-1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik institutida ishlaydi, ilm bilan shug'ullandi. Sankt Peterburg (eski Leningrad) davlat universitetining Sharq fakultetida turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars beradi. 1926-yilda Sankt Peterburg davlat universiteti professorligiga saylanadi. 1927-yilning boshida Rossiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko'rsatadi. Moskvada orttirgan tajribalari asosida Fitrat maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun darslik va qo'llanmalar hamda yuzlab ijtimoiy-publitsistik maqolalar, o'nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratadi. Xususan, “Bedil” (1923), “Navoiyning forsiy shoirliği va uning forsiy devoni to'g'risida”, “Qutadg'u bilig” (1925), “Ahmad Yasaviy” (1927), “Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar”, “Hibbat ul-Haqoyiq”, “O'zbek shoiri Turdi” (1928), “XVI asrda so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash”, “Muhammad Solih”, “Fors shoiri Umar Xayyom” (1929), “Mashrab”, “Farhodu Shirin” dostoni to'g'risida” (1930) kabi katta ilmiy qimmatga ega risola va maqolalar shular jumlasidandir. Fitrat bu tadqiqotlari bilan o'zbek adabiyotshunoslik maktabiga poydevor qo'yadi.

Ahmad Yassaviy ijodini o'rganish ham davr talabi, ham ilmiy nazariyaning, ya'ni adabiyotshunoslik hamda adabiy tanqidni fan sifatida shakllantirishning omili edi. Abdurauf Fitrat Yassaviy va uning ijodini tahlil qilishda tanqidiy va zamonaviy talab bo'yicha yondashadi. Yassaviy ijodiga tog'ri va xolis baho berish uchun tahliliy yo'l xaritasi chizib oladi. Ya'ni Yassaviy ilgari surgan g'oyalarning asosini – ildizini topish va xolisona baho berishni maqsad qilib oladi. Shunga ko'ra: 1) Yassaviy haqida yozishdan maqsadi; 2) tasavvuf ilmining paydo bo'lishi; 3) Yassaviy kim bo'lganligi; 4) Yassaviy hikmatlari mazmuni va g'oyasi; 5) Yassaviyning yashash muhiti va muhitning Yassaviy ijodiga ta'siri; 6) davr va Yassaviy mafkurasi; 7) Yassaviyning zamondoshlari va keyingi davr ijodkorlariga ta'siri; 8) Yassaviy hikmatlarining adabiy qiymati haqida so'z yuritadi.

Fitrat, eng avvalo, Yassaviy haqida yozish maqsadini ochiqalaydi: *“Ahmad Yassaviy to'g'risida matbuotimizda bir-ikki yo'la gaplar bo'lub o'tgan edi. Lekin, ular quruq maxtachlar ham anchagina falsafalardan to'ldirilgan; shuning uchun Ahmad Yassaviyning hikmatlarini bo'lg'ani kabi tasvir qilib berish xizmatidan o'jiz maqolalar edilar”*. (Fitrat, 17) Demak, olim Yassaviy ijodini kengroq va to'laroq o'rganishni maqsad qiladi. Shuningdek, mutasavvuf ijodini faqatgina “quruq maqtov”larga burkamasdan, unga tanqidiy ko'z bilan ham qarash lozimligini nazarda tutadi. Bu borada Fitrat real yondashuvni istagani shundanki, kundan kunga jaholat botqog'iga cho'kayotgan xalq uchun Yassaviy g'oyalari najot yo'li bo'la olmasligini ko'rsatish bo'lib, zamon uchun chiqish yo'lini topish muhim edi. Bundan ko'rinadiki, Fitrat Yassaviya tariqatiga ergashganlar toifasidan bo'lmagan.

“Hikmatlari”ning originalligi xususida mulohazalar yuritar ekan, aslida bu kitob Yassaviyning o'z ishtiroki bilan hozirlanmaganligi, Yassaviyning she'rlari xalq orasidan terib olinib “hikmat” unvoni (Fitrat, 18) bilan nomlanganligi va kitob shakliga keltirilganligini, ayni zamonda uning “Devoni hikmat” nomli nusxalari Toshkentdan tashqari Istanbul va Qozonda ham mavjudligini qayd etadi. Olimning diqqat etgani esa ayni zamonda mavjud bo'lgan

“Hikmatlar”ning barcha nusxalari so‘ng zamonlarda qayta ko‘chirilgan nusxalar ekanini, asli yaratilish davri “Hibat ul-Haqoyiq” asari bilan bir davrda bo‘lsa-da, lekin shu kunga qadar uning o‘sha davrda yozilgan biror-bir nusxasining mavjud emasligidir. Shu bois, Fitrat bu asarning to‘la matni muallifga tegishliligi borasida ham tanqidiy yondashadi: *“Bukun «Devoni hikmat»lardag‘i parcha haqiqatan Yassaviynikimi? Undan so‘ngra davom etgan shogirdlari, muridlari uning otig‘a ba‘zi parchalar yozib tarqatmadilarmi? Bu kun(gi) «Devoni hikmat»ning hammasi, hech bo‘lmag‘anda bir qismi so‘ng zamonda yetishkan mana shunaqa shogirdlarining asarlari emasmi?”* (Fitrat, 19) Olimning fikricha, bu kabi shubhalardan xalos bo‘lish uchun “Devoni hikmat”ning Yassaviy yashagan zamonga yaqin nusxasi topilishi lozim. Shu bois asarning til tarixi qarashidan tekshirish mumkin emas, ilmiy bir natija chiqmaydi deb hisoblaydi va Yassaviy ijodiga adabiy jihatdan yondashadi. Shuningdek, Fitrat faqatgina shaxsiy fikrlarini ifoda etishdan cheklanadi. Turkiyada professor, doktor O‘rxon Fuod Ko‘pruluzoda tomonidan nashrga tayyorlangan “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” nomli kitobda keltirilgan Ahmad Yassaviy haqidagi tahlillarga ham e‘tibor qaratadi. (Fitrat, 28)

Yuqorida aytilganidek, Fitrat Yassaviy ijodiga xolisona baho berish maqsadida uning ta‘limoti, yashash muhiti va hayot yo‘lini o‘zaro bog‘laydi. Fitrat ham o‘zigacha bo‘lgan manbalarga tayangan holda Yassaviyning tug‘ilish davri va sanasini taxminiy ifodalaydi, ammo vafot etgan sanasini “Devoni hikmat”dagi ma‘lumotlarga ko‘ra aniq aniq ifodalaydi: “Uning qachon tug‘ulishi ma‘lum emas. Biroq vafotining hijriy 562 da bo‘lg‘anini hamda «Devoni hikmat»idagi shu:

To‘rt yuz yildan keyin chiqib ummat bo‘lg‘ay,

Necha yillar yurub xalqqa xizmat qilg‘ay —

baytini nazarda tutib, har holda uning hijriy to‘rtinchi asrning ikkinchi yarmida tug‘ulg‘anig‘a hukm qilish mumkindir” (Fitrat, 18). Tug‘ilgan joyini ham rivoyatlarga ko‘ra Yassi, ya‘ni hozirgi Turkiston shahri deb ma‘lumot beradi. Yassaviya tariqatining tasodif yoki favqulotta holat emasligini isbotlash uchun uning nasl-nasabiga to‘xtalib o‘tadi. Unga ko‘ra Yassaviy shayxlar avlodidan bo‘lib, otasi – shayx Ibrohimdir. Ta‘limda ham yetuk shayxlardan saboq oladi: avval shayx Arslonbobda, uning vafotidan so‘ng asli eronlik bo‘lgan, ayni zamonda Buxoroda shayxlik qilayotgan Yusuf Hamadoniyni. Fitrat uni “Yusuf Hamadoniyni muridi, uchinchi xalifasidir” (Fitrat, 18). Yassaviy nafaqat yaxshi tolib bo‘lgan, balki ustozlar ilmini mukammal o‘rgangan, ustozlari vafotidan so‘ng uchinchi xalifa sifatida Buxoroda shayxlik ham qilgan. So‘ngra xalifalikni Yusuf Hamadoniyni to‘rtinchi xalifasi Abduxoliq G‘ijdivoniya topshirib, o‘zi Yassiga qaytadi. Olim Yassaviya tariqatining yuzaga kelishi ana shu davrdan keyinga to‘g‘ri kelishini taxmin qiladi: *“...Onda dala xalqidan ko‘b murid yig‘ib, xonaqoh ochib shayxlik qilg‘an. Yassaviyning fors adabiyoti vazn va uslubida emas, turk milliy vaznida, xalq adabiyoti uslubida yozg‘ani mana shul Yassiga qaytib, dala xalqidan muridlari to‘plag‘anidan keyin boshlang‘an bo‘lsa kerak. Yassaviy oltmish uch yoshiga kirgach, xonaqohda yer osti(dan) bir chillaxona qozdirib, shunga kirgan va dunyodan aloqasini kesgan kabi ko‘runub shayxliqni davom ettirgan ham shunda o‘lgan...”*. Yassaviyning hikmatlari xalq tili – turkiy tilda yaratilgani ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘sha davrda Buxoro muhitida asosan fors-tojik tilida ijod qilingani hech kimga sir emas, ammo Yassaviyning muridlari orasida shayxlar bilan birga oddiy, savodsiz qora xalq ham mavjudligi tufayli, balki, turkiy tilda aytgandir. Zotan, “Devoni hikmat”ning Yassaviy qo‘li bilan tartib berilgani haqida hech bir manbada ma‘lumot yo‘q. Og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan parchalar birlashtirilib kitob shakliga keltirilganda Ahmad Yassaviy olamni tark etgan edi. Keyinchalik ham asrlar davomida Yassaviy hikmatlari xalq og‘zaki namunalari kabi xalq ijrosidan tushmadi, balki

shu sababli ham ayrim Yassaviy izdoshlari ustozining hikmatlariga biroz bo'lsa-da o'zgartirish kiritgan, sayqallagan yoki o'z fikrlarini ham Yassaviy ohangi va ritmida uning nomidan kuylagan bo'lishi mumkin degan taxminlar ilgari surilgan.

Xo'sh, yassaviyona bu hikmatlarning dunyoga kelishi, bardavomligi, butun bir tariqat asosiga aylanishi sababi nima? Fitrat ham o'z oldiga shu kabi savollar qo'yib, javob izlarkan, tasavvuf o'zi nimaligi, qanday paydo bo'lganligiga qiziqadi. Olimning fikricha, tasavvufning paydo bo'lishi arab bo'lmagan o'lkalarga islom dinining kirib kelishi, milliy madaniyat bilan islomiy madaniyat o'rtasida yuzaga kelgan ixtiloflar, saroy ahli va ularga ergashuvchi zodagonlarning oddiy xalqqa qilgan zulmlari tufayli yuzaga kelgan bir oqimdir (Furqat, 17). Oqimlar ham ham turlicha va ko'p bo'lgan, lekin ular orasida eng kuchlisi va bardavomligini saqlay olgani bu – tasavvufdir. Tasavvufiy oqimlarning ustaligi uning sekinlik bilan, muxolifatni sezdirmasdan yurishidadir (Fitrat, 12). Uning ham darajalari va manzaralari mavjud. Ammo maslagi bitta – *“mustamlakachilarning mahkumlarga qilgan adolatsizliklaridan ham bu adolatsizliqning diniy taassubga, dinga tayanganidan chiqqan aksi ta'siridir”* (Fitrat, 17). Garchi tasavvuf yo'liga kirganlar dastlabki bosqichda islomning barcha qoidalariga amal qilib, din ilmini chuqur o'rganib kirgan bo'lsalar-da, so'nggi bosqichlarda esa ularning barchasidan bilib-bilmay uzoqlashib qoladi, deya tanqidiy nazar tashlaydi olim. Tasavvufning dastlabki shakllari aynan islom o'lkalarining o'zida islomning dastlabki davrlaridanoq bo'y cho'zgan. Biz yurtlarga esa hijriy ikkinchi asrdan boshlab paydo bo'lgan. Ularning ilk ustalari sifatida Shaiq Balxiy va Ibrohim Adham tilga olinadi.

Endi bizning asosiy e'tiborimiz qaratilgan Yassaviya tariqatining paydo bo'lishi va xosliklari haqida fikrlaydigan bo'lsak, Fitrat domla davr siyosiy tuzumi, xalqning nochor ahvoli bilan bog'laydi. Buxoroda hukmron bo'lgan somoniylar hukumatining kuchsizlanishi, O'rta Osiyoning qoraxoniylar tomonidan istilo qilinishi, viloyat boshliqlarining o'zboshimchaliklari, bir-birlari ustiga tartibsiz yurish qilishlar, hatto qoraxoniylarning o'z ichida ham xuddi shunday boshboshdoqliklarning mavjudligi ayni haqiqatdir. Qoraxoniylar o'zlari bosib olgan “kofir” turk hududlarini yana mahalliy feodallarga topshirar, ular faqat elita qatlamni qo'lga olib, ularni boshqarar edi. Bular orasida zarar ko'ruvchi doimo qora xalq bo'lgan: nohaq qon to'kilishlar, ortiqcha soliqlar, talanishlar, ekin maydonlari va yaylovlarning nobut qilinishi, chorvaning och qolishi, qirilishi, ochlik kabi iqtisodiy qiyinchiliklarning barchasi qora xalq ustiga bulutdek yopirilardi.

“Ahmad Yassaviyning adabiy faoliyati shul jabrlanib, hayotdan bezib, umidsizlangan sinf orasida bo'ldi. Yassaviy jamiyatning yuqoridagi voqialardan zararlanmag'an, balki foyda qilg'uvchi beklar, oqsuyaklar, askar boshliqlari ham shunlarning quyruqlari bo'lib yashagan mulla, eshonlar qatorida bo'lmadi; mazlum sinfning orasida bo'ldi. Shularning qayg'ulari bilan yig'lashga majbur bo'ldi ham yig'ladi” (Fitrat, 20). Fitrat bu o'rinda Yassaviy bilan hamnafas fikrlaydi, Yassaviy tilida hukmron sinflarning qoralanishi, haqoratlanishi, qilmishlari oqibati voyligini ifodalashi olimning diqqatini tortadi: “Yassaviy u zamonning hokim sinfini ayrim guruh unvonlari bilan atab, bir guruhning adresiga qattig' so'kushlar taqdim qiladi:

*Dunyo manim deganlar, jahon molin olg'anlar,
Karkas qushdek bo'lubon ul haromga botmishlar.
Mulla, mufti bo'lg'anlar, nohaq da'vo qilg'anlar,
Oqni qaro qilg'anlar, ul tomuqqa kirmishlar...
Qozi-imom bo'lg'anlar, nohaq da'vo qilg'anlar,
Ximor yanglig' bo'lubon yuk ostida qolmishlar.*

*Harom yegan hokimlar, rishvat olib yegonlar,
 O'z barmog'in tishlabon qo'rqub, qurub qolmishlar,
 Totlig' taxtda o'lturg'an tufroq aro yotmishlar...
 Domi tasvir qo'yub xalqni yo'ldan urduk,
 Shayxliq qilib riyo bilan do'kon qurduk.
 Ishrat qilib shayton birla davron surduk,
 Diydorig'a seni ne deb ravo qilsun...
 Eshonu shayx, xo'ja, mulla dunyo izlar,
 Ul sababdin podshohlarg'a yolg'on so'zlar.
 Oyati, hadis so'zin qo'yub molni ko'zlar,
 (Haq yo'lida hargiz mehnat tortqoni yo'q)... (Fitrat, 21)*

Shuningdek, Yassaviy hikmatlari orasida olimlarning riyokorligini, zolimga aylanganini, xushomadgo'yiligini, haqni so'zlovchilarni o'zlariga dushman deb bilganini nadomat bilan aytilgan misralar ham uchraydi:

*Oxir zamon olimlari zolim bo'ldi,
 Xushomadni aytkuchilar olim bo'ldi.
 Haqni aytg'an darvishlarga g'animga bo'ldi,
 Ajab shumlik zamonalar bo'ldi, do'stlar...
 Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q,
 Dunyo uchun bir-biriga qilmas shafqat.
 Zolimlarga asir bo'lub qoldim mano.
 Ul sababdin podshoh qilur menga jafu...
 Oxir zamon bo'lg'andir; podshoh zolim bo'lg'andir,
 Harom, shubha to'lg'andir, hayron qolur Xo'jahmad...*

Fitrat o'zi yashayotgan zamon ijtimoiy hayoti bilan Yassaviy yashagan davr hayot tarzini qiyoslagan holda Yassaviy aytgan zulm, adolatsizlik, riyokorlik, shuhratparastlik, molparastlik, ochko'zlik, ribo (pora)xo'rlik kabi illatlar tomiri hanuz qora xalq qoni bilan sug'orilayotgani angelaydi va mutasavvuf fikriti bilan qo'llab-quvvatlaydi. Ammo Yassaviyning o'zi ta'rif etgan "garib, yatim, faqir" (Fitrat, 22) yo'qsullar uchun yechim sifatida ko'rsatgan yo'li olim nazdida notog'ridir.

"Yo'qsullar uchun qayg'urib, ularning dardlarini kuylamakchi bo'lg'an Yassaviy ularning qutulish, najot yo'llarini ham izlaganmi, ular(ga) qutulish uchun bir dastur, bir yo'l ko'rsatganmi?"

Albatta, ko'rsatgan! Koshki ko'rsatmagan bo'lsa edi!" (Fitrat, 22) Olimning "koshki" sida shu aks etadi: xalqning zulmdan, adolatsizlikdan qutilishi uchun ko'rsatilgan choralar "shu qadar ramas, shuncha zararlidirki: uning ta'limotiga chin ko'ngildan ishonib, samimiy suratda bir millat topilsa edi, u millatning dunyoda "tirik ekan o'ziga go'r qazmoq" dan boshqa bir vazifasi qolmag'an bo'lur erdi". (Fitrat, 22) Yassaviyning nochorlar, kambag'allarga bergan nasihatlarida "Zolimga qarshi birlashish, kurashish o'rniga qo'l ochib Allohga duo qilish, zolimlardan shikoyat qilish" g'oyalari Fitratga "yaroqsiz, qurolsiz qarshilik" (Fitrat, 23) degandek gap edi. Hattoki, ba'zi o'rinlarda kambag'alning boshiga kelayotgan qiyinchiliklar, azoblar, ko'rguliklar go'yo ular Allohni unutganlari, zolimlarning zolimligi, adolatsizligidan shikoyat etmaganligi, duo qilmaganligining sababi etib ko'rsatiladi:

*Senga jazo yaratganga yalbormading,
 «Alloh» debon tunlar turib igranmading.*

*Haqiqatdan so'zlar aytim, eshitmading,
Zolimlarning ilgin uzun qildim mano!*

Bu nuqtadan so'ng Fitrat va Yassaviy yo'li ayriladi. Fitrat tariqatning bu kabi chora-tadbirlariga butunlay qarshi edi. U inson oliy mavjudod ekani, erk, ong, aql, hissiyot kabi nodir ne'matlar dunyoga kelgan har bir odamzot uchun birdek tegishli deb biladi. Inson o'qib, o'rganib, hayot sinovlariga aql bilan yechim topishi, o'z navbatida unga haq-huquqlarini cheklayotganlarga qarshi ongli ravishda kurashishi lozim deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan u Yassaviyning zolimlarni qoralashi, so'kishining hech bir ahamiyati yo'qligini tushuntiradi. Toki oddiy xalqqa ko'rsatiladigan chiqish yo'li yo'q bo'lsa, ularning qo'lidan keladigani faqatgina Allohga shikoyat etish bo'lsa, unda jonbozlik ko'rsatishning keragi yo'q. tarki dunyo qilish – yer ustida yashayotgan bechora, nochor xalq ahvolini yaxshilamaydi, degan fikrga keladi. Va Yassaviy chorlovlari “ishqqa berilib, shu bilan yashamoq uchun pirga inobat qilish, “piri mug'on”ning etagini tutish, lozim”ligini uqtirarkan (Fitrat, 23), Fitrat aksincha, Naqshbandiya tariqatiga ko'ra “dilba yor-u dast bakor” maqomini tog'ri deb baholaydi. Inson qadr-qiymatini, umr bahosini “yer ostiga kirish” orqali baholashning xatoligini ta'kidlaydi.

Fitrat Yassaviya tariqati mafkurasiga to'la qo'shilmasa-da, ammo Yassaviyning mukammal ilm sohibi bo'lganligini to'la tan oladi. Shu jihatdan uning ijodini sof turkiy ijod namunasi sifatida chuqur qadrlaydi. Uning yo'li sodda, xalq shoirlari tutgan yo'ldir. Qofiyada, vaznda, uslubda xalq tiliga yaqin bo'lganligi sababli ham unga ergashgan “murid”lar juda ko'p bo'lgan. Xususan, Mansur ota, Abdumalik ota, Toj xo'ja, Said ota, Sulaymon ota, Zangi ota, Uzun Hasan ota, Ismoyil ota, Ishoq ota, Sadr ota, Badr ota, Ali shayx, Mahdud shayx, Qamol shayx, Xodim shayx, Halil ota kabi shayxlar, ehtimolkim, shu yo'lda hikmatlar yozdilar. (Fitrat, 19) Ahmad Yassaviy ijodi ta'siri asr davomida og'izdan og'izga o'tib keldi. Hatto xonaqolarda yassaviyxonliklar uyushtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Fitrat Yassaviy ijodini o'rganishda “Devoni hikmatning” fors va arab an'analari bo'yicha emas, turkiy adabiyot yo'lida yaratilganligi, turkiy tilde yaratilganligini tahsinga loyiq deb baholaydi. Asarning og'zaki matnlar asosida dunyoga kelganligini inobatga olib, uning til xususiyatlarini ayni Yassaviy zamoniga oid deb qarashdan qaytaradi. Yassaviy hikmatlari ijodkor yashagan ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'sirida bo'lganligini ta'kidlaydi. Yassaviyni asosan qora xalqning “piri mug'on”i ekanligini qayd etadi. Yassaviyga ergashish uzoq asrlar davom etgan bo'lsa-da, tariqat g'oyalarini ma'qullamaydi, balki “mo'da” (Fitrat, 20) deya baho beradi. Ammo Yassaviyni “lirik” shoir sifatida yuksak baholaydi, uning ijodini sodda, xalq tilida yozilgan turkiy she'riyat namunasi sifatida qadrlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul muhabbat”, “FAN” nashriyoti. T, 2001.
2. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004.
3. Islomiy H. Sultonil orifiyn Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Хаккул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar, 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
6. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
7. Ko'prulu F, Turk adabiyotida ilk mutasavviflar. 8-bosqi. – Anqara. 1993, 415-b.

Етти аъзо сирлари

Зойир Юсупович Яллақаев

Термиз давлат университети ўқитувчиси,

E-mail: zoyiryallaqayev@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада тадқиқот объекти сифатида инсон учун ўта муҳим бўлган етти аъзонинг Аҳмад Яссавий шеърларида бадий тарзда акс этиши ҳамда уларнинг нафс билан нозик равишда боғлиқлигига доир талқинлари шоирнинг ҳикматлари мисолида тадқиққа тортилган.

Калит сўзлар: тил, қулоқ, кўз, икки қўл, икки оёқ, қорин ва фарж.

Тайны семи участников

Аннотация: В данной статье как примеры мудрости поэта изучаются художественное отражение семи органов человеческого тела в поэзии Ахмеда Яссави и их интерпретации их связи с душой.

Ключевые слова: язык, ухо, глаз, две руки, две ноги, живот и влагалище.

Secrets of the Seven Members


Abstract. In this article, the artistic reflection of the seven organs of the human body in Ahmed Yassavi's poetry and their interpretations of their relationship with the soul are studied as examples of the poet's wisdom.

Key words: tongue, ear, eye, two hands, two legs, abdomen and vagina.

Инсон бадани ва ундаги аъзолар нафсининг энг муҳим хусусиятларини ўзида мужассам этганлиги билан характерлидир. Аҳмад Яссавий ҳикматларида инсон танаси, унинг нафси билан боғлиқ аъзолари ҳақида ёзаркан етти аъзо ҳақида алоҳида тўхталган. Хўш, бу етти аъзо қайси аъзолар? Нега улар аниқ сонларда ифодаланган, нега Яссавий бу ҳақда ҳикмат ёзган деган савол туғилади, албатта? Ушбу етти аъзо ва, умуман, инсоннинг баданидаги барча аъзоларнинг яратилиши, уларнинг ҳаёт давомида бажарадиган вазифалари ҳақида Ҳаким Термизийнинг “Риёзатун нафс”, “Адабун нафс”, “Нодир асллар”, “Ҳаж ва унинг сирлари” китобларида, Имом Ғаззолийнинг “Кимийи саодат” каби асарларида келтирилган маълумотлар алоҳида аҳамиятга эга. Ҳаким Термизийнинг таъкидлашича ушбу етти аъзо: тил, қулоқ, кўз, икки қўл, икки оёқ, қорин ва фарж бўлиб, Аллоҳ таоло мийсоқ куни одамзоддан ушбу аъзолари билан илоҳий китоблар ва расулар кўрсатган тарздагина амал қилишга ваъда олган. Ўша куни бандалар ушбу омонатни қабул қилган ҳамда шундан бошлаб унга вафо қилиш шарти уларнинг зиммасига тушган [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 262].

Умуммаънода барча аъзолар нафсининг Яратувчисидан бўлган ўзининг ҳаётини тўғри йўлга қўйиши ва шу жараёнда билиши лозим бўлган илмларни англаши ҳамда Унинг хизматини қилиши учун қўйилган. Нафсга берилган билиш илми фақатгина нарсаларнинг зоҳирини (дунё ва ундаги нарсаларни – 3.Я) ҳис қилиш, маълум маънода лаззатларни сезиш, кўриш учундир. Гайб илмлари, воқеликдан идрок қилинадиган нарсалар фитратан унга берилмаган. Бу назарияни тадқиқ этган Ҳаким Термизий билишни иккига: нафсий ва қалбий билишга ажратган. Олимнинг фикрича тана ва ундаги аъзолар билан билиш яъни

ҳавосс ул-хомс (беш сезги) – бу нафснинг маърифати бўлиб, бу билан у фақатгина нафс учун бўлган нарсаларнигина ҳис қила олади. Унинг кўриши, билиши парда ортидан, ғира-шира, тутун аралаш тиниқ бўлмаган ноаниқ билишдир. Воқеликнинг аслини кўриш, ҳис қилиш эса қалбнинг шуурига боғланган. Қалб билан билиш унинг ичидаги иймон, маърифат ва **яқийн** каби нурлар билан кўриш, билиш бўлиб, у аниқ, тиниқ ҳамда **яқийн** ишонч билан билишдир [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 61]. Хуллас, нафс ўз истакларини бадан ҳамда ана шу етти аъзо орқали амалга ошириши уларни янада чуқурроқ тадқиқ этишни тақозо этади. Ушбу етти аъзони ўз ўрни эътибори билан қуйидаги тартибли шаклда кўрсатиш мумкин:



Тилнинг биринчи ўринда келтирилганлиги у барча аъзоларнинг ҳақидан гапирганлиги учундир. Зеро, у бутун танадаги жамики аъзолар тилидан нутқ қилади. Бу маънони ушбу ҳадис мазмунида кўриш мумкин: **“Одам боласи тонг оттиргач, аъзоларининг бари тилга ёлвориб дейишади: “Биз ҳақимизда Аллоҳдан қўрқ, албатта, биз сен биланмиз: агар тўғри бўлсанг, тўғримиз, эгри бўлсанг, эгримиз”** [Чўтматов, Жўрабек. Имом Абу Исо Термизий... 2019: 104]. Тил нафснинг, қалбнинг, ақлнинг, руҳнинг, қўйингки, инсон таркибидаги жамики моддий-маънавий хилқатларнинг таржимони, жарчиси бўлиб, инсон тўғрилиги, комиллиги ёки аксинча, унинг эгрилиги, тубанлигининг аломати ҳам у билан зоҳир бўлади. Зотан, **“Қулнинг қалби тўғри бўлмагунча иймони тўғри бўлмайди. Қалби эса унинг тили тўғри бўлмагунча тўғри бўлмайди”** [Абу Ҳомид Ғаззолий. 2021: 9]. дейилиши ушбу фикрни қувватлайди. Имом Ғаззолийнинг “Тил офатлари” китоби бутунлай тилдан пайдо бўлувчи иллатлар моҳиятини оятлар, ҳадислар ва ҳикмат аҳлининг сўзлари билан очиб беришга бағишланган. Хусусан, унда тилдан туғилажак, ёлғон, ғийбат, фаҳш сўзлар, лаънат айтмоқ, беҳуда сўзлаш, сирни ошкор қилиш, чақимчилик, маддоҳлик, иккиюзламачилик ва қатор шунга ўхшаш тил офатлари кенг шарҳланган [Абу Ҳомид

Ғаззолий. 2021: 240]. Муҳаммад Абдулхай Лакхнавийнинг бутун бир китоби тилдан туғиладиган “Ғийбат” мавзусига оид бўлиб, мутасаввуф ушбу асарида ғийбатни айблов воситасига кўра беш турга ажратади:

1. Тил билан ғийбат қилиш;
2. Қулоқ билан ғийбат қилиш;
3. Қалб билан ғийбат қилиш;
4. Аъзолар билан ғийбат қилиш;
5. Қалам билан ғийбат қилиш. [Муҳаммад Абдулхай Лакхнавий. 2021: 272].

“Дарҳақиқат, Одам боласи қиладиган хатоларининг кўпи тилдандир” [Абу Ҳомид Ғаззолий. 2021: 10] дея эътироф этилиши унинг нафс истакларини энг кўп рўёбга чиқарувчи қалтис аъзо эканлигини кўрсатади. Шу боис тасаввуф шеърлятида ундан ҳосил бўладиган ёлғон, ғийбат, чақимчилик, мунофиқлик ва бошқа шу каби иллатлар кескин танқид қилинган:

Тил учиди умматман деб ялгон сўзлар,

Киши молин олмоғ учун ҳарён кўзлар.

Ҳалоллини мунда тошлаб, ҳаром излар,

Нодонларга бу сўзларни ойғум келар. [Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018.: 236].

Қулоқ барча хабарлар, сигналларни қабул қилиб, уни нафсга етказиб турувчи восита-аъзодир. Ҳаким Термизийнинг келтиришича икки қулоқ товушларни лаззат ва хабардорлик ила илиб олиш учун бир идиш ва ўзига хос асбоб тарзида яратилган [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 253]. Бироқ ушбу аъзодан нафс ҳавосининг ҳаром мақсадларида ҳам фойдаланиш мумкин. Яссавий нафсига муте бўлганликдан қалби қотиб қолган, қалб қулоғи тўсилиб қолган инсонни қулоқсиз, нодон дея атайди. Чунки асл моҳиятнинг мазмуни акс этган оят, ҳадис, ҳикматни унга зарра қиймати йўқ. Қулоқсиз воқеликдан мутлақо лоқайд, ҳатто муддатли қилиб берилган ўз ҳаётига ҳам умуман бефарқ. Шоир ушбу ҳолатга гувоҳлигидан пушаймон бўлганлигини шундай ёзади:

Қулоқсизга оят, ҳадис, ҳикмат ҳаром,

Эссиз, ҳикмат ич-қорнимда бўлсун тамом,

Нодонларга тоқай айтиб, йиғлай мудом,

Дод айласам, ҳечким қулоқ солғони йўқ. [Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018.: 259].

ёки

Кўнгли қоттиқ, яхши сўзга қулоқ тутмас,

Қиёматда Ҳақ қошида расво бўлур. [Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018.: 267].

Имом Ғаззолий кўзни нарсаларни кўрмоқ учун яратилганлигини айтиб, у ўз яратилишида ўн табақа қилиб яратилганлигини таъкидлайди [Ғаззолий Абу Ҳомид. Кимийеи саодат: 2005: 59]. Бундан ташқари кўз нафсга барча ашёлар, нарсалар ва улардаги шахватли қилиб қўйилган нарсаларнинг суратини олиб етказиш вазифасини ҳам бажариб беради. Албатта, шариат нуқтаи назаридан ҳалолдан нафснинг ҳаққи ажратилган бўлсада, бироқ, унинг ҳавоси (шайтони) ҳаддидан ошган ҳолда ҳаромини истайди. Унинг хоҳишига эргашган нафс эса кўз аъзоси орқали ҳаромга назар қила бошлайди: “(Аллоҳ) **кўзларнинг хиёнатини** (яъни, қараш ҳаром қилинган нарсага ўғринча кўз ташлашни) **ҳам, диллар яширадиган нарсаларни ҳам билур**”: [Қуръони карим. Ғофур сураси – 19.]. Яссавий ёзади:

Номаҳрамга боқарлар, кўзларида йўқ инсоф. [Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018.: 90].

Қўл билан инсон борликдаги нарсаларни ушлайди, ўзи учун кўплаб зарурат амалларни бажаради, у билан меҳнат фаолиятини йўлга қўяди. Аммо қўл нафсининг ҳавойи хоҳишига хизмат қилганда унинг лаззатланишидаги барча ҳаракатларида иштирок этишга ҳам мажбур. Шундан у эртага ўзига зулм қилинганлиги сабаб нафсининг барча кирдикорларига унга қарши гувоҳ бўлиши ҳам мумкин. Чунончи, ояти каримада **“У кунда тиллари, кўллари ва оёқлари қилиб юрган амаллари ҳақида уларга қарши гувоҳлик берур”** дейилган [Қуръони карим. Нур сураси – 24.].

*Тонгла борсам илик, оёғ барча гувоҳ,
Ҳақ олдида қилгон ишим аён эрур*

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018.: 120].

Оёқ бутун тана юкини кўтарувчи ҳаммол. Бинобарин, бадан қаерга боришни хоҳласа у ўша ерга уни кўтариб боришга масъул. Агар вужуд яхшилик сари юрган бўлса, савобига, билакс, шарият чегараларини бузиб, гуноҳларга дўнган бўлса маъсиятига шерик бўлади. Нафс бундай вақтда ўз ишидан масрур, ғурурга ботган ҳолда ҳою ҳаваси билан одимлайди:

*Юрдунг доим шоду хуррам, сурур бирлан,
Мағрур бўлдинг ҳою ҳавас, ғурур бирлан,
Единг шубҳа-ҳаромларни макруҳ бирлан,
Дўзах ичра жазосини тортмасмусан?*

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018: 300].

Ҳаким Термизийнинг наздида ошқозон – бу ризқ уйи [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 253]. Бундан ташқари қорин нафс кучининг асосий манбаи, унинг шаҳватланиши учун бор қувватни ичаклар билан биргаликда у таъмин этишга ихтисослашган. Қорин масаласининг муҳим нуқтаси шуки нафс шаҳватининг “чўғ”лари шу ерга қўйилган бўлиб, қачон у ҳавонинг эсиши билан алангаланса унинг ҳирси кучая бошлайди. Шундан сўнг агар у ўз ҳолига қўйиб берилса юзмнинг турлик таом билан ҳам унинг эҳтиросини сўндириб бўлмайди, балки у тўйим билмас таъмагир итга айланади:

*Нафсим мени ўтдек ёниб йўлдин урди,
Юз минг турлик таом тилаб дўкон қурди.
Оғзин очиб ҳар эшикка мени сурди,
Ҳиммат берсанг ит нафсимни ушласам мен.*

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018: 202].

Нафс – ҳайвонлик яъни тириклик тимсоли. У тупроқдан яратилганлиги боис ерга мансуб жон-тириклик моҳиятини касб этган. Ва бу жараён унинг еб туришлиги асосида қойим қилинганлиги билан ҳам эътиборлидир. Бу унинг фитратий ҳаёти. Бирок, у умрини фақат еб-ичиш машғулотига бағишласа унинг ҳайвонлардан фарқи қолмайди, балки улардан ҳам қуйи мартабага туша бошлайди. Шунинг учун шоир “*еб, ичибон ҳайвон каби тунлар ётиб*” дея бундай одамларни танқид қилган. Яссавий “*Ҳаром-ҳариш егонлар*”ни тонгла ҳисобда “*бир-бир жавоб*” беришини таъкидлаб, ҳалол-ҳаромни ажратмасликни фосиклик дейди ва бу нарса инсоннинг қалбини янада кирларга тўлдиришини таъкидлайди:

*Ҳалол-ҳаром фарқин қилмай олиб ютқон,
Ул фосиқни дилин на деб сафо қилсун.*

Фарж яъни жинсий аъзо юқорида саналган етти аъзо ичида энг муҳим ва нозик узвдир. Ҳаким Термизийнинг таъкидлашича фаржни Аллоҳ таоло насллар учун эшик қилиб яратган [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 253]. Олимнинг Абдуллоҳ ибн Умардан (р.а) келтирган ривояти бўйича Аллоҳ таоло инсондан энг аввал яратган аъзоси унинг фаржи эканлигини қайд этган: *“Аллоҳ инсондан энг аввал яратган нарса фаржидир. Бас, инсонга деди: Бу сенинг ҳузурингда беркитганим омонат: уни ҳеч вақт ўз эркига қўйма ва фақат ҳаққи билан (яъни ҳалолда) ишлат”*. Ҳаким Термизийнинг фикрича нафс фараҳларининг энг кучлиси ана шу фаржни ишлатишда жамланади. У лаззатларнинг энг қувватлиси бўлиб, унинг аҳли уни ноўрин ишлатиши билан дўзахга киради. Бундан ташқари олим ушбу аъзоларнинг омонатга айланиш сабабини уларнинг шаҳватли бўлганлиги билан изоҳлайди ҳамда ушбу шаҳватларнинг жамланган ўрни нафсда эканлигини алоҳида урғулайди [Муҳаммад Ҳаким Термизий . 2017: 253]. *“Аллоҳ Одам боласига унинг зинодан оладиган, қилиши муқаррар бўлган улушини ёзиб қўйган. Икки кўзнинг зиноти қараш, икки қулоқнинг зиноти эшитиш, тилнинг зиноти гапириш, қўлнинг зиноти ушлаш, оёқнинг зиноти қадам босишидир. Қалб орзу қилади, тусайди, фарж эса буларнинг барчасини тасдиқлайди ёки ёлгонга чиқаради”* [Димашқий, Имом Абу Закарийё Яҳё ибн Шараф ан-Нававий. 2021: 228-229] ҳадисида юқоридаги аъзолар билан биргаликда фаржнинг зиноти тасдиқловчи ёки инкор этувчи фоил эканлигига алоҳида урғу берилган. “Нодир асллар” китобининг “Бир юз тўқсон биринчи асл”и жасад ва қалбни поклайдиган тўрт хислат ҳақида бўлиб, шундан биттаси “Омонат муҳофазаси” деб аталган. “Омонат муҳофазаси” аъзоларни ва унга ишониб топширилган нарсаларни (шайтон ва ҳавонинг зараридан) муҳофази қилиш эканлигини уқтиради олим. Энг муҳими, барча кўргуликлар, жиноятлар мана шу аъзоларни муҳофаза этмасликдан келиб чиқишига эътибор қаратиш лозим эканлиги айтилади [Ҳаким Термизий. Нодир асллар. 2021:298].

Аъзоларни муҳофаза қилиш, уларга юкланган омонатни саломат сақлаш учун тасаввуф аҳллари тариқатга ирода қилмоқ зарур эканлигига алоҳида урғу берадилар. Ушбу эшикларда мурид етти аъзонинг ҳокими бўлмиш нафсининг ҳавосига хилоф қилиш асносида ўз қалби ва руҳи томонга йўл очади. Мурид нафс бошига ҳар лаҳзада “арра” қўя бошлагач, унинг ҳавоси кесилиш баробарида нафси заифлаша боради, руҳи эса қувватлана бошлайди. Қалб кучайган сари солиқ руҳида ишқ (маърифат) жўш уриб, ошиқ ҳақиқий Маҳбуб висоли томон парвоз қила бошлайди. Солиқнинг қалбида маърифат – ишқ жўш ургач зоҳиру ботини ихтиёрсиз, тўхтамасдан Маъшук томон тазарруъ-нола қилишга тушади. Маърифат мақомидаги ушбу ҳолда намоён бўлаётган сирларни қалб кўзи орқали кўрган аъзолар кўзларини ҳар қандай ёмонликдан тўса бошлайди:

Ул беш ҳуруф¹ майдонида жавлон қилур,

Зоҳир ботин бетаваққуф² нолон қилур.

Етти аъзо кўзларини катон қилур,

Муришд бўлиб, иродатга кирмоқ керак.

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018: 320].

¹ Шоир шариат, тариқат, ҳақиқат ва маърифатни ҳар бирини беш ҳарфдан иборат эканлигини ёзади ва бу ерда маърифат босқичдаги солиқ ҳоли ҳақида гапирмоқда.

² Бетаваққуф – тўхтамасдан, иккиланмасдан маъносида.

Ҳадисларда келишича инсон Роббисини руҳи ва ақли билан севар экан. Шу боис ориф, ошиқ Маъшуқи ишқида ўзлигини – вужудини буткул унитиб, руҳ мулкида Унинг васлига етмоқ учун алам тортса, фақат нафс хоҳишларига ўрганиб қолган аъзолар бу кўйга тоқат қилолмасдан ларзон-титровчи бир ҳолга тушади:

*Ориф-ошиқ жон мулкида алам тортса,
Етти аъзо тоқат қилмай ларзон бўлур.*

Агар ишқ дарёси – маърифат нуридан солиқнинг вужуди (қалб)и ичра жўшқинлик (нурнинг кучайиши) тўлқини бошланса, гирдоб – қалб¹ айланиши ичра етти аъзо мутаҳаййир бир аҳволда қолади, чунки улар бу пайтгача нафс ғафлати-зулматида унга хизматда бўлган. Энди эса ўзларини қалбдаги маърифат нури билан кўриб, ўзларининг ҳақиқатини таний бошлагач ҳайратлари янада ортада:

*Ишқ дарёси вужуд ичра жўш айласса,
Беҳуд бўлуб гирдоб² ичра ҳайрон бўлур.*

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018: 265].

Яссавийнинг таъбирича Ҳақ таоло бирор-бир инсонга, (агар у нодон бўлса ҳам) раҳмат назари билан қараса у бир лаҳзада ҳикмат соҳибига айланиши мумкин. Агар у нафсини ҳаволанишдан қайтарса, ҳавосининг барча хоҳишларини ўлдирса, нафсини дунёдан узиб, қалбига хизматкор эта олса, шунда қалбидан кирлари кетиб, кўнгли ювилган ойнадек порлай бошлайди. Шунда “Осмонлар ва ердаги барча нарсаларнинг нури” унда акс эта бошлайди. Шундагина инсон ҳам жисман, ҳам қалбан пок ҳолга эришади, нарсаларнинг ҳақиқий моҳиятини кўра бошлайди. Мутасаввуфлар Ҳақ таоло фақат қалби пок бандаларгагина назар қилади, дейишади. Агар У қалбга тажалли қиладиган бўлса жасаддаги бутун томирлар, суяклар нурга тўлади. У барча нарсаларни ўша нур орқали идрок эта бошлайди. Мурид ана шундай мақомга кўтарила олсагина унинг барча аъзолари, хусусан, етти аъзосининг (омонатнинг) муҳофазаси унинг учун енгиллашади ҳамда Маҳбуб Зотнинг ҳамдини тинмай айтувчи “гўё”га айланади:

*Ҳақ Мавломнинг назари кимга тушса,
Нодон бўлса, бир лаҳзада доно бўлур.
Уч юз олтмиш томурлари нурга тўлур,
Тўрт юз қирқ тўрт сўнгаклари бино бўлур.
Ондин сўнгра ваҳдат майдин тўё ичор,
Аҳлу иёл, хонумондин тугал кечор.
Аллоҳ дею қайда борса, шайтон қочор,
Етти аъзо ҳамдин ойтиб гўё бўлур.*

[Яссавий, Хожа Аҳмад. 2018: 266].

Хулоса қилиб айтганда етти аъзо орқали нафс образини янада аниқроқ таниш, унинг мазмунига чуқурроқ етиш масаласини туркий тасаввуф шеърлятида илк бора Аҳмад Яссавий жиддий мавзу сифатида олиб кирганлигини кўришимиз мумкин ва бу албатта, энг

¹ Қалб сўзи араб тилида айланиш, ўзгариш фелидан олинган бўлиб, тасаввуф таълимотида маърифатни қабул қилиб олиш аъзолардан фақат қалб ва унинг ичидаги аъзоларга нисбат берилган.

² Гирдоб – айланиш ва ўз ичига тортиш тимсолидир. Бу ерда у қалб орқали Жаноби Ҳақнинг ўзи сари интилган солиқ руҳини Ўзи томон тортишига ишора.

мураккаб иш бўлган ўзлик (нафс) ни англаш, инсон ҳаёти моҳиятини тушуниш масаласида улкан фойдалар бериши шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Баёнул фурқон фи таржиматил куръон. Куръони карим оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Шайх Муҳаммаджон мулло Рустам ўғли (Мавлавий ҳожи Ҳиндистоний). Ҳозирги тилимизга табдил қилиб нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва қавс ичидаги изоҳлар муаллифи: Сайфиддин Сайфуллоҳ. – Тошкент: Мунир нашриёти, 2022. – 830 б.
2. Яссавий, Хожа Аҳмад. Девони Ҳикмат. - Тошкент: “Наврўз”, 2018 й. 360 б.
3. Муҳаммад Ҳаким Термизий рисоалари. Таржимон: Ж.Чўтматов. – Тошкент: Мовороуннаҳр, 2017. – 440 б. 282 б.
4. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тил офатлари ва ундан сақланиш йўллари: диний-маърифий / Абу Ҳомид Ғаззолий. – Тошкент: “Munir” нашриёти. 2021. – 240 б.
5. Чўтматов, Жўрабек. Имом Абу Исо Термизий: ҳати ва ижоди саҳифалари [Матн]: Ж.Чўтматов. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2019. – 176 б. 104 б.
6. Ҳаким Термизий. Нодир асллар (Расул ҳадисларидаги нодир асллар). Таржимон: Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Т.: “Hilol-Nashr” 2021. – 360 б.
7. Муҳаммад Абдулҳай Лакҳнавий. Ғийбат ўзи нима?: диний-маърифий Муҳаммад Абдулҳай Лакҳнавий. Таржимон: Ёрқинжон Фозилов: – Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021. – 272 б.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilimizning va adabiyotimizning yaxlit bir ma'naviy-ruhiy olamligi, har bir so'zning mazmundorligi va rang-barang xususiyatlarini buyuk so'z san'atkori asarlarida ko'ramiz.

Kalit so'zlar: *badiiy ijod qonuniyati, an'ana va tadrijiy rivojlanish, so'z san'ati, tasvir imkoniyati, muqobil istiloh, islomiy ma'rifat, millat, tafakkur, til boyligi va ravnaqi, mumtoz adabiyot.*

Аннотация: В статье показан весь духовный и духовный мир нашего узбекского языка и литературы, осмысленность и красочные особенности каждого слова на примере глубоких мыслей великого художника слова.

Ключевые слова: *законность художественного творчества, традиция и постепенное развитие, искусство слова, возможность изображения, альтернативная революция, исламское просвещение, нация, мысль, богатство и развитие языка, классическая литература.*

Annotation: The article shows the whole spiritual and spiritual world of our Uzbek language and literature, the meaningfulness of each word and the deep information of the colorful and bright great word artist

Key words: *legality of artistic creation, tradition and gradual development, word art, possibility of image, alternative revolution, Islamic enlightenment, nation, thought, richness and development of language classical literature.*

Istiqlol sharofati bilan Ahmad Yassaviy ijodiga, tariqatiga, hikmatlariga, ta'limotiga xolisona ko'z bilan qarash, adolatli baho berish boshlandi. Muxlislari va yurtdoshlari qalbiga Turkiston diyoridan chiqqan mutafakkir nomining, ishining, shaxsining, ta'limotining ulug'vorligidan iftixor etish tuyg'usi jo'sh urdi. Qanchalik ta'qiqlash, to'siqlar qo'yilishiga qaramay xalq uni asrlar davomida unutmadi, qalbida saqlab keldi, ardoqladi, uning hayotbaxsh hikmatlaridan o'zlariga yo'l topdilar, ma'naviy oziq olib keldilar.

Bu esa buyuk bobokalonimizning nomi, ta'limoti, tariqati, ma'rifati, asarlari, so'z durdonalari umrboqiyligidan nishonadir.

Jumhuriyatimiz mustaqillikka erishgach Ahmad Yassaviy haqida tadqiqotlar, maqolalar yuzaga keldi.

Bu ilmiy, ommabop maqolalarda tasavvufning buyuk ustози Xoja Ahmad Yassaviy haqida qimmatli fikrlar bildirildi. A.Yassaviy haqida Abdurahmon Sa'diy, Abdurauf Fitratlarning maqolalari ham tahlil etildi.

Ufada chiqqan "Sho'ro" jurnali 1915-yil 24-sonida Ahmad Sardorning "hazrat Xoja Ahmad Yassaviy" nomli maqolasi chop etildi. Maqolada Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada turk xalqining obro'yini, turk tilining mavqeyini baland ko'targan ustoz Yassaviy shaxsi haqida juda adolatli fikrlar aytilgan. Maqolada turk tilining fors tili soyasida qolib kelganligi, aslida, boy imkoniyatlarga ega bo'lgan turk tilining

nufuzini o'z ijodi bilan A.Yassaviy juda baland martabaga yetkazganligi ifoda etilgan. Ya'ni Yassaviy o'z asarlarini sof va sodda turk tili bilan yaratib ham o'zining turkligini, ham olimligini, shoiriligini namoyon eta olganligi maqolada juda samimiy tarzda bayon etib berilgan.

1918-yilda turkiyalik olim Muhammad Fuod Ko'pruluzoda "Turk adabiyotida ilk mutasavvufklar" nomli kitobida Ahmad Yassaviy haqida, uning tasavvufchi shoirligi va Yassaviychilik maktabi, tariqati haqida fikrlar bildiriladi. Ya'ni yassaviyshunoslikni juda samimiy tarzda boshlab beradi. To'g'ri Yassaviyshunoslik ilgaridanoq boshlangan edi. Ammo Fuod Ko'pruluzoda Yassaviy maktabining turkiy zaminda juda ko'p qalblarni o'ziga rom etganligini ko'rsatib o'tadi. Hozirgi paytda xalq o'rtasida Yassaviy kabi buyuk ustodlar nomiga, faoliyatiga, shaxsiga qiziqish juda kuchli. Shuning uchun ham Sulton ul-orifin Ahmad Yassaviy hayoti va ijodining haqiqiy tadqiqi, targ'ibi xalqimiz uchun nihoyatda zarur.

Buyuk bobokalonimiz Ahmad Yassaviy haqida badiiy asarlar ham yuzaga keldi. Taniqli yozuvchi Sa'dulla Siyoyev o'zining "Yassaviyning so'nggi safari" romanida Yassaviyning hayoti va faoliyati haqida amaliy badiiy umumlashmalar asosida fikrlar bildirgan. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov "Devoni Hikmat"ni nashrga tayyorladi.

Turk xalqining ardoqli farzandi "Shayx ur-ra'is", "Sulton ul-orifin" Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi endi o'rganilmoqda. Yassaviyshunoslikning yangi davri boshlandi. Shuning uchun biz ham bobokalonimiz Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"i haqida o'z tadqiqotimizni tavsiya etmoqchimiz. Ya'ni A.Yassaviy hayoti, tariqati va ijodi haqida o'z fikr va mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

Buyuk Shayx ul-mashoyix Ahmad Yassaviy ta'limoti va tariqati, shaxsi, faoliyati haqida anchagina fikrlar aytilgan. A.Yassaviy umumturkiy adabiyotda Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda shayx ul-mashoyix nomini olgan. Boshqa ta'riflarda sulton ul-orifin nomi bilan mashhur bo'lgani ma'lum. Ahmad Yassaviy Eronning Hamadon shahrida yaqin joyda tug'ilgan Yusuf Hamadoniyni shogirdidir. Yusuf Hamadoni diniy ilmlarni o'rganib va tadqiq qilib katta shuhrat qozongan so'fiylik ta'limotini targ'ib qilgan katta piri murshid edi. Yusuf Hamadoni Movarounnahrda ham kelib Marv, Buxoro, Samarqand shaharlarida xonaqohlar qurib shayxlik qila boshlaydi. Ahmad Yassaviy ana shu Yusuf Hamadoniyni shogirdi – uchinchi xalifasidir.

Xoja Ahmad Yassaviy bir rivoyatda Yassi (hozirgi Turkiston) shahrida, boshqa bir rivoyatga ko'ra Sayramda tug'ilgan. Uning qachon tug'ilgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Ammo ko'pchilik manbalarning ko'rsatishicha 1166-yilda vafot etgan.

Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy Payg'ambardan ortiq yashash odobsizlik bo'lur deb 63 yoshida yerto'laga – chillaxonaga kirib yashagan deyiladi.

A.Yassaviy ro'zani ham 60 kunlab tutgan emish. Umrining oxirigacha o'sha chillaxonada faqat toat-ibodat bilan hayot kechirgan. Mavlono Hisomiddin Sig'noqiyni risolasi A.Yassaviy 130 yoshga kirgan deyiladi.

A.Yassaviyning otasi Shayx Ibrohim uning yoshligida vafot etgan.

A.Yassaviy avlodi – otasi Ibrohim, uning otasi Mahmud, bobosi Iftixor va boshqalar orqali Muhammad payg'ambarning qizi Fotima nasliga borib bog'lanadi. Otasi vafotidan so'ng uning tarbiyasi Arslonbob boboga qoladi. Arslonbob bobo vafotidan so'ng Buxoroga kelib mashhur mutasavvuf Yusuf Hamadoniyni tasavvuf bo'yicha ta'lim oladi.

Yusuf Hamadoni vafotidan so'ng uning o'rnida qolib, xalifalik qiladi, so'ng esa katta piri murshid sifatida Turkiston muzofotiga qaytib keladi va o'zining tariqati, ma'rifati, karomatlari, ijodi bilan juda katta shuhrat qozonadi. Muridlari, ixlosmandlari, muxlislari juda ko'payadi. Butun

Turonzaminda shu darajada ortadiki, “Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad” degan ovozarlar tarqaladi.

Sayram, Turkiston shaharlaridagi va ularning atroflaridagi muqaddas qadamjolarining aksariyati Ahmad Yassaviy va uning ajdodlari nomlari bilan bog‘liqdir. Sayramning turli joylarida Ahmad Yassaviyning otasi shayx Ibrohimning, onasi Qorasoch momoning, aka-ukalari Latif ota, Mustafouli otalarning qabri bor. Ahmad Yassaviyning o‘zi esa, Yassida dafn qilingan. Buyuk sohibqiron Amir Temur To‘xtamishni mahf etish uchun qilgan yurishlarida bu yurtlarda bo‘ladi va 1395-1397-yillarda Ahmad Yassaviyning eski qabri ustiga katta va muhtasham maqbara qurdirgan. Rivoyatlarga ko‘ra To‘xtamish Turkistonga qilgan bosqinchilik yurishida Yassaviy avlodining mol-mulkini talagan ekan. Temur To‘xtamishni yenggach, o‘sha olib ketilgan mol-mulkni undirib olibdi va buning evaziga bir katta madrasa qurishga farmoni oliy beribdi. Biroq Temur vafotidan so‘ng bu farmoni oliy amalga oshmay qolgani aytilgan.

Temurdan boshqa amirlar, hukmdorlar ham Yassaviyga e‘tiqodlari baland bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon xoni Amir Umarxon 1819-yilda Turkistonni bosib olayotganida, Yassaviy qabrini ziyorat qiladi, xudoyilikka 70 qo‘y so‘ydiradi va shayxlarga in‘om beradi.

Chor qo‘shinlari Turkistonni bosib olgan vaqtda Yassaviy maqbarasi birmuncha xarob bo‘lgan edi. Shuning uchun chor hukumati 1884-yilda maqbarani tiklash v uni saqlash uchun 15000 so‘m pul ajratdi. Bu bilan chor hukumati, bir tomondan, feodal-radikal guruhlarining noroziligini bostirishga, ikkinchi tomondan, din va xurofotni ko‘paytirib, o‘z siyosiy hukmronligini mustahkamlab olishni ko‘zda tutgan edilar.

Diniy Islomga rivoj bergan, diniy qadriyatlarni nihoyatda hurmat qilgan sohibqiron Amir Temur Yassaviy qadriyatini e‘zozlashni boshlab beruvchilardan bo‘lgan edi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Temur buyuk Ahmad Yassaviyning maqbarasi bu aziz piri murshidning nomiga munosib bo‘lishini istaydi va ulug‘ bobokalonimiz nomlariga mos maqbara qurdiradi.

Temur tarixchilaridan Sharafiddin Ali Yazdiy jahongirning Xoja Ahmad Yassaviyga alohida ixlos qo‘yganini, hazrat qabri ustiga qurilgan gumbazning balandligi 30, aylanasi 41 gazlik muazzam maqbara qurish haqida farmoni oliy berganligini ma‘lum qilgan edi. Haqiqatan ham, maqbara mahobatli, garchi uning qurilishi XIV asr 90-yillarining so‘nggida boshlangan bo‘lsa-da, u ancha uzoq qurilganini, Temur vafotidan so‘ng bitkazilganini xabar qiladilar.

Sohibqiron nabirasi, buyuk munajjim Mirzo Ulug‘bekning Robiya sultonbegim ismli qizi ham shu yerga dafn qilingan.

G‘azal mulking sultoni Alisher Navoiy ham Xoja Ahmad Yassaviy nomini, qadriyatini juda baland tutgan. Uni haqli ravishda “Turkiston mulking shayx ul-mashoyixidur” deb ta’riflar ekan, Ahmad Yassaviyning turkiy tilli mamlakatlar aholisi o‘rtasida ma’rifat tarqatgani, qalblarni nurbaxsh etganligini ta’rif va tavsif etadi, yana davom etib: “...Maqomi oliy va mashhurligini, karomati cheksiz va hayratlanarli ekanligini ta’kidlab, : “Murid va ashob g‘oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi osmonida nihoyatsiz ermish” deb ta’kidlanadi.

Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida so‘fiylar haqida so‘z yuritib, bu toifaning eng muhim allomalaridan deb tovbani ko‘rsatadi. Shunda Haq taolo barcha nojoiz shulardan ya’ni ta’qiqlangan narsalardan hazar qilishni ko‘ngilga solar ekan. Nihoyat, “Luqma hilliyati”, ya’ni har kimning o‘z mehnati bilan kun ko‘rishini, luqmani halollob yeyishi zarur ekan. Darhaqiqat, juda ko‘p shayxlar biror kasb egasi bo‘lganlar, mehnat qilib non topganlar. Abdulla Ansoriy etikdo‘zlik qilgan. Shayx Haddod – temirchilik, shayx Abbos - nonvoylik, Bahouddin Naqshband, Amir Said Kulol nomlari ham kasbini anglatib turadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida dehqonligiga ishora bor. Ya'ni buyuk sulton ul-orifin A.Yassaviy hayotda har bir inson o'z rizq-ro'zini topib yeyishi uchun harakat qilishi kerakligini, mehnat qilishi zarurligini, jamiyat uchun tekinxo'r bo'lib, boshqalar rizq-nasibasiga sherik bo'lishni barcha so'fiylar qoralaganlar.

Alisher Navoiy ham so'fiylikning mana shu fazilatli udumini ma'qullagan va o't ham shu yo'lni tutgan, ya'ni A.Navoiy quruq toat-ibodat qilib yaratuvchilik mehnatdan o'zini tortgan, faqat o'z manfaatinigina ko'zlaydigan, tekinxo'r, xudbin shaxslarni qoralagan, jamiyatga ortiqcha yuk bo'luvchi unday shaxslardan oddiy mehnatkashni afzal bilgan va tekinxo'r, xudbin shaxslarning salomiga alik ham olmagan.

So'fiylikda va shu jumladan A.Yassaviy ta'limotida tekinxo'rlikni qoralaydi, mehnatsiz vujudga kelgan boylik va luqma nopok hisoblangan. Haromxo'rlikni hech narsa bilan yuvib bo'lmaslikni, uning gunohi o'zigagina emas, bola-chaqalariga, oilasiga ham uradigan baloyi azim ekanligini ta'kidlab ko'rsatadilar. Ya'ni mehnatsiz kelgan boylik har qanday oilani buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi deb ko'rsatiladi.

XIV asr usmonli turklarining hassos shoiri Yunus Emro Yassaviyni o'ziga ustoz deb biladi. XVII asrda yashab ijod etgan iste'dodli tatar shoiri Mavlo Kulining "Devon"idagi she'rlari aksariyat "Devoni hikmat" yo'lida yozilgan edi.

Asrimizning mashhur olimlari – akademik V.V.Bartold, Muhammad Fuod Ko'pruluzoda uning bashariy shuhrati haqida yozgan edilar.

Hozirgi davr mashhur adabiyotshunoslaridan ingliz sharqshunosi J.Trimengem o'zining rus tiliga tarjima qilgan "Суфийских ордени в исламе" ("Islomda so'fiylik mazhablari") kitobida A.Yassaviy va uning izdoshlariga keng o'rin ajratadi.

O'zbek-sovet adabiyotshunosligida Yassaviy to'g'risidagi ilk tadqiqotni 1927-yilda Abdurauf Fitrat amalga oshirgan edi. Jumladan, "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1927-yil 6-sonida katta bir maqola bilan chiqib, Yassaviy kim bo'lgan? savolini qo'ygan va shoir muhiti, falsafasi, "Devoni hikmat" va uning adabiy qimmati xususida so'z ochgan edi. Muallif nodir iste'dodiga qaramay, o'sha yillari tomir ota boshlagan partiyaviy tazyiqlar iskanjasidan holi bo'la olmadi. Qizil imperiya asorati sezilib turar edi.

Partiyaviy tazyiqlar kuchayib endi Yassaviy hikmatlaridan reaksiyon g'oya izlashni boshladi. Bu musobaqada katta-kichik juda ko'plab odamlar faoliyat ko'rsatdi. 70-yillarda Ergash Rustamov Yassaviy g'oyalarining reaksiyon emasligini isbotlashga harakat qildi. Ammo zamon, tahlikali davr buni ko'tarmadi. Tadqiqotchi nohaq ravishda tanqid qilindi. Nihoyat zamon aylanib oshkoralik va demokratiya kun tartibiga tushdi. Madaniy merosni, adabiyot hodisalarini uning xos xususiyatlari negizida o'rganish, jumladan, Ahmad Yassaviy ijodini Sharq falsafasi, estetik tafakkuri doirasida tahlil qilish yuzaga keldi va uni shu nuqtayi nazaridan tadqiq etadigan mutaxassislar paydo bo'ldi.

1990-yil 22-27-oktyabr kunlari Chimkent viloyatiga qarashli Kentov shahrida YUNESKO ning "Buyuk Ipak Yo'li bo'yidagi madaniy aloqalar" dasturi doirasida "Yassaviy olami" mavzuiga bag'ishlangan xalqaro davra suhbatlari bo'lib o'tdi. U Qozog'iston Fanlar akademiyasining Turkologiya markazi, Jumhuriyat Yozuvchilar uyushmasining Badiiy tarjima va adabiy aloqalar bosh tahririyati kengashi, Olmaota, Istanbul va Saljuq dorilfununlari tashabbusi bilan tashkil qilindi.

Anjumanda Turkiya, Amerika, Fransiya, Italiya, Germaniya, Polsha singari xorijiy mamlakatlardan, Rossiya va Qozog'istondan taniqli olimlar qatnashdilar.

Anjuman qatnashchilari va xorijlik hurmatli mehmonlar Yassaviy nomi bilan bog'liq bo'lgan qadamjolarni ziyorat qildilar.

Buyuk faylasuf va insonshunos olim Ahmad Yassaviy yashagan davr, Yassaviy shaxsi, ma'naviy olami, ijodiy merosi masalalariga bag'ishlangan 40 dan ziyod ma'ruza tinglanib, muhokama qilindi. Anjumanda va davra suhbatida O'zbekistondan ham bir guruh ijodiy xodimlar, jumladan, shoir va yozuvchilar Muhammad Ali, Toxir Qahhor, Buxoro davlat pedagogika oliygohi professori, o'zbek tili kafedrasini mudiri H.Ne'matov, Toshkent davlat dorilfununi professori Begali Qosimovlar ma'ruza qildilar.

Anjuman ilmiy, do'stona vaziyatda g'oyat samimiy o'tdi. Ahmad Yassaviyning butun Turkiston olamining ma'naviy rahbari ekanligi butun ma'ruzalar mazmunini tashkil etdi.

Har bir ma'ruzada bobokalonimizning ma'naviy olamiga xos yangi qirralari namoyon etildi. Anjuman qarorlar qabul qildi. Chunonchi, Yassaviy hayoti va ijodini o'rganish bilan bog'liq masalalar doirasini belgilash; adib asarlarining tanqidiy matnini tayyorlash; kutubxonasini barpo etish; Ahmad Yassaviy nomida xalqaro mukofot ta'sis etishga erishish; maqbarasini YUNESKO ro'yxatiga kiritish; ushbu xalqaro anjumanni muntazam o'tkazib turishga erishish: 1993-yilda tavalludining 890 yilligini tantanali nishonlash va hokazo. Shuningdek, Yassaviy hayoti va ijodini o'rganish ishlarini uyushtirish va boshqarish uchun 7 kishilik xalqaro komitet tuzildi. Istanbul dorilfununi turk tillari adabiyoti kafedrasining mudiri, taniqli Yassaviyshunos olim, professor Kamol Eraslon komitet mutasaddisi etib saylandi. Komitet tarkibida Fransiyaning Strasburg universiteti Turkologiya kafedrasining mudiri, professor Iren Melikofxonim, taniqli turkologlar – moskvalik E.R.Tenishchev va T.D.Melnikov, olmaotalik professor Erden Kajibekovlarning nomlari bor edi.

Anjuman ruhi Yassaviy olamining keng ko'lamda tadqiq va targ'ib etilishida, shu jumladan, uning ijodiy merosini tugal va aslicha o'z egalariga – xalqqa qaytarishida yangi bir davrning boshlanganidan dalolat berib turar edi.

Binobarin, u o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Jumladan, Yassaviy vatani Turkistonda dorilfunun ochilib, unda ilohiyot fanlari o'qitila boshlandi.

Ahmad Yassaviy ijodini o'rganish boshqa davlatlarda ham boshlanib ketdi.

1991-yilning 26-sentabrida Ahmad Yassaviy xalqaro simpoziumi Turkiyada Anqara shahrida ish boshladi. Ikki kun davomida 20 dan ziyod ma'ruza tinglandi. Mashhur turkshunos olimlardan Andras Bodrogligeti, Kamol Korpat ma'ruzalari katta qiziqish bilan kutib olindi. Bu anjumanda O'zbekistondan Hamidjon Ne'matov va Begali Qosimov qatnashdi.

Yana quvonarlisi shuki, 1993-yil uning qadri hamma yerdagidan ham yuksak bo'lgan vatanida, tug'ilib o'sgan yurtida, Yassida Yassaviy yili deb e'lon qilindi. Bu nihoyat darajada faxrli narsa bo'lishi bilan birga mas'uliyatli hamdir. Sababi Xoja Ahmad Yassaviy oddiy tasavvufchi, shoirgina emas, butun turkiy olamning aqli-tafakkurini, qadriyatlarini bir-biriga bog'lab kelayotgan umumturkning e'zozli farzandi hamdir, buyuk dahosidir. Binobarin, uning shaxsi, hayoti va ijodi bilan bog'liq har bir narsa chuqur va atroflicha o'rganilishi zarur. Bu borada qilinadigan ishlar, amalga oshiriladigan tadbirlar juda ko'p bo'lib, bu sohadagi ish jahon miqyosida keng ko'lamda boshlanib ketganligi quvonarli holdir. Chunki Yassaviy qadriyati butun turk qavmlari qadriyatidir.

Yassaviyshunoslik o'zbek adabiyotida 20-yillarda yangicha taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Professorlardan Abdurahmon Sa'diy, Abdurauf Fitratlar qator maqolalar yaratishdi. Masalan, Abdurahmon Sa'diy o'zining "Yassaviy kim edi?" nomli maqolasida Yassaviy shaxsi, uning ma'naviy olami haqida juda ajoyib fikrlarni bayon etdi. U shu jumladan shunday yozadi:

“Yassaviy rasmiy odatiy ibodat kishisi emasdir. Boshqa mo‘minlar ommasi kabi oddiy bir mo‘min ham emasdir. U chin vijdonli odamdirdir. Muhiddin binni Arabiy G‘azzoliy hayotni, Xoliqni, o‘zini, boshqasini, jannatni, jahannamni faqat o‘z vijdonida, o‘z ko‘ngli ichida qo‘rquvchi birlik” fikrida tamom foniylar bir odamdirdir. Ul o‘z qalbida va boshqalarning yuraklarida farishtalik martabasiga erishgan bir ezgulik tuyg‘usi tug‘dirishga yelkingan bir darveshdirdir. Ul shariatchilar, rasmiy dinchilar qoshida “kofir” bir shaxsdirdir. Ul faqat “Haq” kishisi, “Haq” oshig‘idir, ul hech bir rasmiy odatlardan, rasmiy ibodat, falonlardan boshqa faqat vijdon Ka‘basi ichinda, vijdon ma‘budidagina o‘zining e‘tiqod va tabajjuh etgan oliy, yashirin bir quvvatga, uning jamoliga obiddir. Undan g‘ayb ko‘p haqiqiy islom so‘fiylari ham shundoq edilar. Yassaviy shular safida turuvchi fidoyilarning va foniylarning biridirdir.

Uning:

*Ro‘za tutub xalqqa riyo qilg‘onlarni,
Namoz o‘qib tasbeh qo‘lg‘a olg‘onlarni,
“Shayxmen” dey-u o‘zga bino qo‘yg‘onlarni,
Oxir damda iymonidan judo qildim.*

Kabi she‘rlari munga shohiddirdir.” (Yassaviy kim edi, Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, 12-bet)

Muallif yuqoridagi so‘zlarida tili bilan dili bir bo‘lmagan, xo‘ja ko‘rsinga ro‘za tutib, namoz o‘qiydigan, o‘zini “shayxman” deb aslida tama‘gir, o‘z nafslarini jilovlay olmagan kimsalarni juda yaxshi ta‘riflab berganligini ta‘kidlaydi.

“Haq”ga yetishishning asosiy yo‘li bu yo‘lda o‘zni fido qilish zarur ekanligi uqtiriladi.

Abduraxmon Sa‘diy yana davom etib yozadi: “Yassaviy o‘z zamonida va o‘z muhitidagi butun yomonliklarga, ijtimoiy va axloqiy butun yomonliklarga, kamchiliklarga qattiq hujum etuvchi, ularga qarshi shiddatli kurash va urush e‘lon qilib, butun umrida shularga o‘zining keskin va ochiq she‘rlari ila shafqatsiz ravishda o‘q otuv turguvchi ijtimoiy va axloqiy bir qahramondirdir. Ul bu to‘g‘rida ba‘zilariga zaharli o‘t otsa, ba‘zilarni tosh bilan uradir” (13-bet)

Dini Islom tarixidan ma‘lumki, payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallamning jamiyat hayotiga aralashuvi, xalqqa foydali ishlar qilish uchun bel bog‘lagan, Ollohdan kelgan vahiya binoan faoliyat ko‘rsatuvi jarayonida arab qabilalarining ahvoli, axloqi, turmush tarzi va hokazolarning ayanchli holatda ekanligi o‘quvchi ommaga ma‘lumdir. Axloqsizlikning, yomon ishlarning, xunrezlik va sharmandaliklarning eng oxirgi nuqtasiga borib qolgan xalqqa, ommaga, boylik, mulkdan boshqa narsani pisand qilmaydigan, hisobga olmaydigan qabila boshliqlariga bir gapni uqtirishning o‘zi bo‘lmas edi, albatta. Ularni biror xayrli tadbirga jalb etish ham amri mahol edi. Ana shunday qiyin sharoitda dini Islom nurini qorong‘u zimistonga aylangan o‘lkaga yoyish haqiqiy qahramonlik edi.

Ko‘hna Sharqning ana shunday onlarini idrok qilar ekan buyuk ustoz Abdurauf Fitrat Yassaviy yashagan muhitni ham o‘quvchi ko‘zi oldiga yaqindan keltiradi. Uning tarixini, sulolalar va xonliklar o‘rtasidagi ziddiyatlarni, urush va xunrezliklarni eslab o‘tadi. Yassaviy ana shunday muhitda yashab, o‘z g‘oyasini, sulukini omma orasiga sobitqadamlik bilan joriy eta olganligini juda to‘g‘ri ko‘rsatib bergan. Nihoyat qiyin sharoitda Yassaviy feodal mulkchilikga mukkasidan ketgan mulkdorlarni, xonlarni, bug‘raqonlar va ilekxonlarni o‘z ta‘siriga ola bilgan komil insonga faqat tasannolargina aytish mumkin.

Yassaviy yashagan tarixiy davrni Abdurauf Fitrat Yassaviyning muhiti ruknida quyidagicha ta‘rif etadi: “XII asrda Buxoroda eng katta boy mulla bir oila hukm surardikim, bularga “Ol Burxon” yoxud sadrlar unvoni berilgan edi. Bular boshda qoraxoniylarga tobe edilar.

Qoraxoniylar kelgach, sadr Hisomiddin Umarni o'ldirib, bularni o'zlariga qaratdi. Bu sadrlar hukumatining yonida qoraxitoylarning bir vakili turar edi. Beshinchi-oltinchi asrlarda davom etgan bu tortishmalar, janjallarning zarari beklar, aslzoda, boylar ham ularning quyruqlari bo'lg'onlarga qarag'onda ko'krak tuban sinf, qora xalq atalg'on ommaga zarar berar edi.

Uzun surgan urushlarda ekin yerlarining yemirilishi, chorvalarning yayloqsiz qolishi, bir ko'b kishilarning yurtidan haydalishi, bir ko'b oilalarning boshliqsiz qolishi tabiiydir. Ancha muddat bu holda qolg'on ommaning qayg'ularga botib, hayotdan bezib, qalin bir umidsizlikka tushmaganligini da'vo qilib bo'lmaydir" (Abdurauf Fitrat, Ahmad Yassaviy muhiti, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1994, 22-bet)

Demak, payg'ambarimiz Islom dinini qanday qiyin sharoitda joriy etgan bo'lsalar Xoja Ahmad Yassaviy ham ana shunday qiyin sharoitda o'z suluklarini xalqqa havola qiladi. Dini Islom bashariyat uchun eng to'g'ri nusratnishon din bo'lgani uchun odamlar bu dinni qabul qilganliklaridek, A.Yassaviy ta'limotining, ma'rifatining Haq yo'lidagi eng to'g'ri yo'l bo'lganligi uchun butun turkistonliklar, butun Sharq buni hurmat qilib, bu ta'limotga ya'ni Yassaviy ta'limotiga o'z xayrixohligini bildiradilar va kundan-kun ixlosmandlar soni ko'payib bordi, nufuzi va obro'si ortib bordi va hatto Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad degan so'zlar aytib yuriladigan bo'ldi. Dini Islom targ'ibotida, tasavvufda juda ko'p avliyolar, piri ustozlar faoliyat ko'rsatgani ma'lum. Ul zotlarning hammasida ham ulug'lik sifatleri, karomatgo'ylik, poklik, komillik, tavonolik bo'lganligiga shubha yo'q. Ammo ana shu azizlarning ichida bizning bobokalonimiz "Shayx ul-mashoyix", "Sulton ul-orifin" degan oliy unvonni olishi bu bejiz emas edi. Xoja Ahmad ana shunday sharaflarga mutlaqo loyiq edi. Sharqda va butun turk elida Ahmad Yassaviy sofdillarga ilhom beruvchi sifatida keng xalq ommasiga to'g'ri yo'lni ko'rsatib berdi. Kishilar qalbini ma'rifat nuri bilan yoritdi.

Adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy, Hikmatlar, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1991-yil.
2. O'zbekiston SSR tarixi, I tom, 1970-yil.
3. Vahobov M. O'zbek sotsiologik millati, T., 1960.
4. Vohidov H. O'zbek ma'rifatparvarlarining sotsiologik qarashlari, T., 1960.
5. Al-Isloh jurnali.
6. Zohidov V. Tasavvuf haqida, O'zbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, I tom.
7. Borovkov A.K. Ocherki po istorii Uzbekskogo yazika, 1948 g.
8. Qahhor T. Ahmad Yassaviy, O'zbek adabiyoti va san'ati, 1990, 30-oktyabr.
9. Qosimov B. Shayx-ul mashoyix, O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993, 5-mart.
10. Qosimov B. Hikmatlar she'riyati, O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993-yil, 16-iyul.
11. A. Navoiy Tanlangan asarlar, 3-tom, "Majolis un-nafois", T., 1948.
12. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, T., 1964.
13. Kollektiv, O'zbek adabiyoti tarixidan materiallar, T., 1959.
14. Kollektiv, O'zbek adabiyoti tarixi, T., 1961.
15. Kollektiv, O'zbek adabiyoti tarixidan materiallar, T., 1961.
16. Xayrullayev M. Shorahmedov D., Madaniyat va meros, T., 1973.
17. Hayitmetov A. Adabiy merosga lenincha munosabat samaralari, O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1972, N6.

Lamahot min Nafahotul Quds: Imomqulixon davri Yassaviya shayxi Muhammad Olim Siddiqiyning qo'lyozma asari tahlili

Parvina Rahmonova

Samarqand davlat universiteti doktoranti,

Annotatsiya: Maqolada Ashtarxoniylar davri (1601–1756) Samarqand ilmiy-ma'naviy hayotida Yassaviya tariqati vakillarining o'rni va faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Samarqand davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Muhammad Olim Siddiqiyning “Lamahot min nafahotul quds” (“Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar”) asari turib, ushbu manba asosida XVII–XVIII asrlarda Samarqand va Turkiston mintaqasida Yassaviya tariqatining rivoji, shayxlar silsilasi, ulamolar o'rtasidagi aloqalar hamda tariqatning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri ochib beriladi. Asarda shayxlarning tarjimai hollari, nasabnomalari, karomatlar va pedagogik-ruhiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlar keltirilgani ilmiy muomalaga yangi tarixiy dalillarni olib kiradi. Tadqiqotda qo'lyozmaning boshqa nusxalari (Madinada, Eron va Toshkentda saqlanayotgan) bilan qiyosiy tahlil ham berilib, Samarqanddagi tariqat muhitining umumiy manzarasi tiklanadi.

Kalit so'zlar: *Ashtarxoniylar, Samarqand, Yassaviya tariqati, Muhammad Olim Siddiqiy, “Lamahot min nafahotul quds”, qo'lyozma, tariqat tarixi, manbashunoslik.*

“Lamahāt min Nafahāt al-Quds”: An Analysis of the Manuscript Work of the Yassawiyya Shaykh Muhammad Olim Siddiqiy during the Reign of Imamquli Khan

Abstract: This article examines the role and activities of the Yassawiyya order representatives in the intellectual and spiritual life of Samarkand during the Ashtarkhanid period (1601–1756). At the center of the study lies *Lamahāt min nafahāt al-quds* (“Moments from the Sacred Fragrances”), a manuscript preserved in the Manuscripts Collection of Samarkand State University and authored by Muhammad Olim Siddiqiy. Based on this source, the article explores the development of the Yassawiyya order in Samarkand and Turkestan during the 17th–18th centuries, the genealogy and spiritual practices of prominent shaykhs, interrelations among scholars, and the socio-political significance of the order. The manuscript contains valuable information on the biographies, lineages, miracles, and pedagogical–spiritual activities of the shaykhs, thus introducing new historical data into scholarly discourse. The study also includes a comparative analysis of other extant copies of the text preserved in Medina, Iran, and Tashkent, thereby reconstructing a broader picture of the religious–intellectual milieu of Samarkand.

Keywords: *Ashtarkhanids, Samarkand, Yassawiyya order, Muhammad Olim Siddiqiy, Lamahāt min nafahāt al-quds, manuscript, tariqat history, source studies.*

Kirish. Samarqand shahrining yuragi hisoblangan Registon maydonining hozirgi ko'rinishga kelishi Ashtarxoniylar hukmdori Imomqulixon (1611–1642) davriga to'g'ri keladi. Mazkur sulola hukmronlik qilgan yillarda (1601–1756) yashagan Yassaviya tariqati vakillari faoliyati qisman o'rganilgan bo'lsada, hali ilmiy muomalaga kiritilmagan qo'lyozma manbalardan bu boradagi yangi ma'lumotlarni topish mumkin. Imomqulixon davrida Samarqand *a'lami* lavozimida ishlagan Muhammad Olim Siddiqiyning Samarqand davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 822847/1-raqamli “Lamahot min nafahotul quds” (“Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar”) asarini bunga misol qilish mumkin.

Yassaviya tariqatining yirik vakili bo'lgan Muhammad Olim Sidiqiy 1564-1634-yillarda yashagan. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar K.Kattayev [Kattayev K., 2023:24-25], B.Aminov [Aminov B., 2011 № 2:123-126; 2011 № 4:290-292], N.Hasanov [Hasanov N., 2007:342-346], O'.Sultonov [Султонов Ў.А., 2022] tadqiqotlarida uchraydi.

Uning tarjimai holiga to'xtaladigan bo'lsak, otasi Muhammad Mo'min ibn Darvish shayx xalifa Xudoydod ibn Shayx Xovandshoh ibn Fathulloh shayx ibn Hibatulloh shayx ibn Fathulloh shayx ibn Shayx Tojiddin ibn Shayx Alovuddin ibn qutb ul aqtoq Zayniddin ibn shayx ul islom shayx Sahobiddin al Sahardardi va hazrat shayx Shahobiddin Sahardardi va 13 ta ajdodi xalifa Abubakr Siddiqqa ulanadi.

Shayx Muhammad Olimning otasi Muhammad Mo'min Darvish shayxning ikkinchi o'g'li bo'lgan. Shayxning otasi hijriy 958 (milodiy 1551) yilda Aliobodda vafot etgan [Shayx Muhammad Siddiq Alaviy, 1984:1-15].

O'ktam Sultonovning keltirishicha, Muhammad Olim Sidiqiy 1564-yil Toshkentda tug'ilib, ba'zi bir sabablarga ko'ra, otasi Mo'minshayx boshchiligida Samarqanddagi Aliobod qishlog'iga ko'chib kelishadi. U Aliobodda faoliyat yuritgani bois Aliobodiy nisbasini olgan [Султонов Ў.А., 2022:30].

Olimshayx dastlab, mavlono Ismatulloh qo'lida tahsil olgan. Yoshlik chog'ida Balxda o'qigan va Kobulda mavlono Muhammad Sodiqning qo'lida 6 yil tahsil olgan. Samarqandga qaytgach, yassaviya tariqati rahnamosi Pirimshayxga murid tushgan. Keyinchalik, Muhammad Olim Sidiqiy hazrat shayx Qosimga shogird bo'lgan. Amir Za'ullohning qiziga uylangan va ularning ikki qizi bo'lgan. Ammo ayolining vafotidan so'ng shayx Xudoydodning qiziga uylangan va ikki o'g'il ko'rgan. Ular: Xoja Bahoviddin va Abdurashid.

Olimshayx azizon 1042/1632-1633-yil Aliobod qishlog'ida vafot etib, o'sha yerda dafn etilgan [DeWeese D., 2024:400-402]. Bu yerda bo'lgan tadqiqotchi B.Aminov shayxning geneologiyasini o'rganish jarayonida uning qabrtoshidagi yozuvlardan manba sifatida foydalangan [АМИНОВ Б., 2011 № 2:123-126; 2011 № 4:290-292].

Hozirgi aholi tilida Aylavot nomini olgan Aliobod Yassaviya tariqati tarixida eng mashhur qishloqlardan biri. Chunki XV-XVII asrlarda Saydi ohi, G'azira, Kumushkent qishloqlari kabi Aliobodda ham ko'plab Yassaviy shayxlar xonaqoh qurib, o'z faoliyatini olib borgan. Bugun Aliobod qishlog'i Samarqand viloyatining Chelak tumanida joylashgan. Uning qiziqarli va sirli o'tmishi haqida biz ko'p narsalarni bilmaymiz. Masalan, bu qishloqda dafn etilgan Olimshayx Azizon Hindistondagi Osafjohiyar sulolasi asoschisining bobokaloni ekani nafaqat O'zbekistondagi nashrlar balki hind tarixchilari asarlarida ham batafsil yoritilmagan. Bu sulola poytaxti Haydarobod bo'lgan Dekan o'lkasida 1724-yildan 1948-yilgacha amalda mustaqil hukmronlik qilib, Hindiston tarixi va madaniyatida chuqur iz qoldirgan. Olimshayx Azizonning o'g'li Xoja Muhammad Obid esa xuddi Zahiriddin Boburdek bugungi O'zbekiston hududidan Hindistonga borib o'z sulolasiga asos solgan shaxs edi.

Muhammad Olim Sidiqiyning ilmiy merosi. Bu olim so'fiylik faoliyati bilan bir qatorda *a'lam* lavozimida ham ishlagan. XIX asrda yashagan Samarqandlik tarixchi olim Abu Tohirxoja o'zining "Samariya" asarida yozishicha, "U Imomquli Bahodurxon davrida Samarqandda a'lam edi va u zamonasi imomlarining imomi edi". Aytish mumkinki, bu lavozimga asosan yetuk olimlar tayinlangan.

Muhammad Olim Sidiqiy bir necha asarlar yozib qoldirgan. Uni mashhur qilgan asosiy asari yuqorida eslatib o'tganimiz "Lamahot min nafahot al-quds" ("Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar") asari. Ushbu asar 1032/1622-1623-yilda, forsiy tilida Yassaviya tariqati g'oyalari hamda

ushbu tariqat shayxlari biografiyasiga bag'ishlab yozilgan. Bu asarning Toshkentda saqlanayotgan nusxalari N.Hasanov va O'.Sultonov tomonidan o'rganilgan [Хасанов Н., Султонов Ў., 2006. № 3:194-197; 2006 № 4:277-279; 2006. № 3:16-25; Хасан Н., 2006. № 9:33-37].

O'ktam Sultonovning keltirishicha, asarning bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi, qo'lyozma №10567. Mazkur qo'lyozma ancha qadimiy, 168 varaq.
2. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №5587/I. Nur Muhammad al-Qorako'liy tarafidan 1199/1784-1785-yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan. 223 (1b-223b)
3. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №638. 1244.1828-1829-yilda Hoji Muhammad ibn mulla Oxund tarafidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. 126 varaq.
4. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №495. 1249 yil zulqa'da oyida (1834-yil, mart-aprel) nasta'liq xatida ko'chirilgan. 230 varaq.
5. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №340/I. 1258/1842-1843-yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan. 190 (1b-289b) varaq.
6. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №1483/V. Muhammad Zohir tarafidan 1263/1846-1847-yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan. 187 (121b-307a) varaq.
7. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №12950/II. 178 (94b-27b) varaq. 1294-yil rajab oyida (1877-yil, iyul-avgust) nasta'liq xatida ko'chirilgan.
8. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №6168/II. 163 (132b-294a) varaq. Qo'lyozmaning birinchi qismiga qaraganda bu nusxa ham taxminan 1327/1909-1910-yilda, Mullo Sharafiddin xatib ibn Mullo Sayfiddin Buxoriy tarafidan Buxoroning Haydarobod mavzeyida nasta'liq xatida ko'chirilgan. Oxiri yo'q.
9. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №8081/II. 214 (1b-214a) varaq, nasta'liq xatida.
10. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №8813. 1325/1907-1908-yilda Mulla Boqijonboy Toshkandiy buyurtmasiga ko'ra nasta'liq xatida ko'chirilgan. 267 varaq.
11. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №10567/I. 168 varaq, nasta'liq xatida.
12. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №10715/VI. 25 (68b-92b) varaq. Nasta'liq xatida ko'chirilgan. Oxiri yo'q.
13. O'zR FA ShI asosiy fondi, qo'lyozma №6168/II. 163 (132b-294b) varaq, nasta'liq xatida. Oxiri yo'q.
14. Abu Ali Ibn Sino nomli Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondi, qo'lyozma №76/IV. 1076/1665-1666-yilda Muhammad Fo'lod ibn Hisomiddin Samarqandiy tarafidan nasx xatida ko'chirilgan. 39 varaq.
15. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sank-Peterburg Sharq qo'lyozmalari instituti fondi, qo'lyozma C1602/I. Bu qo'lyozma muallif hayotligi vaqtida, ya'ni 1035-yil ramazon oyida (1626-yil, may-iyun) Samarqandda, Homid ibn Shoh Ayub (ibn Shoh Homid ibn Shoh Ayub ibn Mahmudshoh al-Husayniy) tarafidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. 124 (1b-124b) varaq.
16. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sank-Peterburg Sharq qo'lyozmalarri instituti fondi, qo'lyozma C1492. 149 (14b-163b) varaq. Nuqsonli, oxiri yo'q.
17. Saudiya Arabistoni podshohligining Madinayi Munavvara shahridagi Orif Hikmat kutubxonasi. Inv. №35.
18. Pokistonning fors tadqiqotlari markazining Ganjbaxsh kutubxonasi nusxasi. Inv. № 8728. 1251-yil jumod as-soniyda (1835-yil, sentyabr-oktyabr) nasta'liq xatida ko'chirilgan, 464 varaq.

“Lamahot min nafahot al-quds” (“Muqaddas xushbo‘yliklardan lahzalar”) asarida yozilishicha, asar Sheroz tumani (Kobud deb ham ataladi)dagi Aliobodda 40 yil mobaynida (993/1585-1033/1643) yozilgan [Shayx Muhammad olim Siddiqiy Alaviy, 1984:14].

Muallif Samaqand, Buxoro va Turkistonlik diniy ulamolar, ayniqsa yassaviya shayxlari hayoti, karomatlari, mashg‘ulotlari va ulug‘ oriflar o‘rtasidagi aloqalar haqida batafsil ma’lumot beradi [Shayx Muhammad Olim Siddiq Alaviy, 1984:40].

“**Lamahot min nafahotul quds**” asarining SamDU qo‘lyozma nusxasi bir majmuaning birinchi asari (822847/1) sifatida kelgan. Boshi (basmalasi) yo‘q va **كه ايمان حضرت مصطف صلى عليه** اصحابه اجمعين الطيبين الطاهر بن كاسه العبد تراب الاقدام مخلص اين وسلم صر يافته باشد jumlasini bilan boshlanib, **1305/1888** yilda ko‘chirilgan. [Shayx Muhammad Olim Siddiq Alaviy, Lamahot, SamDU: 1^a-223^a]

Undan keyin yana to‘rtta asar keltirilgan: 822847/2 233^b-237^b “Risola” (Silsilayi sharifa); 822847/3 237^b-243^a Abu Ismoilxoja Abdulloh Ansoriy; 822847/4 243^b-251^b ibn Abdulloh Muhammad ibn al-Husayn; 822847/5 251^b-251^b Risloayi hazrat Ibrohim shayx Qo‘g‘ofiy 1305/1888.

So‘fiylar silsilasi orasida Xufiya va Jahriya eng qadimiysi hisoblanib, Xojagon silsilasi nomi bilan tanilgan. Keyinchalik Naqshbandiya tariqati nomini oladi. Xojagon silsilasi – barcha shayxlar silsilasi orasida eng qadimiysi va mo‘tabarlaridan hisoblanadi. Bu silsila Turkistonda paydo bo‘lib, ushbu silsilaning ichida Yassaviya tariqati ma’lum va mashhur. Xoja Ahmad Yassaviy Xoja Abu Yusuf Hamadoniyni uchunchi xalifasi. “Lamahot min nafahot al-quds” asarida u **سلطان الطريقه** nomi bilan uchraydi. Ushbu tariqatda “Hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman” tamoyillari muhim o‘rin tutgan [Shayx Muhammad Olim Siddiqiy Alaviy, 1984:40-43].

Shayx Azizonning Buxoro va Samarqandda minglab shogirdlari bo‘lib, ulardan biri Shayx Xodim edi. U 7 yil uning xizmatida bo‘ladi va keyinchalik uni Samarqandga ushbu tariqat namoyondalarini ko‘paytirib xalqni hidoyatga chaqirish maqsadida yuboradi. “Lamahot min nafahot al-quds” asarida keltirilishicha, u Olim shayx Azizon yo‘lboshchiligidagi tariqat ilmidan Samarqanddagi Muqta’ masjidida ulamolarni yig‘ib, imtihonda xodim bo‘lgan. Imtihon kuni Olim shayx Azizonning o‘zi kelib, masjiddagi mehrob yoniga hammadan oldinda o‘tiradi [Shayx Muhammad Olim Siddiqiy Alaviy, 1984:178].

Samarqanddagi Mirzo madrasasining mudarrisi Darvish Muhammad Oxund Turkistoniy ilmi yetuk kishi edi. Shu sababdan shayx Azizon undan dunyoviy ilmlarni menga o‘rgatish men esa sizga diniy ilmlarni o‘rgataman deb iltimos qiladi. Mudarris ham qabul qiladi. Olim Shayxning ilmi va siyosiy qudrati ham yetuk ediki hatto, Hirot hukmdori Husayn uning oldiga o‘z muammolarini yechishga yordam so‘rab murojaat qilgan. “Bahr ul asror” asaridagi ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, Shayx Azizon Imomqulining Samarqand taxtiga chiqarishda qatnashib, uni tarafdorlaridan bo‘lgan [Mahmud ibn Vali:95a].

Xulosa. Samarqand davlat universitetida saqlanayotgan qo‘lyozma majmu’a tarkibidagi barcha asarlar yassaviya muhitiga oid. Ayniqsa, majmuaning oxirida keltirilgan 11 qator matn muhim ahamiyatga ega. Undan Ashtarxoniylar davrida faoliyat ko‘rsatgan yassaviya shayxi Lutfullohxoja Azizonning 1171/1758-yilda vafot etganini va Karmanaga qarashli Sarmih (سرْمِيح) mavze’ida dafn qilinganini bilish mumkin. O‘zbek tarixshunosligida bu shayx haqida ma’lumot uchramaydi. Kelajakdagi tadqiqotlarda uning faoliyatiga oid yangi ma’lumotlar topiladi degan umiddamiz.

Shu bilan birga Samarqanddagi Muqta' masjidida shogirdlaridan imtihon olingani, hatto hukmdorlar muammoli masalalarda uning xayrxohligi va ko'magiga muhtoj bo'lishganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аминов Б. Олим Шайх Азизоннинг насабномаси (қабртошлардаги битиклар асосида) // Имом ал-Бухорий сабоқлари 2011 № 2. – Б. 123-126; 2011 № 2. – Б. 290-292.
2. Аминов Б. Самарқандские шейхи йасавийа // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент-Самарканд: Фан, 2007. – С. 346-350;
3. DeWeese D. The Yasavi Order and Persian Hagiography in Seventeenth-Century Central Asia -P.400-402.
4. Ҳасанов Н. Самарқандлик икки яссавийа шайхи ҳақида // Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий таракқиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент-Самарқанд: Фан, 2007. – Б. 342-346.
5. Ҳасанов Н., Султонов Ў. Муҳаммад Олим Сиддикий ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Имом ал-Бухорий сабоқлари 2006 № 3. – Б. 194-197; 2006 № 4. – Б. 277-279.
6. Ҳасан Н. Олим Шайх ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Адабиёт кўзгуси: илмий тўплам. – Тошкент, 2006. № 9. – Б. 33-37.
7. Ҳасан Н., Султонов Ў. Олим Шайхнинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ва унинг яссавийшуносликдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. № 3. – Б. 16-25.
8. Каттаев К. Шайх Худойдоди Вали тарихи. – Тошкент: Oltin kitob, 2023. – Б. 24-25.
9. Mahmud ibn Vali. Bahr ul asror, Bodleian kutubxonasi. № 575. – 91^a.
10. Султонов Ў.А. Шайх Зайниддин бобо шахсияти, аждодлари ва авлодлари. – Тошкент: Fan ziyosi, 2022. – Б.30.
11. Shayx Muhammad Olim Sidiqiy Alaviy. Lamahot min nafahotul quds. // Muhammad Nazir Ronjaho. Fors tilida.Lohur:1984. – Б.14.
12. Shayx Muhammad Olim Sidiqiy Alaviy. Lamahot min nafahotul quds. // SamDU kutubxonasi № 822847/1.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asaridagi lugʻaviy birliklar

Rohila Suvonova

Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasavvuf ilmining buyuk namoyondasi, haq yoʻlini tanlagan mutafakkir poeziyasidagi tarixiy soʻz maʼnolarining hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi muqolifi va ularning soʻz va iboralardagi lugʻaviy birliklari haqida fikr yuritiladi. Baʼzi sheʼrlaridan namunalar keltirib tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: *Haq yoʻli, tasavvuf, odob, shariat, poeziya, soʻz, ibora, tahlil, adabiy til, buyuk meros, maʼnaviyat.*

Abstract. This article discusses the historical word meanings in the poetry of the great representative of the science of Sufism, the thinker who chose the path of truth, their counterparts in the modern Uzbek literary language, and their lexical units in words and phrases. Some examples from his poems are analyzed.

Keywords: *The path of truth, Sufism, etiquette, Sharia, poetry, word, phrase, analysis, literary language, great heritage, spirituality.*

Аннотация. В статье рассматриваются исторические значения слов в поэзии великого представителя науки суфизма, мыслителя, избравшего путь истины, их аналоги в современном узбекском литературном языке, а также их лексические единицы в словах и словосочетаниях. Анализируются некоторые примеры из его стихотворений.

Ключевые слова: *Путь истины, суфизм, этикет, шариат, поэзия, слово, словосочетание, анализ, литературный язык, великое наследие, духовность.*

Tilimizdagi lugʻaviy birliklar asosan soʻz va iboralardan tashkil topgan. Ahmad Yassaviyning sheʼriyati asosan maʼnaviy va maʼrifat joʻsh urgan satrlardan iborat. Maʼnaviyat elchisi boʻlgan Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmining buyuk namoyondasi turkiy sheʼriyatning yirik vakillaridan biridir. U 1103-yilda Turkistonning Sarom (Sayram) qishlogʻida Shayx Ibrohim xonadonida tugʻilgan. Keyinchalik u oʻz ona yurtini asarlarida “Ul muborak Turkiston” deb madh etadi. Yassaviy tugʻilganidan soʻng, koʻp oʻtmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha ona olamdan oʻtadi. Yetti yoshida esa otasi ham vafot etadi.

Oʻsha davrda Movarounnahrning ilm-maʼrifat markazlaridan boʻlgan Buxoroda koʻplab turkistonlik toliblar yigʻilishgan. Ustozi Arslon boboning maslahati bilan Yassaviy ham Buxoroga yoʻl oladi.

Ahmad Yassaviy Buxoroda arab, fors tillarini oʻrganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq Gʻijduvoni, Abdulloh Baqriy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat boʻlib, davrning eng peshqadam olimi va soʻfiysi Shayx Hamadoni muridlari qatoridan joy oladi.

Ulugʻ mutafakkirning juda chuqur va boy mazmunga ega boʻlgan “Devoni hikmat” asaridagi soʻfiylik, Yassaviyning falsafiy dunyoqarashi oʻzining butun borligʻi bilan oʻquvchining diqqatini rom etadi. Uning oʻzi “Devoni hikmat” nomi bilan biror bir kitob yozmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan yigʻilib, tartib berilgan.

“Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari samimiy va ta’sirli ohanglarda yetkazib berilgan. Uning fikricha, “Haqning so’zini emas, o’zini bilish” asosiy vazifadir. Shuning uchun donishmand bu dunyo rohatini qidiradigan so’fiy – so’fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ’ib etib, dunyoning g’am-g’ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so’fiydir, deydi.

“Devoni hikmat” asarining boshidan yakuniga qadar ulug’vor insoniy fazilatlar: kamtarinlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlik, insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtayi nazardan olqishlanadi. Va aksincha, joxillik, nodonlik, yomonlik, savodsizlik, haqsizlik, adolatsizlik, molparastlik kabi illatlar qoralanadi. Bunday xislatga ega bo’lgan insonlar insof diyonatga chaqiriladi.

Uning fikricha, insonlar bir-birlariga yaxshilik qilishlari, hasadgo’y bo’lmasligi, shu bilan bir qatorda o’z mol-davlatiga ishonib yashamaslik kerakligi, bu dunyo hammadan ham qolishini uqtiradi. Masalan:

*Beshak biling bu dunyo barcha eldan o’taro,
Inonmag’il molingga, bir kun qo’ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon ketdi fikr qil
To’rt oyoqlik cho’bin ot bir kun senga yetaro.
Dunyo uchun g’am yema, Haqdin o’zgani dema,
O’zgarlar molin yema, Sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo’lmaydi yo’ldosh,
Mardona bo’l g’arib bosh, umring yeldek o’taro.*

Bunda shoir umrning qisqaligi, molu-dunyo va o’tkinchiligi va faqat inson to’rt oyoqlik tobut bilan ketishini, birovni moliga xiyonat qilmaslikni chiroyli so’z va iboralar orqali ifodalaydi.

Yassaviy hikmatlaridagi asosiy o’rinni pand-nasihat egallaydi. Hikmatlarning barchasida haqiqatni bilish, Haqni sevish, nafs dunyodan chekinishga da’vat etuvchi g’oyalar aks etgan. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina inson axloqida ko’zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo’llaridan biri sifatida ta’kidlanadi. Zero, tasavvuf-nafs lazzatlaridan voz kechish demakdir. Masalan:

*Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg’on,
Har kim topsa, rozi bo’lib, bo’yi sung’on
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg’on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo’q.*

Bu to’rtlikda Yassaviy nafs balosidan qanoatli bo’lish, insonlarga xizmat qilib duo olish va u dunyo savol-javoblaridan, siroat ko’prigidan eson-omom o’tish haqida fikr bildiradi.

Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar chuqur egallaydiki, xalq orasida “Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad” degan naql paydo bo’ladi. Tasavvuf – Yaqin va O’rta Sharq xalqlarining ma’naviy hayoti tarixidagi eng murakkab, o’zaro ziddiyatlarga to’lib-toshgan va muhim hodisalardan biri bo’lib, uning uchun tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklaridan va noz-u ne’matlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak maqsadida pok, halol, o’z mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik xarakterli xususiyatlardan hisoblangan.

Umuman tasavvuf nafs lazzatlaridan voz kechishdan iborat. Nafs-ochko’zlik, o’g’rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oliy ruhiy olam sirlariga yetishgani uchun u nafsidan, kibr-u havodan kechgani edi. Quyidagi baytlarda buni yaqqol ko’rish mumkin:

*Jondan kechgan chin oshiqlar dunyo demas,
Nafsi o'luk, obu taom g'amin yemas.
Bu dunyoda sudu ziyon bo'lsa bilmas,
Dunyo kelib, jilva qilsa boqg'oni yo'q.*

Shoir o'zini o'zgalardan ustun qo'ymaydi, valiyman deb, kibru havoga berilmaydi, aksincha, o'ziga tanqidiy ruh bilan qaraydi va doimo o'zgalarni kamtarlikka chaqiradi:

*Yo'ldan chiqib ozganimni bilmadim men,
Haq so'zini qulog'imga olmadim men,
Bu dunyodan ketarimni bilmadim men,
So'rar bo'lsa men qul anda ne qilg'ayman?*

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning eng tuban shaxs ekani, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o'tadi.

Yuqorida bayon etilgan she'riy jumalardan tushunamizki, Xoja Ahmad Yassaviy nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan mutasavvuf donishmand, ruhiy va jismoniy komillik sari yetaklaydigan insonparvar shoir bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. Ibrohim Haqqul. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001.
2. A. Fitrat. Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar, 2-jild, Toshkent, Ma'naviyat, 2000.
3. Ахмад Яссавий. Хикматлар.-Ташкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
4. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). www.ziyouz.com kutubxonasi.

Samarqand davlat universitetida saqlanayotgan yassaviya muhitiga oid qo'lyozma manbalar

Muhammadixon Buzrukov

*SamDU Qo'lyozmalar fondi mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Yassaviya muhitiga oid manbalar haqida ilk marta ma'lumot berilmoqda. Yassaviya ta'limoti Ahmad Yassaviy tiriklik chog'larida va o'limidan keyin Sulaymon Boqirg'oni, Mansur ota, Sayd ota kabi xalifalari tomonidan butun O'rta Osiyoda tarqatilgan, mo'g'ul bosqinidan so'ng esa Xuroson va Ozarbayjonga yetib borgan, Erondan Onado'liga o'tib mavqe qozongan. Tariqatning yoyilishi bilan hikmatnavislik an'anasi ham to'xtab qolmagan. Yassaviya shayxlari tomonidan va ularga atab yozilgan asarlarning qo'lyozmalari Samarqand davlat universitetida ham saqlanadi. Ularni o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, Yassaviya tariqati, hikmatnavislik, Sulaymon Boqirg'oni, Shayx Xudoydodi Vali, "Lamahot min nafahotul quds", jahriya.*

Manuscript sources related to the yassawiyya tradition preserved at Samarkand state university

Annotation. This article presents, for the first time, information about sources related to the Yassawiyya tradition preserved in the manuscript collection of Samarkand State University. The teachings of Ahmad Yassawi were propagated throughout Central Asia during his lifetime and after his death by his successors such as Sulaymon Baqirg'oni, Mansur Ata, and Sayyid Ata. Following the Mongol invasion, the Yassawiyya order spread to Khorasan and Azerbaijan, and later gained influence from Iran to Anatolia. Along with the expansion of the tariqa, the tradition of composing *hikmats* (wisdom poems) also continued. Manuscripts authored by Yassawiyya sheikhs or dedicated to them are also preserved at Samarkand State University. Studying these materials is of significant scholarly importance.

Keywords: *Ahmad Yassawi, Yassawiyya order, hikmat literature, Sulaymon Baqirg'oni, Shaykh Khudoydod Vali, Lamahat min Nafahat al-Quds, Jahriya.*

Turkiy xalqlar hayotida Ahmad Yassaviy ta'limoti va ilmiy-ma'naviy merosi chuqur iz qoldirgan. Buni bizgacha yetib kelgan qo'lyozma manbalardan ham bilish mumkin. Samarqand davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Yassaviya muhitiga oid manbalar hozirgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda. Quyida ularning ayrimlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

1) Hikmat yo'nalishidagi asarlar. Turkiy adabiyotdagi hikmatnavis shoirlarni "Ahmad Yassaviy izdoshlari" yoki "Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari" deb atash odat tusiga kirgan. Bu haqda ilk bor Abdurauf Fitrat "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" [Фитрат, 1928:49-52] nomli alohida tadqiqot yaratgan. Abdurauf Fitrat tadqiqotlari mustaqillik yillarida uning tanlangan asarlarida yana e'lon qilingan [Фитрат, 2000:31-36].

XX asrning boshlarida ilmiy-ijodiy faoliyat ko'rsatgan ziyoli Abdulmo'min Sattoriyning qayd etishicha, "Hikmat so'zi turk shayxlari tomonidan xalqni tasavvuf sori choqirish tilagi bilan aytilgan turluk mavzu'dag'i munojot va na'tg'a o'xshash tizma parchalardir. Hikmat so'zi yolg'uz Yassaviyg'a xos emasdur" [Абдулмўмин Сатторий, 1923]. Uning fikricha, "Yassaviydan

soʻngra turkistonliklar oʻrtasida juda suyulib oʻqulaturgʻon qoʻshiqlar Boqirgʻonning ashulalari erur”, shuningdek, “Boqirgʻon xalq miyasigʻa oʻmashgan tasavvuf maslakini arab va eron pichimidan chiqarib turk tushunchasigʻa munosib bir suratda yoʻlgʻa qoʻygʻon”, deb eʼtirof etgan [Абдулмўмин Сатторий, 1923].

Ahmad Yassaviyning tarjimai holi – tugʻilgan joyi, vaqti, oilasi, voyaga yetgan muhiti, ilk ustozlari, tahsil yoʻli turli millatga mansub olimlar tomonidan u yoki bu miqyosda oʻrganilgan. Abdurauf Fitrat oʻzining “Ahmad Yassaviy” nomli maqolasini “Maʼorif va oʻqituvchi” jurnalining 1927-yilgi 6 va 7-8 sonlarida eʼlon qilgan. Unda yozilishicha, “yolgʻuz Oʻrta Osiyoda emas, tatarlar orasida ham Yassaviy bilan uning shogirdi Sulaymon otaning katta eʼtiborlari boʻlgʻon, ularning hikmatlari xalq orasida qoʻldan-qoʻlgʻa yurub oʻqulgʻon, hatto necha dafʼalar bosilib tarqatilgʻon” [Фитрат, 1994:22].

1922-yilda Abdurahmon Saʼdiy oʻzining “Yassaviy kim edi?” nomli maqolasini “Inqilob” jurnalining beshinchi sonida eʼlon qilgan [Саъдий, 1922]. Unda yozilishicha, “Chingizning chiqishi oldidan janubda turk adabiyotining negizi qurulub yotmoqda ediki, mana shu adabiyotning bosh omillaridan, unga quvvat berguvchilardan Xoʻja Ahmad Yassaviy bilan uning shogirdi boʻlgʻon Sulaymon Boqirgʻoniyini koʻramiz. Bular uygʻurchadan yengillatilgan va oʻzlaridan bir asr soʻng tuqgʻon chigʻatoy adabiyotidan ham koʻb sodda, tabiiy, takallufsiz va avomiy boʻlgʻon “adab maktabi” tugʻdirdilor. Demak bu maktab uygʻurcha bilan chigʻatoy adabiyoti orasidagi bir davrga oid va oʻziga maxsus xususiyatlarga molik boʻlgʻon eng muhim sheʼr maktabidir” [Саъдий, 1922:28]. Mazkur tadqiqotchi “Chigʻatoy adabiy tilin tugʻdirishda yoki shunga quvvat berishda kuchli omil Navoiy boʻlgʻon boʻlsa, tatar adabiy tilining va tatar sheʼr maktabining tugʻishigʻa ham Yassaviy va Boqirgʻoniyalar yoʻl hozirlagandirlar” deydi [Саъдий, 1922:32]. Koʻrinib turibdiki, Abdurahmon Saʼdiyga ustoz-shogird boʻlgan bu ikki shayxning tatar tili va adabiyoti taraqqiyotidagi roli katta taʼassurot qoldirgan. Ehtimol maqolaning paydo boʻlishiga turtki boʻlgan asosiy omil ham shu boʻlsa kerak [Дўстқопаев, 1994:6].

UNESCO tomonidan 1993-yilni “Yassaviy yili” deb eʼlon qilinishi munosabati bilan Abdurahmon Saʼdiy va Abdurauf Fitrat qalamiga mansub maqolalar oʻzbek tilida qayta nashr etilgan [Яссавий ким эди, 1994:22].

Samarqand davlat universiteti qoʻlyozmalar fondida Ahmad Yassaviy qalamiga mansub deb qayd qilingan bir necha qoʻlyozma asarlar saqlanadi. Ularning ikkitasi “Devon” (№ 824061; 1097178), qolganlari “Hikmat” (№ 824061; 1008776; 1009107; 1008985; 1096444; 1096915; 1096999; 1097089; 1007990; 1008372; 1097365; 1097938; 1097524; 1187123; 1187351; 1188151; 1188180; 1188206) nomi bilan qayd etilgan. Afsuski, bu asarlarning koʻpchiligida koʻchirilgan vaqti koʻrsatilmagan. Dastlabki oʻrganish natijasida № 1187651 raqamli “Hikmat” 1254/1838-yilda koʻchirilgani aniqlandi. Asarning muqovasi yangilangan va matn toʻliq saqlangan.

Ahmad Yassaviy izdoshlari boʻlgan hikmatnavis shoirlar safi uning shogirdi va xalifasi Sulaymon Boqirgʻoniydan boshlanadi. Tariqatda ham, sheʼriyatda ham Xoja Ahmad Yassaviy anʼanalarining davomchisi boʻlgan bu shayx turkiy xalqlar orasida Hakim ota nomi bilan ham mashhur boʻlgan. U haqdagi maʼlumotlar asosan yassaviya tasavvuf sheʼriyatiga bagʻishlangan adabiyotga oid tadqiqotlarda koʻproq uchraydi.

Samarqand davlat universiteti kutubxonasida **Sulaymon Boqirgʻoniyga** nisbat berilgan ikkita “Devon” saqlanadi. Birinchisi: “Hikmati Hakim atoi Qul Sulaymon” nomi bilan qayd etilgan qoʻlyozma (№ 1259576) boʻlib, 1978-yilda 30 rublga sotib olingan. Muqovasi asl, taʼmirlangan. Poygiri bor, matn 1a-178b sahifalarda yozilgan. Unda quyidagi sarlavhalarni koʻrish

mumkin: Sulaymon, hikmati Hakim oto a.r. (1^a), hikmati Hakim oto a.r. (2^a, 2^b, 4^a, 5^a, 5^b, 6^a, 6^b, 7^a, 7^b, 8^a, 8^b, 9^a, 9^b, 13^b, 14^a, 19^a, 19^b, 20^a, 20^b, 21^a); “Qissai Me’rojnoma on hazrat s.a.v.ni Hakim oto oytg’oni” – 10^a-13^b; “Qissai hazrati Iso a.s.ning onosi Bibi Mariyamning o’lgani bayoni” – 14^b-16^a; “Qissai hazrati Ismoil a.ni Hakim oto oytg’oni” – 16^a-19^a.

Sarlavhalarning ko‘pchiligi qizil siyoh bilan yozilgan. Ularning mutlaq ko‘pchiligi hikmat deb nomlangan. Shuningdek g‘azal, ishqiy, qissa deb nomlangan sarlavhalar ham bor.

Ikkinchisi: “Sulaymon Boqirg‘on devoni” nomi bilan qayd etilgan qo‘lyozma bo‘lib, № 823849 raqami ostida saqlanadi. Muqovasi yangilangan, poygiri bor. Matn 1^a-53^b sahifalarda yozilgan.

Mazkur qo‘lyozma asarlarning matnini tadqiq etish kelajakdagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qayd etish kerakki, sovet hukumati davrida bu ikki shayx “klerikal adabiyot namoyandasi”, “reaksion diniy adabiyot vakili” kabi sifatlar bilan qoralanib o‘rganilgan [Ўзбек адабиёти, 1941:32-50]. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng ularning merosi xolisona o‘rganila boshlandi.

2) Manoqib yo‘nalishidagi asarlar. Yassaviy va uning izdoshlari hayoti va faoliyatiga oid agiografik asarlardan biri Muhammad Olim Sidiqiyning “Lamahot min nafahotul quds” (“Muqaddas xushbo‘yliklardan lahzalar”) asaridir.

Yassaviya tariqatining yirik vakili bo‘lgan Muhammad Olim Sidiqiy 1564-1634-yillarda yashagan. Uning tarjimai holiga oid ma‘lumotlar K.Kattayev [Каттаев, 2023:24-25], B.Aminov [АМИНОВ, 2007: 346-350; Aminov B., 2011 № 2:123-126; 2011 № 4. 290-292], N.Hasanov [Ҳасанов, 2007: 342-346], O‘.Sultonov [Султонов, 2022] tadqiqotlarida uchraydi.

“Lamahot min nafahot al-quds” asari fors tilida yozilgan. Bu asarning Toshkentda saqlanayotgan nusxalari N.Hasanov va O‘.Sultonov tomonidan o‘rganilgan [Ҳасанов Н., Султонов Ў., 2006. № 3:194-197; 2006 № 4:277-279; 2006. № 3:16-25; Ҳасан Н., 2006. № 9:33-37]. Bu asarning Samarqand davlat universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxasi bir majmuaning birinchi asari (822847/1) sifatida kelgan. Undan keyin yana to‘rtta asar keltirilgan: 822847/2 233^b-237^b “Risola” (Silsilayi sharifa); 822847/3 237^b-243^a Abu Ismoilxoja Abdulloh Ansoriy; 822847/4 243^b-251^b ibn Abdulloh Muhammad ibn al-Husayn; 822847/5 251^b-251^b Risolayi hazrat Ibrohim shayx Qo‘g‘ofiy 1305/1888.

Mazkur qo‘lyozma majmua Yassaviya muhitida yaratilgan deyish mumkin. Chunki uning oxirida keltirilgan 11 qator matn shunga dalil bo‘ladi. Unda 1171/1758-yilda vafot etgan yassaviya shayxi Lutfullohxoja Azizonning vafoti va ajdodlari haqida ma‘lumot berilgan.

Xulosa qilib aytganda Ahmad Yassaviy hikmatlarining 20 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari saqlansada, ular ko‘chirilish davri bo‘yicha unchalik qadimgi emas. Uning izdoshi Hakim Ota devonining nusxalarining ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan.

“Lamahot min nafahot al-quds” asari o‘z ichiga olgan majmua tarkibidagi boshqa asarlar ham tasavvufga oid. Ularni o‘rganish Yassaviya ta‘limoti tarixini yoritishda yangiliklar berishi mumkin.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari hayoti va ijodini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning kitoblarini o‘rganish va nashr qilish ishlari izchil davom etmoqda. Shunga qaramasdan mavzuga oid yangi qo‘lyozma manbalarni topib, ilmiy muomalaga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Samarqand davlat universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Yassaviya muhitiga oid asarlarning matnlari yangi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулмўъмин Сатторий. Боқирғоний // Учкун журнали, 1923 йил 1 апрель № 2. – Б. 7-9.
2. Аминов Б. Олим Шайх Азизоннинг насабномаси (қабртошлардаги битиклар асосида) // Имом ал-Бухорий сабоқлари 2011 № 2. – Б. 123-126; 2011 № 2. – Б. 290-292.
3. Аминов Б. Самарқандские шейхи йасавийа // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент-Самарканд: Фан, 2007. – С. 346-350;
4. Дўстқораев Б. Мажмуа ҳақида бир-икки сўз // Яссавий ким эди (Мақолалар ва “Ҳикматлар”дан парчалар). Тўплаб нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Бойбўта Дўстқораев. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 6.
5. Каттаев К. Шайх Худойдоди Вали тарихи. – Тошкент: Oltin kitob, 2023. – Б. 24-25.
6. Саъдий Абдурахмон. Яссавий ким эди? // Инқилоб журнали, 1922 йил 1 август № 5. – Б. 28-32. (араб ёзувидаги ўзбек тилида) – СамДУ қўлёзмалар фонди № 391383.
7. Султонов Ў.А. Шайх Зайниддин бобо шахсияти, аждодлари ва авлодлари. – Тошкент: Fan ziyosi, 2022. – Б.30.
8. Фитрат [Абдурауф]. Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар // Маъориф ва ўқитувчи журнали, 1928 йил май-июн № 5-6. – Б. 49-52. (араб ёзувидаги ўзбек тилида) – СамДУ қўлёзмалар фонди № 391083.
9. Фитрат Абдурауф. Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар // Танланган асарлар, II жилд. Илмий асарлар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 31-36.
10. Фитрат Абдурауф. Аҳмад Яссавий // Яссавий ким эди (Мақолалар ва “Ҳикматлар”дан парчалар). Тўплаб нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Бойбўта Дўстқораев. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 22.
11. Яссавий ким эди (Мақолалар ва “Ҳикматлар”дан парчалар). Тўплаб нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Бойбўта Дўстқораев. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 22 б.
12. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси VIII-XV асрлар. Биринчи том. Ойбек ва Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўқув-педашпр, 1941. – Б. 32-50.
13. Ҳасанов Н. Самарқандлик икки яссавийа шайхи ҳақида // Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент-Самарқанд: Фан, 2007. – Б. 342-346.
14. Ҳасанов Н., Султонов Ў. Муҳаммад Олим Сиддиқий ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Имом ал-Бухорий сабоқлари 2006 № 3. – Б. 194-197; 2006 № 4. – Б. 277-279.
15. Ҳасан Н. Олим Шайх ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Адабиёт кўзгуси: илмий тўплам. – Тошкент, 2006. № 9. – Б. 33-37.
16. Ҳасан Н., Султонов Ў. Олим Шайхнинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ва унинг яссавийшуносликдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. № 3. – Б. 16-25.

Ahmet Yesevî Hikmetleri Günümüze Ne Söyler?

Doç. Dr. Emrah YILMAZ

Semerkant Devlet Üniversitesi

Türkoloji Araştırmaları Enstitüsü

E-mail: emraylmz@gmail.com

Özet: Pîr-i Türkistan Ahmet Yesevî sadece bir mutasavvıf değil, aynı zamanda Türk-İslam sentezinin kurucu isimlerinden biri olarak kabul edilir. Onun hayatı, eserleri ve özellikle *Divân-ı Hikmet* adlı eseri; dini, dili ve kültürü birleştiren bir medeniyet inşası görevi üstlenmiştir. Dolayısıyla Yesevî; Türkistan'dan Balkanlar'a uzanan geniş coğrafyada hikmetleriyle insanlara yol meşalesi olmuş, Anadolu'nun manevi hamurunu yoğurarak geleneğin yeniden inşası, Türk-İslam düşünce tarihi ve Türk edebiyatı açısından çok katmanlı öneme sahip mümtaz bir şahsiyettir. O bakımdan değerlerimizi inşa eden irfani geleneğin “modern dünya” insanına hatırlatacağı pek çok hakikat mevcuttur. Bu çalışmada hikmetlerden hareketle “ideal insan portresi nasıl olmalıdır” sorusuna cevap aranmış ve değerler felsefesi bakımından Yesevî iletilerinin günümüz insanının idrakine yeniden sunmak gerektiği düşüncesi üzerinde durulmuştur.

Anahtar Kelimeler: *Hikmetler, geleneğin inşası, değerler felsefesi, ideal insan.*

Ahmad Yassaviy hikmatlari bugunga nima deydi?

Annotatsiya: Pir-i Turkiston Ahmad Yassaviy nafaqat so‘fiy, balki turk-islom sintezining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti, asarlari va ayniqsa “Devoni hikmat” nomli asari; din, til va madaniyatni birlashtirgan sivilizatsiya qurish vazifasini o‘z zimmasiga oldi. Shuning uchun, Yassaviy; Turkistondan Bolqongacha cho‘zilgan ulkan geografiyada insonlar uchun hikmat chirog‘iga aylangan, Onado‘lining ma’naviy xamirini yorib an’anani qayta qurish, turk-islom tafakkuri va turk adabiyoti tarixida ko‘p qatlamli ahamiyatga ega bo‘lgan taniqli shaxsdir. Shu nuqtai nazardan, bizning qadriyatlarimizni shakllantirgan ma’naviy an’ananing “zamonaviy dunyo” insoniga eslatadigan ko‘plab haqiqatlari mavjud. Ushbu tadqiqotda “ideal inson portreti qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga hikmatlarga asoslangan holda javob izlandi va Yassaviy hikmatlarining qadriyatlar falsafasi nuqtai nazaridan yana bugungi xalq tushunchasiga yetkazish zarurligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: *Hikmatlar, an’analar qurilishi, qadriyatlar falsafasi, ideal inson.*

What does Akhmad Yasawi’s wisdom say to today?

Abstract: Pir of Turkestan Akhmad Yasawi is not only a Sufi, but also one of the founding figures of the Turkish-Islamic synthesis. His life, works and especially his work called *Divan-ı Hikmet*; undertook the task of building a civilization that unites religion, language and culture. Therefore, Yasawi; has been a torch for people with his hikmats in the wide geography extending from Turkistan to the Balkans, and is a distinguished figure with multi-layered importance in terms of the reconstruction of tradition by kneading the spiritual dough of Anatolia, the history of Turkish-Islamic thought and Turkish literature. In that respect, there are many truths that the erudite tradition that builds our values will remind the people of the “modern world”. In this study, an answer to the question of “how should the ideal human portrait be” has been sought based on hikmats and the idea that Yasawi messages should be presented to the perception of today’s people again in terms of the philosophy of values has been emphasized.

Keywords: *Hikmats, construction of tradition, philosophy of values, ideal man.*

Giriş. Ahmet Yesevî ve “Divân-ı Hikmet” adlı eseri üzerinden literatür taraması yapıldığında pek çok çalışmadan bahsedilebilir. Esasen öteden beri Abdurrahman Câmî’nin “*Nefahat’ül Üns*”, Alişir Nevâî’nin “*Nesayim’ul Muhabbet*”, Feyiz Kâşifi’nin “*Reşehat Aynu’l Hayat*”, Fuad Köprülü’nün “*Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar*”, Kemal Eraslan’ın “*Divân-ı Hikmet’ten Seçmeler*”, Hayati Bice’nin “*Divân-ı Hikmet*” adlı eserleri birincil kaynak olarak kullanılmaktadır. Bunun yanı sıra takip edebildiğimiz kadarıyla Bekir Karlığa’nın “*Türkistan’dan Anadolu’ya: Ahmed Yesevî Yolu*”, Hüseyin Karagöz’ün “*Divân-ı Hikmet’te Söz Sanatları*”, Ali Yıldız’ın “*Ahmed Yesevî ve Divân-ı Hikmet’te Dinî-Tasavvufî Öğretiler*”, Abdülkerim Abdurrahmanov’un “*Divân-ı Hikmet*”, Cemalnur Sargut’un “*Ahmed Yesevî ile Aşk Yolculuğu*” ile Gözel Amanguliyeva’nın “*Hikmetler*” adlı eserleri Yesevî’nin hayatı ve edebî mirası hakkında temel bilgiler veren önemli kaynaklar olarak öne çıkmaktadır.

Doğum yılı kesin olarak bilinmemekle birlikte Ahmet Yesevî’ye izafe edilen “*Farknâme*” adlı risalede yer alan bilgiler ışığında 73 yıl yaşadığı, 1166 yılında vefat ettiği, dolayısıyla takriben 1093 yılında Batı Türkistan’da Çimkent şehrinin doğusunda bulunan Sayram kasabasında doğduğu kabul edilir (Yılmaz 2015: 283; Bice 2010: 10).

Esasen dinî ve tasavvufî eserlere genel olarak bakıldığında şiirin bir eğitim aracı olarak kullanıldığı görülür. Ahmet Yesevî de edebî bir eser ortaya koymaktan ziyade İslamiyet’in esaslarını, ahkâmını ve ehlisünnet akîdesini İslâmiyet’i henüz benimsemiş Türklere öğretmek, tasavvufun inceliklerini ve erkânını gönüllere telkin etmek maksadıyla hikmetlerini birer vasıta olarak kullanmıştır.

Bu çalışmada “*Hikmetler günümüze ne söyler?*” sorusuna odaklanılmış; içerik açısından son derece zengin olan bu metinlerin pek çok alana hitap eden anlam katmanları barındırdığı tespit edilmiştir. Ancak incelemenin derinlik kazanması ve kavramsal bütünlük sağlanması amacıyla, bu soru çerçevesinde özellikle “gönül” ve “nefs” kavramları ekseninde bir çözümleme tercih edilmiştir.

Hikmetlerin Metaforik Yönü. Hoca Ahmet Yesevî, hikmetleriyle sözün değerini yükselterek Türk diline ilahi iletileri taşıyacak bir boyut kazandırmıştır. İslam’ın güzelliklerini muhatap gönüllere taşırken sevgi metodunu benimsemiş ve samimiyet ölçeğini ortaya koymuştur. Bunu yaparken son derece yalın bir dil kullanmış ve dilde sanat yapmak derdine düşmemiştir. Buna mukabil hikmetlerinde Türk dilinin somutlaştırma özelliğinden istifade ederek çok güçlü teşbihlere, imgelere, imaj şemalarına, dolaylamalara, deyimlere ve metaforlara da yer vermiştir.

O bakımdan Yesevî, hikmetleriyle sözün hem kutsal hem de kültürel bir taşıyıcı öge olduğunu ortaya koymuş; Türk diline bir iletişim vasıtası olmanın ötesinde ilahî hakikatlerin tecelligâhı olabilecek bir değer kazandırmıştır. İslam’ın özünü ve güzelliklerini halka ulaştırırken ne tehditkâr bir söylemi ne de kapalı, seçkin bir dili tercih etmiştir; aksine sevgi, merhamet ve gönülden hitabı esas alan bir metodoloji geliştirmiştir. Bu yaklaşımı, tasavvufun *gönül merkezli öğretileriyle* uyum içindedir ve mesajlarının hem anlaşılır hem de içselleştirilebilir olmasını sağlamıştır.

Gönlü avlamak, gönlü okşamak, gönül mülkünü açmak gibi metaforik olarak gönlü merkeze aldığı öğretilerine örnek:

*Akil isen, garîplerin gönlünü avla,
Mustafâ gibi yurdunu gezip yetîm ara,
Dünyaya tapan soysuzlardan yüzünü çevir
Yüz çevirip kötülerden kaçtım ben işte* (Bice, 2016: 45).

İlk drtlk tahlil edildiğinde Őunlar sylenabilir; hedef alanı “**gnl**” olan kavramsal dzlemde, “**avlamak**” fiilinin devreye girmesiyle birlikte **akıl insan**, “**avcı**” kavram alanına dhil edilmekte ve bu semantik kayma sonucunda “**Akıl insan bir avcıdır; onun avı gnldr**” Őeklinde metaforik bir yapı inŐa edilmektedir. Dolayısıyla bu eŐleŐtirme, biliŐsel metafor teorisinin “*kaynak-alan → hedef-alan*” modeli baėlamında, “avcı” imgesinin bir kaynak alan olarak “akıl insan” zerine haritalanması yoluyla oluŐur. Bylelikle, “AKİL İNSAN = AVCIDIR” metaforik denkliėi kurulmuŐ olur.

Bu yapı, aynı zamanda **AKIL CANLIDIR** biĖimindeki ontolojik metaforun bir trevi olarak karŐımıza Ėıkar. Zira burada akıl, yalnızca soyut bir zihinsel kapasite olarak deėil; arzulayan, ynelen, strateji kuran ve hedefini elde etmeye ĖalıŐan bir zne gibi tasarlanmıŐtır. **Avcı** fiėr, aklın dinamik, ynelimli ve hedef odaklı doėasını temsil ederken; **gnl**, yakalanması gereken gizli, saklı ve deėerli bir av konumuna getirilmiŐtır. Bu durum, yalnızca bir eylemin deėil, aynı zamanda **epistemolojik bir yaklaŐımın da simgesel yansımasıdır**: Gnl, akıl yoluyla fethedilir; fakat bu fetih, gçle deėil, stratejiyle; cebirle deėil, sezgiyle gerĖekleŐir. SonuĖ olarak bu metaforik yapı, hem Trk dŐnce dnyasındaki **gnl-akıl** iliŐkisinin hem de tasavvufi gelenekteki **manevî arayıŐ** biĖimlerinin dilsel dzeydeki yansımasını temsil eder. Akıl kiŐi, sadece dŐnen deėil, aynı zamanda hakikatin peŐine dŐen bir “avcı” olarak yeniden inŐa edilir; gnl ise bu arayıŐın nihai menzili, avı ve aynı zamanda vuslata aĖılan kapısıdır.

Sz syledim, her kim olsa cemle tlib

Ca’nı ca’na baėlayıp, damarı damara ekleyip,

Garīb, Yetīm, fakirlerin gnln okŐayıp,

Gnl kırık olmayan kiŐilerden kaĖtım ben iŐte (Bice, 2016: 44).

Burada yer alan “**gnln okŐamak**” ifadesi, Yesevî’nin dilsel ve dŐnsel evreninde yalnızca duygusal bir temas deėil, aynı zamanda *manevî bir onarma ve ruhî bir telaĖi eylemi* olarak biĖimlenmektedir. Bu ifade, “**GNL = CANLI BİR VARLIKTIR**” ontolojik metaforunun bir trevidir. Gnl, burada fiziksel olarak dokunulabilir, hatta teskin edilebilir bir zne gibi tahayyl edilir. Bu baėlamda **gnl okŐamak**, bir insanın iĖ dnyasına dokunmak, ruhunu sarmak ve onarmak anlamına gelir. Őu hlde Yesevî’nin dnyasında **gnl**, yalnızca bireysel bir ruhsal merkez deėil, aynı zamanda ilahî hakikatin konakladığı yerdirdir. Dolayısıyla “**gnl okŐamak**”, basit bir teselli deėil; *insan-ı kmıl olma yolunda atılan etik bir adım* gibi dŐnlebilir. *Gnl* kavramı, insanın manevî z olarak somut bir varlıėa benzetilerek “dokunma, kırılma, baėlanma, birleŐme” gibi bedensel metaforlarla yeniden anlam kazanmıŐtır. Kısacası bu yapı, İslam-Trk dŐncesindeki tasavvufi benliėin metaforik kodlarını aĖıkĖa sergilemektedir.

Yol gstericidir Hoca Ahmet, glistn-ı marifet,

Syler sz hakikat, aĖar gnl mlkn (Bice, 2016: 170).

Bu beyit dil dŐnce iliŐkisi baėlamında Ėzmlendiğinde; iĖ dnyamızdan “**gnl**” ele alınmıŐ, dıŐ dnyamızdan “**mlk**” temel alan olarak seĖilmıŐ ve zihinsel bir transferle **GNL LKEDİR/MLKTR** kapsayıcı alan metaforu meydana gelmiŐtir. Beyitte imaj Őemalarının yardımıyla gl bahĖesi olarak dŐnlen Yesevî’ye dair hakikat szlerinin birleŐtiėi, btnleŐtiėi, kapalı bir alan, kapsayıcı bir yer Őeklinde idrak edilen “**gnl mlk**” geniŐ anlamda **BEDEN LKESİ**, dar anlamda ise bir **SANDIK/KAPALI ALAN** olarak tasavvur edilebilir.

zetle beyitteki “**gnl mlk**” metaforu, iĖ dnyayı bir lke, mlk, sandık veya Őehir gibi algılayan klasik tasavvufi dŐncenin, biliŐsel metafor teorisi aĖısından da son derece zengin bir rneėidir. Yesevî’nin sz, bu iĖ lkeye giriŐi mmkn kılan bir *kilit aĖıcı*, gnl aralayan bir nur

veya *kutup yıldızı* gibi işlev görmekte; gönül ise gizli hazineleri içinde saklayan kutsal bir mekân olarak anlam kazanmaktadır.

*Pîr-i kâmil içkisinden damla tattım;
Yol bulayım deyip başım ile geceleri dondum,
Allah'a hamd olsun, lutf eyledi, nûra battım;*

Gönül kuşu Lâmekân'a ulaştı dostlar (Bice, 2016: 58).

“Gönül kuşu Lâmekân'a ulaştı dostlar” dizesi, gönlün “kuş” metaforuyla hareket ve yükseliş kapasitesine sahip, özgür bir özne gibi tasavvur edildiğini göstermektedir. Burada “gönül”, sadece duygusal bir merkez değil, ilahî hakikate ulaşabilecek bir varoluş mekânı, hatta *bedeni aşan metafizik bir yolcudur*. Kuş ise hem aşkınlık hem de manevî yolculuğun en yaygın temsillerinden biridir. Böylece **GÖNÜL = KUŞTUR** şeması kurulmakta, gönlün de tıpkı bir kuş gibi “mekândan” sıyrılma, yükseğe doğru çıkma ve menzile ulaşma potansiyeli vurgulanmaktadır. Bu metaforunda hedeflenen nokta ise “Lâmekân”dır. Tasavvuf terminolojisinde Lâmekân, “mekânsızlık”, yani *Allah'ın zatına ait olan, cismani sınırlardan münezze bir varlık düzeyi* anlamına gelir. Burada gönül kuşu, dünyevî kayıtlardan sıyrılmış, zaman ve mekânla kayıtlı olmayan ilahî hakikatin özüne ulaşmıştır. Bu bağlamda metnin derin katmanında çizilen metaforik yolculuk haritası ile **GÖNÜL BİR KUŞTUR, LÂMEKÂN ise HAKİKAT MİHRÂKIDIR** sonucuna ulaşılabilir.

Hikmetlerin Somutlaştırma Yönü. Hoca Ahmet Yesevî'nin öğretilerinin başında nefis terbiyesi ve içsel arınma gelmektedir. Dolayısıyla burada somutlaştırma çözümlemeleri için anahtar sözcük olarak nefis kavramı seçilmiştir. Bu bağlamda nefis, hem bireyin içindeki karanlık yönleri hem de dünyevî arzularla özdeşleştirilen bir “iç düşman” olarak sembolleştirilmiştir. Dolayısıyla somutlaştırma çözümlemeleri açısından nefis, soyut bir ahlâkî ve psikolojik durumdan çok, mücadele edilmesi gereken bir varlık, bazen bir zindan, bazen de bağlanması gereken azgın bir hayvan metaforlarıyla anlatılmıştır. Bu yönüyle nefis, Yesevî hikmetlerinde sembollerle kuşatılmış, kontrol altına alınmadıkça insanı hakikatten uzaklaştıran bir engel olarak tasvir edilmiştir. Anahtar kavram olarak seçilen nefis, bu nedenle hem söylem düzeyinde hem de metaforik yapı açısından çözümlemenin merkezini oluşturur.

*Altmış üçte çağrı geldi; “Kul yere gir!,
Hem cânınım, cânânınım, cânını ver,
Hû kılıcını ele alıp **nefsini kır**...”*

Bir ve Var'ım, Cemâlini görür müyüm? (Bice, 2016: 63).

Bu dörtlükte yer alan “**nefsini kır**” ifadesi, Hoca Ahmet Yesevî'nin öğretilerinde merkezi bir yere sahip olan nefis terbiyesi ve manevî olgunlaşma sürecinin özlü bir metaforudur. Burada nefis, bireyin ilahî hakikate ulaşmasını engelleyen dünyevî arzuların, kibir, bencillik ve tutkuların toplamı olarak tasavvur edilmiştir. “Kırmak” fiili ise sadece bastırmak ya da geçici olarak dizginlemek değil, o nefsin egemenliğini sona erdirmeye, onu parçalayarak işlevsiz hâle getirme, daha geniş anlamda ise benlik merkezli varoluşu yıkma eylemidir.

“**Hû kılıcı**” ise burada bir başka güçlü metaforudur; ilahî aşkın, tasavvufî idrak ve sezginin keskinliğini, içsel savaşta kullanılan aşk temelli bir ruhsal silahı temsil eder. “Hû” lafzı, Allah'ın zatını sembolize eden en özlü ifadelerden biri olarak, bu kılıcın aşk ile işlediğini ve nefsin ancak bu aşk yoluyla bertaraf edilebileceğini ima eder. Bu bütünlükte bakıldığında, “nefsini kır” metaforu, bireyin hakikat yolculuğunda geçmesi gereken en zor kapıyı, yani kendi iç engellerini aşma eylemini simgeler. Dörtlüğün son dizesindeki “Bir ve Var'ım, Cemâlini görür müyüm?” sorusu ise, nefsin kırılması sayesinde ulaşılan arınmışlıkla, ilahî Cemâl'in temaşasına duyulan

arzunun bir ifadesi olarak yorumlanabilir. Bu bağlamda **nefsi kırmak**, Hakk’a vuslatın eşiğinde yapılan son büyük hamle, *benlikten geçerek Varlık’ta fânî olmanın* bir ifadesidir.

*Nefs şeytân esîr kıldı Âdemoğlunu,
Develer gibi bağlayıp aldı iki kolunu,
Ne zordur sağ ve solu bilmeden yolunu,
Vah ne yazık hasret ile gideceğim ben işte* (Bice, 2016: 100).

Yesevî, bireyi nefsiyle yüzleşmeye çağırır. Bugün tüketim toplumu içinde kaybolmuş birey için bu çağrı, ruhsal arınma ve sade yaşama dönüş ihtiyacını yansıtır.

Nefsin BOYNUNU KESMEK (85/4)

Bu ifade, nefsin tüm benliğe hâkimiyetine son vermek anlamına gelir. Tasavvufta “nefsin boynu”, onun irade, kibir, benlik ve tutkular üzerindeki hâkimiyetini simgeler. Bu nedenle “boynunu kesmek”, mecazî olarak: Nefsin buyurgan ve yönlendirici konumuna son vermek, egoyu kontrol altına almak ve benlik iddiasını yok etmek anlamına gelir. Zaten ahlâkî arınmaya ulaşmak için dünyevî tutkulara karşı kesin bir irade ortaya koymak bütün anlatıların özünü oluşturur. Ayrıca *nefsin boynunu kesmek* metaforu; kararlı ve kökten bir dönüşümü, içsel bir “devrim”i işaret eder. Başka bir ifadeyle insan; nefsin istekleri doğrultusunda değil, hakikat, marifet ve gönül doğrultusunda yaşamaya başlarsa nefsin boynunu kesmiş olur.

Nefsin GÖZÜNÜ OYMAK (83/2)

Bu ifade, nefsin dünyaya ve dünyalığa dair bakış açısını ve algı merkezini devre dışı bırakmak anlamına gelir. Tasavvufî öğretilerde “nefsin gözü”, arzu, ihtiras ve çıkar odaklı bakışı temsil eder. Dolayısıyla bu gözün oyulması; dünyayı sadece maddî çıkar ve haz yönüyle değerlendirme biçimini sona erdirmeyi, nefsin gözünden değil, *gönül gözüyle* yani basiret ve hikmetle bakmayı, görünenin ardındaki hakikate ulaşmayı simgeler. Nitekim Yesevî düşüncesinde *nefs gözünün* karşısında yine somutlaştırma örneği olarak *gönül gözü* konumlandırılmıştır:

O makâmı her dem görür gönül gözü,

Gözüm gördü, gönlüm ikrâr kılmayım mı? (Bice, 2016: 358).

Bu ifade, *nefsin bakışını*, yani dünya ve benlik merkezli algı biçimini yok etmek, onun arzularla ve hevâ ile olan bağına kesmek anlamında kullanılmıştır. Türkçede müthiş bir somutlaştırma örneği olmakla beraber “*nefsin gözü*” ifadesi, genellikle dünyaya düşkünlük, çıkarıcılık, benmerkezcilik ve yüzeysel bakış gibi olumsuz yönelimleri simgelemektedir. “Nefsin gözünü oymak”, benliğin ve maddî arzuların penceresini kapatmak, hakikati ancak bu suretle görebilmek demektir. *Gönül gözü* ise bunun tam karşısında yer almakta; hakikati, aşkı, manayı ve ilahi olanı görme yetisini ifade etmektedir.

Özetle yukarıdaki metaforik ifadelerden anlaşılacağı üzere manevî terbiye sürecinde nefsin hem bakışını (gözünü) hem de yönetim gücünü (boynunu) etkisiz hâle getirme çabası vurgulanır. Nefsi alt etmeden gönül gözü açılmaz; gönül gözü açılmadan da hakikate varılamaz.

Sözün özü, hikmetlerde Türk dilinin somutlaştırma eğiliminden ziyadesiyle istifade edilmiştir. Bu örneklerin sayısı artırılabilir: *Sözü KURUMAK (M/2)*, *Sözü ÇÜRÜMEK (M/2)*, *Nazardan KURU KALMAK (42/5)*, *Nefsin GÖZÜNÜ OYMAK (83/2)*, *Nefsin BOYNUNU KESMEK (85/4)*, *Rahmet KAPISINI AÇMAK (63/8)*, *Himmet KUŞAĞINI BAĞLAMAK (156/4)*, *Aşk DERYASINDA ÇIRPINMAK (21/10)*, *Muhabbet DERYASINDA YIKANMAK (20/4)*, *Hakikat DERYASINDAN GEÇMEK (26/2)*, *Sır DERYASINA BATMAK (29/5)*, *Marifet DERYASINA BATMAK (99/14)*, *Dil KALESİNİ BOŞ BIRAKMAK (49/1)*, *Din KALESİNİ İNŞA ETMEK (49/3)*, vb.

Sonuç. Hoca Ahmet Yesevî'nin eğitsel yönünü tüm boyutlarıyla ele almak, şüphesiz ki bu yazının sınırlarını aşacak genişlikte bir meseledir. Bununla birlikte, günümüzün toplumsal ve kültürel ihtiyaçları göz önünde bulundurularak bazı temel noktaların öne çıkarılması mümkündür. Bu çerçevede çalışmanın kapsamı sınırlandırılarak, hikmetlerin metaforik yönü ve sıra dışı somutlaştırma örnekleri üzerinde durulmuştur. Dolayısıyla “Hikmetler günümüz insanına ne söyler?” sorusunun yanıtı, sadece iki anahtar sözcük üzerinden gösterilmek istenmiş, Ahmet Yesevî'nin “gönül” kavramına yüklediği olumlu anlamlar ve bu kavramın tam karşısında düşman olarak konumlandırılan “nefs” olgusu doğrultusunda iz sürülerek analiz edilmek istenmiştir.

Pîr-i Türkistan'ın *gönül* ve *nefs* kavramıyla ilgili kullandığı bazı dikkat çekici ifadeler şöyle sıralanabilir: *gönül avlamak, gönül gezmek, gönül okşamak, gönül gözü ışıldamak, gönül incitmemek, gönül soğutmamak, gönül vermek, gönül bağlamak, gönül gözü açılmak, gönül gözü görmek, gönül ülkesini açmak, gönül pasını temizlemek, gönlü dünyadan koparmak, gönlü sefa bulmak, gönlü sivâ kılmak, gönül içre girmek, gönül mülkünü vermek, gönül tanı atmak, gönül evini tevbe etmek, gönül kuşu uçmak*, vb.

Nefsini kırmak, nefsi deşmek, nefsin başını delmek, nefis için yürümek, nefse teber vurmak, nefsin tepmek, nefsten geçmek, nefsi ölmek, nefsi öldürmek, nefsi yenmek, nefsi yakalamak, nefsi coşmak, nefsi âfet eylemek, nefsi saklamak, vb. Elbette burada sadece olumlu anlam yüklenen ifadeler seçildi, *nefs elinden harâb olmak, nefse kul olmak* gibi olumsuzluğun yansıtıldığı örnekler de azımsanmayacak derecededir.

Hikmetlerde öne çıkan kavramların başında manevî aşk gelir. Yesevî'ye göre asıl hedef, “hakikate ermek”tir. Bunu da aşk yoluyla anlatır. Bu yönüyle hikmetler, modern insanın manevî boşluklarını doldurabilecek bir aşk anlayışı sunar: *benlikten vazgeçiş, “hiçlik”e yöneliş*. Yesevî hikmetleri manevî aşkı ve ahlakı sadece bireysel bir disiplin değil, toplumsal bir sorumluluk olarak görür. Hikmetlerde dürüstlük, tevazu, hizmet, himmet ve adalet gibi kavramlar sık sık geçer. Bunu çok basit sözcüklerle ama derin bir anlam ile aktarabilmek dili ustaca kullanmanın ötesinde Yesevice bir gönül sahibi olmayı gerektirir.

Kısacası hikmetler bize “*Gariplerin gönlünü avlamayı, yani gönül almayı, geceleri rahatı bırakıp mihnet çekmeyi, çirkin işlerden uzak durmayı, Hakk’a tevekkül edip bel bağlamayı, her dem Yaradan’ı hatırlamayı, kabristandan ibret almayı, mâsivâya gönül vermemeyi, zorlukların üstesinden gelmeyi ve bazı sıkıntıları ganimet bilmeyi, her şeyden öte varlık sebebimizi idrak etmeyi*” anlatır.

XII asr turkiy adabiyotning taniqli namoyondalaridan biri turkigo'y va tasavvufiy shoir Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va tariqatining necha asrlardan buyon turkiy xalqlar o'rtasida e'tibor topib kelganligining asosiy sabablaridan biri bu ulug' shaxsiyatning turkiy irfoniy adabiyot va tasavvuf tiliga asos solganligidir. Til va ifodadagi ayrim o'zgarishlarga qaramasdan, "Devoni hikmat" o'zining asl ma'no mohiyatini saqlab qolganligi tufayli boshqa ko'plab ijodkorlarni hikmat yozishga ilhomlantirib kelgan [Nodirxon Hasan, 2013:77]. Adibning tug'ilgan yili, balki "Hikmatlar"ining ham yaratilgan davri tilshunoslikda munozaralidir. Chunki "Devoni hikmat"ning eng qadimgi asl nusxasi bizgacha saqlanmagan. Asarning til xususiyatlari ham shu qadar rang-barang va o'ziga xoski, bu uning qaysi davrda yaratilganligi hamda dastlab qanday holatda bo'lganligini aniqlashni birmuncha murakkablashtiradi.

Bilamizki, X asrda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar eski turkiy adabiy tilning qarluq-uyg'ur, yag'mo-chigil lahjalari asosida yuzaga kelgan sharqiy va o'g'uz-qipchoq lahjalari asosida shakllangan g'arbiy turkiy adabiy til guruhlariga ajralishiga sabab bo'lgan edi. "Devoni hikmat"ning yuqoridagi guruhlardan qaysi birining til xususiyatlarini aks ettirishi ham ma'lum davrda turkiy tilshunoslikda munozarali masalalardan biri edi. "Devon"dagi hikmatlarning tili to'g'risida, uning xususiyatlari haqida turlicha fikrlar bayon qilingan. A.K.Borovkov Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmati"i qarluq-chigil-uyg'ur tilida yozilgan, ammo "Qutadg'u bilig" tiliga yaqinlashmaydi, deb ko'rsatadi. Ayni zamonda A.K.Borovkov "Devoni hikmat"ning turli

davrlarda turlicha kitoblar, xattotlar tomonidan ko‘chirilgan nusxalari hamda nashriy nusxalaridagi bir qator farqlarni, o‘zgarishlarni hisobga olib, “Devoni hikmat”ga kiritilgan she’rlarning qaysilari bevosita Ahmad Yassaviyga tegishli ekanligini aniqlash qiyin, ularning aslini tasavvur etishga imkon bermaydi, degan fikrlarni ilgari suradi. Turk olimi M.F.Kuprilizodaning fikricha, “Devoni hikmat” o‘z xususiyati bilan “Qutadg‘u bilig” asariga yaqin turuvchi tilda yozilgan” [Muxtorov, Sanaqulov, 1982: 66] Bu borada E.N.Najib quyidagi fikrlarni bildiradi: “Devoni hikmat”ning tilini tahlil qilgan A.K.Borovkov bu asar tilida Sharqiy Qoraxoniylar tili ta’siri borligini ko‘rsatish bilan birga “Hikmatlar” tili mustaqil qipchoq-o‘g‘uz tiliga mansub, degan xulosaga keladi. Yassaviy hikmatlarining qipchoq-o‘g‘uz tilida paydo bo‘lishi qarluq-uyg‘ur tili bilan birga ikkinchi adabiy til mavjud bo‘lganligini isbot etadi” [Najib, 1989: 247-248] Tilshunoslikdagi ana shunday farqli fikrlar Yassaviy hikmatlari til borasida aniq bir xulosaga kelishni qiyinlashtiradi. Bu masalani hal etishda N.Hasan quyidagilarni ilgari suradi: “Birinchidan, “Devoni hikmat” eng qadimiy qo‘lyozmalarining topilishi muammoning bosh tuguni yechilishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu mo‘tabar qo‘lyozmalarning til xususiyatlarini qoraxoniylar davriga mansub “Hibat ul-haqoyiq”, “Qutadg‘u bilig” kabi obidalar bilan qiyosiy tamoyilda o‘rganish ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladi. Uchinchidan, “Devoni hikmat”dan o‘rin olgan qadimiy so‘z, ibora va atamalarining har biriga alohida e’tibor qaratish lozim. To‘rtinchidan, hikmatlarning til xususiyatlarini tadqiq qilganda yassaviylikka doir manbalarni ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Chunki bu manbalarda berilgan Yassaviy va yassaviylikka oid qimmatli fikr-qarashlar va hikmatlardan namunalar “Devoni hikmat”ning tili va muallifi masalasini hal qilishga xizmat qiladi” [Nodirxon Hasan, 2013: 81].

Bizningcha, Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”i XII asrga mansub bo‘lib, eski turkiy adabiy tildan eski o‘zbek adabiy tiliga o‘tish davrida yaratilganligi, ifoda uslubining sodda va xalqonaligi bois shu davrlar til xususiyatini o‘zida aks ettirgan.

“Devoni hikmat”ning tili o‘ziga xos. Unda qadimgi turkiy til, eski turkiy adabiy til, eski o‘zbek adabiy tiliga xos fonetik, leksik, grammatik birliklar birgalikda kuzatiladi. Masalan, “Devoni hikmat”da qadimgi yozma yodgorliklar tilida faol qo‘llangan, XIII va XIV asrlarga oid yodgorliklarida ham kuzatiladigan birgalik olmoshi *qamug‘* 5 marta, ilk bor “Qutadg‘u bilig” matnida uchragan hamda keyingi davrlar uchun xarakterli bo‘lgan birgalik olmoshi *hama* 6 marta qo‘llangan:

Qamug‘ do‘stlar, kechti, ko‘rung, keldi sazo,

Yurumishman telbalardek yo‘ldin ozo.

Sir sharobin ichtim ersa berdi mazo.

Oxiratni asbobini qurmayinmu?

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 46]

Gunohimni har kim ko‘rsa, mandin bezor,

*Lutfu karam o‘zung qilsang, **hama** bekor.*

Giyoh unmas yerga boqsang, bo‘lur gulzor,

Gunohimdin sanga yig‘lab keldim mano.

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 12]

Hikmatlar leksikasining asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham aynan yoki ayrim o‘zgarishlar bilan faol qo‘llaniladi. Ba’zilar esa eskirganligi bilan ajralib turadi: *ug‘on* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 4], *jurm* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 4], *uqbo* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 4], *eran* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 4], *yovuqlan* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 5], *soyil* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 5], *tamug‘* [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 6], *vabol* [Xoja Ahmad

Yassaviy, 2004: 6], **nakol** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 6], **ilik** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 7], **payom** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 10], **buzurg** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 13], **qamug'** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 46], **qulovuz** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 41], **kizlamak** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 77], **sivo** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 76], **teyu** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 73], **moumanlik** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 72], **sud** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 63], **bulhavas** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 59].

“Devoni hikmat”dagi leksik birliklarning ko‘pchiligini diniy-tasavvufiy istilohlar tashkil etadi: **tavba**, **taqvo**, **namoz**, **nafs**, **foni** [Yassaviy, 2004: 4], **tavfiq**, **oxirat**, **oshiq qullar**, **zokir qullar**, **tolib qullar** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 5], **shayx**, **pir**, **tamug'**, **do'zax**, **qiyomat**, **murshid** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 6], **ro'zi mahshar**, **kavsar suyi**, **toat**, **gunoh** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 8], **imonliq**, **jannat**, **ro'zi mahshar tarozusi** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 10] va boshqalar. Bu istilohlarni ham o‘z navbatida vahdat –ul vujud va haqiqat tushunchalariga bog‘liqligiga ko‘ra tasniflash mumkin. Hikmatlarda qo‘llanilgan zohir, botin, ich, tash, ahli zohir, ahli botin, oqil, hijob, parda, yopmoq, sir, hazrat, g‘oyib, huzur, g‘ayb, ahad, vohid, tavhid, ja‘m, jamuljam kabilar shular jumlasidandir. Misollar keltiramiz: *Amri ma'ruf, nahy munkar: Oqil ersang eranlarga xizmat qilg'il, / Amri ma'ruf qilg'onlarni izzat qilg'il, / Nahy munkar qilg'onlarni hurmat qilg'il, / Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga. Mo'min: Mo'min ermas hikmat eshitib yig'lamaydur, / Eranlarning aytgan so'zin tinglamaydur. Toat: Ayo do'stlar, yoshim yetdi yigirma uch, / Yolg'on da'vo, taomlarim barchasi puch. Sunnat: Sunnat ermish kofir bo'lsa, berma ozor, / Ko'ngli qattiq diloardan xudo bezor. Ahkom: Imon, islom ahkomlarin bilmag'onlar, / Ulug' kunda qizil yuzlug' bo'lmas bo'lur. Ummat: Ummat bo'lsang g'ariblarga tobe bo'lg'il, Oyat, hadis har kim aytsa some bo'lg'il. G'oz: Oshiq yonar, xalqdin tonar, olloh rozi, / Oshqlikni orzu qilg'on shahid, g'oz. Foni: Oxirzamon ummatlar dunyo foni bilmaslar. Xatmi yosun: Jon berarda madad qilsa Hizr, Ilyos, / G'avsul Ilyos xatmi yosin qilurmukan.*

Hikmatlar tilida turkiy so‘zlar bilan birgalikda arabcha va forsha o‘zlashma so‘zlar ham ko‘plab uchraydi:

Arabcha o‘zlashmalar: *adl, ajab, azob, ayb, aysh, alam, aziz, balo, vasl, vaqt, visol, vosil, voqif, vujud, davlat, davo, davr, doim, dor, dunyo, duo, javob, jazo, jamol, jannat, jafu, jahl, johil, zaif, zakot, zamon, zikr, zolim, zot, zohid, ibodat, ibrat, iymon, ikrom, imon, ixlos, ishq, kazzob, kalom, kamol, kafil, kibr, kitob, komil, kufr, laziz, lahza, lutf, madad, makr, manzil, mahal, mehnat, munofiq, murid, muruvvat, muhabbat, nadomat, nafr, naqd, obid, olam, olim, orif, oxir, oshiq, oqil, rab, rabot, rahmat, rizo, rohat, sabr, savob, safar, sahar, sir, talab* va boshqalar.

Forsha o‘zlashmalar: *arz, afsus, banda, barbod, baxt, bekor, bemador, benavo, bexabar, behad, behush, biyobon, bisyor, bozor, bulbul, vayron, gado, gard, gasht, giyoh, girdob, gul, gulzor, gumroh, gunoh, davron, daraxt, dard, darig', diydor, dono, do'zax, jonona, zor, yodgor, kabutar, karvon, mardon, namoz, nihon, nogahon, nodon, nozik, nola, ovoz, ozor, oson, pinhon, pir, ravon, ruh, sazo* va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviy hikmatlari sodda, ravon, xalqona ifoda uslubiga egaligi bois asrlar davomida har bir davr til xususiyatlarini aks ettirib, zavol bilmay keladi. Qo‘lyozmalardagi farqli jihatlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularda Yassaviyning o‘ziga xos uslubi sezilib turadi. Shoir hikmatlari tilini har tomonlama chuqur o‘rganish va ko‘plab manbalar asosida tadqiq etish bu borada yana ko‘plab muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 161 б.

2. Najib, 1989: 247-248.
3. Нодирхон Ҳасан. Аҳмад Яссавий ҳикматларининг тили ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, 4-сон, -Б. 77-81.
4. Hoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 83 b.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi: til, uslub va tasavvufiy-estetik tafakkur

Amirqulov Sanjar Sayitmurotovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika intituti o'qituvchisi,

E-mail: amirqulovsanjar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf adabiyoti tarixida muhim o'rin egallagan Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti, ijodi va asarlarining til va uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi. Muallif Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat" asari asosida uning tasavvufiy tafakkuri, badiiy ifoda uslubi, tilidagi arabcha va forsa unsurlar, shuningdek, diniy-axloqiy g'oyalarning badiiy talqini yuzasidan tahliliy mulohazalar bildiradi. Shuningdek, "Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim" hikmati poetikasiga alohida to'xtalinib, undagi takror, ramz, ruhiy kechinmalar va payg'ambar aloqasi kabi tasavvufiy belgilar yoritiladi. Maqola Yassaviyning ijodini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, til tarixiga oid muhim manbani chuqur o'rganish va baholashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *Ahmad Yassaviy, Devoni Hikmat, tasavvufiy adabiyot, til xususiyatlari, uslub, hikmat, takror, ramz, tarixiy til, tasavvufiy tafakkur.*

The Creative Legacy of Khoja Ahmad Yasawi: Language, Style, and Sufi-Aesthetic Thought

Abstract: This article explores the life, works, and stylistic-linguistic features of Khoja Ahmad Yasawi, a key figure in the history of Sufi literature. Based on his masterpiece *Divan-i Hikmat*, the study analyzes Yasawi's mystical worldview, artistic style, and the lexical composition of his language, highlighting the influence of Arabic and Persian elements. Special attention is given to the poem "Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim," examining its poetic structure, use of repetition, symbolic meanings, and spiritual imagery. The article underscores the significance of Yasawi's legacy in the study of the historical development of Turkic languages and provides a linguistic and aesthetic evaluation from the perspective of modern philology.

Keywords. *Ahmad Yasawi, Divan-i Hikmat, Sufi literature, linguistic features, style, hikmat poetry, repetition, symbolism, historical language, mystical thinking.*

Tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' siymolardan biri, Yassaviya tariqatining asoschisi bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy islom olamida juda hurmatli va e'zozli shaxs hisoblanadi. U oddiy, xalqparvar hikmatlari bilan keng omma orasida tezda mashhur bo'lgan va tasavvufda shariat bilan tariqatning mushtarakligini o'z qarashlarida muvozanatli tarzda ifodalagan allomadir.

Tarixiy manbalar asosida Xoja Ahmad Yassaviyning tug'ilgan yili milodiy 1041-yil, otasi Shayx Ibrohim oilasida ekanligi aniqlangan. Uning vafoti esa ko'p hollarda hijriy 562-yil, ya'ni milodiy 1166–1167-yillar oralig'iga to'g'ri keladi. Garchi ayrim hikmatlarida u "yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim" deya yozgan bo'lsa-da, bu jumlar ko'proq majoziy va tasavvufiy ma'noda talqin qilinadi. Masalan, "oltmish uchda yer ostiga kirdim mano" degan ifoda ham tarixiy emas, balki ramziy mazmun kasb etadi. Shu bois, aksar olimlar uning hayot muddatini 125 yil deb emas, 1166 yoki 1167-yilgacha yashagan deb belgilashadi.

Ba'zi tarixiy manbalarda uning tug'ilgan joyi Yassi deb keltirilgan bo'lsa-da, ko'pchilik mualliflar, jumladan, "Javohir al-abror" asari muallifi Xaziniy hamda Ko'pruluzoda uni Sayramlik deb biladi. Ko'pruluning yozishicha, Sayram aholisi o'sha davrda asl nasli hazrati Ali avlodiga borib taqaluvchi xojalar, amirlar, mirzolar va shohlardan tashkil topgan bo'lib, Ahmad

Yassaviyning ajdodlari ham shayx Ibrohim va uning otasi Ilyos bob orqali Imom Muhammad Hanafiyga borib taqaladi. Shuningdek, Sayramda Muhammad Hanafiy naslidan bo'lgan kishilarning son jihatdan ko'pligi ham bu hududni Yassaviyning vatani deb hisoblashga asos bo'ladi. Bugungi kunda ham o'zbek tadqiqotchilarining aksariyati bu fikrni ma'qullab, Ahmad Yassaviyning Sayramda tug'ilganligini tasdiqlaydilar. [To'ychiyeva N. Sobitova Z., 2022: 1224]

Ahmad Yassaviyning oilasida avvaliga Gavhar Shahnoz ismli qiz tug'ilgan. Ahmad esa undan keyin dunyoga kelgan. Afsuski, onasi uning tug'ilishidan ko'p o'tmay vafot etadi, yetti yoshida esa otasidan ayriladi. Shundan so'ng, u opasi Gavhar Shahnozning qo'lida tarbiya topadi. Dastlabki diniy bilimlarni otasi Shayx Ibrohimdan olgan Ahmad, keyinchalik Hazrati Hizir bilan ma'naviy suhbatlar orqali qalbini pokladi. So'ngra esa Arslon Bob qo'lida botiniy va zohiriy ilmlarni chuqur egalladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy Yassida yashagan kezlarida botiniy ilmlarni puxta o'rgangan. Arslon Bob unga Qur'on ilmi, shariat asoslari hamda ichki (botiniy) va tashqi (zohiriy) tafakkur sirlarini puxta anglatgan. [Toshqulova, 2020: 139]

Yetti yoshda Arslon bobni izlab topdim,

Har sir ko'rib parda birla bukib yopdim.

Ahmad Yassaviy asarlarida ishlatilgan til turkiy tillarning qadimgi shakllaridan biri — chig'atoy tiliga yaqin bo'lgan, o'z zamonasining xalq tiliga asoslangan tasavvufiy adabiy tildir. Uning tili fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari jihatidan qadimgi turkiy tilga yaqin bo'lib, arabcha va forsha so'zlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Matnlarda uchraydigan so'zlar turkiy ildizli bo'lsa-da, diniy tushunchalarni ifodalovchi atamalar asosan arab-fors manbalaridan olingan. Bu esa Ahmad Yassaviyning diniy ta'limotga asoslangan ijodining tiliga xos xususiyatdir. Ahmad Yassaviy ijodi uslubiy jihatdan tasavvufiy badiiy ifodaning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning she'rlari hikmat tarzida yozilgan bo'lib, ular muallifning Allohga bo'lgan muhabbati, tavba, dunyo g'amidan voz kechish, nafs bilan kurashish kabi diniy-ma'naviy g'oyalarni ifodalaydi. Asarlarda badiiy vositalardan — tashbeh, iste'ora, tazod, takror kabi uslublardan samarali foydalanilgan. Shuningdek, qofiya va ritmga asoslangan vaznli satrlar o'quvchi qalbiga ta'sirchanlik baxsh etadi.

Ahmad Yassaviy asarlari o'zbek tilshunosligida qadimgi yozma yodgorliklar sifatida o'rganiladi. Uning «Devoni Hikmat» asaridagi til va uslubiy xususiyatlar tilshunoslar tomonidan fonetika, morfologiya, leksikologiya, stilistika kabi yo'nalishlarda tahlil etilgan. Bu asar tarixiy til holatini o'rganishda, zamonaviy o'zbek tilining shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, diniy va tasavvufiy adabiyotdagi tilning badiiy potensialini ochib berishda Ahmad Yassaviy asarlari katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotida tasavvufiy ruhdagi she'rlar muhim o'rin tutadi. Bu asarlar orqali shoirlar va so'fiylar insonning ilohiy haqiqatga yetishish yo'lida kechirgan ichki kechinmalari, ruhiy sayrlari va ma'naviy o'zgarishlarini tasvirlaydi. "Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim" hikmati — ana shunday tasavvufiy yo'sindagi she'r bo'lib, unda ruhiy yetuklik va Haq bilan yaqinlik asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. [Rafiddinov, Nodirxon Hasan., 2022: 42]

Mazkur hikmatda shoir ruhiy sayrni bosqichma-bosqich tasvirlaydi. Har bir yoshda yuz bergan ilohiy hodisalar orqali Allohga yetishish, Muhammad (s.a.v.)ga sodiqlik, Jabroil, Xizr, chiltan kabi ramziy timsollar bilan to'qnashuv orqali o'zining komillik darajasiga yetganini bayon qiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Mi'roj, Arsh, Kursiy, Jabroil, Haq Mustafo, chiltan, Xizr kabi tasavvufiy ramzlarga e'tibor qaratiladi. Bular so'fiylikdagi muhim ma'nolarni anglatadi.

“Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim” misrasi har bir bandda takrorlanib, asosiy g‘oyaning mantiqiy va ruhiy asosini mustahkamlaydi va takror san’atini yuzaga keltiradi. Shoir go‘yo vafot etganini emas, balki dunyo bandaligidan qutulib, ilohiy haqiqatga yetganini ramziy tilda ifodalab o‘z ruhiy holatini bayon etadi.

Shuningdek, bu misrada Shoir Muhammad (s.a.v.) bilan ruhi orqali muloqot qilganini, undan duo va yo‘l olganini tilga oladi. Bu esa so‘fiylikda murshidga, yo‘l ko‘rsatuvchiga bo‘lgan ishonchni anglatadi.

Ahmad Yassaviy asarlari til va uslub jihatidan boy ma’naviy merosdir. Uning tili turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba bo‘lsa, uslubiy yondashuvi esa tasavvufiy adabiyotning badiiy-estetik mezonlarini belgilashda asos bo‘la oladi. Shunday ekan, Ahmad Yassaviy ijodini chuqur o‘rganish, uning til va uslubini tahlil qilish hozirgi kun tilshunosligi uchun dolzarb vazifalardan biridir. “Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim” hikmati o‘zbek tasavvufiy she’riyatining yorqin namunalaridan bo‘lib, unda shaxsiy tajriba orqali umuminsoniy haqiqatlar yoritiladi. Bu she’rni o‘rganish orqali nafaqat adabiy-estetik zavq hosil qilinadi, balki sufiylik g‘oyalarining ichki mohiyatini chuqur anglash imkoniyati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [To‘ychiyeva, 2022: 112] To‘ychiyeva N., Sobitova Z. Ahmad Yassaviyning hayotiy faoliyati. Oriental Renaissance, 2022.
2. [Toshqulova, 2020: 45] Toshqulova Sh. Ahmad Yassaviy, Ustozi Arslon Bob va Yassaviylikda “Devoni hikmat”ning o‘rni. Oriental Art and Culture, 2020.
3. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2022: 300] Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy. To‘plovchilar: S. Rafiddinov, N. Hasan. O‘zbekiston nashriyoti, 2022.

Yassaviy Hikmatlari leksikasining ba'zi xususiyatlari

Islamova Dinara Azamatovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: dinaraislamova777@gmail.com

Fayzullayeva Navruza Amridin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari tilidagi ayrim leksik xususiyatlar tahlil qilinadi. Xususan, shoirning o'xshatishlardan foydalanish usullari va ularning milliy til bilan uzviy aloqasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hikmatlar tilida uchraydigan rang nomlari bilan bog'liq leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari o'rganilib, ular xalqona uslub va badiiy-estetik an'analar bilan uyg'unligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Hikmatlar, leksik xususiyatlar, o'xshatishlar, rang nomlari, lingvomadaniyat, xalqona uslub*

Some features of the Lexicon of Yassawi proverbs

Abstract: This study analyzes certain features of the lexicon used in Yassawi's Hikmats. It highlights the relationship between the similes employed by the poet and the national language. Additionally, the research explores the linguocultural aspects of several color-related lexical units found in the language of the Hikmats.

Keywords: *Hikmats, lexical features, similes, color-related words, folk style*

Turkiy adabiyot va sharq tasavvuf ilmida Ahmad Yassaviy ijodi alohida o'rin tutadi. Shoir hikmatlari jamlangan "Devoni hikmat" nafaqat badiiy qimmat bilan, balki o'ziga xos tili, ifoda uslubi bilan ham ajralib turadi. Hikmatlar tili sodda, ravon bo'lib, XII asrda yaratilganligiga qaramay, bugungi kun kitobxon uchun ham mutolaa jarayonida hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. "Devoni hikmat"ning leksik xususiyatlariga e'tibor qaratsak, unda bir qancha xalqona birliklardan mahorat bilan foydalanilganining guvohi bo'lamiz. Bu, avvalo, hikmatlar tilida qo'llanilgan o'xshatishlarda namoyon bo'ladi:

Ishqsiz yurub toat qilur nodon zohid,

Betuz oshdek toatingni mazosi yo'q

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 16]

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "tuz" so'zining "mantiq", "ma'no", "mazmun" kabi ko'chma ma'nolari borligi qayd etiladi. [O'TIL, 2006: 179] Xalq orasida mazmunsiz, o'rinsiz aytilgan gapga, ishga nisbatan "tuzi yo'q", "tuzsiz oshdek" birligi qo'llaniladi. Taom har qancha sarxil ne'matlardan tayyorlanmasin, uning ta'mini tuz kiritadi. Tuzsiz eng sara yeguliklar ham insonga rohat bermaydi. So'zni o'rnida qo'llash va qilayotgan har bir ishni chin dildan, maqsad bilan amalga oshirish ham go'yoki tuz singari aytgan har bir gapimizga va qilgan har bir ishimizga mazmun kiritib turadi. Ahmad Yassaviyning yuqoridagi hikmatida Haqqa nisbatan muhabbatsiz qilingan ibodat go'yoki tuzsiz oshdek mazasiz, ya'ni qalb rohatisiz, befoyda bo'lishi ifodalanadi.

Ko'zum yoshi ravon bo'ldi chashma yanglig',

G'urbat ichra irodatni qorshu ko'rdum.

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 16]

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da “chashma, chashmaday” o‘xshatishi “tiniq; tinmoq. Har qanday nodurustliklardan xoli, toza, yoqimli, shunday xususiyatlarga ega bo‘lmoq” singari ma’nolarni anglatishi keltiriladi. [O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati, 2013: 246] Ko‘z yoshining chashmaga o‘xshatilishi ham xalqona ifodani aks ettiradi. Shu bilan birgalikda, yuqoridagi hikmatda ko‘z yoshning chashmaga o‘xshatilishi qahramonning pokiza qalb bilan, ich-ichdan yig‘layotganini tasvirlaydi. O‘xshatish ko‘rsatkichi sifatida kelgan yanglig‘ ko‘makchisi hozirgi o‘zbek tilida eskirganligi, badiiy nutqqa xoslanishi bilan ajralib turadi.

Quyidagi hikmatda esa umrning yelga o‘xshatilishiga guvoh bo‘lamiz. Bu umrning yel singari tez o‘tishiga, o‘tkinchiligiga ishora qiladi. Bilamizki, Yassaviy hikmatlarida dunyo va undagi narsalarga bog‘lanib qolmaslik, fursatni qadrlab, uni ibodat-u ezgu amallar bilan o‘tkazishga da’vat etiladi. Shuning uchun ham umr, vaqt, yigitlikning o‘tishi yelga qiyoslanadi. Ushbu o‘xshatish hozirgi o‘zbek tilida ham faol qo‘llaniladi.

Ahmad, sani essiz umrung yeldekk o‘tti,

Dunyo tilab oxiratni sham‘i o‘chti.

Ma‘siyat(ni) paymonasi to‘ldi-toshti,

Rahmon Tangrim gunohimdin o‘tormukin?

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 41]

O‘zbek mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida oshiqning holati an’anaviy tarzda bulbulga o‘xshatiladi. Bulbulning sayrash, nolalari oshiqning hijrondagi holatini ifodalaydi. Ushbu hikmatda ham “**bulbul sifat**” birligi shunday mazmun kasb etgan. Faqat bunda majoziy ishq emas, haqiqiy ishq nazarda tutilganligini unutmaslik lozim.

Shum tole‘man, tegmas qo‘lg‘a mani jomim,

Toatim yo‘q, a‘mo sifat tobmam yo‘lum,

Bulbul sifat nola qildim, kelmas gulim,

Yig‘lamaymu, jon mahramin tobmasmano?

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 8]

Yassaviy hikmatlarida ucharydigan **to‘lg‘on oydek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 6], **uchor qushdek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 10], **ko‘z yoshidek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 16], **yosh o‘g‘londek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 28], **telbalardek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 46], **qordek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 46], **suvdek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 47], **parvonadek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 50], **oshiqlardek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 63], **daryolardek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 67], **chirog‘dek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 74], **yetim qolg‘on bo‘talardek** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 77], **g‘avvos kabi** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 47], **subh yanglig‘** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 21], **shunqor yanglig‘**, **davlat yanglig‘**, **lochin yanglig‘** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 32], **asal yanglig‘** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 48], **sadaf yanglig‘** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 65], **yilon yanglig‘** [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 71] o‘xshatishlar hozirgi kunda ham milliy tilda mavjud bo‘lib, xalq tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yassaviy hikmatlari leksikasida rang bildiruvchi leksemalar alohida ajralib turadi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida rang bildiruvchi leksemalarga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning ma’lum bir xalq madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvokulturemalar ekanligi e’tirof etiladi. Tilshunos N.Amanlikova bu haqida shunday deydi: “Rang bildiruvchi so‘zlar nutqda, ayniqsa, badiiy matnda keng qo‘llaniladi va xalqning boy merosini, ijtimoiy-maishiy hayoti to‘g‘risidagi madaniy ma’lumotlarni avlodlarga yetkazib berishga xizmat qiladi. Ranglar olamning badiiy manzarasini yaratishda faol ishtirok etadi”. [Amanlikova, 2021: 84]

Yassaviy hikmatlarida qaro (qora) soʻzi boshqa rang bildiruvchi soʻzlarga nisbatan faol qoʻllanilgan boʻlib, boshqa soʻzlar bilan birikma hosil qilgan holda 15 marta uchraydi. Qora qadimgi turkiy tilda “belgi, rang” tushunchasini ifodalab, “gʻamgin”, “ogʻir”, “yomon”, “ahmoq”, “oddiy”, “qoʻpol”, “iflos”, “siyohrang”, “olomon”, “toʻda” kabi koʻchma maʼnolarni ham anglatgan. [DTS, : 422]

Yassaviy hikmatlarida “qaro” (qora) soʻzi asosan “yuz” soʻzi bilan birikma hosil qilib, “gunohkor”, “aybdor” kabi maʼnolarni anglatadi, salbiy ottenkani kuchaytiruvchi boʻlib xizmat qiladi:

*Ilm oʻrganmay, amal qilmay, maʼni uqmay
Oxiratda qaro yuzluk boʻlor ermish.*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 5]

*Mundogʻ shayxning qiyomatda yuzi qaro,
Nodonliqda shayxliq qilur – ishi riyo.*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 5]

*Band etibon shayton sani gumroh qilur,
Haq qoshida yuzi qaro boʻlmasmusan?*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 56]

Hikmatlarda “qaro” soʻzi “baxt” bilan birikib, “baxtsizlik”, “qaygʻu” maʼnosini anglatgan:
Baxtim qaro – bir qatra may totolmadim,
Ahlu iyol, xonumondin oʻtolmadim.

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 8]

Hikmatlarda “qaro” soʻzi “koʻngul” soʻzi bilan birikib, “gunohkor” maʼnosini ifodalagan:
Soch-u soqol xoʻb oqordi, koʻngul qaro,
Tongla borsam yo puchakman yoxud saro.

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 14]

“Qaro” soʻzi “kunlar” bilan birikib, “baxtsizlik”, “koʻngilsizlik” maʼnolarini aks ettirgan:
Agar yuz yil muhlat berur, ajal oxir qorshu kelur,
Jongʻa qaro kunlar solur, man yigʻlamay, kim yigʻlasun?!

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 76]

Mumtoz adabiyotda kishining xastaligi, kuchli jismoniy va ruhiy azob chekayotgani sariq rang misolida aks ettiriladi. Yuzning sariq rangda tasvirlanishi Yassaviy hikmatlarida ham shoirning ishq dardida azob chekayotagni ifodasi boʻlib xizmat qilgan:

*Qul Xoja Ahmad, kundek yorur koʻnglum nuri,
Holatim yoʻq, qonim yoʻq, rangim sori.*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 15]

*Tong otquncha yoshim oqor, holim xarob,
Koʻnglum sinuq, rangim sorigʻ, bagʻrim kabob.*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 8]

“Sariq rang, sariq yuz” xasta holatni ifodalashiga qarama-qarshi ravishda “qizil yuz” “sogʻlomlik”, “goʻzallik” va “yoshlik”ni aks ettiradi. Yassaviy hikmatlarida ham kecha-kunduz Haqni izlagan, ikki dunyo saodatini koʻzlagan, oyat-u hadislar, hikmatlar mazmunini diliga jo qilgan insonlarning “qizil yuzi” “xazon yangligʻ” soʻlmasligi taʼkidlanadi:

*Ayo oshiq, kecha-kunduz Haqni izla,
Zohir yurub, botiningda Arshni koʻzla.*

*Hikmat o'qub oyat-hadis so'zin so'zla,
Xazon yanglig' qizil yuzi so'lmas bo'lur.*

[Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 25]

Xulosa qilib aytganda, Yassaviy hikmatlari murakkab tasavvufiy tushunchalarni xalqona til vositasida sodda, ravon uslubda ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. Hikmatlarda qo'llanilgan o'xshatishlar nafaqat ijodkor ma'naviy olamining, balki butun turkiy qavmlarning tafakkurini aks ettirishi bilan ahamiyatga molik. Shoir ijodidagi rang bildiruvchi so'zlar orqali esa ma'no xilmaxilligi, o'ziga xos madaniy manzara ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amanlikova N. O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. – Toshkent. Transport, 2021. – 136 b.
2. Древнетюркский словарь (ДТС). – Л., 1969. – 676 б.
3. Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати – Тошкент: Маънавият, 2013. - 320 б.
4. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 83 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. IV. – 591 б.

She'riyatda inson konsepsiyasining tadriji

Narziyeva Ma'mura Norpulatovna

Samarqand davlat universiteti dotsenti.

Orcid: 0000-0003-0542-8826.

E-mail: narziyevamamura164@gmail.com

Annotatsiya. Insonning axloqi, ma'naviy saviyasi va madaniyati uning badiiy ijodida, ayniqsa, adabiyotda aks etadi. Tabiat va jamiyatdagi barcha voqealar va hodisalar markazida inson turadi, shuning uchun jamiyatda insonning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega. Insonni qadrlagan jamiyat o'z ma'naviy yuksalishini davom ettiradi. Inson tabiat va jamiyatdagi qonuniyatlarni tushunib borgan sari uning tafakkuri rivojlanadi.

Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy va Abdulla Oripov ijodida inson konsepti tahlil etilgan bo'lib, har ikki ijodkor asarlarida insonning ma'naviy-ruhiy olami, axloqiy yetukligi va jamiyatdagi o'rni qanday talqin etilishi yoritiladi. Maqolada Yassaviy asarlarida inson – Haqqa yetishish yo'lida ruhiy poklanishga intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlansa, Abdulla Oripov ijodida u – ongli, vijdonli, el-yurt oldida mas'uliyatli shaxs sifatida talqin etilishi ko'rsatib o'tiladi. Ikkala shoirning turli tarixiy davr va madaniy muhitda yashaganiga qaramay, ularning insoniyat, qalb, nafs, vijdon haqidagi qarashlari o'zaro yaqinlik kasb etadi. Maqola orqali inson konsepti turli adabiy-falsafiy qarashlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. *Inson, konsepsiya, tafakkur, falsafiy mushohadalar, dunyoqarash, ruhiy qiyofa, e'tiqod, imon, falsafiy qonuniyatlar, umuminsoniy tuyg'ular.*

THE EVOLUTION OF THE HUMAN CONCEPT IN POETRY

Abstract. A person's morality, spiritual level, and culture are reflected in their artistic creativity, particularly in literature. Human beings are at the center of all events and phenomena in nature and society, and therefore their role and place within society hold great importance. A society that values the human being continues its path toward spiritual development. As individuals gain deeper understanding of the laws governing nature and society, their thinking evolves accordingly.

This article analyzes the concept of the human being in the works of Ahmad Yassawi and Abdulla Oripov. In both authors' works, the spiritual and moral world of the human, as well as their social role, is explored in depth. Yassawi portrays the human being as a seeker of divine truth through inner purification, while Oripov presents the human as a conscious, responsible individual accountable to society and the nation. Despite living in different historical periods and cultural environments, both poets offer remarkably similar views on humanity, conscience, ego, and the soul. Through a comparative literary-philosophical analysis, the article reveals how the concept of the human is represented across different worldviews and intellectual traditions.

Keywords: *Human, concept, thinking, philosophical reflections, worldview, spiritual image, belief, faith, philosophical principles, universal feelings.*

Jamiyatda amal qiluvchi falsafiy qonuniyatlar asosida inson davr bilan munosabatga kirishadi, o'rni bilan ularga ta'sir o'tkazadi, o'zi ham ta'sirlanadi. Inson olamni va voqelikni idrok qilishda erk, ijod va haqiqat kabi umuminsoniy tuyg'ular og'ushida bo'ladi. Fan insoniyat tarixini universal olam rivojlanishi (modda va quvvat) qatorida tasodifiy bo'lmagan bo'g'in va jarayon sifatida tushunishga intiladi, bunda insonni xuddi din kabi merosxo'r va Allohning ma'lum bir

belgilangan maqsadda, erkning oliy vazifalari va ijod uchun yaratganligini tasavvur qilish mumkin [Razumov A, 2018:130]. Inson axloqi, ma'naviy saviyasi, madaniyati uning ijodida, badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi. Tabiat va jamiyatda sodir bo'luvchi barcha voqea-hodisalar markazida inson turadi. Shu bois jamiyatda inson konsepsiyasiga e'tibor kuchli. Insonni qadrlagan jamiyat ma'naviy yuksalib boraveradi. Inson tabiat va jamiyat hayoti qonuniyatlarini anglab borgani sayin tafakkuri rivojlanadi.

Sharq adabiyoti tarixida inson konsepti doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, axloqiy poklik, ruhiy yuksalish, ilohiy haqiqat sari intilish kabi masalalar tasavvufiy hamda zamonaviy adabiyotda o'z aksini topgan. Bu borada Ahmad Yassaviy va Abdulla Oripov ijodi o'ziga xos tarzda ajralib turadi. Ikkala ijodkor turli davr va adabiy maktablarga mansub bo'lishiga qaramay, insonni anglash, uning ma'naviy olamini sharhlashda o'zaro yaqin falsafiy-ruhiy tamoyillarni ilgari suradi.

Ahmad Yassaviy – Markaziy Osiyo tasavvufiy tafakkuri rivojida muhim o'rin egallagan shoir va mutasavvifdir. U o'zining mashhur “Devoni Hikmat” asarida insonning ma'naviy kamoloti masalasini o'ziga xos tarzda talqin etadi. Ahmad Yassaviy nazarida inson – bu nafaqat ongli mavjudot, balki balki ilohiy haqiqat hamda ruhiy yetuklik sari intiluvchi ilohiy zotdir.

Ahmad Yassaviy inson tabiatini tahlil qilar ekan, uni ikki kuch – nafs va ruh o'rtasidagi kurash maydoni sifatida tasvirlaydi. Unga ko'ra, nafs insonni dunyo havaslariga yetaklaydi, ruh esa Haqqa chorlaydi. Bu qarama-qarshilikni yenggan kishi haqiqiy inson maqomiga yetadi. Mazkur holatlarni Abdulla Oripov she'rlaridagi falsafiy mushohadalarda ham ko'rishimiz mumkin. Shoir tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar tizimida o'zaro kuchli bog'liqlikni ko'ra biladi hamda ular markazida inson turganligini, barcha falsafiy qonuniyatlar unga bog'liq holda amalga oshirishini o'z she'rlari mazmun-mohiyatiga singdirib yuboradi. Abdulla Oripov ijodida inson konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Lotincha majmua, tizim ma'nosini anglatuvchi konsepsiya atamasi ilmiy nuqtayi nazardan quyidagicha talqin qilinadi:

1) bu sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtayi nazar;

2) adabiyotda biror asarning asosiy g'oyasi.

Abdulla Oripov ijodida tarixiy shaxslar talqini masalasini sinchiklab o'rgangan I.Jabborov shoir asarlari misolida inson konsepsiyasi masalasining uch asosiy xususiyatini qayd etadi. Ularni kengroq bo'lsa-da, keltirishni joiz topdik:

Birinchidan, inson konsepsiyasi masalasini, avvalo, san'atkorning ongi-dunyoqarashidagi evrilishlar bilan, adabiy jarayon psixologiyasi bilan, uning yetakchi taraqqiyot tendensiyalari bilan uzviy birlikda o'rganishga, nazariy jihatdan umumlashtirishga intilish ustuvorlik kasb etdi. Xususan, inson-jamiyat-tabiat ruhiyatini yoritishda shaxsiy tor subyektiv qarashlar qobig'iga o'ralashib qolmasdan har qanday masalaga millat va Vatan manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondoshilmoqda. Shu ma'noda, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzu tadqiq etiladimi, unga birinchi galda millatning ijtimoiy-siyosiy, estetik idealini o'zida mujassamlashtirgan harakatdagi hodisa sifatida qaralmoqda, o'rganilmoqda.

Ikkinchidan, badiiy xarakterlar muayyan tarixiy sharoitda, aniq konkret hayotiy muhitda tasvirlanar ekan, ifodalagan mazmuniga ko'ra, tarixiylik tuyg'usini yo'qotmagan holda jamiyat psixologiyasining muayyan holatini tajassum etadi. Shu jihatdan inson ijtimoiy aloqalar sistemasini o'z taqdiri-faoliyatida mujassamlashtirgan mehvar hisoblanadi. Ana shu jarayonda inson yangi ijtimoiy aloqalar, ma'naviy-intellektual robitalarni o'z shaxsida markazlashtirgan, Vatan tarixini yaratishga chog'langan bunyodkor, yaratuvchi xilqat sifatida gavdalanadi. Zero,

shaxsning millat va Vatan manfaatlarini o'zida tajassum etgan qiziqish va mayllarisiz, insonning maqsad va intilishlarisiz, faol bunyodkorlik faoliyatisiz ijtimoiy sistemalar bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Shu ma'noda, shaxsning badiiy konsepsiyasi izchil realistik tasvir madaniyatiga asoslangan ijodiy metodning estetik boyligini, o'ziga xosligini tasdiqlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, shaxsning badiiy konsepsiyasiga madaniy, diniy, tarixiy va h.k. qadriyatlarni yoqlash, himoya qilish, ulug'lash yo'ldan borayotgan harakatdagi go'zallik hodisasi sifatida qaralmoqda, o'rganilmoqda. Shu ma'noda, inson ongi-shuuri, ko'ngil ma'rifati hamisha jamiyatning ilg'or-yetakchi ijtimoiy-falsafiy g'oyalari bilan to'yinib, boyib boradi. Bu, demak, badiiy asarlardagi inson konsepsiyasi odamlar psixologiyasini o'zgartirishga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga ta'sir salohiyatiga ega bo'lgan betimsol kuch. Inson – ezgulik, go'zallik, adolat va h.k. bashariy qadriyatlarni ijtimoiy faoliyatida ustuvor printsiplarga aylantirgan benazir qadriyatdir. Ya'ni san'atkorning individual ijodiy metodini, ongi-dunyoqarashidan sizib chiqadigan nuqtayi-nazarini, uslubini, badiiy-estetik umumlashtirish prinsiplarini, asarning janr spesifikasini, bir so'z bilan aytganda, badiiy dunyoning mavjud obyektiv hamda idrok etilajak subyektiv jihatlarini bir nuqtaga jamlagan ko'zgudir [Jabborov I, 2008:29-30].

Abdulla Oripovning ona yurt, Vatan, xalq mavzusiga bag'ishlangan she'rlarida o'zligini tanib qolgan, haqiqiy o'tmishidan xabardor bo'lgan va dunyoqarashi zamon o'lchovlariga mos kelmaydigan, falsafiy mushohadalarga ega bo'lgan o'rta yoshlardagi shaxs obrazi bo'y ko'rsatadi. Adabiyotshunos M.Davronova o'z tadqiqotida Usmon Azim hamda A.Oripov uslubining o'ziga xos xususiyatlarini inson konsepsiyasi orqali ko'rsatishga harakat qiladi. Tadqiqotchining yozishicha: "Usmon Azimning falsafiy-intellektual she'riyati Abdulla Oripovning falsafiy she'riyatidan farqlanib turadi. Abdulla Oripov uslubini teran falsafiylik, sharqona donishmandlik, chuqur lirizm bilan belgilash mumkin. Masalan, shoirning "Fil va chumoli" she'riga e'tibor qaratamiz:

- *Filga aylanibsan, chumoli, nechun?*
- *Ro'zg'orimdan ko'nglim to'qligi uchun.*
- *Chumoli bo'libsan, so'yla, fil, nechun?*
- *Ro'zg'orimdan tinchim yo'qligi uchun* [6-jild, 123].

Abdulla Oripov uslubida sharqona hikmat ufurib turadi. Shoir go'yo (Q.Yo'ldoshev ta'kid etganidek) olamga mutafakkir nazari bilan qarab turadi hamda bugunni izohlab, kelajakni bashorat qiladigan faylasuf timsolida gavdalanadi"[Davronova M, 2019: 228].

Rus adabiyotshunosi O.B.Lebedeva klassitsizm oqimini o'rganar ekan, insonning tashqi olam bilan aloqasida klassitsizm olamning falsafiy manzarasi hosil bo'luvchi ikki aloqa turi va holatini ko'radi. Birinchi bosqich – "tabiiy odam" deb yuritiladi va unda olamdagi barcha moddiy narsalar qatorida biologik organizm tushuniladi. Bu xususiy mohiyat bo'lib, uni manfaatparastlik, tartibsizlik qamrab olgan, uni o'zining mavjud bo'lishini ta'minlashga intilishda hech narsa chegaralay olmaydi. Inson konsepsiyasining ikkinchi bosqichi – bu "jamoatchi inson" deb yuritilib, uning qarashlari oliy, ideal obrazlarda aks etadi. Uning shaxsiy manfaati jamiyat manfaatidan ajralib turmaydi¹. Olimaning mazkur fikrlarini Abdulla Oripov asarlariga nisbatan ham tatbiq qilish mumkin. Shoir "*Osmon torlik qilgan gala chumchuqdek // Makon talashadi goho betartib*", "*Ishlari ig'vo-yu, tuhmat va riyo, // Aldamchi, haromxo'r, iymonsiz balo*", "*Hatto u tubanlik ichra ham tanho*",// "*Qaylardadir hamon kezar zulmat timsoli*" deya "tabiiy odam"ni,

ya'ni moddiylikni har narsadan ustun qo'yuvchi insonlarni ta'riflaydi. Iste'dodli shoir Shavkat Rahmon esa nafs iskanjasidagi qahramonini qonxo'r bo'riga qiyoslaydi: *G'arq qiladi qalin shoxlarni // Kunning qonga o'xshagan nuri. // Yelkasida qo'shog'iz miltiq. // Chiqib ketar o'rmondan bo'ri* [Shavkat Rahmon, 1997: 28].

Shavkat Rahmon insonning o'jizligini "*Chumolidan battarroqsan sen, // Vaqt o'tar jismingni yanchib*" deya tavsiflasa, Abdulla Oripov uni yanada kichraytirib tasvirlaydi. Ijodkor insonga nisbatan "*Inson bamisoli sochilgan tariq*", "*Ularku qoshingda changday salmoqsiz*" kabi tashbehnlarni qo'llaydi. Ahmad Yassaviy qarashlarida inson – ilohiy mavjudot sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, inson jisimiy ehtiyojlar quliga aylansa, haqiqatdan uzoqlashadi. Asl baxt – ruhiy poklikda, sabrda, nafsdan xalos bo'lishdadir. Bu g'oya orqali Yassaviy inson qalbini poklashni, uni Haq nuri bilan to'ldirishni targ'ib etadi.

Abdulla Oripov nazdida esa inson millat, Vatan, zamon va e'tiqod bilan bog'liq ijtimoiy-ma'naviy fazilatlariga ega shaxsdir. Uning she'rlarida inson ruhiy yuksalishga intiladi, lekin bu yo'l faqat diniy emas, balki fuqarolik, milliy va axloqiy mas'uliyat orqali belgilanadi.

Ahmad Yassaviy va Abdulla Oripov – har biri o'z zamonining buyuk vakili sifatida insonni anglashga, uni ruhan va aqlan yuksaltirishga xizmat qilgan. Yassaviy insonni ilohiy haqiqat sari intiluvchi deb bilgan bo'lsa, Abdulla Oripov uni tarixiy, milliy va ma'naviy mas'uliyat bilan yashovchi ongli shaxs sifatida ko'radi. Har ikkala adib uchun inson – bu yuksalish, uyg'onish, poklanish va mukammallik sari intiluvchi noyob zotdir. Ularning asarlarida inson konsepti – axloq, e'tiqod, vijdon va qalb uyg'oqligi asosida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси. Фил.фан.доктори диссер. – Самарканд, 2019. – Б. 228.
2. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 504 б.
3. Жабборов И. Абдулла Орипов шеъриятида тарихий шахс талқини. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 29-30.
4. Райхонова М. Абдулла Орипов шеъриятида оламни идрок этиш ва бадий воқеалантириш тадрижи. Филол.фанл. бўйича фалсафа док... дис. автореф. – Қарши: 2021. – 20 б.
5. Разумов А.Е. Свобода творчества и творческое воображение: человек во времени // Высшее образование в России. 2018. Т. 27. №5. – С. 130.
6. Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – С.120
7. Усарова Л. Абдулла Орипов ижодида миллий рух ифодаси. Филол. фанл. бўйича фалсафа док...дисс.автореф. – Тошкент: 2020. – 24 б.
8. Хайруллаев М.М. Фараби (эпоха и учение). Тошкент: Узбекистан, 1975. – С. 167.
9. Шавкат Раҳмон. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1997. – 215 б.
- Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Muharrir, 2021. – Б.14.
10. Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Орипов фалсафаси. –Тошкент: Мухаррир, 2021. -308 б.
11. Ғаниев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 151 б.
12. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.

Internet manzillari:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konsepsiya-uz/>
2. <https://aesthetics.academic.ru/218>
3. Назар Эшонкул. Абдулла Орипов www.ziyouz.uz
4. <file:///C:/Users/User/Downloads/osobennosti-ponyatiya-hudozhestvennaya-konsepsiya-lichnosti.pdf>
5. <https://islom.uz/maqola/17084>

Divan-i Hikmet'te Ağlamak: Tasavvufi Bir Motif Olarak “Gözyaşı”

Dr. Öğr. Üyesi Bayram Bilir

Semer kant Devlet Yabancı Diller Enstitüsü,

E-mail: bayram-b@samdchti.uz

Özet: Tasavvuf edebiyatı, duyguların derinliğini ve bireyin manevi yolculuğunu ifade eden zengin bir semboller dünyasına sahiptir. Bu sembollerden biri olan **gözyaşı**, sadece bir duygu ifadesi değil; aynı zamanda **arınma, tevbe, aşk ve Allah’a yakınlık** gibi anlam katmanları taşıyan güçlü bir motiftir. Hoca Ahmed Yesevî’nin öncüsü olduğu Türk tasavvuf geleneğinin temel eserlerinden biri olan *Divan-ı Hikmet*, bu yönüyle gözyaşı temasını işleyen önemli metinlerden biridir. Eserde "ağlamak", yalnızca dünyevî bir acının değil, **ilâhî aşkın ve manevî dönüşümün** bir göstergesi olarak yer alır. Bu çalışma, *Divan-ı Hikmet*’teki "ağlamak" temasını tasavvufi bir motif olarak ele almayı; gözyaşının anlam boyutlarını, işlevini ve metin içindeki simgesel değerini çözümlemeyi amaçlamaktadır.

Anahtar Kelimeler: *Divan-ı Hikmet, Ahmet Yesevi, Ağlamak, Tasavvuf.*

Crying in Divan-ı Hikmet: “Tears” as a Sufi Motif

Abstract: Sufi literature has a rich world of symbols that express the depth of emotions and the spiritual journey of the individual. One of these symbols, tears, is not only an expression of emotion; it is also a powerful motif that carries layers of meaning such as purification, repentance, love and closeness to God. *Divan-ı Hikmet*, one of the fundamental works of the Turkish Sufi tradition pioneered by Hoca Ahmed Yesevi, is one of the important texts that deal with the theme of tears in this respect. In the work, "crying" is not only an indication of worldly pain but also of divine love and spiritual transformation. This study aims to address the theme of "crying" in *Divan-ı Hikmet* as a Sufi motif; to analyze the semantic dimensions, function and symbolic value of tears in the text.

Keywords: *Divan-ı Hikmet, Ahmet Yesevi, Crying, Sufism.*

Giriş. Tasavvufi edebiyatta gözyaşı, yalnızca bir duygu ifadesi değil, ilâhî aşkla yanmanın ve içsel arınmanın sembolüdür. Bu bağlamda, Hoca Ahmed Yesevî’nin *Divan-ı Hikmet* adlı eseri, gözyaşını riya ve gösterişten uzak, samimi bir teslimiyetin işareti olarak sunar ve eserin farklı bölümlerinde benzer anlam içeriği olarak 490 defa ele alınır. Özellikle “153. Hikmet Gözyaşın Riyası Yok!” bölümünde vücut bulan bu anlayış, hakiki kulluğun ve kalpten gelen pişmanlığın ifadesi olarak gözyaşına özel bir anlam yükler. Bu çalışma, *Divan-ı Hikmet*’te geçen ilgili bölümün beyitleri üzerinden gözyaşının tasavvufi anlam dünyasındaki yerini metin merkezli bir yaklaşımla incelemeyi amaçlamaktadır.

Türk-İslam Edebi Anlayışında “Ağlamak”. Hadis imamlarına dayanarak ağlamayı yorumlayan Uludağ, İslâm’da dinî his ve heyecanla ağlamanın tavsiye edildiğini ve bu tür ağlamaların karşılığında büyük sevap vaa dinin bulunduğunu belirtmektedir. Özellikle, kimsenin bulunmadığı bir ortamda Allah’ı zikredip ağlayan müminin âhirette Allah’ın özel lütfuna nâil olacağı, Allah korkusundan ağlayan kişinin cehennemden âzat edileceği, Allah’ın kalbi hüznü ve gözü yaşlı olanlara azap etmeyeceği ve Allah korkusundan ağlayan, harama bakmayan ve askerde nöbet tutan kimselere cehennem ateşinin haram olduğu hadislerde belirtilmiştir (Uludağ, 1988: 474). Hayatın her döneminde insanların tepkilerini göstermede özel bir yeri olan ağlamanın dinî hayatta (Uludağ, 1988: 473) olduğu kadar tasavvufta da önemi vardır.

Mevlana Mesnevi’de:

“Âdem, ağlamak için geldi yeryüzüne.

Ağlasın, inlesin, hüznünlensin diye geldi.” (Rumi, 2015: 91) sözüyle, ağlamayı insan varoluşunun temel bir unsuru olarak sunar. Mevlana’ya göre bu ağlama, yalnızca duygusal bir tepki değil; Âdem’in, dolayısıyla tüm insanlığın ilahi kaynaktan kopuşunun ve bu kopuşun yarattığı varoluşsal hüznün sembolüdür. Ağlamak, pişmanlık, arınma ve Allah’a dönüş arzusunun bir ifadesidir. İnsan, bu dünyada hüznün aracılığıyla kendini ve kaynağını yeniden hatırlama imkânına sahiptir.

Yunus Emre ise

“Dünyaya gelen kişilerin doğru yolu bulması gerekir;

ölümü hatırlayarak, gece gündüz ağlaması gerekir” (Yunus Emre, 2021:108b) sözüyle, ağlamayı manevî uyanışın ve nefis terbiyesinin bir aracı olarak sunar. Buradaki ağlama, dünyevî zevklerden yüz çevirerek hakikati arama, ölümü ve faniliği idrak etme sürecinin bir sonucudur. İnsan, ölüm bilinciyle yoğruldukça gafletten sıyrılır ve hakikate yönelir; bu yönelişin en samimi tezahürü ise gözyaşındır. Dolayısıyla ağlamak, sadece keder değil, içsel dönüşüm ve ilahi aşkın tezahürüdür.

Tasavvuf geleneğinde sıkça vurgulanan "gözyaşı ile arınma" motifi, kalpteki pası silen, nefsi terbiye eden ve kişiyi hakikate daha yakın kılan bir işlev üstlenir. Gözyaşı, nefsin perdelerini kaldırarak kalbi Allah’a yaklaştırır; çünkü bu gözyaşı mecazi bir su değil, insanın iç âlemini temizleyen, karanlığı aydınlığa dönüştüren ilahi bir nimettir.

Divan-ı Hikmet’te Ağlamak. XII. yüzyılda Türkistan’da yaşamış olan ve “Pîr-i Türkistan” olarak anılan Ahmed Yesevî, Türk-İslam kültürünün şekillenmesinde büyük bir rol oynamıştır. O, bilgeliğini ve irfanını aşk ve sevgiye dayandıran bir Allah dostudur. Türklerin İslâm’ı tanımasında köprü işlevi gören Yesevî, Kur’ân ve Sünnet merkezli bir din anlayışını halka benimsetmiştir. Döneminde İslâm’dan sapmalar gösteren bazı akımlara karşı, sahîh İslâm’ı savunmuş ve bu anlayışı tasavvuf diliyle yaymıştır. Onun yorumunda İslâm, aşk, irfan ve ahlâk temelinde yaşanması gereken bir hakikattir. Bugün tasavvuf adına konuşulan birçok düşünce, onun bıraktığı mirasa dayanır. Yetiştirdiği öğrenciler ve alperenler aracılığıyla Yesevî, İslâm’ın adalet, tevazu ve birlik anlayışını Orta Asya’dan Anadolu’ya, oradan da Balkanlara taşımıştır. Bu düşünce, Anadolu’da Yunus Emre ve Hacı Bektaş Velî gibi isimlerle, Balkanlar’da ise Gül Baba ve Sarı Saltuk gibi öncülerle hayat bulmuştur (Tosun ve Eraslan, 2019:5).

Divân-ı Hikmet, Allah sevgisi, Peygamber aşkı, ölümü hatırlama, nefis mücadelesi ve tasavvufî ahlâk temalarını işleyen hikmetlerden oluşur. Bu eser, hem tasavvufî bir rehber, hem de dönemin halk diliyle yazılmış önemli bir edebî kaynaktır. Ahmet Yesevî’nin hikmetlerinde ağlamak, sıradan bir duygusal tepki değil; manevî olgunluğun, pişmanlığın ve ilahi aşkla yanmanın işaretidir. Gözyaşı, kulun Rabbi karşısındaki acziyetini, günahlarından duyduğu derin pişmanlığı ve kalbin saflaşma sürecini ifade eder. Yesevî’ye göre, gerçek mürid nefsinin kötülüklerinden dolayı ağlayan, gece gündüz gözyaşı döken ve bu gözyaşı ile kalbini yıkayan kişidir.

Yesevî’ye göre samimiyetin en zirve noktası gözyaşındır ve Hakk’a sunulacak en içten armağan riyadan uzak şekilde dökülen gözyaşındır. Hakiki aşık gözyaşıyla bütünleşir. Allah’a gerçek anlamda âşık olan bir kulun kalbi yumuşak, ruhu ince olur; bu da onu derin bir pişmanlık, özlem ve huşu ile ağılatır:

Aşk ateşinde yanıp, gel Hakk’a itaat kıl,

Sen gerçekten âşıksan, ağlamayı âdet kıl.

Geceleri üşüyüp, mihnet çek, tazarru kıl,

Mihnet çekmeden sana, lutuf da ihsân da yok (Hikmet 153/2).

Yesevî'ye göre gönülden ağlayan kişinin Allah'ın rahmetine mazhar olur.

Gizli yürü, taat kıl, Hudâ hâlini görsün,

Gözyaşını deryâ kıl, Hak sana rahmeylesin.

Sonra da dertlerine varsın dermân eylesin,

Ey Dostlar! Akan yaşın yalanı, riyâsı yok (Hikmet 153/4).

Eserde gözyaşı bir mecaz değil, arınmanın gerçek bir aracı olarak sunulur. Gözyaşının deryâ yani deniz kadar çok olması gerektiği yalnızca fiziksel bir ağlama değil derin bir iç hesaplaşma, pişmanlık ve ilahi hasretin yoğunluğu olarak sunulur. Yesevî, gözyaşını en samimi kulluk ifadesi olarak görür. Çünkü bu yaşlar gönülden gelir ve kulun Allah'tan başka hiç kimseye bir şey ispat etme derdi yoktur.

Ahmed Yesevî 153/5 beyitte, zikir ve ibadetlerin bile gösterişe dönüşebileceğini, fakat gözyaşının riya barındırmadığını ortaya koyar. Dilde yapılan tesbih ve dualar içten olmadığında kıyamet günü kulun başına bela olabilirken, gözden dökülen yaş samimi bir kalbin işaretidir. Bu yüzden Yesevî, Allah'a yönelmek isteyen kulun ağlamayı tercih etmesini öğütler. Çünkü gözyaşı, en saf ve en dürüst ibadet şeklidir.

Yesevî, kulun Allah'ın azabından korkması gerektiğini söyler (153/6) ve özellikle seher vakitlerinde pişmanlık duymaya, Allah'ın dergâhına gözyaşıyla yönelmeye çağırır. Beytin sonunda tekrar vurgulanan "gözyaşın riyâsı yok" ifadesiyle, ağlamanın en sahici ibadet şekli olduğu anlatılır. Kulun içten gelen gözyaşı, yalansız ve gösterişsiz bir teslimiyettir. Bu nedenle Allah katında makbul ve değerlidir.

Allah katında has kullar, ulema, fuzela, suleha (153/15-18) ve zahitler (153/25-27) eğer amelleri halk içinde itibar, izzet ü ikrâm görmek, dünyayı biriktirip, yemek-içmek içinse Hakk'ın rahmetine eremeyenlerden olacağı anlatılır. Benzer şekilde Allah rızası için infak eden zenginlerin (153/29-30) işlerine "gösteriş ve riya" karışmış olması amellerinin kabul edilmeyeceği anlamına gelir.

Yine aynı şekilde 153/19-24. Beyitlerde Allah yolunda "şehitlik" ilan edenlerin eğer amelleri "Sultan caize" içinse rahmete erenlerin dışında kalacağı vurgulanır.

Âşıklar dergâhına, huzuru'llâha varır,

Hepisi Hak'tan korkup, yine ağlayıp durur,

Rahmân der; "Tuhfen varsa, hadi huzura getir,"

Sen yürü ağlayarak, gözyaşın riyâsı yok. (153/33)

Âşık der ; "Tuhfem yoktur, Yâ Rab! Günâhtan gayrı,

Daim işlediğimiz cürm ü hatadan gayrı,

Lütf u ihsân etmezsen, hâlim perişan gayrı,"

Sen ağlayarak yürü, gözyaşın riyâsı yok. (153/34)

Yukarıdaki beyitlerde ise "Ağlamak", bir tasavvufi kemal göstergesi, bir arınma ve Allah'a yakınlaşma vesilesi olarak yüceltilir. Gözyaşı, âşığın tuhfesi, içtenliğin ve tevbenin en saf ifadesi olarak sunulur. Gözyaşının riyaadan uzak oluşu, onu diğer tüm ibadetlerden üstün kılar. Buna karşılık olarak Allah:

"Ey âşıklar! Siz doğru söylersiniz,

Benden korkup bağrınız tüm helak edersiniz,

Gözlerinizden yaşı hasretle dökersiniz,

Ağlayarak yürü sen, gözyaşın riyâsı yok (153/37)

Gözyaşınızdan başka iyi armağan olmaz,

*Bundan iyi atıyye dergâhımıza gelmez,
Meleklerin taati, buna denk bile olmaz,*

Sen ağlayarak yürü, gözyaşın riyâsı yok (153/38) şeklinde buyurarak “ağlamayı”, ilâhî aşkın, hasretin ve pişmanlığın en saf ifadesi olarak kabul eder. Şair, Allah’ın kelimâ suretinde seslenerek, gözyaşını ibadetlerin en üstü, hatta meleklerin bile ulaşamayacağı bir hal olarak tanımlar. Ağlamak, burada sadece bir duygu değil, Allah’a sunulan en içten, en temiz armağandır.

Sonuç. Divan-ı Hikmet’te yer alan "ağlamak" motifi, tasavvufî düşüncenin merkezinde yer alan samimiyet, tevazu, pişmanlık ve ilâhî aşka bağlılığın güçlü bir sembolü olarak karşımıza çıkar. Ahmed Yesevî, gözyaşını sıradan bir duygusal dışavurumdan öte, kulun Allah’a en saf haliyle yöneldiği, riyadan uzak bir ibadet biçimi olarak yüceltir. Gözyaşı, hem kulun nefsinin terbiye etme sürecinde bir içsel dönüşüm aracıdır, hem de ilâhî huzura götüren en değerli armağan olarak sunulur. Yesevî’ye göre, hakiki kulluğun ve aşkın göstergesi, gece gündüz ağlayarak Allah’a yönelen, pişmanlık duyan ve bu hâl ile saflaşan gönüldür. Meleklerin bile ibadetlerinin ulaşamadığı bu gözyaşı, samimiyetin en yüksek derecesi ve hakikate ulaşmanın yoludur. Bu bağlamda, ağlamak, Divan-ı Hikmet’te sadece bireysel bir ruh hâli değil, manevî yükselişin ve Hakk’a vuslatın bir kapısı olarak değerlendirilmektedir.

Kaynaklar:

1. Mevlânâ Celâleddin-i Rûmî, (2015). Mesnevî-i Manevî, (Çev. Örs, D., Kırlangıç, H.) Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı Yayınları, İstanbul.
2. Yunus Emre, (2021). Dîvan (Fatih Yazması), (Ed. Kartallıoğlu, Y.) Yunus Emre Enstitüsü, Ankara.
3. Tosun, N. ve Eraslan, M. (2019). Hoca Ahmed Yesevî Külliyyâtı. Ahmet Yesevi Üniversitesi Yayınları, Ankara.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmat” laridagi tilshunoslikka oid terminlarning lingvistik tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Asarda qo‘llanilgan fonetik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlar, shuningdek, badiiy ifoda va lingvopoetik masalalar ham ko‘rib chiqilgan. Maqolada Yassaviy ijodining nafaqat adabiy, balki tilshunoslik jihatdan ham qanchalik boy va noyob ekanligini ochib berish maqsad qilib begilangan.

Kalit so‘zlar: *hikmat, arxaik so‘zlar, dialektizm, o‘zlashma so‘zlar, tavsifiy-tahliliy metod, qiyosiy-tarixiy metod, strukturaviy metod, statistik metod.*

Analysis of linguistic terms in ahmadi yassawi proverbs

Annotation: This article pays special attention to the linguistic analysis of terms related to linguistics in the “Proverbs” of Khoja Ahmad Yassawi. The work also addresses the phonetic, morphological, lexical-semantic and syntactic features used, as well as artistic expression and linguopoetic issues. The article aims to reveal how rich and unique Yassavi's work is not only literary, but also linguistic.

Keywords: *wisdom, archaic words, dialecticism, appropriation words, descriptive-moral method, comparative-historical method, structural method, statistical method.*

Анализ лингвистических терминов в мудрости ахмада Яссави

Аннотация: В этой статье особое внимание уделяется лингвистическому анализу терминов, относящихся к лингвистике, в “мудрости” Ходжи Ахмада Яссави. В работе рассматриваются фонетические, морфологические, лексико-семантические и синтаксические особенности, а также вопросы художественной выразительности и лингвопоэтики. Статья призвана раскрыть, насколько богато и уникально творчество Яссави не только в литературном, но и в лингвистическом плане.

Ключевые слова: *мудрость, архаические слова, диалектизм, заимствования, описательно-педагогический метод, сравнительно-исторический метод, структурный метод, статистический метод.*

XII asrda yashab, ijod qilgan Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mintaqasidagi buyuk mutasavvif shoir va islom dini targ‘ibotchisidir. Uning “Hikmat” asari turkiy xalqlar adabiyoti va ma’naviy merosining eng muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Bu davr turlarning shakllanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, eski o‘zbek tilining dastlabki namunalarini kuzatish mumkin. “Hikmat” nafaqat diniy-falsafiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, balki turkiy tilning boy imkoniyatlarini ham namoyon etgan asarlardan biridir. Yassaviy hikmatlari o‘zining sodda, xalqona tili bilan ajralib turadi. Unda og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan iboralar, maqollar va xalq ijodi namunalari keng qo‘llanilgan. Bu esa asarning keng omma orasida tez tarqalishiga va sevilishiga sabab bo‘lgan. Lingvistik jihatdan esa, hikmatlarda eski o‘zbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, lug‘at tarkibining boyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, asardagi arxaik so‘zlar, dialektizmlar va arab-fors o‘zlashmalarining mahorat bilan qo‘llanilishi tilshunoslar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Masalan:

Nafsdin kechib, qanoatni pesha qilg‘on,

Har kim tepsa, rozi bo'lib bo'yin sung'on.

Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on,

Andoq oshiq kuni armoni yo'q [1.193.]

Ushbu to'rtlikda pesha qilg'on, bo'yun sung'on, andoq kabi so'zlar arxaik so'zlardir. Mahshar so'zi esa arab tilidan olingan so'z bo'lib, diniy e'tiqodga ko'ra, dunyo tamom bo'lgandan keyin, oxiratda butun o'lgan kishilar tirilib, o'rnidan turib (qiyomat) to'planadigan va so'roq qilinadigan kun degan ma'oni anglatadi. Yassaviy hikmatlaridagi tilshunoslikka doir terminlarni tahlil qilishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari quyidagilardir:

Tavsifiy-tahliliy metod: Hikmatlardagi fonetik, morfologik, leksik va sintaktik hodisalar tavsiflanadi va tahlil qilinadi.

Qiyosiy-tarixiy metod: Terminlarning paydo bo'lish tarixi, boshqa turkiy tillardagi muqobillari va ularning evolyutsiyasi o'rganiladi.

Strukturaviy metod: Til birliklarining o'zaro aloqalari va ularning tizimdagi o'rnini aniqlanadi.

Statistik metod: Ayrim terminlarning hikmatlarda uchrash chastotasi va ularning miqdoriy tahlili amalga oshiriladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida fonetik va fonologik hodisalarning tahlili asarning til xususiyatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Hikmatlarda turkiy tillarga xos bo'lgan unli va undosh tovushlar tizimi o'z aksini topgan. Jumladan, unli tovushlar garmoniyasi (singarmonizm) va undosh tovushlarning assimilyatsiyasi kabi hodisalar keng uchraydi.

Masalan:

Ishqqa tushding, o'tg'a tushding kuyib o'ldung,

Parvonadek jondin kechib axgar bo'ldung.

Dardga to'ldung, g'amga so'ldung, telba bo'ldung,

Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q [2. 166].

Yuqorida keltirilgan to'rtlikda *o'ldung*, *bo'ldung*, *so'ldung* kabi so'zlarda eski turkiy tildagi singormanizm hodisasi kuzatiladi. *Bundan tashqari so'rsang* so'zida tovush tushush hodisasini ko'rishimiz mumkin.

Unlilar garmoniyasi: "Hikmat"da turkiy tillarga xos bo'lgan unlilar garmoniyasi qonuniyati juda aniq ko'zga tashlanadi. Bu holat, asosan, so'z ichida yoki so'z yasashda unlilarni moslashishida namoyon bo'ladi. Masalan, "köngül" (ko'ngil) so'zi unli garmoniyasi sababli yumshoq talaffuz etilgan.

Unlilarning qisqarishi, cho'zilishi: Ba'zi so'zlarda unlilarning qisqarishi yoki cho'zilishi kuzatiladi, bu esa she'riyatda vazn talablarini qondirish uchun xizmat qilgan. Masalan, "dost" (do'st) o'rniga "dōst" kabi talaffuz hodisalari bunga misol bo'ladi.

Undoshlarning assimilyatsiyasi: So'zlardagi undoshlarning bir-biriga ta'siri natijasida ular o'zgarishi mumkin. Masalan, "bolmaq" (bo'lmoq) o'rniga "bolmaq" yoki "kölməz" (kelmas) o'rniga "kelmez" kabi talaffuz jarayonida ko'zga tashlanadi.

Qattiq va yumshoq undoshlar: Yassaviy tilida qattiq (q, g', x) va yumshoq (k, g, sh) undoshlarning aniq farqlanishi asarning fonetik xususiyatlaridan biridir. Shuningdek, asarda alliteratsiya, assonans va onomatopeya kabi fonetik-stilistik vositalar ham mahorat bilan qo'llanilgan bo'lib, ular hikmatlarning badiiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu fonetik tahlil Yassaviy tilining o'ziga xos tovush tizimini va uning poeziyadagi rolini tushunishga yordam beradi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining morfologik tuzilishi eski o'zbek tilining boyligini namoyon etadi. Asarda ot, sifat, fe'l, olmosh, ravish kabi so'z turkumlarining o'ziga xos ishlatilishi, shuningdek, affikslar yordamida so'z yasallashining turli ko'rinishlari kuzatiladi.

Hikmatlarda so'z turkumlarining ishlatilishi:

Ishqqa tushding, o'tg'a tushding, kuyib o'lding,

Parvonadek jondin kechib axgar bo'ldung.

Dardga to'ldung, g'amga so'ldung, telba bo'ldung,

Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q [3.166].

Yassaviy ijodida otlar, ayniqsa, mavhum otlar (masalan, **nafs, ishq, dard, g'am, o't**) katta ahamiyatga ega. Fe'llar esa harakat va holatni ifodalashda dinamiklikni ta'minlaydi. Masalan: **tushding, o'lding, bo'lding, so'lding**. Sifat va ravishlar badiiy tasvirni boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Hikmatlarda qo'shimchalarning qo'llanishi va so'z yasallashi

Asarda qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar yasallashi keng tarqalgan. Masalan, fe'llardan ot yasovchi (**-ish, -ishik**), otlardan sifat yasovchi (**-li, -siz**) va fe'llardan fe'l yasovchi (**-dir, -t**) qo'shimchalar faol qo'llanilgan. Bu holat turkiy tilning aglyutinatativ xususiyatini yaqqol ko'rsatadi. Bundan tashqari hikmatlarda kelishik qo'shimchalari (**-ning, -ga, -ni, -da, -dan**) so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi va jumlada grammatik munosabatlarni ifodalaydi.

Haq kunlari darveshlar haqiqatni bilmishlar,

Haqqa oshiq bo'lg'onlar haq yo'lig'a kirmishlar,

Haq yo'lig'a kirgonlar, Alloh teyu yurgonlar,

Eranlar izin izlab, mamalakatdan kechmishlar [4.167].

Ushbu satrlarda tushum kelishi **-ni**, qisqargan shakli **-in** hamda jo'nalish kelishigining **-qa** shakli qo'llanganligi Yassaviy tilining aniq va izchil ekanligidan dalolat beradi. Hikmatlarda fe'l shakllari, zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalari ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Eski o'zbek tiliga xos bo'lgan ba'zi fe'l yasovchi affikslar bugungi kunda kamroq uchraydi, bu esa Yassaviy tilini o'rganishda alohida qiziqish uyg'otadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida qo'llangan so'zlarning ma'no qirralari ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Unda tasavvufiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan kalit so'zlar alohida o'rin tutadi. Bu so'zlar asarning falsafiy-ma'naviy mohiyatini ochib berishda asosiy vazifani bajaradi. Jumladan, "ishq", "zikr", "tavba", "ma'rifat", "valilik", "dil" kabi terminlar markaziy o'rinda turadi. Ishq – bu so'z Allohga bo'lgan ilohiy muhabbatni anglatadi. Yassaviy nazdida ishq insonni Haqqa yaqinlashtiruvchi eng oliy tuyg'u va kuchdir. Zikr – Alloh nomini takrorlash orqali Xudoga yaqinlashish amalidir. Zikr qalbni poklaydi va ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Tavba – gunohlardan afsuslanib, ularni takrorlamaslikka qasd qilish. Tavba bandaning Allohga qaytishi va poklanishi demakdir. Ma'rifat – Ilohiy haqiqatlarni bilish, Xudoni tanishdir. Ma'rifatga erishish orqali inson haqiqiy donolikka erishadi. Shuningdek, hikmatlarda arab, fors tillaridan o'zlashgan diniy, falsafiy va ma'naviy terminlar ham ko'p uchraydi. Bu so'zlar turkiy tilning lug'at tarkibini boyitgan va Yassaviy asarlarining mazmunini chuqurlashtirgan. Asardagi metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi leksik-semantik hodisalar ham alohida e'tiborga loyiqdir, ular hikmatlarning badiiy quvvatini oshirgan. Xoja Ahmad Yassaviyning she'riy uslubi o'zining soddaligi, samimiyligi va kuchli ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Uning hikmatlari nafaqat diniy-falsafiy g'oyalarni yetkazib bergan, balki tilning badiiy imkoniyatlarini ham mahorat bilan namoyon etgan. Lingvopoetika nuqtayi nazaridan, Yassaviy ijodida quyidagi badiiy ifoda vositalari keng qo'llanilgan:

Metafora – mavhum tushunchalarni (masalan, “ishq”, “dard”) aniq obrazlar orqali ifodalash. Masalan, “Ishq o‘ti” (muhabbat olovi).

Tashbeh – biror narsani boshqa narsaga o‘xshatish. Masalan, “Jonim gul kabi so‘ldi” (jonim gulga o‘xshab so‘ldi).

Mubolag‘a – tasvirni kuchaytirish maqsadida haddan tashqari oshirib ko‘rsatish. Masalan, “Dunyoni daryo kabi yutdim” (dunyoni daryodek yutdim).

Takror – So‘zlar, iboralar yoki satrlarni takrorlash orqali ma’no va hissiyotni kuchaytirishdir. Bu ayniqsa, hikmatlarning vazniga va ritmiga mos keladi.

Sa’j va radif – Yassaviy she’rlarida ichki qofiya (sa’j) va radiflar keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular sarning ohangdorligi oshiradi va yodda qoluvchanligini ta’minlaydi.

Shuningdek, Yassaviy hikmatlarida fonetik-stilistik vositalar (alliteratsiya, assonans) ham mahorat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, ular asarning ichki musiqasini yaratadi. Uslubiy soddalik bilan bir qatorda, Yassaviy badiiy obrazlar, jonlantirishlar va personifikatsiyalardan ham unumli foydalangan. Bu elementlar uning hikmatlariga chuqur ma’no va go‘zallik bag‘ishlagan.

Adabiyot ro‘yxati:

1. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Toshkent. – Б. 193.
2. Тўхлиев Б. Ўзбек адабиёти. – Toshkent. “Ёзувчи” – 2001. – Б.166.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991.
4. Ражабова М. Навоий муаммоларининг бадий тақомилида фольклорнинг таъсири // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

“Devoni hikmat”dagi ba’zi iboralar tahlili

Vafoeva Muxayyo Yuldosheva

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: muxayyovafo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Devoni hikmat”da qo‘llanilgan shaxs xususiyatlarini ifodalovchi ba’zi iboralarining funksional-semantik xususiyatlari, iboralarining badiiy matnda ichki va asosiy qofiya hosil qilish vazifasi, ellipsisga uchrashi tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: *ibora, qofiya, uyushiq bo‘lak, uslub, hikmat, tasavvuf, shariat, tariqat.*

Analysis of some phrases in “Devoni hikmat”

Annotation. The article analyzes the functional-semantic features of certain phrases used in “Devoni Hikmat” that express personal characteristics, their role in forming internal and main rhymes within the literary text, as well as cases of ellipsis.

Keywords: *phrase, rhyme, coordinated elements, style, wisdom, Sufism, Sharia, tariqa.*

“Devoni hikmat” butun turkiy tasavvuf she’riyatining noyob xazinasi sanaladi. Yassaviy nuqtayi nazarida hikmat — “ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g‘ayb-u haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega [8]. Yassaviy hikmatlari islom g‘oyalarini, birinchi navbatda tariqat mazmun-mohiyatini targ‘ib va tashviq qiluvchi she’riyat hisoblanadi. Shuning uchun hikmatlar tasavvufning mohiyatidan kelib chiqib ishq va oshiq, nafsni yengish, xokisorlik, kichik fe’lik haqida.

Yassaviy hikmatlarda so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolaridan, iboralardan, timsollardan, ramzlardan o‘rinli foydalanadi. Hikmatlar sodda, xalq tiliga yaqin uslubda yozilgan. Ular o‘qilishi, yodda saqlanib qolishi bilan xalq orasida keng tarqalgan. Hikmatlarda ma’nodor va ohangdor qofiyalar, go‘zal o‘xshatishlar mavjud. Ifodaning soddaligi, o‘ziga xos samimiyat, jo‘shqinlik hikmatlarga joziba bag‘ishlaydi. “Devon”dan anglashilicha, inson doimo o‘zi dastlab yaratilgan makonga intiladi, tasavvufiy ilmda belgilab berilgan shariat-tariqat-ma’rifat –haqiqat bosqichlarini bosib o‘tgach, o‘z maqsadiga erishadi. Bunda shariat insonning vujudi bilan bog‘liq jihatlarni qamrab olsa, tariqat bevosita inson ko‘nglini nazorat qiladi. Adabiyotlarda shariat ham tariqat ham aslida “yo‘l” ma’nosini anglatishi ta’kidlanadi. Shu bois inson ruhiyatida kechayotgan holatlar ifodasi bo‘lgan istilohlar ham paydo bo‘lgan. Asarda qo‘llanilgan iboralarni ham shular jumlasiga kiritsa bo‘ladi.

Asarda ko‘zlangan maqsad insonni ma’naviy komillikka, pok yashashga, o‘zini anglash orqali Yaratganni tanitishga yo‘naltirishdir. Bu maqsad asarning mazmun-mohiyatiga singdirilgan. Mukammal axloq, komil inson xususiyatlari aks etgan quyidagi to‘rtlikda solik o‘zining Haq bilan birlashish yo‘lidagi holati, yurakdan yig‘lab haqqa munojoti aks ettirilgan:

Qul Xoja Ahmad nafs tog‘idin chiqib oshti,

“Fano filloh” maqomiga yovuqlashti,

Yurak bag‘rim jo‘sh urubon, qaynab-toshti,

Bu hol birla yig‘lab duo qilay senga.

Bu she’riy matnda “*yurak-bag‘ri jo‘sh urmoq*” hamda “*yurak-bag‘ri qaynab-toshti*” iboralari qo‘llanilgan. “*Yurak-bag‘ri qaynab-toshti*” iborasining ot komponenti matn talabi bilan ellipsisga uchrab, “qaynab-toshti” ko‘rinishida shakllangan. Bu holatga kirishdan ilgarigi jarayon

“nafs tog‘iga chiqmoq” iborasida ifodalangan bo‘lib, bu insonning o‘z nafsini yenggani, ya‘ni nafsini to‘liq bo‘ysundirib, so‘fiylikdagi oliy maqom “fanofilloh maqomi”ga yaqinlashganini anglatadi. Mazmun jihatdan esa inson ruhiy holati tashqi ta‘sir tufayli ko‘rinishga kiradi, ya‘ni “jo‘sh uradi”. Natijada ko‘ngilda kechayotgan holatlarni boshqalarga aytish ehtiyoji yuzaga keladi. Matnda bu holat “qaynab-toshmoq” iborasida berilgan.

Hikmatlardagi ba‘zi iboralar hozirgi kunda keng qo‘llanuvchi ayrim frazeologizmlar bilan variantdosh sanaladi. Jumladan, adabiy tildagi ruhan azoblamog‘ ma‘nosidagi “yurak-bag‘rini qon qilmoq” iborasining so‘zlashuv uslubiga xoslangan “ich-bag‘rimni qon qildi” variantdoshi bir necha o‘rinda qo‘llanilgani kuzatildi:

O‘shal mayning mazasi *ich-bag‘rimni qon qildi*,

Bag‘ir qonim oqquzib jonon sari borsam men.

Shu o‘rinda misolda keltirilgan “ich-bag‘rini qon qilmoq” iborasiga kengroq to‘xtalsak. So‘zlashuvda bu ibora so‘zlovchining o‘zgalar xatti-harakati, gap- so‘zlaridan ozor chekkanini ifodalaydi. Mazkur o‘rinda esa bu ibora ma‘nosi matnda qo‘llanilgan “may” so‘zi bilan oydinlashadi. Tasavvufda inson ko‘ngli qadah, bu qadahga inson poklana borgani sayin may quyiladi. May esa insonni mast qiluvchi ichimlik emas, balki ishq hisoblanadi. Demak, inson qanchalik ma‘naviy komillik sifatlariga ega bo‘lgani sayin uning ko‘ngli ishqqa to‘lib boradi. Inson ishqdan bahramand bo‘lib, tobora Allohga bo‘lgan sevgisi kuchaya boradi.

Yassaviy ijodida bir-biriga ohangdosh iboralarning birin-ketin tizilib qofiya hosil qilishini uchratish mumkin:

Ey mo‘minlar, vahmi birlan bo‘ldum giryon,

Bu g‘am birlan *aqlim hayron, yuragim qon*,

Tandin o‘tub, dildin o‘tub, o‘rtadi jon,

Nechuk iloj etarimni bilolmasmen.

Berilgan to‘rtlikda “*aqlim hayron*”, “*yuragim qon*” hamda “*tandin o‘tub*”, “*dildin o‘tub, o‘rtadi jon*” iboralari o‘zaro ichki qofiyani, shu bilan birga bu iboralarning “qon”, “jon” komponentlari asosiy qofiyani hosil qilgan. Bu qofiyadosh iboralar she‘riy matn bilan uyg‘unlashib, she‘rga alohida ohangdorlik, musiqiylik bag‘ishlagan. Bu hikmatning tashqi ko‘rinishi, lisoniy qurilishi, lisoniy qurilish zamirida esa butun boshli ruhiy holatlar tizimi joylashgan: tariqat yo‘liga tushgan solik asta-sekin ruhiy bosqichlarni bosib o‘tar ekan, ilohiy mo‘jizalarga duch keladi, “aqli hayron” bo‘ladi, ishq tufayli “yuragi qon” holatga keladi. Shunisi borki, bu jarayon uning tashqi ko‘rinishiga ham ta‘sir qiladi, ishq va sog‘inch uning “tanidan o‘tadi”, keyin ko‘ksidagi ruh qo‘rg‘oni – “dildan o‘tib”, “jonni o‘rtaydi”.

“Devoni hikmat”da qo‘llanilgan hikmatlarning inson ruhiy holati bilan bog‘liq jihatlarni to‘liq qamrab olganligi kuzatiladi. Hikmatlarda hayotdan mamnunlik, quvonch, shodlik tushunchalariga kontrast turuvchi holatlar tasviri kuchlilik qiladi. Ayrim parchalar keltiramiz: “*Ko‘zum namlik, dilim g‘amlik, jon alamlik*” iboralarining bir satrda uyushib – miqdor jihatdan ortishi, shuningdek, “namlik, g‘amlik, alamlik” komponentlarining ichki qofiya bo‘lib kelishi she‘rga alohida ritmik ohangdorlik bag‘ishlaydi:

Ko‘zum namlik, dilim g‘amlik, jon alamlik,

Nechuk iloj etarimni bilmam, do‘stlar,

Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,

Qay-u tarafketarimni bilmam, do‘stlar.

Misollardan ko‘rinadiki, iboralarning muayyan komponenti o‘zaro qofiyadosh bo‘lib keladi:

Qul Xoja Ahmad, o‘zung g‘ofil, aqling zoyil,

*Amaling yo‘q, dunyo sori ko‘nglung moyil.
Bul ayoqing ostidadur chohi Hobil,
Yiqilurin bilgon kishi omon bo‘ldi.*

Berilgan matndagi “aqling zoyil” hamda “ko‘ngling moyil” iboralarining grammatik tayanch komponentlari o‘zaro qofiyadoshlik hosil qilgan. Lug‘atlarda qayd qilinishicha “zoyil” so‘zi “yo‘q, bartaraf bo‘luvchi” ma’nosini anglatadi [ЎТНЛ-2:158]. Matndagi iboralar ma’nosini umumlashtirsak, “aqli zoyil bo‘lmoq” keyingi jarayon – o‘tkinchi “dunyoga moyil bo‘lmoq”qa yo‘l ochadi.

Yassaviy quyidagi to‘rtligida haq so‘zidan omonim sifatida foydalanadi hamda haq belgilagan yo‘ldan yurishga buyuradi. Bu yo‘lda shaxsning izzatirobli, g‘am-alamli ichki ruhiy holatini “bag‘ri qonlig‘”, “ko‘zi yoshlig‘” iboralarini orqali ifodalaydi:

*Haq ishini haqliq uchun buyurdilar,
O‘zlarini xalqlar aro yeturdilar,
Mehnatlarin ne‘mat yonglig‘ ko‘tardilar,
Bag‘ri qonlig‘, ko‘zi yoshlig‘ to‘ldi bulg‘ay.*

Shariat islomda rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar umumlashmasi, tariqat esa bu qoidalariga amal qilib, o‘zini va shu orqali Haqni anglamoq yo‘lidir. Haqni anglash uchun ustoz, “pir tutishi”, ya’ni ustozga ergashish kerak:

*Bu olamda rasvo bo‘lub qon yutmasang,
Shariatda, tariqatda pir tutmasang,
Haqiqatda jon-u tandin pok o‘tmasang,
G‘aflatlardin seni na deb judo qilsun.*

Berilgan matndagi “qon yutmoq” iborasida dunyo g‘amlariga sabrli bo‘lish, nafsni yengish, tavozeni saqlash singari falsafiy umumlashmalar mavjud.

Hikmatlarda iboralarining uyushib ichki qofiya hosil qilishini ko‘plab kuzatish mumkin:

*Yurak pora, ko‘nglum yora, aqlim hayron,
Diydor izlab fano bo‘lg‘on xonavayron,
Qoyda borsam, motam tutub ko‘zum giryon,
Yig‘lamaymu, jon mahramin tobmasmano?*

Berilgan matnda yurakni yaralamoq ma’nosida “yurak pora”, ko‘ngli shikasta ma’nosida ko‘nglum yora” iboralarini qo‘llanilgan. Iboralarda solikning tariqat yo‘liga tushib, ma’lum bosqichda ekanligi, turli ruhiy holat, ichki kechinmalarga duch kelgani aks etgan. Bu iboralarining pora va yora komponentlari vazn talablariga rioya qilib, o‘zaro ichki qofiyani hosil qilgan.

Matnda uyushiq iboralar hamma vaqt ham ichki ohangdorlik hosil qilavermaydi:

*Tong otquncha yoshim oqor, holim xarob,
Ko‘nglum sinuq, rangim sorig‘, bag‘rim kabob,
Haq sorig‘a banda bo‘lsang qilg‘il shitob,
Yig‘lamaymu, jon mahramin tobmasmano?*

To‘rtlikda berilgan shaxsning emotsional holatini ifodalovchi “ko‘nglum sinuq, rangim sorig‘, bag‘rim kabob” iboralarini bir-birini ma’no jihatdan kuchaytirib, gradatsion vazifani bajarishga moslashgan.

Quyidagi to‘rtlikda Yassaviy o‘zining ma’naviy-tasavvufiy qarashlarini bayon qiladi. Shoir o‘zini xalq xizmatiga bag‘ishlab, vatanidan ayrilgan, vatandan uzoqda bo‘lganlarni, yetimlarni o‘ziga moyil qilish, shod qilish uchun “ko‘nglini ovlamoq”, “ko‘nglini shod qilmoq” iboralaridan unumli foydalanadi:

*G'arib Adham nafs ilgida dod ayladi,
Taxtdin kechib, Rahmonini yod ayladi.
G'arib, yetim ko'nglin ovlab, shod ayladi,
Gunohimdin sanga yig'lab keldim mano.*

Matndagi “ko'nglini ovlamogʻ”, “ko'nglini shod qilmoq” iboralari yonma-yon kelgan. Ritm va uslub talabi bilan “ko'nglini shod qilmoq” iborasining “ko'nglini” semantik tayanch komponenti qisqaruvga uchrab, barmoq vazni talablariga moslashtirilgan. Solikning ma'lum ruhiy holatlarni boshdan kechirgach, o'zi uqqanlarni amaliyotga tatbiq qilib, o'zgalarni to'g'ri yo'lga boshlashi, ko'ngillarga shodlik ulashishi mazkur iboralar mazmuniga singdirilgan.

Shoir to'rtlikda o'z-o'ziga murojaat qilar ekan, o'zining emotsional holatini ifodalashda bir xil sintaktik tuzilishli “*ko'zung yoshlig'*, *ko'nglung sinuq*, *so'zung hazin*” kabi iboralardan foydalanadi. Bunday uyushgan iboralardagi ichki qofiya, shuningdek, “shirin va hazin” so'zlarining asosiy qofiya bo'lib kelishi she'rdagi ohangdorlikni oshiradi, bir-birini ma'no jihatdan kuchaytiradi:

*Qul Xoja Ahmad, uyg'on so'zung boldin shirin,
Ko'zung yoshlig', ko'nglung sinuq, so'zung hazin.
Inshaalloh, bo'lg'ung oxir Haqqa yaqin,
Sajda aylab dargohig'a keldim mano.*

“G'ariblik” so'zi ham tasavvufiy tushuncha. “G'ariblikning o'qi tegib” shoir gangib qoladi. Bu holat she'rda “boshi qotdi” iborasi orqali fodalanadi:

*G'ariblikni o'qi tegdi boshim qotti,
Essiz, umrum g'aflat bilan zoe' o'tti.
Kofir nafsimga tug'yon qilib mani yutti,
Vo hasrato, na yuz birla borg'um mano.*

Hikmatda qo'llanilgan “G'ariblikning o'qi tegib” iborasining matnda tutgan o'rmini belgilash uchun lug'atlarga murojaat qilamiz. Qayd qilinishicha, “g'arib” so'zi 1. Qarindosh-urug'i yo'q, biror homiysi, ko'makchisi bo'lmagan, kimsasiz; musofir. 2. Kambag'al, qashshoq; faqir, bechora. 3. *ko'chma* nochor holatli; ko'rimsiz; ahvoli tang. 4. *Kam qo'll*. Ajib, qiziq, ajoyib ma'nolariga ega. “G'ariblik” esa “G'arib holat, g'aribona sharoit” degani.

Ko'rinadiki, Yassaviy “G'ariblikning o'qi tegib” iborasi vositasida solik to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni – kimsasiz, musofirligi, qashshoqligi, ahvoli tangligi, ajib holatda ekanligini ixcham va ta'sirchan tarzda bera olgan. Quyidagi to'rtlikda esa Allohdan uzoq, o'z yurtidan, tug'ilgan joyidan ayro tushish ma'nosida “g'ariblik” “g'urbat” tasavvufiy tushunchalaridan foydalanilgan. Bu tushunchalar shaxsning emotiv holati tasvirini berishga xizmat qilgan:

*G'ariblig'da yururdum man g'urbat tortib,
Malomatlar birla xalqdin so'z eshitib.
Tengi to'shum ko'ngul yurutub majol tortib,
Diydor uchun jonin fido qilg'on bormu?*

Shuningdek, matnda “yiroqlik, begonalik, musofirlik holatini boshidan kechirish”, ma'nosida “g'urbat tortib”, “kayfiyatini ko'tarmoq, xursand bo'lmoq” ma'nosida “*ko'ngul yurutub*”, “o'zini qurbon qilishga ham tayyor bo'lmoq” ma'nosida “jonini fido qilmoq” iboralari kishilarning turli xil emotsional xususiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Alloh yo'liga kirgan odamning xulqi Haqqa loyiqligi, qat'iyati ajib bir samimiyat bilan, shaxsning oliyhimmat, saxovatli sifati “*ko'ngli vosi*” iborasi orqali tasvirlangan:

Dur konini mendin so'rsang shayxi sodiq,

*Ondog' qulni xulqi xushi Haqqa loyiq,
Ko'ngli vosi', joni masih, o'zi oshiq,
Ondog' eshon Haqdin mahrum qolg'oni yo'q.*

Shunday qilib, shoir hikmatlari tilining soddaligi, ta'sirchanligi, uslubiy ravonligi bois asrlar davomida yashab kelmoqda. Hikmatlar tilida qo'llanilgan iboralarni o'rganish ta'lim jarayonida, frazeologizmlar tarixi, semantik-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa navbatdagi vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Toshkent: “Muharrir”, 2013. – 300 b.
2. Yo'ldoshev B., Rashidova U. O'zbek tilining frazeologik stilistikasi. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2016. – 200 b.
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 382 b.
4. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn]: lug'at / Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O'razova, K. Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (ЎТНЛ). 5 jildli. 1-2-3-4-5-jildlar. – “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006-2008.
6. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa birlashmasi, 1992, – 204 b.
7. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). Movarounnahr, – Toshkent, 2004, 83-b.
8. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/ahmad-yassaviy/>
9. <https://izoh.uz/uz/word/g%E2%80%98arib>

Ahmad Yassaviy ijodida komil inson g‘oyasi masalasi

Sharipova Sunbula Ahad qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi.

E-mail: sharipovasunbula@730gmail.com

Ergasheva Ozoda Olimjon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi).

E-mail: eoza640@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvufiy tafakkur maktabining yirik vakili Ahmad Yassaviyning “Hikmat”larida ilgari surilgan komil inson g‘oyasining mohiyati tahlil etiladi. Komil inson fazilatlarini, ularning tarbiyaviy ahamiyati va bugungi kun yoshlari uchun ibrat bo‘lishi mumkinligi asoslab beriladi. Misollar hikmatlar bilan dalillanadi.

Kalit so‘zlar: *Ahmad Yassaviy, hikmat, komil inson, tasavvuf, axloq, tarbiya, fazilat.*

Soyut. Bu makalede, tasavvuf ekolünün önde gelen temsilcilerinden Ahmed Yesevi'nin "Atasözleri"nde ortaya koyduğu kamil insan düşüncesinin özü analiz edilmektedir. Kamil insanın vasıfları, eğitimi ve günümüz gençliğine örnek olma imkânı ortaya konuyor. Örnekler hikmetle desteklenmiştir.

Anahtar Kelimeler: *Ahmed Yesevi, hikmet, kamil insan, tasavvuf, ahlak, eğitim, fazilet.*

Abstract. This article analyzes the essence of the idea of a perfect person, put forward in the “Hikmatlar” of Ahmad Yasawi, a prominent representative of the Sufi school of thought. The qualities of a perfect person, their educational significance and the possibility of being an example for today's youth are substantiated. Examples are substantiated with wisdoms.

Keywords: *Ahmad Yasawi, hikmat, perfect person, Sufism, morality, education, virtue.*

Ahmad Yassaviy 1103-yilda Sarom (Sayram) qishlog‘ida Shayx Ibrohim xonadonida dunyoga keladi. Ahmad dastlabki ta‘limotni Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra u yerdagi bir qator tolibi ilmlar kabi Arslon bobo qo‘lida tarbiya va tahsil oladi. Aynan shu shaharda Yassaviy botin ilmi sirlarini mukammal o‘zlashtiradi. Buxoroda arab, fors tillarini o‘rganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Baqriy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo‘lib, davrning eng peshqadam olimi va so‘fiysi Shayx Hamadoni muridlari qatoridan joy oladi. "Yassaviy - Islomga kirishning oxirgi va Islomiyatning ilk shoiri-ideologi ediki, xuddi shu ma‘noda buyuk Sharq Renessansining yuzaga chiqishida Dantega o‘xshab ish ko‘rmak uning qismatiga tushdi", deydi professor Yashar Qoraev. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy faqat yangi tariqat yaratuvchisi sifatida emas, balki turkiy tasavvuf adabiyotining ilk ijodkori sifatida ham ulug‘ va unutilmas ishni amalga oshirgan. [Ibrohim Haqqul, 2004:2]

“Tasavvuf nima?” degan savolga Shayx Nuriy javob berib aytadi: “Tasavvuf –nafs lazzatlaridan voz kechishdir”. Yoki Shayx Safiy Alimshoh javobi bunday: “Tasavvuf – nafs manzillarini bosib o‘tishdir”. Shayx Ravim so‘zi: “Tasavvuf – Xudo yo‘lida nafsdan kechmoqdir”. Tasavvufda komil inson (insoni komil) — bu nafsini yenggan, Allohga yaqin, qalban pok va axloqan yetuk zotdir. Bu tushuncha Yassaviy ijodida falsafiy va axloqiy mazmun bilan boyitilgan.

Uning fikricha, inson komillikka intilmog'i, hayotini ma'naviy poklik bilan to'ldirmog'i lozim. Yassaviy bu borada shunday deydi:

Nafs-u shayton xayli birla ko'p urushtum,

Sabr-u rizo maqomotin oshtim, do'stlar. [Ahmad Yassaviy, 2022:29]

Tasavvufda sabr-toqat, chidam. So'fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik ayniqsa Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi(sobir) o'zini balo girdobiga solib, balolardan qo'rmaydigan odamdir." Sabr kushoyish uchun intizorliklar"(Sahl Tustariy), ya'ni ruhiy ma'naviy mushkulliklar yuz berganda, sabr qilgan solik kushoyish topadi, yangi manzillarni kashf etadi. Sabr- iymonning yarmi deydilar, chunki so'fiyning dushmani bo'lgan nafs sabr orqali jilovlanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan bo'ladi. Misrada yana bir tushuncha Rizo-qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo'ysunish, nafs roziligidan chiqib, xaq roziligiga kirishdir. Qazo asriga taslim bo'lgan qalbning sururi. Lohijiy: rizo bandaning o'z rizadosidan chiqib, Mahbub rizadosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra e'tiroz qilmasligidir. Soliqda ushbu maqomda hech narsadan g'azab, hayajon, gina-kudrat va xafalashish bo'lmaydi.

Ishqdin yuz ming balo tegdi sabr ayladim,

Sobur bo'lib haq sasiga yettim mano. [Ahmad Yassaviy, 2022:68]

Pokiza, ilohiy muhabbat shavq-u zavqini kuylash Xo'ja Ahmad Yassaviy ijodida alohida o'rin egallaydi. Ishq-ruhni dunyoviy g'uborlardan tozalaydigan, qalbga bir olov-nur bo'lib kirib, uni Parvardigor vasliga hidoyat etadigan qudrat, ma'rifat va haqiqatga oshno etuvchi, kishiga o'zligini anglash, insoniylik mohiyatini kashf etishga yordam beruvchi kuch. Ishq ham dard va darmon, ham azob ham rohat. Tariqatining barcha masalalari hol va fano, botin va zohir, hayrat va tavhil, behudlik va devonalik va hokazolar ishq tushunchasi orqali anglashiladi. Chunki ilohiy muhabbat mohiyatini anglamagan odam tasavvufni ham tushunmaydi, tariqat yo'liga kirgan kishining aqida va g'oyalari, holatini idrok etolmaydi.

Keling do'stlar, bu dunyoda sabr qiling,

Xudo bergan ne'matlarga shukr qiling. [Ahmad Yassaviy, 2022:416]

Bu baytlar orqali shoir sabr va shukrni komillik yo'lida muhim fazilat sifatida ta'riflaydi. Ayrim tadqiqotchilar tilga olingan maqomlar yoniga yana qanoat, sidq, shurni ham qo'shganlar. Yassaviy tasavvufdagi bu g'oyani hayotdagi eng yuqori ideal sifatida ko'rib, uni barcha insonlar uchun erishish mumkin bo'lgan maqsad deb baholaydi. Komil inson - bu nafaqat o'z nafsini yenggan, balki jamiyatda odamlarga ibrat bo'la oladigan shaxsdir. Bu tushuncha Islom falsafasi va tasavvufda keng qo'llanilib, hozirgi tarbiya tizimida ham o'z o'rnini topmoqda. Yassaviyning komil inson haqidagi qarashlari, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tozalash, axloqiy va ruhiy jihatdan mukammallikka erishishga chaqiradi. Bu g'oya o'sha davrdan hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Komil inson tushunchasi tasavvufda nafaqat axloqiy jihatdan, balki diniy va ruhiy yuksalish uchun zaruriy tamoyil sifatida ko'riladi. Yassaviyning fikricha, komil inson o'z nafsini to'g'ri yo'lga qo'ygan, dunyo va oxirat manfaatlarini teng saqlay olgan, har jihatdan poklangan va baxtli bo'lgan shaxsdir. Uning komillikka intilishi, o'zini-o'zi anglash va o'zgarishlarga moslashish orqali erishiladi. Bu nuqtada Yassaviyning komil inson tasvirini zamonaviy odamlar uchun ham qadrlil va ibratli deb hisoblash mumkin.

Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida komil insonni belgilovchi asosiy fazilatlar - sabr, tavba, halollik, ixlos, kamtarlik haqida alohida to'xtaladi. Bu fazilatlar faqat ruhiy poklikni emas, balki jamiyatda axloqiy va ma'naviy barqarorlikni saqlashda ham muhim o'rin tutadi. Sabr haqida shunday deyiladi: "Va o'n nuri farq turur: avval nuri sidq, ikkinchi nuri esa sabr. Hazrati Rasul

Sallilohu alayhi vasallam aytdilar: assabru kanzu min hunuzil jannati. Ya'ni sabr behishtning ganjlaridin turur" [Ahmad Yassaviy, 2022:133]

Yassaviy hikmatlarida tavba qilish, qalb pokligi va ibodatga ixlos bilan yondashish komillik mezoni sifatida ko'rsatiladi:

*Tavba qilib Haqqa yong'on oshiqlarg'a,
Ujmoh ichra to'rt arig'da ishrati bor,
Tavbasiz Haqdin yong'on g'ofillarg'a,
Tor lahadda qottiq azob, hasrati bor.* [Ahmad Yassaviy, 2022:394]

Tavba - qaytish demak, yani kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bob ul avbob eshiklarining eshigi ham deytilar. Chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlanadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetishish yo'lida g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan yuz o'girishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi. Avvalgi hayot tarzidan butunlay vos kechadi. Tavba kufrdan qaytish, shariat man etgan nahy va yomon ishlardan qaytish kabilarni o'z ichiga oladi. Komil inson uchun kamtarlik, halollik va ixlosning ahamiyati katta bo'lib, bu fazilatlar uning hayotida doimiy ravishda mavjud bo'lishi kerak. Hikmatlarda bu sifatlari ko'p marotaba takrorlanib, ularning dolzarbligi alohida ta'kidlanadi. Kamtarlik va halollik haqidagi so'zlari orqali Yassaviy jamiyatda axloqiy barqarorlikni o'rnatish zarurligini ifoda etadi:

*Qul Xoja Ahmad, tinmay mudom Alloh degil,
Oxiratning azobidin qayg'u yegil,
Nafsga mudom halol luqma ro'zi bergil,
Mo'min bilan so'zlashibon o'lsam mano.* [Ahmad Yassaviy, 2022:64]

Nafsga nafrat Ahmad Yassaviy she'riyatida kuchli ifodalangan. Inson zotini buzib, xarob etgan, eng qabih ishlarni qilishga yo'llagan narsa uning nafsidir. Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan "nafs" yoki "nafsi ammora" deb atadilar va unga qarshi urush e'lon qildilar. Mol dunyo to'plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish qat'iy qoralanadi. Insonni (demak insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan bir yo'li nafsni o'ldirib, qanoat bilan halol yashash. Bu kabi fazilatlar Yassaviy nazarida komil inson timsolini yaratadi va uni jamiyatda axloqiy idealga aylantiradi. Hikmatlarda bu sifatlari ko'p marotaba takrorlanib, ularning dolzarbligi alohida ta'kidlanadi. Yassaviy nazariyasiga ko'ra, komil inson — bu o'z ichki nafsini yenggan, ruhiy yetuk va tashqi dunyoda haqni izlovchi shaxsdir.

Ahmad Yassaviy hikmatlari bugungi yoshlar uchun muhim tarbiyaviy manba bo'la oladi. Komil inson g'oyasi — halollik, sabr, poklik kabi fazilatlarini targ'ib qilgani bois, zamonaviy axloqiy inqirozga qarshi samarali izlovchi bo'lib xizmat qiladi. Yassaviy fikrlarida kishining o'zini tarbiyalashi, nafs bilan kurashishi asosiy o'rin tutadi. Bu jihatlar bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda yoshlarni ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllantirishda Yassaviy hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. Yassaviy quyidagicha ta'kidlaydi:

*Olim uldur, namoz o'qub toat qilsa,
Haqdin qo'rquv oxiratni g'amin yesa,
Qur'on o'qub, amal qilib, yo'lg'a kirsas,
Jon-u dilda Haq zikrini ayting, do'stlar.* [Ahmad Yassaviy, 2022:96]

Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag'firatini qozonish, Qur'onda va'da qilingan Jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So'fiylar nazarida esa jannat umidida toat ibodat qilish ta'maning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama bo'lmasligi

kerak. Yagona istak bu Haq taoloning diydoridir, xolos. Yoshlar uchun bu hikmatlar axloqiy to'g'ri yo'lni tanlashda, ichki kurashni yengishda yordam beradi. Zamonaviy tarbiya tizimida yoshlarni shunday fazilatlar asosida tarbiyalash orqali ruhiy barqarorlik va axloqiy uyg'unlikka erishish mumkin. Shuningdek, Yassaviyning komil inson haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogika va psixologiyada ham yangi ma'nolarda talqin qilinmoqda, bu esa uning asarlarining hayotiyligini va dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, Ahmad Yassaviy hikmatlarida iqtibos she'riy san'ati (Qur'onni Karim va Hadisi sharifdan mashxur ibora, oyat yoki parcha keltirish)dan samarali foydalanilganligiga shohid bo'lamiz:

Sochu soqol xo'b oqordi, ko'ngul qaro,

Tongla borsam yo puchakman yoxud saro.

Kim "alastu bi rabbikum" demish vaqto,

Bilolmasman qayu jam'din bo'ldum mano. [Ahmad Yassaviy, 2004:14]

اَلَسْتُ بِرَبِّكُمْ - "alastu bi rabbikum" (Men sizning Robbingiz emasmanmi?) kalimasi "Arof" surasi 172-oyatidandir. Oyatda shunday deyiladi: Parvardigoringiz Odam bolalarining bellaridan (ya'ni, pushti kamarlaridan to Qiyomat Kunigacha dunyoga keladigan barcha) zurriyotlarini olib: "Men Parvardigoringiz emasmanmi?", deb, o'zlariga qarshi guvoh qilganida, ular: "Haqiqatan Sen Parvardigorimizsan, bizlar bunga shohidmiz", deganlarini eslang! (Sizlardan bunday guvohlik — ahd-paymon olishimiz) Qiyomat Kunida: "Bizlar bundan bexabar edik", demasliklaringiz uchundir.

Muso alayhissalomning Tur tog'idagi suhbatida musulmon sharqi xalqlari orasida juda mashhurdir. Oyatdagi اَلَنْ تَرْجِي ya'ni "**Sen Meni (bu dunyoda) hargiz ko'rolmaysan**" kalomi butun boshli qissani yodga soladi va shoir xuddi Muso alayhissalomga qilinganidek rahmatdan umidvor.

Xullas, Ahmad Yassaviy she'riyati eng xalqchil va xalqsevar she'riyatdir. Uning g'oyalari insoniyat qozongan eng ardoqli g'oyalar qatorida abadiy yashab kelaveradi. Ahmad Yassaviyning "Hikmat"lari nafaqat diniy-falsafiy, balki axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Yana bir ahamiyatli tomoni u barcha turkiy xalqlarni birlashtirib turuvchii vosita sifatidagi ko'prik deyishimiz mumkin. Unda ilgari surilgan komil inson g'oyasi orqali insonni nafsni yengishga, ruhiy poklikka, axloqiy barkamollikka chaqiradi. Bu g'oya hozirgi kunda ham yoshlarni tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yassaviyning asarlari zamonaviy jamiyatda axloqiy, diniy va ma'naviy qadriyatlarni tiklashda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoja Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqurg'oniy. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022.
2. Tasavvuf va komil inson. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2016.
3. Islomiy ensiklopediya. – Toshkent: Movarounnahr, 2010.
4. Qayumov S. Ahmad Yassaviy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Karimov I. Yassaviy va uning merosi. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
6. Ibrohim H. Oldingdan oqqan suvni qadri, 2004.
7. Sharipova S. Hikmatlarda iqtibos she'riy san'atining qo'llanilishi //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2025. – T. 3. – №. 1. – S. 168-171.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida an'ana va adabiy ta'sir masalasi

F.f.f.d. (PhD) Toshniyozova Difuza Polvonovna

Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va faylasuf, turk dunyosidagi birinchi tariqatning va turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi Ahmad Yassaviy hikmatlarida an'ana va adabiy ta'sir masalasi bayon qilinadi. Yassaviy hikmatlarida mumtoz adiblar ijodiga hamohanglik va umumiy g'oyalar mushtarakligini aks ettirganlik mahorati ilmiy asoslab berilgan. Yassaviy hikmatlarining asosiy g'oyasi insonlarni eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashishga, hamjihat bo'lishga undashdan, ularni iymon, axloq-odob, diyonat, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga da'vat etishdan iborat bo'lganligi yozilgan. Mumtoz va e'tiqodiy qarashlarni o'z qobig'ida bera olgan Imom G'azzoliy, Ibni Davlatning kabi ijodkorlarning Ahmad Yassaviy ijodiga ergashish, adabiy ta'sir masalasi isbotlangan.

Kalit so'zlar: *an'ana, adabiy ta'sir, hikmat, tufroq, badiiyat, iymon, g'oya*

The question of tradition and literary influence in the spiritual sayings of Ahmad Yassavi

Abstract: This article discusses the role of tradition and literary influence in the teachings of Ahmad Yassaviy, one of the most important philosophers and spiritual leaders who established the first Sufi order and laid the foundation for Turkic Sufi poetry. It contrasts his wisdoms with the writings of great literary figures of the classical period and explains how they reflect shared philosophical and spiritual themes. The central message of Yassaviy's work is disclosed as a summons to unity in the name of high aims, and an insistence upon faith, morality, decency, cultural values, spirituality, and enlightenment. The article also illustrates the literary and ideological impact of such past thinkers as Suleiman Boğirgan and Ibn Dawlat on Yassaviy's thought.

Key words: *tradition: tradition, literary influence, wisdom, due, artistry, faith, idea*

Sharq mutafakkirlarining, islom va tasavvuf falsafasi allomalarining, buyuk muhaddislarining maslagi ham asrlar davomida odamlarni eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashishga, hamjihat bo'lishga undashdan iborat bo'lgan. Turkiy adabiyotda tasavvuf yo'nalishida komillik yo'lida boshidan kechirgan ruhiy-ma'naviy hodisalarni tarjimayi hol tarzida ifoda etish holatlarini uchratish mumkin. Turkiy adabiyotdagi an'anaga asosan, Ahmad Yassaviy ham "Devoni hikmat"ida o'z ruhiy-tarixini tarjimayi hol tarzida bayon etgan. Ularni o'qiganimizda ko'z o'ngimizda yilma-yil yuzaga kelgan tajribalarni juz'iy unsurlarigacha namoyon bo'ladi. Quyidagi misralarni kuzatamiz:

Yoshim yetdi oltmish uchqa bir kuncha yo'q,

Vo darig'o, haqni topmay ko'nglim sinuq,

Yer ustida sultonmen deb bo'ldum ulug',

Shokir bo'lib yer ostig'a kirdim mano.

Shayxman debon da'vo qilib yo'lg'a qoldim,

Dashu dastor puchak pulg'a sotib keldim.

Nafsu havo tug'yon qildi, horib qoldim,

Bedam bo'lib yer ostig'a kirdim mano. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2018:120]

Shoir ijodiyotida “Qur’on”dan o’tgan g’oya va obrazlar sezilarli mavqega ega. Lekin ular qanday shakllarda va qaysi maqsadlarda o’zlashtirganini aniqlash zarur. Mana o’shanda haqiqat ravshanlashib, chin mohiyat yuzaga chiqadi.

Kattaqo’rgon adabiy maktabining yetuk namoyondalaridan biri sanalgan Sayidmuhammad xalifa Ibn Davlat uchun Xoja Ahmad Yassaviy ijodiyoti, shubhasiz, mahorat maktablaridan biri bo’lgan. Xalaf (Ibn Davlat) ijodida salaf (Xoja Ahmad Yassaviy) she’rlariga yaqin misra va mazmunlarni ham ko’rishimiz mumkin. Masalan:

*“Tubu” o’qub, tavba qildim, Mavlom guvoh,
Nazar qilib, Haq dardima berdi davo.
Molu jonu xonumondin kechsam ravo,
Jon na bo’lg’ay, imonimdin o’ttum mano.*

Tavbaning lug’aviy ma’nosi - «qaytish». Istilohiy ma’nosi esa, itoatsiz bo’lishdan itoatli bo’lishga qaytish. Shuning uchun tavbaning eng asosiy sharti, qilib turgan gunohini zudlik bilan tark qilish, qayta qilmaslikka qasd qilish. Agar bunday bo’lmasa, Alloh tarafiga qaytmagan hisoblanadi, tavbasi tavba bo’lmaydi. Tilda astag’firulloh deb, gunohda davom etaversa, bu tavba hisoblanmaydi. Ahmad Yassaviydek ulamo zot ana shu haqiqatni bilgan holda “Tubu” o’qub, tavba qildim, - deya yozadi. Ushbu satrlari ta’sirida Ibn Davlat bir muxammasida shunga yaqin misralarni tizgan:

*O’qubman oyateki, andin ko’ngul xursandim,
Dedi: “Tubu ilalloh, – dey, – ilollohi Xudovandim”,
Nasihatlik muxammasni o’qub, tolib, eshit pandim,
Dari tavba ochuqdur, bo’lma noumed, jigarbandim,
Gunahdin tavba qilg’onning ishi ohu-fig’on ermish [Ibni Davlat. Devon, 2019:180].*

Xoja Ahmad Yassaviydan so’ng u boshlab bergan uslub va ruhda hikmat aytish an’anasini uning shogirdi va xalifasi Sulaymon Boqirg’oniy davom ettirdi. Sulaymon Boqirg’oniy musulmon kishi, avvalo, o’z gunohlarini e’tirof etadi: haromga boqqani va qo’lini haromga cho’zgani, natijada imon nuri xiralashgani, “man”lik otiga minib”, - nafsiga asir bo’lgani haqida qayg’urib yozadi. Shu barcha yomon kirdikorlari uchun mehribon Haqdan gunohlarining afv etilishini, oxiratining obod bo’lishini so’raydi:

*Ko’nglim tilar tuni kuni tavba qilsam,
Tavba qilib ondin keyin yo’lg’a kirsam.
“Izojoa nasrullohi” oyatidin ma’ni bo’lsam,
Bulg’aymuman, yo Rab, sani tilasam man. [Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg’oniy, 2022:295]*

“Izojoa nasrullohi” oyatining ma’nosi shuki, har bir ishda Alloh taoloning nusrati bo’lmasa, bir narsaga erishib bo’lmaydi. Ayniqsa, fath kabi ulkan hodisalar faqatgina Alloh taoloning nusrati ila bo’ladi. (Ushbu surai karimada Alloh taolo Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga xitob qilib, u zotga O’zi bergan ne’matni eslatmoqda va nasr kelganda, g’alabaga erishilganda o’zni qandoq tutish kerakligini o’rgatmoqda).

Yassaviydagi “tufroq” obrazining diniy tushunchalar bilan bog’liq bo’lmagan boshqa ma’no qatlamlari ham bor. Masalaga kengroq qarasak: tufroq nima? Tufroq – Vatan. Tufroq necha yuz yillardan buyon ne-ne ulug’ farzandlarini quchog’iga bosib kelayotgan zamin. Shuning uchun biz uni e’zozlab ona tufroq deymiz. U olis ajdodlarga onalik qilgan. U ota-bobolarimizning onasi bo’lgan. U bizning onamiz. Va kelajak nasllarning onasi bo’lajak.

Ahmad Yassaviy ta'limotiga ko'ra axloqiy kamolotga erishgan oshiq "mol-u davlatga rag'bat qilmaydigan", g'aflatdan yiroq ogoh kishidir. Zotan, ma'nau uyg'oq insonga Alloh yaqin bo'lur. Bunday insonlarning "ko'ngli siniq, ko'zi yoshli"dir. Ko'z yoshi to'kish "Devoni hikmat" da qayta-qayta takrorlanadigan hatto Yassaviya darveshlaridan kamolotga erishish yo'lida talab etiladigan holatdir. Asl ishqqa faqat shu yo'l bilan erishiladi.

Shoir ta'limotiga ko'ra, insonning yaratilish g'oyasi Yaratuvchiga qul bo'lish va buning mohiyatini anglab toat-ibodat qilishdir. Shuningdek, yemoq, ichmoq va dam olmoq ham insonning tabiiy haqlaridir. Ammo insonning haqiqiy inson sifatida bajaradigan ishlari faqatgina bulardan iborat emas. Komil inson bo'lish uchun Allohni tanish, yod etish va uni sevish zarur. Mana shu ishq yo'lida tuproq kabi bo'lishni orzu qilgan Yassaviy "ishqsizlarning yo'lda qolganini ko'rdim" deydi. Ilohiy ishqni kuylagan Yassaviy hikmatlari faqatgina o'z davrining diniy va e'tiqodiy tushunchasini bayon etmay, ayni vaqtda insonning atrofida qilarga va boshqa borliqlarga ham bir xil nazar bilan qarashni talqin etadi.

Yassaviy "Va taom berurlar Xudo muhabbatida muhtoj turg'on misking'a va yetimg'a va asirg'a" mazmunidagi oyatni dalil keltirib, asirlarga ham shavqat-muruvvat ko'rsatish lozimligini yoqlaydi.

Ma'lumki, hadisi shariflarda ota-onani qadrlash, ularning izzat-hurmatini joyiga qo'yish, ularga yordam va madad ko'rsatish, ayni paytda ularning duosini olish ko'plab ezguliklarga yo'l ochishi haqida ko'p marta ta'kidlangan. Jumladan, Rasulullohning «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannatlardan biri yoki undagi bir daraxt nomi) nasib bo'lib, Olloh Taolo uning umrini ham ziyoda qiladi», degan hadislar mavjud. Yassaviyda:

*Lutf aylasa, mushkul ishlar bo'lur oson,
Ug'on Izim bandam desa qolmas armon,
Ne'mat berur dunyo ichra turluk alvon,*

Bino qildi sakkiz behisht mehmon uchun Yassaviydagi ushbu misralar bilan Ibni Davlatning quyidagi misralarida ushbu hadislar bilan ma'naviy uyg'unlikni sezamiz.

*Ul erur iymon nishoni bersa har kimga salom
Ko'p duo olg'on kishi oxir dami yetgay ba kom
Maqsudi asliga yetgay oliy himmat bandalar,
Jannatini qilg'ay Xudo, ochlarga kim bersa taom*

Agar boshqalar dardi bilan yashasa, o'zining tor manfaatlari ichida qolib ketmasa, bunday inson serfazilat deyishga loyiq: «Tangri-g'am-tashvishli odamlarga yordam beradiganlarni do'st tutadi». Ko'rinib turibdiki, bularning hammasi inson ma'naviyati bilan, uning boyligi bilan bog'liq. Iymon esa mo'min, musulmon uchun eng buyuk asos, mustahkam poydevordir: «Iymon jihatdan mo'minlarning komilrog'i — xulqi yaxshi bo'lgani va xotinlarga yaxshi muomala qiladiganidir», «Iymonli odam va'daga vafodor bo'ladi». «Islom, ya'ni musulmonchilik oshkora narsadir, iymon esa dildadir». Iymon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ularni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, iymonli odam munofiqlikdan yiroq bo'ladi. Uning qalbi oliyjanobliklar bilan to'ladi. Bundan tashqari, tasavvufda tuproq – Ollohning munavvar nuri, suv – uning yorug' hayoti, havo – buyukligi, olov – uning g'azabi timsoli. Tuproq va suv – jannat mulki, shamol va olov – do'zax ichidagi narsalar. Ushbu sharh va ma'lumotlarni yodda tutib, "Tufrog' bo'lg'il, olam seni bosib o'tsin" satriga yana nazar tashlaymiz. Tasavvurda albatta nimalardir o'zgaradi. Chunki "tufrog'" birinchidan, oddiy so'zmas, poetik obraz ekan. Ikkinchidan, shoir diniy ishonchlarga asoslanib, insonni ezgu xulq sohibi, muruvvatli va ilohiy zot sharafiga erishishga chaqirgan.

Yassaviydagi “tufrog” obrazi xuddi shu ma’no va mantiqlarda Navoiy she’rlarida ham tatbiq qilingan.

Bu qadar manzilat qurbi buyuk poya bila,

O’zini tutquvchi tufrog’ ila hamvor qani?

Tufrog’ ila o’zini teng tutish nima ekan? Buyuklik zamini-xokisorlik poyasi. Kibr-manmanlikdan poklanish. Insoniylik martabasi oldida bo’lak martabalarni nazarga ilmaslik. Navoiyning boshqa bir g’azalidagi e’tiroficha, “Bevafolar o’t, vafo ahli erur tufroq...”. misrasidagi “o’t” va “tufroq” so’zlarining ikkalasi ham poetik obraz.

Yassaviy ta’limotida ma’naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo’ygan inson komil insondir. Bugungi kunda maqsadi boylik to’plashdan iborat bo’lgan, faqat moddiy hayotini boyitish uchun harakat qilgan va yolg’iz o’zini o’ylab atrofdagilarga loqayd qaraydigan xudbin kishilar Yassaviy tarbiyasiga albatta muhtojdirlar. Ahmad Yassaviy hikmatlari mavzusi bugungi kun yoshlari uchun ular ongidagi bo’shliqni ilm va ma’rifat bilan to’ldirish uchun ham ahamiyatli ekanini ta’kidlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жалолiddин Румий. Маънавий маснавий. Биринчи жилд, иккинчи китоб. Таржима шарҳи билан. Таржимон ва шарҳ муаллифи: Асқар Маҳкам. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
2. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. Илм китоби. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – Б.230.
3. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. Тавба китоби. –Тошкент: Ғафур ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.240.
4. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. Нашрга тайёрловчилар: И.Ҳаққул, Н.Ҳасан. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б.360.
5. Хожаназар Хувайдо. Девон. Нашрга тайёрловчилар: Исматуллоҳ Абдуллоҳ, Кодиркул Рўзматзода. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б.302.
6. Haziniy. Javohir ul-abror. Istanbul universiteti kutubxonasi, Turkiy qo'lyozmalar bo'limi, № 3893
7. Hoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. - Toshkent: “ O‘zbekiston nashriyoti” , 2022. - 592 b

Axloqiy Kamolot va komil inson talqini: Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy qarashlari tahlili

PhD. Axrorova Mahina Avazona,

PhD. Rahmatova Dilfuza Axmedovna

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyot kafedrası o'qituvchilari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy-islomiy tafakkur namoyandalari Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy ijodida aks etgan axloqiy kamolot va komil inson talqinlari tahlil qilinadi. Har ikki allomaning asarlarida komil insonni tarbiyalash g'oyasi asosiy o'rinni egallab, bu orqali jamiyatning ma'naviy yuksalishiga erishish maqsadi ko'zlangan. Maqolada Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy adabiy merosida komil insonni tarbiyalash g'oyasining qanday shakllanganligi, ularning umumiy va farqli jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, komil inson, axloqiy kamolot, tasavvuf, ma'naviyat, tarbiya.

Аннотация: В данной статье будут проанализированы этические и человеческие интерпретации, отраженные в творчестве представителей тюрко-исламской мысли Ахмада Яссави и Алишера Навои. В трудах обоих ученых центральное место занимает идея воспитания совершенного человека, целью которого является достижение духовного подъема общества. В статье освещается, как сформировалась идея воспитания совершенного человека в литературном наследии Ахмеда Яссави и Алишера Навои, их общие и отличительные черты.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, Алишер Навои, совершенный человек, нравственное совершенство, мистика, духовность, воспитание.

Annotation: This article analyzes the moral perfection and perfect human interpretations reflected in the work of the Turkic-Islamic thinkers Ahmad Yassawi and Alisher Navoi. In the works of both allomas, the idea of educating a perfect person is central, through which the goal is to achieve the spiritual elevation of society. The article covers how the idea of educating a perfect person in the literary heritage of Ahmad Yassawi and Alisher Navoi was formed, their common and different aspects.

Keywords: Ahmad Yassawi, Alisher Navoi, perfect man, moral perfection, mysticism, spirituality, upbringing.

Kirish. Ma'lumki, insonning tabiati va uni o'rganish masalasi insoniyat tarixida kishilar tomonidan eng ko'p o'ylangan va o'rganishga ehtiyoj sezilgan muammolardan biri hisoblanadi. Inson aqlini taniganidan buyon o'zining kelib chiqishi, mohiyati va tutgan o'rnini hamda aqli doirasida bajaradigan vazifalarni har doim diqqat markaziga qo'yib keladi. Qadimda Sharqda ham, G'arbda ham insonga nisbatan koinotning buyuk mo'jizasi, noyob hodisasi sifatida qarashgan. Shu boisdan ham barkamol avlod tarbiyasi butun dunyoda katta ahamiyat kasb etadi. Komil inson masalasi qadimdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar manbalarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan¹.

¹ Nusratulloyeva D. Najmiddin Komilov tadqiqotlarida tasavvuf va komil inson masalalari talqini. – Navoiy, 2019. – B. 58.

Komil inson asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. Komillik to'g'risidagi fikrlar nafaqat faylasuflarni, balki shoir va yozuvchilar, ta'lim fidoyilarining diqqat markazida bo'lgan. Taniqli tasavvufshunos Mahmud As'ad Jo'shon bahs vaqtida shunday fikr keltiradi: "Xulqlar o'zgaradimi?" – degan savolga, "o'zgaradi, faqat ta'lim-tarbiya tufayli"¹, – deb javob berish mumkin.

Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, oliyanob fazilatlarini to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komil inson masalasi o'tmishimizning ancha qadim davrlariga borib taqaladi.

Buyuk mutafakkir Abu Homid G'azzoliy o'zining "Kimyoi saodat" asarida inson vujudini katta bir shaharga o'xshatadi. G'azzoliyning ta'kidlashicha, qalb ushbu shaharning shohi, ya'ni boshqaruvchisidir. Aql esa o'z-o'zidan ma'lumki, shahar podshosining vaziridir. "Bunga o'xshash vaqtiki, podshoh Dil vazir-Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g'azabni Aqlning zerdasti va farmonida qilsa, badan mamlakati aning nizomida bo'lg'usidir va saodat yo'lini topib, Haq Taoloning ma'rifatini hosil qilg'usidir va agar Dil vazir Aqlni shahvat va g'azab iligida asir qilsa, badan mamlakat vayron bo'lib, podshoh Dil ham asir bo'lib, badbaxt va halok bo'lg'usidir"². Darhaqiqat, qalb bilan aql uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go'zalikka intilish bor. Qalb, dil va aql o'rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar, adolatsizliklarning manbaidir.

Turkiy-islomiy tafakkurning namoyandalari Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy Sharqa falsafasi, tasavvufi adabiyoti va axloqiy-ruhiy kamolot g'oyalari taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Har ikki buyuk mutafakkirning asarlarida axloqiy kamolotga erishish, insonning ichki poklanishi va komil inson sifatida yetuklikka erishishi markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Bu g'oyalar nafaqat individual inson kamoloti, balki butun jamiyatning ma'naviy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Ahmad Yassaviy ta'limotida axloqiy kamolot va komil inson. Ahmad Yassaviy (tax. XI asrning ikkinchi yarmi-1166-yil) – turkiy xalqlar o'rtasida tasavvufni ommalashtirgan, hikmatlari orqali axloqiy tarbiya va komil inson g'oyasini yoygan mutasavvif shoir va olimdir. Uning "Devoni Hikmat" asari axloqiy-ma'naviy g'oyalar bilan boyitilgan bo'lib, unda inson hayoti, dunyo va oxirat haqidagi tasavvurlar, axloqiy fazilatlar, nafs bilan kurashish va ilohiy muhabbat markaziy mavzular sifatida talqin etilgan.

Ahmad Yassaviy ta'limotiga ko'ra, komil inson – bu nafsni poklagan, ilohiy haqiqatni tanigan, sabr, shukr, tavoze', halollik va mehr oqibat fazilatlariga ega bo'lgan shaxsdir. U o'z hikmatlarida bu fazilatlarini obrazlar va ramzlar orqali xalq ongiga singdirishga intiladi. Uning tasavvufiy qarashlarida "axloqiy kamolot" – ruhiy yetuklik va Allohga yaqinlashish vositasi sifatida talqin etiladi.

Ahmad Yassaviy ta'limotiga ko'ra axloqiy kamolotga erishgan oshiq "mol-udavlatga rag'bat qilmaydigan", g'aflatdan yiroq ogoh kishidir. Chunki, ma'naviy uyg'oq insonga Alloh yaqin bo'ladi. Shu kabi odamlarning "ko'ngli siniq, ko'zi yoshli"dir. Ko'z yoshi to'kish "Devoni hikmat" da qayta-qayta takrorlanadigan hatto Yassaviya darveshlaridan kamolotga erishish yo'lida talab etiladigan holatdir. Asl ishqa faqat shu yo'l bilan erishiladi.

¹ Махмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. –Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 147.

² Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Рух ҳақиқати. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б. 37.

*Gunohimdin uyotlig‘man, oting Rahim,
Rahmatingdin qatra bersang, oting Karim,
Dargohinga yig‘lab keldim, Hayyu Qadim,
Rahmon egam, aro yo‘lda qoldim mano¹.*

Yassaviyning aytishicha, gunohim ko‘p, undan uyalaman, lekin sening (Allohning) oting “Rahim”, ya’ni Rahim qilguvchi zotsan, agar Rahim qilib o‘z rahmatingdan bir qatra bersang sen (Alloh) Karimsan, ya’ni Karami keng Allohshan, deydi. Allohning dargohiga yig‘lab, qalb ko‘zining nurini oqizib kelganini, aro yo‘lda qolgan bandasiga Rahim qilishini so‘raydi.

*Muhabbatning jomin ichib devonaman,
Majnunsifat xelu xeshdin begonaman.
Ey yoronlar, sham‘in ko‘rub parvonaman,
Yig‘lamaymu, jon mahramin tobmasmano?²*

Tasavvuf ta’limotida “jom”-qalb, qalbi Alloh ishqida to‘la oshiq ishqning kuchidan devona bo‘ladi, shoir ham xuddi shunday ishqdan telba bo‘lganini, bu ishq uni Majnun kabi qarindosh-urug‘dan begona qilganini, aytadi. Parvona ham sham atrofida aylansa, uning taftidan kuyishini bilsa-da baribir aylanganidek, mana shu ishq uni kuydirib ado qilsa ham bu ishqqa baribir borishini aytgan.

Shoir ta’limotiga ko‘ra, insonning yaratilish g‘oyasi Yaratuvchiga qul bo‘lmoq va buning mohiyatini tushunib toat-ibodat qilmoqdir. Komil inson bo‘lish uchun Allohni tanish, yod etish va uni sevish zarur. Mana shu ishq yo‘lida tuproq kabi bo‘lishni orzu qilgan Yassaviy “ishqsizlarning yo‘lda qolganini ko‘rdim” deydi. Ilohiy ishqni kuylagan Yassaviy hikmatlari faqatgina o‘z davrining diniy va e’tiqodiy tushunchasini bayon etmay, ayni vaqtda insonning atrofida qilarga va boshqa borliqlarga ham bir xil nazar bilan qarashni talqin etadi.

Alisher Navoiy ijodida komil inson konsepsiyasi. Alisher Navoiy (1441-1501) – o‘zbek tilining asoschisi, turkiy adabiyotning buyuk adibi, mutafakkir va davlat arbobi bo‘lib, o‘zining falsafiy va tasavvufiy qarashlari bilan komil inson idealini yanada mukammal shaklda ifodalagan. Uning “Mahbub ul-qulub”, “Lison-ut tayr”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” kabi asarlarida komil inson talqini markaziy g‘oyalaridan biri sanaladi. Alisher Navoiy ta’limotiga ko‘ra, komil inson – bu aql va qalb uyg‘unligiga erishgan, o‘z nafsini zabt etgan, ilohiy muhabbat va xizmat ruhida yashaydigan yetuk shaxsdir. U shaxsiy kamolot orqali hammaga foyda keltirish g‘oyasini ilgari suradi. Ayniqsa, “Lison ut-tayr” asarida Allohni topish yo‘li – ma’rifat va ruhiy poklanish orqali kechadigan ichki safar kabi talqin qilinadi.

“Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to‘rt ustuvor asosga, ya’ni Axloq go‘zalligi, qalb tavsiyasi, ruhiyat qudrati va tafakkur balog‘atiga tayanadi”³. Rus olimi V.M.Jirmunskiy o‘zining “Alisher Navoiy va Sharq adabiyotida Renessans muammosi” maqolasida shunday yozadi: «Alisher Navoiyningi ulkan siymosini jahon adabiyoti oqimidan ichetda, undan najralgani holda tasavvur qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. O‘zbek adabiyotining ulug‘ asoschisi ijodi uning G‘arbdagi hamfikrlarining – Renessans davri shoirlari va mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalari bilan juda hamohang keladi va to‘g‘ridan to‘g‘ri unga jo‘r bo‘lib ketadi”⁴. Bundan ma’lum

¹ Xoja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). – Toshkent: “Movarounnahr”, 2004. – B. 8.

² Xoja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). – Toshkent: “Movarounnahr”, 2004. – B. 8.

³ Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеърларида комил инсон мавзуи. Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 156.

⁴ Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема ренессанса в литературах Востока. – Ленинград: Наука, 1979. – С.23.

boʻladiki, Alisher Navoiy ijodida ham Sharq madaniyati arboblari dunyoqarashlariga, ham Gʻarbdagi Renessans davri gumanistlari, shoir va mutafakkirlari taʼlimotiga hamohang umumiy holatlar, jihatlar koʻp. Ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan, oʻxshash jihatlarini taʼminlaydigan bir masala bor, bu ham boʻlsa, inson haqidagi taʼlimot va inson konsepsiyasidir. Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari “Hayrat-ul abror” dostonining dastlabki maqoloti iymon sharhiga bagʻishlanadi. Dostonning bosh gʻoyasi komil inson timsolini vasf etish sanaladi. Komillikning bosh mezonini esa iymondir:

*“Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishon anga iymon erur”¹.*

Navoiyning fikricha, iymonning uch belgisi boʻlib, ular sabr, shukr hamda hayodir. Haqiqiy inson maqomiga erishish uchun esa, albatta, iymonning shu uch belgisiga ega boʻlmoq lozim:

*“Bas ani inson atagil beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo”².*

Asarda komil inson sharhidan soʻng iymonning 6 sharti quyidagicha keltiriladi:

- 1) Haqning borligiga iymon keltirish;
- 2) farishtalarga iymon;
- 3) Allohning soʻzlari boʻlgan muqaddas kitoblariga iymon;
- 4) Paygʻambarlarga iymon;
- 5) qiyomat kuniga iymon;
- 6) taqdiri azalga iymon.

Navoiy asarlarida Komil inson quyidagi sifatlar ega:

- ilm-maʼrifat vositasida oʻzligini anglagan;
- har qanday hayotiy toʻsiqlarda va muammolarda ilm-maʼrifat kuchiga tayangan;
- nodonlik va jaholat zulmiga ilm bilan qarshi turgan.

Alisher Navoiy olam, mavjudot, inson haqidagi qarashlarini “Saddi Iskandariy” dostonining muqaddimasida quyidagicha bayon qiladi: “Butun olamdan, hatto olamdan tashqaridagi mavjudotdan ham murod-maqсадga erishish inson goʻzalligi, uning kalomi bilan”. Ijodkor bu orqali inson goʻzalligi uning odob-axloqida, tarbiyasida ekanligiga alohida urgʻu beradi:

*Ochilgʻoch bu gulshanda inson guli,
Ne inson guli bogʻi rizvon guli.
Karam birla xalq aylagay olami,
Bu olamda maqsud anga odami.
Gʻaraz odami anga olam tufayl,
Nekim gʻayri olamdir – ul ham tufayl³.*

Ayni shu maʼnoda, insonning kamoloti ezgu maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiyaga bogʻliqligiga ishongan

Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy qarashlarining umumiy va farqli jihatlarini

Oʻxshash va farqli jihatlar	Ahmad Yassaviy	Alisher Navoiy
-----------------------------	----------------	----------------

¹ Алишер Навоий Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат-ул аброр. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.81.

² Oz-oz oʻrganib dono boʻlur. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik Bosh tahririyati, 2006. – B. 108.

³ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Akademiya, 2015. – B. 499.

Asar shakli	She'riy hikmatlar (sodda, xalq tiliga yaqin)	Tasavvufiy-falsafiy asarlar (murakkab badiiy uslub)
Komil inson talqini	Allohga yetishuv, nafsni yengish, ilohiy ishq	Aql, ma'rifat, ilohiy ishq, va ijtimoiy naf
Yondoshuv	Tasavvuf asosida axloqiy-poklanish	Tasavvuf bilan birga falsafa va ijtimoiy g'amxo'rlik
Maqsad	Ruhiy yetuklik, Allahga yaqinlashish	Inson va jamiyat kamoloti, madaniy uyg'onish

Ahmad Yassviy va Alisher Navoiy kamolot va komil inson haqidagi qarashlarini ushbu “Venn diagramma”siga joyladik.



Xulosa: Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkirlari sifatida komil inson idealini shakllantirish va uni xalqqa yetkazishda muhim ahamiyat kasb etganlar. Ularning axloqiy ta’limotlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ma’naviy-tarbiyaviy tizimda bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda. Har ikki allomaning g‘oyalarining uyg‘un tahlili yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda samarali asos bo‘la oladi. Ular ijodida komil inson konsepsiyasi – bu faqatgina diniy emas, balki ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs obrazidir. Ular shunday insonlarni – nafsini yenggan, Haqqa oshiq, tavozuli, xalq xizmatida bo‘lgan sifatlar bilan tavsiflaydilar. Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy hikmatlari bugungi kunda ham insonni tarbiyalashda, yosh avlodga komillik yo‘lini ko‘rsatishda bebaho ma’naviy manba hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). – Toshkent: “Movarounnahr”, 2004. 83 b.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат-ул аброр. – Тошкент: Фан, 1991. – 181б.
3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 499б.
4. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik Bosh tahririyati, 2006. – 108б.
5. Nusratulloeva D. Najmiddin Komilov tadqiqotlarida tasavvuf va komil inson masalalari talqini. – Navoiy, 2019. – 158б.

6. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. –Тошкент: Адолат, 2004. – 147б.
7. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Рух ҳақиқати. – Тошкент: Адолат, 2005. – 137б.
8. Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеърятда комил инсон мавзуи. Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2001. – 156 б.
9. Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема ренессанса в литературах Востока. – Ленинград: Наука, 1979. – 233с.

Manoqib janri va Yassaviy haqidagi manoqibnomalarning tuzilish prinsiplari

Azimova Fotima Yashinbek qizi

Andijon davlat universiteti doktoranti,

E-mail: fatma.azimova97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola musulmon agiografiyasining tarkibiga kiruvchi manoqibnomalarning tuzilishi, vazifasi va janr sifatida shakllanib borishi o'rganilib, tasavvuf adabiyotining yetuk vakili Ahmad Yassaviyga bag'ishlangan manoqiblar tahlilga tortiladi. Ularning syujet qurilishida g'arb agiografiyasidagi motivlarning takrorlanishi va farqlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Islom hagiografiyasi, manoqib, avliyo, mo'jizalar (karomat), xagiografik kanon, motivlar*

Manakib genre and structural principles of manakibnamas about Yassawi

Annotation: This article examines the structure, function, and literary evolution of manakibnamas (Islamic hagiographies) with a focus on works devoted to Khoja Ahmed Yassawi, a central figure in Turkic Sufism. The study highlights the repetition and differences of motifs from Western hagiography in the plot construction of these works.

Key words: *Islamic hagiography, manakib, saint, miracles(karamat), hagiographic canon, motifs*

Ma'lumki, agiografiya dastlab biografik tur ta'sirida paydo bo'ldi. Agiografiyaning ildizlari, xususiyatlari va agiografik kanonlar G'arb va rus adabiyoti olimlarining izlanishlarida atroflicha o'rganilish bilan bir qatorda, ular tomonidan islom diniy adabiyotining tadrijiy taraqqiyoti va ko'plab diniy adabiyot namunalari ham tadqiq qilindi.

Bunga sabab, o'lkamiz islom tamadduni ta'sirida fors, arab va turkiy tilda yozilgan asarlarga boy adabiyot hosil qilganiga qaramay, istiqlolgacha bo'lgan davrda diniy adabiyotni o'rganish va uni targ'ib qilish ta'qiq ostida bo'lganligi edi. Mustaqillikka erishgach, islom agiografiyasi va unga kiruvchi asarlar asosan tarixiy va falsafiy nuqtai nazaridan o'rganila boshlandi.

Musulmon agiografiyasi dastavval payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning hayot yo'lini yoritish bilan boshlangan diniy biografiyalar yaratish an'anasi ostida paydo bo'lib, islom dinining rivoji va tasavvuf adabiyotining yuzaga kelishi natijasida din rahnamolari, shayx va avliyolar haqida hikoya qiluvchi asarlarga aylanib borgan. Bu borada Olima N. Chalisova shunday deydi: "Muhammad Payg'ambar hayotiga namuna o'laroq ergashish nafaqat biografik an'ananing boyishi va janr jihatidan xilma-hilligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatgan, balki musulmon adabiyotlarida diniy biografiyaga nisbatan alohida qiziqish paydo bo'lishida ham o'z ifodasini topgan." [N.Chalisova, 2016: 195] Markaziy Osiyo xalqi uchun bu tur asarlarga bo'lgan e'tibor tasodifan sodir bo'lmaganini sharqshunos Hamilton Gibb tasdiqlab, agiografik asarlarni "musulmon jamiyatining to'laqonli mahalliy mahsuli" deb ataydi. [Hermansen, 1988: 164]

Islam dunyosida agiografiyaning rivojlanishi haqida izlanishlar olib borgan olim Dilawar Hussaynning fikricha, ilk musulmon biografik adabiyoti, Hermansen ta'biri bilan aytganda, shaxsning musulmon jamiyatidagi "inkluzivligini" ko'rsatish maqsadida yaratilgan. Dastlabki diniy asarlar islom dinini birinchilardan bo'lib qabul qilganlar va ularning maqomi haqida hikoya qilgan. Bu janr Payg'ambarimiz va sahobalarning ezgu amallari, nasl-nasabi va ular mansub

bo'lgan qabilalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. [Dilawar Hussain, 2018: 2] Islom dinining taraqqiyoti natijasida tasavvuf adabiyoti paydo bo'lishi bilan diniy adabiyotlar endi tariqat peshvolari, so'fiylar va shayxlar hayot yo'lini tasvirlashga, ularning tariqatini, valiylik karomatlarini bayon etishga fokus qaratdi.

Ushbu maqolada biz islom agiografiyasining tarkibiga kiruvchi manoqib janri va Yassaviy manoqibnomalarining tuzilishi haqida fikr yuritamiz.

Manqaba (manoqib-ko'plik shakli) so'zining asl lug'aviy ma'nosi kishiga maqto'v keltiradigan, taqdirlashga sazovor hislatlar deb izohlanadi. Tasavvufning islom dunyosida yoyilishi natijasida dastlab hadisi shariflarda, sahobalar hayotiga doir manbalarda qo'llanilib kelgan manqaba so'zi "so'fiylarning hikmatli so'zlarini va barchaga o'rnak bo'luvchi fazilatlarini, hasbi holini ifodalab berish uchun qo'llanishni boshlaydi". [Shahin, 2004: 112] Islom Ensiklopediyasida ham arab, fors va turkiy xalqlar agiografik adabiyotida tarqalgan maqto'v xarakteridagi biografik asarlar manoqib deb atalgan. [P. Bearmen, Th. Bianquis, C. Bosworth, 1960-2005: 354] Arabcha "manoqib" va forscha "noma" so'zlarining birlashishi natijasida manoqibnoma janrining istilohi yuzaga keladi. Manoqib nomi adabiyotimizda holot, tabaqot, valoyatnoma, nafahot nomlari bilan ko'p hollarda bir qatorda qo'llaniladi. Sharq manbashunosligi lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Manoqib- buyuk kishilar, adabiyot, san'at va ilm namoyandalari, din arboblari haqida yozilgan xotira asar, risola. Manoqiblar ko'proq ana shu kishilarning hayot yo'li bilan tanish yoki maslakdosh bo'lgan shaxslar tomonidan yozilgan". [Hakimov M, 2013:162]

Insoniyat tarixida diniy adabiyot hamisha muayyan dinning hududlarda yoyilishiga, uning haq yo'l ekanligiga ishon tirish va ommani ergashtirishga xizmat qiluvchi vosita bo'lgan. Shu bois jahon xalqlari adabiyotida agiografik asarlar ko'plab umumiy mushtarak xususiyatlarga egaki, bu narsa ulardagi maqsadning umumiyliigi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, rus agiografiyasidagi "jitiye svyatix" va manoqibnomalarning ham yaratilish maqsadi diniy rahnamolarning fazilatlarini ulug'lash, ularning din yo'lidagi fidoiyligi, ko'rsatgan mo'jizalari, yuksak axloq va teran aql sohibi ekanligini ta'riflash kabilarni o'zida mujassam etadi. Ularning spetsifik xususiyati shundaki, bunday asarlar tarixiy faktlarga asoslangan ishonchli dalil yaratishni ko'zlamaydi, aksincha, agiografning vazifasi bo'lib avliyo zotning haq yo'lidagi jasoratlari va bu tariqatning ilohiy mohiyatini yetkazib berish turadi. Ko'rib turganimizdek, umumiy maqsad va unga muvofiq asar yaratish ehtiyoji ularni birlashtiradi. Xususan, agiografiya istilohining ekvivalenti bo'lgan "jitiye svyatix" Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'atida manqaba deb tarjima qilingan.

Biz manoqibning din arboblari haqida risola ya'ni tasavvuf shayxlarining hayoti va tariqat yo'li yoritilgan asar degan ta'rifga to'xtalamiz. Mazkur ma'nosida manoqib termini "jitiye svyatix" istilohining Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'atidagi ta'rifi bilan bevosita o'xshashdir. Unga ko'ra, "Manqaba- qadimgi Rus adabiyotida cherkov tomonidan muqaddas hisoblangan biror kishi yoki avliyolar hayoti to'g'risida qissa" hisoblanadi. [Hotamov N, Sarimsoqov B, 1983:212] Manoqibnomalar insonni yetuk pir-valiylarga hurmat bilan qarash, ularning ma'naviy tafakkur darajasiga ergashishga o'rgatadi. Shuningdek, bunday agiografik asarlar shunchaki ishonchli biografik ma'lumotlarga boy bo'lib qolmay, Haq yo'lida metin iroda va jasorati bilan harakatlanayotgan, maqsadi irfon urug'larini sochish bo'lgan pirni tasvirlashni o'z ichiga oladi. Akademik V.A Gordlevskiyning ta'kidlashicha: "jitiye(manoqib) didaktik maqsadlar bilan birga eski davr madaniyatining ildizlarini va haqiqiy tarixiy faktlarning aksadosini o'zida mujassamlashtiradi. Bu uning madaniy yodgorlik sifatidagi ahamiyatini belgilab

beradi”.[Gordlevskiy V.A, 1934:157] Mashxur sharqshunos P.P.Ivanovning qarashlari ham V.A Gordlevskiy fikrlariga yaqin, unga ko‘ra: “jitiye, bir silsilani xronik tarzda tasvirlashdan tashqari, o‘sha davrning ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida bir qator qimmatli ma‘lumotlar beradi”.[Ivanov P, 1954:19] Ularni o‘rganish o‘sha davr musulmonlarining e‘tiqodi, ijtimoiy hayoti, ma‘naviy-falsafiy tafakkurining rivojlanishi bilan bir qatorda, tasavvufning axloqiy prinsiplari haqida bizga ilm ulashadi. Agiografik manbalar, jumladan, avliyo manoqibnomalarining bunday turli vazifalar bajarishini N. Chalisova quyidagicha baholaydi: “Manoqibnomalar (jitiye svyatix) din rahnamalarining biografiyasini o‘zida mujassam etishi bilan tarixiy, ahloqiy masalalarga to‘g‘ri yechim ko‘rsatishi bilan nazariy, mo‘minlar qalbiga chuqur ta‘sir o‘tkazishi va janr jihatdan nasrga mansub bo‘lgani bilan poetik asardir.” [N. Chalisova, 1989:140]

Aslida manoqibnomaning janr sifatida takomillashib borishida muhit va zamon ta‘siri, undagi o‘zgarishlar ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Eng avval, tariqat peshvolarining qarashlari va an‘analarini saqlab qolish zarurati bilan maydonga kelgan bu janr, vaqt o‘tishi bilan shayxning mo‘jizaviy ishlari haqidagi hikoyalar, she‘riy misralar kabi badiiy elementlar bilan to‘yinib borgan. Bu haqida “Musulmon dunyosida agiografiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga tarixiy nazar” mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan Dilavar Husayn shunday yozadi: “XI asrdan so‘ng, manoqibnomalarning asosiy predmeti nafaqat so‘fiyning zohiriy timsolini yaratishga, balki uning karomatlari bayoniga ham qaratildi. Bundan ko‘zlangan maqsad pining komillik sifatlarini ilohiy maqomga ko‘tarish orqali taqvodor o‘quvchini(auditoriyan) ergashtirish va ularga valiylikning eng yuksak ko‘rinishi karomatlar sohibi bo‘lganligi bilan belgilanishini yetkazib berish bo‘lgan”. [Dilavar H, 2018:6]

Fuat Ko‘prulu va Ahmed Yashar Ojak manoqiblarni paydo bo‘lish jarayoniga ko‘ra ikki turga ajratadi: tarixiy haqiqatga asoslangan va hayotot mahsul bo‘lgan manoqibnomalar. Birinchi tur manoqiblarda zamon va makon aniq, avliyo shaxs chindan ham tarixda o‘tgan, ammo karomatlar va xarakter bayonidagi mubolag‘alar biroz o‘zgarishga uchragan holda keladi. Xalq tasavvurida chuqur iz qoldirgan din peshvolari haqidagi bu rivoyatlar asrlar osha og‘izdan-og‘izga o‘tib borar ekan, doimiy ravishda bo‘rttiriladi va natijada o‘sha shaxsning asl siymosini anglash tobora qiyinlashadi. Keyingi tur manoqiblarda aynan shu bois real shaxs obrazi qolib, faqatgina diniy karomatlar bo‘rttirib tasvirlanadi, tarixiy haqiqatning mavjudligi majhul bo‘ladi. “Bunday manoqibnomalar ba‘zan axloqiy masalalarni yoritish, ba‘zan pining tariqat yo‘li ta‘sirini kuchaytirish va shogirdlar (muridlar) sonini ko‘paytirish maqsadida yozilgan bo‘ladi” [Köprülü, 1991:27]

Manoqibnomalar mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga biografik xarakterdagi manoqibnomalar kirib, asosan bir valiy hayoti, uning tariqat yo‘li haqida ayni o‘sha zamonda yashagan, uni ko‘rgan shaxslar tomonidan yozilgan bo‘ladi. Unda asosan, shayxning tug‘ilishi, tarbiya topishi va pirluk maqomiga erishishidan tortib vafotiga qadar bo‘lgan davr yoritiladi. Mazkur individual manoqibnomalarning maqsadi ikki xil: biri- muridlar o‘rtasida botiniy hamjihatlikni oshirish, ikkinchisi esa shayxning faoliyati va taqvosini boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatish.

Ikkinchi guruh manoqibnomalar esa rivoyatlarni turli manbalardan jamlash orqali yaratiladi. Ularning individual manoqiblardan asosiy farqi, avliyo yashagan davrdan ancha keyin yozilgani bilan belgilanadi. Shuningdek, bu tur manoqibnomalar bir shayxning emas, bir davrda yashab o‘sha davr muhitiga, islomiy tafakkuriga sezilarli hissa qo‘shgan zotlarning manqabalarini jamlagan manoqibnomalardir.

Turkiy xalqlar tasavvuf adabiyoti tarixini tadqiq etgan olim A. Yashar Ojak avliyo manoqibnomalarining asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi: [Yashar O, 2005:606]

1. Qahramonlar hayotda yashagan real va muqaddas insonlar bo'lishi;
2. Voqealarning sodir bo'lish makoni va zamoni aniq bo'lishi;
3. Ko'ngilxushlik maqsadida yoki biror-bir narsani ta'riflash uchun yozilmasligi;
4. Ular dogma kabi qabul qilinishi;
5. Qalamga olingan avliyo hayot paytida ham, vafotidan so'ngra ham yaratilishi mumkinligi;
6. Tuzilishiga ko'ra ular qisqa va sodda rivoya uslubiga ega bo'lishi zarur.

Yassaviy manqabalarini ham mazmuniga ko'ra ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1) bir shayxning hayotiga bag'ishlangan manoqibnomalar (bunga Husomiddin Sig'noqiyning "Manoqibi Ahmad Yassaviy" nomli eng qadimgi risola va "Valoyatnomai Hoji Bektosh Vali" asarlarini kiritamiz);

2) bir tariqat doirasidagi shayxlarning jamlanmasidan tashkil topgan manoqibnomalar (Hazrat Olim Sheyxning "Lamahot min nafahot ul-quds", Ahmad Haziniyning "Javohir ul-abror" asarlari)

Yassaviyning hayoti va tariqatiga doir manbalarni chuqur o'rgangan Nodirxon Hasan tadqiqotlarida maqolamiz obyektlari haqida ham mufassal ma'lumotlar bergan. Bizning tahlilimiz undan manoqiblarning agiografik sxemaga ko'ra, ya'ni syujet qurilishi va motivlar tahliliga, asosiy e'tibor ulardagi o'xshash va farqli jihatlarga qaratilgani bilan xarakterlanadi.

Dastlab manoqibnomalarning hajmi bir-biridan keskin farqlanishini ta'kidlash kerak. Jumladan, biz tahlilga tortgan manoqiblarlarning ichida eng kichik hajmdagisi Imom Husomiddin Huseyn Ali Sig'noqiyning "Manoqibi Ahmad Yassaviy" nomli 4 sahifadan iborat risolasidir. Yana bir manoqibnoma yassaviylik tariqatining vakili sanalgan, Anado'lu yerlarida ancha shuhrat qozonib bektoshiylik an'analarni boshlab bergan shayx haqidagi Ali Chelebiy tomonidan yozilgan "Valoyatnomai Hoji Bektosh Vali" jami 167 sahifadan tashkil topgan. Keyingisi Hazrat Olim Sheyxning "Lamahot min nafahot ul-quds" asari, uning hajmi ancha katta – 464 sahifadan iborat. Va nihoyat nodir qo'lyozmalardan biri hisoblangan Haziniyning "Javohirul abror" asari ham 164 sahifadan tashkil topgan risoladir.

Manoqibnomalarning hajmi katta yo kichik bo'lishi birinchi o'rinda, muallifning niyati, iqtidori va salohiyatiga bog'liq. Ya'ni valiy zotning hayoti, tutgan tariqat yo'li, qo'l bergan ustozlari va muridlari bilan munosabatlari haqida to'liq bayon etish hamma muallifda ham uchramaganligi sabab, manoqibnomalarning qurilishi, mundarijasi va janr xususiyatlarining turlicha ekanligini ko'rinadi. Shu o'rinda, Yashar Ojak sanagan xususiyatlar orasidagi qisqalik ko'p uchraydigan belgilardan ekanligini e'tirof etib, biz buni ko'proq muallif niyati bilan bog'liq hodisa deya tushunamiz. Boisi, "san'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog'i, bo'lg'usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi". [Quronov D, 2018:137]

G'arb agiografik adabiyotidagi strukturaviy unsurlar manoqibnomalarda ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Qo'yilgan maqsad va tasvir obyektidan kelib chiqib, manoqiblarga xos ayrim kanonlarning amal qilish doirasi milliy adabiyot hududidan chetga chiqa boshlaydi. Buni turli adabiyotlardagi agiografik asarlarning kompozitsion tuzilishi va matnidagi o'xshashliklarda ko'rish mumkin. Odatda bunday asarlarda muqaddimadan so'ng avliyo zotning hayoti tasviri quyidagi ketma-ketlikda bayon qilinadi:

- karomatli shaxsning dunyoga kelishi bashorati,
- ota-onasining nasabi,

- yosh chogʻidanoq hammadan ajralib turuvchi fazilatlarini,
- asos solgan tariqat yoʻli,
- hunar bilan mashgʻul boʻlgani,
- muridlari bilan munosabati, qarashlari;
- karomatlari,
- muridlari atrofida jon berish tasviri yoki tarki dunyo qilib uzlatga chekinishi.

Ammo bu ketma-ketlik tazkiraning janr sifatlarini singari qatʼiy emas. Tadqiqotchi Naila Kaidbeyning izlanishlariga koʻra, “biografiyaga kiritiladigan shaxslarni tanlash usuli ekskluzivlikdan inkluzivlikkacha oʻzgarib bordi. Har qanday biografik asarda undagi shaxslarning nasabiga oid maʼlumotlarni kiritish odat tusiga kirgan va bu holat bir tizim sifatida saqlanib qolgan. Ularning taʼlimi, ustozlari, asarlari va shogirdlari haqida keltirilgan fikrlar biografik yozuvlarning muhim tarkibiga aylandi. Matnning uzun yoki qisqaligi esa muallif yetkazmoqchi boʻlgan yoki jamlashga muvaffaq boʻlgan maʼlumot miqdoriga bogʻliq edi.” [Naila K, 2018:2] Manoqibnomalarda syujet qurilishi asosan quyidagi motivlar ketma-ketligiga asoslanadi: shayxning nasabi – pirlardan taʼlim olishi – fazilatlarini va karomatlari bayoni. Ammo, Ahmad Yassaviyga bagʻishlangan eng eski risola deb keltiriluvchi Sigʻnoqiyning asarida shayxning nasl-nasabi va tavalludiga toʻxtalib oʻtilmaydi. Boshqa tur agiografik asarlarda uchraydigan muqaddima qismi ham mavjud emas. Lekin Sigʻnoqiy bergan shayxning pirlardan taʼlim olishi haqidagi maʼlumotlar ichida uning piri Arslon Bob va Yusuf Hamadoniy kabi ustozlari zikr qilinmaydi, faqat zohiriy ilmlarni Imom Faxriddin Roziydan oʻrganganligi qayd etiladi. Manoqibnomada maʼlumotlar tartibsiz kelganligi (karomatlari haqida yozilayotgan vaqtda birdan yana yoshlik tasviriga oʻtib ketishi) va dabdurdan yakunlanganligi Sigʻnoqiyning ijodkorlik salohiyatini namoyon etishi shubhasiz. Shuningdek, Shayx Shahobiddin Suhravardiyning Yassaviy taʼlim olgan ustoz deb berilganligi ham, prof. Nejdett Tosunning taʼkidlashicha, muallifning obyektini yetarli darajada tadqiq etmaganini anglatadi. Manoqibnomada mubolagʻaviy tasvirlar koʻp uchraydi, lekin bunday badiiy tasvir usuli agiografik adabiyot uchun yot emas, ular shayxning siymosini ideallashtirish maqsadiga xizmat qilgan. Gʻarb agiografiyasidagi standart motivlar sirasida sanaluvchi “avliyoning paygʻambarlar bilan aloqasi” motivi asarda Yassaviyning Hizr alayhissalom bilan butun umr birga hamroh boʻlganining taʼkidlanishi bilan musulmon agiografiyasida ham namoyon boʻladi. Sigʻnoqiy Yassaviy hazratlarining karomatlari va fazilatlarini bayoniga asosiy urgʻuni qaratgan. Shayxning aql-u idrok sohibi va saxovatparvar rahnamo ekanligiga dalolat qiluvchi rivoyatlar keltiradi. Yassaviyning hayotida sodir boʻlgan moʻjizali voqealarni, muammolarga oqilona yechim topish hislatini, shuningdek, oʻz oʻgli Ismoilning vafoti tushida ayon boʻlgani haqida maʼlumot beradi.

“Valoyatnomai Hoji Bektosh Vali” asari boshqa valiyga bagʻishlangan boʻlsa ham, undagi Yassaviyga oid manoqiblar obyektimiz boʻla oladi. “Dar beyani evsafi Hacı Ahmad Yassavi kuddise sirruhu” (Hoja Ahmad Yassaviy k. s vasflari bayoni) bobida Yassaviyning fazilatlarini va karomatlari haqida maʼlumotlar keltiriladi. Rivoyatlar mazmuni boshqa manoqibnomalarda takrorlangani “Valoyatnomai Hoji Bektosh Vali”ning qadimiy manbalardan biri ekanligiga ishorat beradi. Sigʻnoqiyning asaridan farqli, bunda shayxning nasabi Muhammad Hanafiya bogʻlanishi keltiriladi. Yassaviy 99 ming xalfaga pirlik qilganligi uchun 99 ming Turkiston pirlarining piri deya taʼriflanib, Imam Ali ibn Musa ar-Rizadan ijoza olganligi aytiladi. Shuningdek, u zotning kamtarona va sodda hayot kechirgani, yogʻochdan kosa va qoshiq yasab kun oʻtkazganligi haqida

xabar beriladi. Asarda tug‘ilish motivi tushirib qoldirilgan bo‘lsa ham, Yassaviy hayoti “ilm tahsili-fazilatlarini-ko‘rsatgan karomatlarini” ketma-ketligida sodda tilda bayon etiladi.

Muhammad Olim Shayx Azizonning “Lamahot” asarida shayxning nasab silsilasi to‘laligicha bayon etiladi. Unga ko‘ra, Yassaviy tarbiyani Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) dan, tariqat tarbiyasini Hizr allayhissalomdan, irshod etishni Yusuf Hamadoniyan, tariqatni boshqarishni Shahobiddin Suhravardiydan olganligini yozadi. Boshqa manoqibnomalardan farqli jihati, muallif asarni yozishda agiografik kanonlariga boshqa mualliflarga nisbatan to‘laroq rioya qiladi. Ya’ni muqaddima, asarni yozishdan maqsadlar keltirilgandan so‘ng shayxning hayotiga oid tasvirlar beriladi. Yuqoridagi ikki manoqibnomada keltirilmagan Arslon-Bob ota bilan bog‘liq ta’limi “Lamahot”dan o‘rin oladi. Muridlari bilan munosabati, karomatlarini tafsiliga keng o‘rin berilgan bu asar Ahmad Yassaviyning obrazini atroflicha anglashimizga imkon beradi. “Lamahot” asari nafaqat Yassaviyning hayotiga doir, balki yassaviya tariqatining shayxlari haqidagi ma’lumotlarni aniq ko‘rinishda xronologik tartibda berilganligi, jahri zikr va uning odoblari, shariatdagi hukmi, tasavvufiy kalimalar bayon etilgani uchun ham qimmatlidir.

Haziniyning “Javohir ul-arbob” asari ham Ahmad Yassaviy hayotini o‘rganishda muhim manbalardan biridir. Garchi, undagi ma’lumotlar yassaviyya tariqatining asoslari, tariqatning odo va ustunlari, tasavvufiy hol va maqomlar bayoniga bag‘ishlangan bo‘lsa ham, Yassaviy manqabasiga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Asar nasrda yozilgan bo‘lsa ham, ayrim o‘rinlari she’riy misralar bilan boyitilgan. Muallif shayxning tug‘ilishi – nasabi – ta’lim olishi – fazilatlarini va karomatlarini bilan birgalikda Yassaviyning uzlatga kirishi haqida ham ma’lumot bergan. Bu uning boshqa manoqibnomalardan farqli tomoni bo‘lish bilan birga, eng ahamiyatli va ishonchli ekanligini bildiradi. Asli o‘zi ham yassaviya tariqatidan bo‘lgan Haziniy bu asarni Sulton Murodxon tavsiyasiga ko‘ra qalamga oladi. Shayxning tug‘ilishi motivi berilar ekan, joy nomi (Turkistonning Sayram shahri)ning ham o‘rin olishi, Yassaviy manoqibnomalaridagi chalkashlikka barham beradi. Shuningdek, g‘arb agiografiyasidagi eng asosiy motivlardan biri “dunyodan chekinish” (motiv uxoda ili begstva ot mira)ga to‘g‘ri keluvchi Yassaviyning “chilla” saqlashi haqida Haziniy “o‘ziga lahad shaklida yer qazdirib, u yerni o‘ziga makon etdi. U tor yerda Allohning zikri bilan mashg‘ul bo‘ldi” deb yozadi.

Ko‘rib chiqqan manoqibnomalarimizda bayon etilgan rivoyatlar va karomatlar haqiqatdan yiroq, tahayyul mahsuli kabi jonlansada, bularning bari shayxning obrazini yoritishga, uning qanchalik ilm-u irfon tarqatuvchi, zikr-u riyoziyat sohibi ekanligiga ishonitirish maqsadiga xizmat qilgan. Bu manoqiblarni o‘qirgan, ularning ham avvalo oddiy inson ekanligini, taqvoli va iymoni sabab valiylik ikrom etilganini anglab yetamiz. Manoqibnomalarni o‘rganish Yassaviy obrazi yoritilgan asarlarda tarixiy, manqabaviy hayotning qay tarzda talqin etilganini chuqur tadqiq etishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chalisova N, Put I dorogi pravednix v knige Attara “Pominaniye druzey bojix”, 2016: 195
2. Marcia K. Hermansen, “Interdisciplinary Approaches to Islamic Biographical Materials”, Religion (1988) Vol. 18, 164.
3. Origin and early development of hagiography in the islamic world: a historical overview. Dilawar Hussain. Journal of historical studies. Vol.IV, No.I (January-June 2018) PP. 01-18, 2
4. Shahin H, Menakibname, Diyanet Isleri Vakfi Islam Ansiklopedisi, 2004: 112
5. Islom Ensiklopediyasi (Encyclopaedia of Islam) by P. Bearmen, Th. Bianquis, C. Bosworth. (1960-2005 edited)354

6. Hakimov M, Sharq manbashunoslik lug'ati, 2013: 162
7. Hotamov N, Sarimsoqov B, Adabiyotshunoslik terminlarining Ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, 1983: 212
8. "Baxauddin Nakshband Buxarskiy" Sbornik statey. Gordlevskiy V.A 1934-yil
9. Ivanov P, Xozyaystvo Djuybarskix sheyxov, Izdatelstvo AN SSSR 1954:19
10. Chalisova N, "Zikr Malika Dinara" iz "Tazkirat ul-auliya" Farid ad-din Attara. 1989:140
11. Fuat Köprülü, Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar, Diyanet İşleri Başkanlığı Yay., Ankara 1991:27
12. Yashar Ocak, Turk edebiyati tarihi, 2005:606
13. Quronov D, Adabiyot nazariyasi asoslari, 2018: 137
14. Naila Kaidbey, Biographical dictionaries of Bilad al-Sham 16th-17th centuries, 2018:2

Ahmad Yassaviy hikmatlarida “Komil inson” g‘oyasi va uning ma’naviy ahamiyati

Shokirov Raxmatulla Shavkat o‘g‘li,

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

E-mail: rahmatulla.com@gmail.com

ORCID: [0009-0003-7936-3102](https://orcid.org/0009-0003-7936-3102)

Ernazarov Rahmon Rahim o‘g‘li,

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti tayanch doktoranti

E-mail: rahmonernazarov94@gmail.com

ORCID: [0000-0001-9714-4657](https://orcid.org/0000-0001-9714-4657)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan komil inson g‘oyasining mazmun-mohiyati, uning tasavvufiy, axloqiy va ma’naviy asoslari tahlil etiladi. Hikmatlarda ifodalangan sabr, riyozat, tavoze, taqvo, ixlos, tavba va fano kabi tushunchalar orqali shakllangan komil inson obrazi Yassaviy ta’limotining markaziy g‘oyasi sifatida yoritiladi. Maqolada komil inson konsepsiyasining islomiy-falsafiy ildizlari, tasavvuf maktablari bilan aloqasi hamda uning zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Yassaviy hikmatlarining ruhiy tarbiya vositasi sifatidagi pedagogik qiymati xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Ahmad Yassaviy, komil inson, hikmat, tasavvuf, ma’naviyat, axloq, riyozat, sabr, tavba.*

The Concept of the “Perfect Man” in Ahmad Yassawi’s Hikmats and Its Spiritual Significance

Abstract: This article analyzes the content and essence of the concept of the Perfect Man as presented in Ahmad Yassawi’s *Hikmats*, focusing on its Sufi, ethical, and spiritual foundations. The portrait of the Perfect Man, shaped through notions such as patience, asceticism, humility, piety, sincerity, repentance, and annihilation (*fanā*), is examined as the central idea of Yassawi’s teaching. The study also discusses the Islamic–philosophical roots of the Perfect Man concept, its connection with Sufi schools, and its significance in contemporary socio–spiritual life. In addition, the pedagogical value of Yassawi’s *Hikmats* as a means of spiritual education is considered.

Keywords: Ahmad Yassawi, Perfect Man, hikmat, Sufism, spirituality, ethics, asceticism, patience, repentance.

Ahmed Yesevî’nin Hikmetlerinde “Kâmil İnsan” Düşüncesi ve Onun Manevî Önemi

Özet: Bu makalede, Ahmed Yesevî’nin *Hikmetler*’inde ortaya konulan kâmil insan düşüncesinin içerik ve özü, onun tasavvufî, ahlâkî ve manevî temelleri incelenmektedir. Hikmetlerde ifade edilen sabır, riyazet, tevazu, takvâ, ihlâs, tevbe ve fenâ gibi kavramlar aracılığıyla şekillenen kâmil insan portresi, Yesevî öğretisinin merkezî düşüncesi olarak ele alınmaktadır. Makalede ayrıca kâmil insan kavramının İslam felsefesi kökenleri, tasavvuf ekolleriyle ilişkisi ve çağdaş toplumsal–manevî hayattaki önemi de değerlendirilmektedir. Bunun yanı sıra, Yesevî hikmetlerinin ruhî eğitim aracı olarak pedagojik değeri üzerine de görüşler sunulmaktadır.

Anahtar kelimeler: Ahmed Yesevî, kâmil insan, hikmet, tasavvuf, maneviyat, ahlâk, riyazet, sabır, tevbe.

Kirish. Inson kamolotga intilgan sari ruhiy-ma'naviy taraqqiyot masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Sharq falsafasi va tasavvufiy tafakkurda bu g'oya o'zining eng mukammal ifodasini komil inson timsolida topadi. Ayniqsa, XII asr mutasavvifi, turkiy dunyoning ruhiy peshvosi – Ahmad Yassaviy o'zining “Devoni hikmat” asarida bu g'oyani chuqur va har tomonlama ifoda etgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida aks etgan komil inson diniy qadriyatlar asosida shakllangan, shu bilan birga axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar tizimini ham o'zida mujassam etgan murakkab obrazdir. Uning fikricha, kamolga yetgan inson – bu nafsini yenggan, tavozeli, sabrli, pokiza, va eng muhimi, o'zining mavjudlik maqsadini anglab yetgan kishidir. Komil inson g'oyasi Yassaviyda faqatgina individual fazilatlar bilan emas, balki jamoat oldidagi mas'uliyat bilan ham bog'lanadi.

Bugungi globallashuv davrida, axloqiy inqiroz va ruhiy bo'shliqlar kuchaygan bir paytda, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan ruhiy poklik, sabr, shukr, tavba, riyozat, ixlos kabi tushunchalar bungi globallashayotgan dunyoda tobora dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa hikmatlar va u tayangan qadriyatlarning bugungi zamonda ham nechog'lik muhimligini hamda ularning zamonaviy inson tarbiyasidagi ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

Ahmad Yassaviy tasavvufida komil inson faqatgina ma'naviy barkamollikka erishgan shaxs emas, balki jamiyatning axloqiy asoslarini tiklovchi tirgak sifatida tasvirlanadi. Uning hikmatlarida insonning bu dunyodagi sinovli hayoti, sabr-matnat, tavba, riyozat, taqvo va haqiqatga sodiqlik orqali Haq bilan yaqinlashish yo'li sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, nafsni yengish va dunyoviy havaslardan voz kechish, hikmatlardagi yetuklik mezonining boshida turadi.

Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy “Hikmatlari”dagi komil inson g'oyasining shakllanish bosqichlarini yoritish, bu obrazning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish hamda uni hozirgi zamon kontekstida qayta baholashdan iborat. Bu orqali biz turkiy-islomiy tafakkurda komil inson timsoli qanday shakllangani va bu g'oyaning nega bugun ham ahamiyatli ekanini aniqlashga harakat qilamiz.

Yuqoridagi fikrlarni ochib berishda Ahmad Yassaviy “Hikmatlari”ni matnshunoslik va semantik jihatdan tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda Ahmad Yassaviy “Hikmatlari”ning turli davrlarda turli nusxalar orqali tarqalganligini inobatga olish lozim. Ushbu nusxalarning ayrimlari qo'lyozma, boshqalari esa matbaa nashrlari shaklida saqlanib qolgan. “Hikmatlar”ning matnshunoslik jihatdan o'rganilishida, birinchi navbatda, uning til xususiyatlari, poetik tuzilmasi, dialektal qatlamlar, shuningdek nusxalar orasidagi tafovutlarni aniqlashga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqsak, Yassaviy “Hikmatlari” eski turkiy til (xususan, Chig'atoycha va Qarluq-Uyg'ur unsurlari) asosida yaratilganligi, uning leksik-semantik tahlili til tarixini o'rganishda muhim manba sifatidagi ahamiyatini ham o'rta qo'yadi.

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, hikmatlar aruz vazni asosida tuzilgan bo'lib, ko'plab misralarda an'anaviy radif va qofiya tizimi kuzatiladi. Hikmatlar odatda 3 yoki 4 misradan iborat bo'lib, didaktik-targ'ibot xarakteriga ega. Ularda diniy-falsafiy tushunchalar bilan birga, ijtimoiy-hayotiy tasvirlar ham qo'llanilgan. Ayniqsa, sinfiy qatlamlar (faqir, darvish, zolim, nodon) obrazlari orqali g'oya bayoni kuchaytiriladi.

Semantik jihatdan, Yassaviy hikmatlarida “Komil inson” g'oyasiga aloqador kalit tushunchalar (sabr, riyozat, fano, tavba, nafs, haqiqat, ixlos) ko'p bora takrorlanadi va ma'naviy

yuksalish pogʻonalari sifatida yoritiladi. Masalan, quyidagi hikmatda nafsni yengish va Haqqa yetishish yoʻlida sabr va riyozatning oʻrni yaqqol koʻrinadi:

*“Nafsim meni yoʻldan urub xor ayladi,
Termultirib xaloyiqgʻa zor ayladi.
Zikr ayturmay, shayton birla yor ayladi,
Hozirsan deb, nafs boshini sonchtim mano”.* [2: 22]

Bu kabi misralarda “nafs”, “shayton”, “zor”, “zikr” kabi soʻzlar faqatgina leksik darajada emas, balki komil inson yoʻlidagi ruhiy kurash semantikasini anglatadi.

Hujjat ul-Islom Abu Homid Gʻazzoliyning “Ihyou ulumid-din” asarida nafsga batafsil sharh berilib, uning tasavvuf ahli qanday tushunishlari ham keltirilgan: “...nafs deganda insondagi gʻazab va shahvat quvvatini jamlovchi maʼno iroda qilinadi. Kelgusida buning batafsil sharhi keladi. Bu tasavvuf ahllariga gʻolib boʻlgan maʼno boʻlib, ular fikricha, nafs insondagi qoralangan sifatlarni jamlovchi asldir, yaʼni negizdir. Ular aytadilar: “Nafsqa qarshi kurashish va mudom uni sindirishdan boshqa chora yoʻq”. Paygʻambar alayhissalomning mana bu soʻzlari ham bunga ishoradir: “Ichingdagi nafsing dushmaningning eng yomonidir” (Bayhaqiy rivoyati, sanadida mavzuʼchilardan Muhammad ibn Abdurahmon bor) [9: 4]. Shuningdek, “faqr”, “sabr”, “tavba”, “ziyoda”, “ilm”, “sir” kabi soʻzlar orqali “Hikmatlar”da shakllangan tasavvufiy konseptlar bir butun ideologik tizimni hosil qiladi.

Yassaviy hikmatlarining semantik tahlili shuni koʻrsatadiki, bu asarlar orqali axloqiy komillik, ruhiy tozalik, Haq rizosini topish gʻoyalari koʻp qatlamli semantik struktura orqali bayon etiladi. Shu nuqtayi nazardan, “Hikmatlar” matnshunoslikka tayanilgan holda semantik tahlil qilinsa, ularning gʻoyaviy mohiyati ancha keng va chuqur namoyon boʻladi.

Shuningdek, Yassaviy hikmatlari tarkibida koʻplab majoziy ifodalar, simvolik tasvirlar, ismlarning ramziy yuklamalari mavjud boʻlib, bu ularni zamonaviy kognitiv-semantik tahlil doirasida ham oʻrganish imkonini beradi. Masalan, “yoʻl”, “daryo”, “olov”, “qush”, “nur” kabi obrazlar koʻpincha suluk yoʻli, maʼrifat dengizi, fano olovi, komil inson parvozi va ilohiyurning koʻrinmas timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu esa Yassaviy tafakkurida tasavvufiy-metaforik dunyoqarashning shakllanganidan dalolat beradi:

*Jondin kechmay, hu-hu degan bori yolgʻon,
Bu qiltoqdin soʻrmang savol, yoʻlda qolgʻon,
Haqni tobqan oʻzi pinhon, soʻzi pinhon,
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga* [2: 23].

Yoki

*Piri mugʻon jurʼasidin qatra tottim,
Yoʻl topay deb boshim birla tunlar qottim,
Bihamdilloh, lutf ayladi, nurga bottim,
Koʻngil qushi lomakongʻa yetti, doʻstlar* [2:61].

Shu bilan birga, hikmatlardagi ayrim soʻz va iboralarning qadimiy tasavvufiy va oʻsha davr tilidagi maʼnolarini aniqlash, ularning bugungi oʻzbek tilidagi shakllari bilan etimologik aloqasini tahlil qilish, semantik oʻzgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Masalan, “Hikmatlar”dagi “Fano”, “Maʼrifat”, “Shariat”, “Tariqat”, “Haqiqat” kabi atamalar bugungi kunda ham ishlatilsa-da, ularning Yassaviy kontekstidagi semantik yuklamasi koʻp hollarda hozirgi maʼnolaridan chuqurroq va tasavvufiy nyuanslarga boy boʻlgan.

Yana bir muhim jihat shuki, “Hikmatlar”da axloqiy-kategorial tizim juda aniq va izchil tarzda qurilgan. Yaxshilik – yomonlik, sabr – jaholat, ixlos – riyokorlik, komillik – manmanlik,

Haq yo‘li – nafs yo‘li kabi dual konseptlar orqali insoniyatning axloqiy mezonlari va ruhiy holatlari o‘rtasidagi chegaralar aniqlab beriladi. Har bir hikmat, aslida, komil insonlik sari tashlangan bir pog‘ona sifatida qaraladi:

*Ushbu yo‘lg‘a, ey birodar, pirsiz kirma,
Haq yodidin lahza g‘ofil bo‘lub yurma,
Mosuvoga oqil ersang, ko‘ngil berma,
Shayton la‘in o‘z yo‘lig‘a solur ermish [2: 116].*

Yoki

*Darvishmen deb toat qilur xalq ichinda,
Riyo qilib, yugrub yurar anda-munda,
Alloh uchun toat qilgan darvish qanda,
Chin darvishlar tog‘- u cho‘lni makon qilur [2: 98].*

Shu sababli, Ahmad Yassaviy hikmatlarining matnshunoslik va semantik tahlili nafaqat tasavvuf tarixi, balki turkiy til taraqqiyoti, diniy-falsafiy tafakkur evolyutsiyasi hamda tarixiy-diniy tilshunoslik uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan komil inson konsepsiyasini o‘rganishda boshqa tasavvufiy manbalar bilan qiyosiy yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Yassaviy hikmatlaridagi komil inson namunasi turkiy-islomiy tasavvuf tafakkurining chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Bu g‘oya o‘zining shakllanishida faqat Yassaviy ta‘limoti bilan cheklanmay, balki undan ilgari va keyin yashagan boshqa mutasavviflar bilan madaniyatlararo va tarixiy-falsafiy aloqada rivojlangan. Jumladan, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy va Bahovuddin Naqshband singari tasavvuf ahli asarlaridagi ruhiy komillik mezonlari Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan muayyan jihatdan o‘xshashlik va tafovut kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ideal inson timsoli – adolatli podshoh, dono vazir, xolis axloq sohibi obrazlarida ifodalanadi. Bu asarda komillik ko‘proq ijtimoiy-etik mezonlar asosida yoritiladi. Xususan, dono fikrlilik, sabr, taqvo va o‘zini jamiyatga bag‘ishlash g‘oyalari muhim o‘rin egallaydi:

*Ikkovi tufayli ulug‘dir inson,
Adolatga boshlar ular har qachon.
Bilim bilan kishi judo hayvondin,
Buyukroq nima bor, qani ayt ondin?! [14: 64].*

Yassaviyda esa komil inson tushunchasi ruhan poklanish, riyozat, tavba, fano kabi tasavvufiy jihatlar orqali yoritiladi. Demak, Yusuf Xos Hojibda komillik – ijtimoiy-huquqiy tartiblar bilan uyg‘unlikda, Yassaviyda esa ruhiy jihatdan Haq bilan bir bo‘lish mezoniga asoslanadi:

*Haqdin qo‘rqub mol-u pulni suymaganni,
Haqni aytib, bir dam yotib uymaganni,
Yotsa-qo‘bsa Haq zikrini qo‘ymaganni,
Ochtim botin ko‘zlarini, bino qildim [2: 152].*

Umuman olganda, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bilan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ida ifodalangan g‘oyalar bir-birini to‘ldiradi: biri davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda adolat hamda donishmandlikni targ‘ib etsa, ikkinchisi inson qalbini poklash va Haqqa yaqinlashishga da‘vat etadi. Shuningdek, bu ikki buyuk alloma o‘z davrida xalq ma‘naviy hayotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan va ularning merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan [12: 95].

Rumiy asarlarida, ayniqsa “Masnaviy Ma’naviy”da, komil inson Haq ishqida “yo‘q bo‘lgan” (fanoda) zot sifatida talqin qilinadi. Rumiy uchun ishq – kamolotga eltuvchi yo‘l, inson esa ichki ishqiy jang orqali Haqni kashf etuvchi mavjudot. U shunday deydi:

*Ey, davoyi naxvatu nomusimiz,
Ey, sen Aflotunu Jolinusimiz.
Xok jism ishqdin o‘lib aflokklar,
Ishqdin raqs aylabon cho‘ng tog‘lar [5: 49].*

Yoki

*Jumla ma‘shuqdir va oshiq pardadir,
Zinda ma‘shuqdir va oshiq murdadir.
Ishq agar qilmas esa parvo anga,
Beparu bol murg‘dur u, voy anga! [5: 54].*

Bu jihatdan Rumiy bilan Yassaviy o‘rtasida “fano”, “ishq”, “riyozat” tushunchalari orqali tafakkur uyg‘unligi mavjud. Ammo Rumiyda obrazlar ko‘proq metafora va afsonaviy voqealar orqali ifodalansa, Yassaviyda esa real, xalqona til va amaliy axloqiy targ‘ib asosida keltiriladi.

*Ishqsiz kishi odam ermas anglasangiz,
Bemuhabbat shayton qavmi tinglasangiz,
Ishqdin o‘zga so‘zni agar so‘zlasangiz,
Ilkingizdin imon islom ketti bo‘lg‘ay [3: 192].*

Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahovuddin Naqshbandning “dil ba yoru, dast ba kor” tamoyili Yassaviy hikmatlaridagi amaliy tasavvuf g‘oyasi bilan yaqinlik kasb etadi. Yassaviy singari Naqshband ham xalq orasida, lekin Haq bilan bo‘lishni targ‘ib etadi. Ya’ni “...zohirda odatdagi ishlarda xalqdan ayrilmay, u bilan hamnafas bo‘lish, botinda, ya’ni dilda hamisha Haq ta’olo bilan yashash kerak” [7: 6].

Yassaviy hikmatlarida esa bu holat quyidagicha ifodalanadi:

*G‘arib, faqir, yetimlarni qilgin shodmon,
Halqalar qilib aziz joning ayla qurbon,
Taom tobsang, joning birla qilgil mehmon,
Haqdin eshtib bu so‘zlarni aydim mano [2: 21].*

Bu tarzda ruhiy-pedagogik yondashuv har ikkala mutasavvifda komillikni faqat riyozat emas, balki xizmat va halollik orqali ham topish mumkinligini anglatadi.

Uch mutasavvif asarlaridagi komil inson g‘oyasi mantiqan izchil rivojlanib, Yassaviy tafakkurida ayniqsa xalq tilida, tushunarli va amaliy shaklda ifoda topgan. Yusuf Xos Hojibda bu g‘oya ijtimoiy me’yorlar bilan, Rumiyda ishq va majoziy tafakkur bilan, Naqshbandda esa sukut va xizmat bilan talqin etiladi. Yassaviy esa bu yondashuvlarni uyg‘unlashtirib, xalq tasavvufining ruhiy-ma’naviy tizimini yaratgan.

Komil inson haqidagi g‘oyalarning diniy, falsafiy va pedagogik talqinlaridagi o‘xshashlik va tafovutlar. Komil inson g‘oyasi Sharq va G‘arb tafakkurida uzoq tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan, murakkab va ko‘p qatlamli konseptual tushunchadir. U din, falsafa va ta’lim-tarbiyaviy yondashuvlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, bu talqinlar o‘rtasida muayyan umumiylik va asosiy tafovutlar mavjud. Ahmad Yassaviy hikmatlarida bu konsepsiya aynan islomiy-tasavvufiy va amaliy pedagogik qirralarda aks ettiriladi. Quyida komil inson g‘oyasining uch asosiy nuqtayi nazardagi yoritilishi tahlil qilinadi.

Islom diniy tafakkurida komil inson – bu taqvoli, Haqqa itoatli, nafsini yenggan, shariatni mukammal ado qiluvchi va ma’naviy jihatdan barkamol zotdir. Qur’oni Karimda inson “ashraf ul-

maxluqot” (eng ulug‘ mavjudot)¹ deb talqin etiladi, ammo bu maqomga faqat imon, amal, sabr, tavba va taqvo bilan erishiladi. Payg‘ambarlar (a.s.) hayoti va hadislar esa komil inson sifatlarining amaliy ko‘rsatmalaridir.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida bu diniy yondashuv tasavvufiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan. Masalan:

*Tavbasizlar bu dunyodin kechmas bilur,
Bir kun o‘lub, go‘r azobin ko‘rmas bilur,
Qiyomat kun tong arasot otmas bilur,
Hayhot-hayhot, navha, faryod kunlari bor* [8: 99].

Bu misralarda tavba, shariatga rioya va oxiratga tayyorgarlik komillikka yetaklovchi sifatlar sifatida ko‘rsatiladi. Komillik bu yerda ilohiy rizoni qozonish bilan bog‘liq.

Sharq falsafasida, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar uchun komil inson – bu aql va ruhiy poklikni uyg‘unlashtirgan, haqiqatni anglash yo‘lida yuruvchi shaxsdir. Forobiy “Al-Madina al-fadila (Fozil odamlar shahri)” asarida komil insonni aql, axloq va siyosiy tafakkur birligida tasvirlaydi [5: 45].

Yassaviyda bu g‘oya o‘z ifodasini fano, sabr, taqvo orqali ruhiy tozalanishda topadi. Rumiya o‘xshash tarzda, “o‘zini yo‘q qilish orqaligina Haqni topish” markaziy g‘oyadir. Biroq Yassaviy bu jarayonni xalq tili va real hayotiy misollar orqali ko‘rsatadi.

Pedagogik yondashuvda komil inson – bu jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan mukammal shakllangan shaxsdir. Bu yondashuvda insonning ijtimoiy faoliyati, ma‘naviy qadriyatlarga sodiqligi, boshqalarga foydali bo‘lishi muhim mezonlar hisoblanadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarbiyaviy komponent juda kuchli: faqirlarni avaylash, riyodan saqlanish, jamoatga foydali bo‘lish, ilmlilik, ixloslilik kabi jihatlar har bir hikmatda targ‘ib etiladi. Misol:

*Oqil ersang, g‘ariblarni ko‘nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim kovla,
Dunyoparast, nojinslardin bo‘yun tovla,
Bo‘yun tovlab, daryo bo‘lub toshtim mano* [2: 20].

Bundan tashqari ushbu mavzular yanada kengroq ochib berilgan hamda Ahmad Yassaviyga nisbat beriluvchi “Faqrnoma” risolasi ham mavjud bo‘lib, bu risola haqida asar yozgan mashhur adabiyotshunos olim Abdurahmon Go‘zal shunday deydi: “Ahmad Yassaviyning hikmatlari ham so‘fiylarga, ham dasht va sahroda istiqomat qiluvchi xaloyiqqa mo‘ljallangan bo‘lsa, “Faqrnoma” asosan tariqat ahli uchun bitilgan. Xususan, tariqatga yangi kirgan soliklarga ko‘rsatma va nasihat so‘zlari bilan u yaxshi foyda yetkazgan” [4: 22].

Yassaviyning yuqoridagi misralari pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, xalqparvarlik, empatiya, fidoyilik va amaliy axloq asosida kamol topgan inson talqinidir. Biz diniy, falsafiy va pedagogik talqinlarning o‘xshashlik va tafovutlarni quyidagi jadvalda ko‘rsatishga harakat qildik:

Talqin turi	O‘xshash jihatlar	Farqli jihatlar
Diniy	Taqvo, tavba, sabr, shariatga rioya	Maqsad – Haq rizosi, oxirat salohiyati
Falsafiy	Aql, ruh, ma‘naviy yuksalish	Maqsad – haqiqatni idrok etish, intellektual komillik

¹ “Va, albatta, Biz Odam bolalarini aziz qildik...” – Isro surasi, 70-oyat.

Pedagogik	Axloqiy tarbiya, jamiyatga foyda, jamoaviylik	Maqsad – ijtimoiy ong, shaxsiy taraqqiyot va liderlik
-----------	---	---

Ahmad Yassaviy hikmatlarida esa bu uch yondashuv uzviy birlashgan holda mujassam. Bu jihatdan uning hikmatlari nafaqat diniy nasihat, balki komil insonni tarbiyalovchi amaliy dastur sifatida ham xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson g‘oyasining markazida yotgan *asosiy sifatlar* – *ixlos, sabr, nafsni tiyish va ilohiy muhabbat* kabi tasavvufiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Bu sifatlar shunchaki axloqiy tavsiyalar emas, balki tasavvufda “sayr-u suluk” deb ataluvchi ruhiy kamolot yo‘lining muhim bosqichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Yassaviy tafakkurida bu fazilatlar insonni nafaqat Allohga yaqinlashtiradi, balki uni ichki poklikka, ma’naviy yetuklikka yetaklaydi.

Odatda tasavvufda ixlos – har bir amalda faqat Allohning rizosini ko‘zlash bo‘lsa, Yassaviy uchun ixlos – Alloh rizosini ko‘zlash bilan bir qatorda, komil insonning ichki haqiqatini belgilovchi mezon hamdir. U riyodan, ko‘zbo‘yamachilikdan nafratlanadi:

*Darvish bo‘lsang toat qilgil, qilma riyo,
Har go‘shada toat qilgil, tangrim guvoh,
Yolg‘on darvish qayda borsa, zarqu da‘vo,
Odil podshoh toatlarin isyon qilur* [2: 98].

Bu misra orqali muallif ixlos bilan qilinmagan har qanday amal foydasizligini, bunday insonning kamolga yetolmasligini ta’kidlaydi. Komil insonning harakati ichki poklik bilan uyg‘un bo‘lishi shart.

Sabr, Yassaviy ta’limotida, nafaqat musibatga chidash, balki ruhiy kamolot uchun zarur bo‘lgan iroda maktabidir. Sabr – bu sinovga sabr bilan javob qaytarish, Allohga shikoyatsiz itoat etish degani:

*So‘filik sharti durur tunlar qo‘bub qon yig‘lamoq,
Har jafoga sabr etubon belni mahkam bog‘lamoq* [2: 141].

Komil inson sabrli bo‘lishi bilan nafsni jilovlaydi, ruhiy balandlikka yetadi va jamiyatda bardavomlik timsoliga aylanadi.

Nafs bilan kurash – Yassaviy hikmatlarining markaziy g‘oyalaridan biri. Unga ko‘ra, nafs insonning eng katta ichki dushmanidir. Komillik sari yo‘l boshlashda uni jilovlash shart:

*Gunoh qilib, tavba qilmay, haddin oshtim,
Nafsim meni tug‘yon qildi, turfa shoshtim,
Bihamdilloh, piri mug‘on sori qochtim,
Qo‘lg‘a olib nafs badni ushlasam men* [2: 155].

Bu satrlar orqali Yassaviy komil inson bo‘lish – bu ichki urush, nafs bilan har kunlik mujohida ekanini eslatadi. Nafsi yengilgan odamgina poklanish sari qadam tashlaydi.

Tasavvufda “ishq” yoki ilohiy muhabbat Allohga yetishishning eng oliy bosqichi sanaladi. Yassaviy bu ishqni moddiy olamdan kechish, faqat Haq bilan bog‘lanish, “fano”ga yetish orqali ifodalaydi:

*Shariatda murod uldur, yo‘lga kirmak,
Tariqatda murod uldur, nafs din kechmak,
Haqiqatda aziz jonni fido qilmak,
Jondin kechmay ishq sharobin ichsa bo‘lmas* [2: 108].

Yassaviy fikriga ko'ra, shariatsiz tariqat va tariqatsiz haqiqat yo'q. Tariqatga qadam qo'ygan odam shariatga suyanmasa, "shayton kelib" imoniga chang soladi. Ammo tariqat yo'li og'ir va mashaqqatli, "Haqdan qochg'on nojinslar" bu yo'lda chidash berolmaydi [6: 79].

Ilohiy muhabbat komil insonni riyozatdan, sabrdan va ixlosdan o'tkazib, nihoyat, uni Alloh muhabbati bilan "fanofilloh" maqomiga olib chiqadi. Bu maqomda inson "o'zi"ni yo'q qiladi, faqat Haq bilan yashaydi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ixlos, sabr, nafsni tiyish va ilohiy muhabbat fazilatlarini – komil inson konsepsiyasining asosiy tayanch ustunlaridir. Bu sifatlar mustaqil holda emas, balki o'zaro bog'liq holda, ruhan yuksalish zanjiri sifatida tahlil qilinadi. Har bir fazilat – keyingi bosqichga tayyorlovchi ruhiy maktabdir. Ularni bosib o'tmagan inson komillikka da'vo qila olmaydi. Shu sababli, Yassaviy hikmatlaridagi bu fazilatlar inson tarbiyasining doimiy metodologiyasi sifatida ahamiyatlidir.

Xulosa. Ahmad Yassaviy ta'limoti – o'z zamonasi va undan keyingi asrlar uchun nafaqat diniy va tasavvufiy, balki umuminsoniy va ma'naviy yuksalish yo'lidagi mukammal bir konsepsiyadir. U ilgari surgan komil inson g'oyasi tasavvufiy tafakkurning chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Biroq Yassaviy bu g'oyani nazariy-abstrakt shaklda emas, balki xalq tili, real ijtimoiy hayot va ruhiy tajriba asosida bayon qilgan. Bu jihatdan uning qarashlari islomiy tasavvuf bilan umuminsoniy axloqiy-falsafiy qadriyatlar sintezi sifatida talqin etilishi mumkin.

Yassaviy hikmatlarida komil inson – bu o'zini emas, avvalo nafsini tanigan, sabr, ixlos, fano va muhabbat orqali ko'nglini tozalagan va shuningdek, jamiyat oldida axloqiy javobgarlikni his qiluvchi shaxsdir. Uning fikricha, inson – o'zining hayotini ma'naviy poklanish sari yo'naltirganidagina chinakam kamolotga erisha oladi. Bu g'oya hozirgi davrda kuchayib borayotgan ruhiy bo'shliq, shaxsiyatsizlik, tashqi ko'rinishlarga asoslangan madaniyat fonida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf haqida tadqiqotlar olib borgan ko'plab olimlar uning bugungi kun insonlar hayotidagi ahamiyatini ham ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, texnologiya va modernizatsiya shiddatli rivojlangan davrda ham insonning ichki dunyosi, ruhiy ehtiyoji va Haqqa intilishi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Tasavvuf insonni moddiy va ma'naviy dunyo o'rtasida muvozanatda ushlab turadi, zamonaviy hayotdagi ruhiy bo'shliq va stressni kamaytiradi. U tashqi shakllar va siyosiy oqimlardan mustaqil holda, islomning ichki mohiyatini saqlab keladi. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlardan biri Nasr Sayyid Husaynga ko'ra, tasavvuf faqat musulmonlar uchun emas, balki butun insoniyat uchun ruhiy ozuqa bo'la oladi. U insonni o'z "asl manbai"ga qaytarib, qalbini poklaydi va hayotiga chuqur ma'no baxsh etadi [11: 2025].

Yuqoridagi fikrlarni Ahmad Yassaviy merosiga nisbatan ham bimalol ta'kidlashimiz mumkin. Yassaviy merosining zamonaviylik bilan bog'liq muhim jihatlardan biri – uning hikmatlarida mujassam pedagogik va ijtimoiy-falsafiy potentsialdir. Hikmatlar nafaqat tasavvufiy ruhiy tarbiya vositasi, balki xalq ma'naviyatini, jamiyat axloqini va yosh avlod tarbiyasini mustahkamlovchi manba sifatida ham qadrlidir. Bu jihatdan Ahmad Yassaviy asarlari hozirgi davr ma'naviy-ma'rifiy siyosatining ham ideologik asoslaridan biri bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Ahmad Yassaviy hikmatlari komil inson timsoli orqali individ va jamiyat orasidagi ruhiy ko'priknı tiklovchi, diniy e'tiqod, ijtimoiy mas'uliyat va ichki poklikni uyg'unlashtiruvchi, yuksak insonparvar tafakkur namunasidir. Bu merosni o'rganish, tahlil qilish va amaliy hayotga tadbiq etish bugungi ma'naviy tahdidlar davrida zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan ham, bugungi kunda mamlakatimizda ma'rifatli jamiyat qurish, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarni tubdan isloh qilish jarayonida xalqimizning madaniyat tarixi va

tafakkur ildizlarini chuqur o'rganish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan. Ularning asarlarida xalqparvarlik, mehr va muruvvat, sabr-u qanoat, adolat, halollik va poklik, birovning omonati va mulkiga xiyonat qilmaslik kabi tushunchalar ham o'z ifodasini topgan. ...Adolatli va etuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin" [1: 421].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – 464 б.
2. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – 208 б.
3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 256 б.
4. Абдурахмон Гўзал. Яссавий "Факрнома"си. – Тошкент: Наврўз, 2014. – 264 б.
5. Жалолиддин Румий. Маънавий Маснавий: Куллиёт. Ж. 1. К. 1. (Таржима шарҳи билан; /Таржимон А. Маҳкам; Масъул муҳарир Т. Маҳмудов/). – Тошкент: Шарқ, 1999. – 368 б.
6. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. – 448 б.
7. Насафий (Е.Е. Березиков). Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд (Сўз боши ва таржима муаллифи М.Маҳмуд). – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси «Фан» нашриёти, 1993. – 48 б.
8. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 360 б.
9. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din (Qalb kitobi). – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
11. Seyyed Hossein Nasr. *Islamic Life and Thought*. – State University of New York Press, 1981. – 232 p.
12. Funda Toprak. İnsan-ı Kâmil'e Bakışlarıyla Yusuf Has Hacı Ve Hoca Ahmed Yesevî// Bilig, sy. 80 (Şubat 2017): – S. 95-122. <https://dergipark.org.tr/pub/bilig/issue/48707/619755>
13. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi, f.f.d., prof. B.To'xliyev). – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson tushunchasi: tasavvufiy tafakkur va ma'naviy yetuklik mezonlari

PhD, Ilyos Jo'rayev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,

Po'lat Mamatqulov

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xoja Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ida ifodalangan "komil inson" konsepsiyasi tasavvufiy tafakkur, axloqiy-me'yoriy talqin va zamonaviy ilmiy yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda komillik mezonlari – Haqni tanish va unga sodiqlik, nafsni tiyish, ilm – amal uyg'unligi, tavozu', halollik, saxovat, sabr-toqat hamda ijtimoiy xizmat kabi jihatlar alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Yassaviy ta'limotining zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya bilan uzviy bog'liqligi ochib berilib, uning bugungi globalashuv davrida ma'naviy immunitetni mustahkamlash, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda birdamlikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritiladi. Natijada, "Hikmatlar" nafaqat tarixiy-badiiy meros, balki shaxs va jamiyat taraqqiyoti uchun amaliy dastur sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, hikmatlar, komil inson, tasavvuf, ma'naviy yetuklik, ilm – amal uyg'unligi, halollik, saxovat, sabr-toqat, ijtimoiy xizmat, ma'naviy immunitet.*

Özet: Bu makalede Hoca Ahmet Yesevî'nin Hikmetler'inde ifade edilen "kâmil insan" kavramı tasavvufî düşünce, ahlâkî-normatif yorum ve modern bilimsel yaklaşımlar açısından incelenmektedir. Araştırmada kâmillik ölçütleri – Hakk'ı tanımak ve O'na sadakat, nefsi dizginlemek, ilim–amel bütünlüğü, tevazu, doğruluk, cömertlik, sabır ve toplumsal hizmet gibi unsurlar ayrı ayrı ele alınmıştır. Makalede Yesevî öğretisinin modern psikoloji, pedagoji ve sosyoloji ile yakın ilişkisi ortaya konularak, günümüz küreselleşme çağında manevi bağışıklığı güçlendirme, genç nesli kâmil birey olarak yetiştirme ve toplumda birlik–beraberliği pekiştirmedeki önemi vurgulanmaktadır. Sonuç olarak, Hikmetler yalnızca tarihî–edebî bir miras değil, birey ve toplum gelişimi için pratik bir yol haritası olarak değerlendirilmiştir.

Anahtar kelimeler: *Ahmet Yesevî, Hikmetler, kâmil insan, tasavvuf, manevi olgunluk, ilim–amel bütünlüğü, doğruluk, cömertlik, sabır, toplumsal hizmet, manevi bağışıklık.*

Kirish. Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyoti tarixida Xoja Ahmad Yassaviy ijodi alohida mavqega ega bo'lib, uning asarlari o'z davrida diniy-ma'naviy hayotning asosiy manbalaridan biri sifatida xizmat qilgan. XII asrda yashab ijod qilgan Yassaviy o'z "Hikmatlar"i orqali turkiy xalqlar adabiy tilini yuksaltirish bilan birga, tasavvuf ta'limotini xalq ongiga sodda, lekin chuqur ma'noli ifodalar bilan yetkazdi. Uning asarlari Qur'oni Karim va hadis ilmlariga tayangan holda, insonning ruhiy kamolot sari intilish jarayonini bosqichma-bosqich tasvirlaydi.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan "Hikmatlar" nafaqat diniy-axloqiy nasihatlar to'plami, balki xalqning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirgan badiiy-falsafiy merosdir. Bu hikmatlarda tasvirlangan komil inson timsoli Yassaviy uchun ruhiy yetuklikning eng yuqori bosqichi, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ideal shaxs namunasi.

Bugungi kunda ma'rifatli jamiyat qurish, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash va milliy o'zlikni mustahkam shakllantirish jarayonida o'z tarixiy-ma'naviy ildizlarimizga qaytish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ifodalangan komil inson konsepsiyasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar – psixologiya, pedagogika va sotsiologiya

nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega. Chunki Yassaviy hikmatlari bugungi globallashuv davrida ham inson qalbini poklash, ma'naviy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda beqiyos manba bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada "komil inson" tushunchasini kengaytirilgan tahlil asosida yoritib, Yassaviy hikmatlaridagi asosiy mezonlar, ularning zamonaviy talqini va bu qarashlarning hozirgi ijtimoiy muhitda qanday qo'llanishi mumkinligini ochib berishga harakat qilamiz.

Yassaviy hikmatlarida Komil inson talqini. Tasavvuf falsafasida "Komil inson" (*al-insān al-kāmil*) tushunchasi inson yaratilishining eng oliy maqsadini ifodalaydi. Bu – insonning o'zini anglash, nafsni poklash va Haq bilan doimiy ravishda bog'lanish darajasidir. Tasavvuf nazariyasida komil inson – Allohning sifatleri bilan ziynatlangan, o'z "men"ini yengib, Haqning irodasiga bo'ysungan shaxsdir.

Tasavufiy manbalarda komil insonga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bilgilkim, komil inson deb shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatni to'liq egallagan odamni aytadilar. Agar bu iborani tushunmasang, boshqacha so'z bilan aytay: bilgilki, komil inson shunday insonki, unda to'rt sifat kamolga etgan bo'lsin: ezgu so'z, ezgu amal (fe'l), ezgu axloq va maorif"¹.

Endi Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson timsolini qanday tasvirlaganini ko'rib chiqsak. Yassaviy asarlarida komil inson timsoli faqatgina dinini bilgan kishi emas, balki bu ilmni amal bilan uyg'unlashtirgan, axloqan pok, xalq ichida xizmat qiluvchi, Haqqa sodiq inson sifatida namoyon bo'ladi.

Yassaviyga ko'ra, tariqat shariatsiz bo'lmaydi. Bu haqda yirik tasavvufshunos olim N. Komilovning "Tasavvuf" asarida quyidagi jumlar bor: "Turkistonning shayx ul-mashoyixi Ahmad Yassaviy (XII asr) ham tariqat va shariatning o'zaro vobastaligini sodda turkona tilda ravshan bayon qilib bergan. Mana, u zoti sharif nima deydi:

*Har kim qilsa tariqatni da'vosini,
Avval qadam shariatga qo'ymoq kerak.
Shariatning ishlarini ado qilib,
Andin so'ngra bu da'voni qilmoq kerak"*².

Yassaviy hikmatlarida komil insonning asosiy sifatleri quyidagicha talqin qilinadi:

1. Haqni tanish va unga sodiqlik. Komil insonning birinchi va eng asosiy belgisi – Haqni tanib, unga sodiq qolishdir. Tasavvufda bu nafaqat Allohning mavjudligini tan olish, balki Unga chin yurakdan bog'lanish, barcha ishlarida Uning roziligini ko'zlashni anglatadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida bu masala markaziy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, Haqni tanigan inson dunyoviy manfaatlar qarshisida ham e'tiqodidan voz kechmaydi, hayotidagi barcha qaror va amallarni Haqning irodasiga moslashtiradi:

*Qul Xoja Ahmad, Haq yodini oyg'il mudom,
Haqdin qo'rqub, tinmay yig'la alad-davom.
Namoz o'qub, ro'za tutub har subh-u shom,
Mundog' qilib muroding'a yettim mano*³.

Shoir bu misralar orqali haqiqiy kamolot – mol-u dunyo, hatto jonni ham Haq yo'lida fido qilishga tayyorlik ekanini ta'kidlaydi.

¹ Азизиддин Насафий. Комил инсон [Матн]: диний-маърифий. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 7 б.

² Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. – 448 б.

³ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 38.

2. Nafsni tiyish va o'zini tarbiya qilish. Tasavvufda nafsni tiyish – komillikka erishishning eng muhim sharti. Nafs insonning ichki dushmani sifatida tasvirlanadi, u hirs, manmanlik va hasad kabi illatlar bilan qalbni bulg'aydi. Yassaviy hikmatlarida nafsni yengish – qalbni Haq nuriga ochish yo'li sifatida talqin qilinadi:

*Nafsim meni yo'ldan urub xor ayladi,
Termultirib xaloyiqg'a zor ayladi.
Zikr ayturmay, shayton birla yor ayladi,
Hozirsan deb, nafs boshini sonchtim mano¹.*

Yassaviy bu bilan muridga o'z ustida doimiy ishlashni, ruhiy tarbiya orqali insoniy fazilatlarni mustahkamlashni o'rgatadi.

3. Xalq orasida bo'lib, Haq bilan yashash. Yassaviy ta'limotida komil inson nafaqat ibodat bilan shug'ullanadi, balki xalq orasida faol bo'ladi. Bu Naqshbandiylarning “dil ba yoru, dast ba kor” tamoyiliga uyg'un: qalb Haqda, qo'l esa xalq xizmatida:

*Qayda borsam, yodin aytib yig'lasam men,
Xizmatida belim mahkam bog'lasam men,
Hasratida yurak bag'rim dog'lasam men,
Do'stlar, Xojam meni bandam degaymukin?²*

4. Tavo'zu' va xokisorlik. Manmanlik komillikka to'sqinlik qiladi. Yassaviy hikmatlarida xokisorlik insonning qalb pokligining belgisi sifatida ta'riflanadi.

*Bedorlarga Haq rahmati bo'lur yovuq,
Bedorlarni ko'ngli sinuq, ko'zi yoshliq,
Manmanlikni jazosini berg'ay tamuq³,
Takabburki do'zax ichra holi dushvor⁴.*

U bu yerda insonning o'zini boshqalardan ustun qo'ymasligi, kibrlanmasligi, har qanday yutuqni ham Haqning in'omidek bilishini targ'ib qiladi.

5. Ilm va amal birligi. Yassaviyga ko'ra, ilm faqat amal bilan uyg'unlashgandagina foyda beradi. Bilimga ega bo'lib, uni hayotga tatbiq etmagan kishi haqiqiy kamolotga erisha olmaydi.

*Essiz olim, amal qilmay yo'lda qolur,
O'qub uqmay dunyo molin qo'lga olur,
Manmanlikdin esiz umrin zoe qilur,
Jon-u dilda Hay zikrini ayting, do'stlar⁵.*

Bu fikr bilan u ilmni hayotiy mas'uliyat sifatida ko'radi.

6. Sabr va chidamlilik. Tasavvuf yo'li ko'p sinov va mashaqqatlardan iborat. Komil inson uchun sabr – bu faqatgina chidash emas, balki sinovlarni Allohdan kelgan bir hikmat sifatida qabul qilishdir. Yassaviy nazarida, sabr qilgan murid o'z nafsini jilovlay oladi, ichki g'azabini yengadi va maqsad sari qat'iy yuradi. U sabrni nafaqat shaxsiy fazilat, balki ma'naviy qurol sifatida tasvirlaydi:

*So'filik sharti durur tunlar qo'bub qon yig'lamoq,
Har jafoga sabr etubon belni mahkam bog'lamoq⁶.*

¹ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 22.

² Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 160.

³ Тамуқ – do'zax, jahannam.

⁴ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 57.

⁵ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 68.

⁶ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 141.

Bu misralarda Yassaviy sabrning natijasi sifatida “murshidlik” – ya’ni boshqalarga yo‘l ko‘rsatish darajasiga erishishni ko‘rsatadi. Shoirning maqsadi, muridlarni vaqtinchalik mashaqqatlar sabab Haq yo‘lidan qaytmaslikka undashdir.

7. Saxovat va yordam. Yassaviy uchun komil inson – saxovatli, boshqalarning dardiga befarq bo‘lmaydigan, yordam qo‘lini cho‘zishga tayyor shaxsdir. Saxovat qalbdagi muhabbatning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, Haqqa muhabbat boshqalarga g‘amxo‘rlikda namoyon bo‘ladi. U saxovatni faqat moddiy yordam emas, balki yaxshi so‘z, samimiy maslahat va duolar shaklida ham ko‘radi:

*Xayr-u saxo qilg‘anlar, yetim ko‘nglin olg‘anlar,
Chahoryorlar hamrohi, Kavsar labinda ko‘rdum¹.*

Bu misralar orqali Yassaviy shuni ta’kidlaydiki, eng kichik saxovat ham Alloh huzurida ulkan mukofotga ega. U muridlarni saxovatni hayotning doimiy qismi sifatida qabul qilishga chaqiradi, chunki bu sifat insonni jamiyatda sevimli qiladi va ruhiy kamolotga eltadi.

8. Zikr va ibodatga sodiqlik. Yassaviy hikmatlarida zikr qilish – qalbni poklash, ichki tinchlikni topish va Haq bilan bog‘lanishning eng muhim vositasidir. U zikrni til bilan aytish bilan chegaralamaydi, balki qalbning doimiy ravishda Haqni eslab turishini asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Komil inson uchun ibodat – rasmiy amal emas, balki hayot tarzi bo‘lishi kerak:

*Qul Xoja Ahmad, qulluq ichra sobit bo‘lsam,
Zikr aytib, zokir bo‘lub, Rabbi, desam,
Zikrinda shavqlanib, kuyub-yonsam,
Bu ish birla, yo Rab, seni topqaymu men?²*

Yassaviy zikrni ichki holatga aylantirish lozimligini ta’kidlab, ibodat inson ruhini yuksaltirishini hamda uni Haqqa yaqinlashtirishi uqtiradi. Ayni damda, faqat shaklga berilib qolish komillikdan uzoqlashtiradi.

9. Halollik va to‘g‘rilik. Halollik Yassaviy tasavvurida komil insonning eng asosiy ijtimoiy va ma’naviy poydevoridir. U halol mehnat bilan topilgan luqma insonning qalbini tinch va pok tutishini, harom esa qalbni qoraytirishini ta’kidlaydi. To‘g‘rilik esa insonning so‘zida va amalida bir xil bo‘lishidir:

*Umring oxir bulg‘usidur bir kun tamom,
Bu ish birlan borsang agar Dorussalom,
Halol qo‘yub, yegan bo‘lsang doim harom,
Azobini borib anda tortmoq kerak³.*

Yassaviy o‘z hikmatlari orqali kishilarga haromni hisobi og‘ir bo‘lishini eslatish bilan birga, jamiyatda ishonch va hurmatni saqlash vositasi sifatida ham halollikka chaqiradi. Uning maqsadi – komil insonni ijtimoiy munosabatlarda ham adolatli va ishonchli qilib tarbiyalashdir.

Komil inson mezonlari va zamonaviy ilmiy yondashuvlar. Psixologiya nuqtayi nazaridan, Yassaviy tasvirlagan komil inson shaxsiy o‘zini anglash (self-actualization) jarayonini yakunlagan, empatiyasi kuchli, stressga bardoshli va ichki motivatsiyaga ega shaxsdir. Maslow piramidasidagi eng yuqori bosqich – “self-actualization” – tasavvufiy kamolot bilan uyg‘unlashadi.

¹ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б.149.

² Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 156.

³ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 136.

Pedagogikada komil inson – nafaqat bilimli, balki ma’naviy-axloqiy yetuk shaxsdir. Yassaviy hikmatlarida bu – ilmni amal bilan uyg’unlashtirish, “ilm amal bilan ziynatlanmasa, foydasiz” degan g’oya orqali ifodalanadi.

Sotsiologiya yondashuvida esa, komil inson – jamiyatning ijobiy ijtimoiy kapitalini oshiruvchi, axloqiy me’yorlarni mustahkamlovchi shaxsdir. Yassaviyning “xalq orasida, lekin Haq bilan” tamoyili bugungi ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim mezon bo’lib qolmoqda.

Yassaviy hikmatlarining zamonaviy ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati. Bugungi globallashuv va ma’naviy inqiroz davrida Yassaviy hikmatlari yosh avlod tarbiyasida mustahkam axloqiy tayanch bo’la oladi. Ular:

- ma’naviy immunitetni kuchaytiradi;
- yoshlarni halollik, saxovat, sabr-toqatga o’rgatadi;
- jamiyatda o’zaro hurmat va birdamlikni mustahkamlaydi;
- ruhiy bo’shliqni to’ldirib, insonni “asl manbayi”ga qaytaradi.

Zamonaviy ijtimoiy muhit va shaxsiy taraqqiyot bilan bog’liqligi. Axborot oqimining keskin kuchayishi, texnologik taraqqiyot va individualizm kuchaygan davrda Yassaviy hikmatlaridagi komil inson timsoli – insonning ichki barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatini uyg’unlashtirishga xizmat qiladi. Bu hikmatlar zamonaviy “shaxsiy rivojlanish” konsepsiyasida ham o’z ifodasini topadi: o’zini rivojlantirish jarayoni nafaqat moddiy, balki ma’naviy yuksalishni ham o’z ichiga oladi.

Xulosa. Ko’plab soha mutaxasislarning fikriga ko’ra, Ahmad Yassaviy hikmatlari asosida barcha insoniy fazilatlarni shakllantirish, ma’rifatni targ’ib etish va ziyoli insonlarni ulug’lash, asosiysi, komil insonni tarbiyalash g’oyasi ilgari surilganiga guvoh bo’lamiz¹.

Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”i komil inson masalasini diniy-amaliy tajriba, axloqiy me’yor va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtirgan yaxlit konsepsiya sifatida taqdim etadi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Yassaviyda komillik – faqat nazariy fazilatlar majmui emas, balki “qalb – aql – amal”ning uyg’un tizimi bo’lib, shaxsni ichdan poklaydi, jamiyatda esa ishonch va birdamlikni kuchaytiradi.

Birinchidan, Yassaviy komil insonning tayanch yo’nalishlarini uch o’q bo’yicha jamlaydi:

1. E’tiqodiy–ruhiy poydevor: Haqni tanish, zikr va ibodatga sodiqlik, nafsni jilovlash, sabr va tavozu’. Bu yo’nalish shaxsning ichki dunyosini tartibga soladi, barqaror ruhiy holatni ta’minlaydi.

2. Axloqiy–amaliy fazilatlar: ilm–amal birligi, halollik, saxovat, to’g’rilik. Bu fazilatlar e’tiqodni hayotga ko’chiradi, shaxsga mas’uliyat va izchillik baxsh etadi.

3. Ijtimoiy xizmat: “xalq orasida, Haq bilan” tamoyili – komillikning jamiyatdagi real ko’rinishi bo’lib, hamjihatlik, g’amxo’rlik va adolatni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy fanlar bilan solishtirganda, Yassaviy talqini bugungi nazariyalar bilan bevosita tutashadi:

1. Psixologiyada komillik – o’zini anglash, ichki motivatsiya, irodaviy barqarorlik va empatiya bilan bog’liq. Yassaviyning nafsni boshqarish va sabrga doir mezonlari aynan shu jihatlarni mustahkamlaydi.

2. Pedagogikada komil inson – bilim bilan birga qadriyatlarni ham hayotga tatbiq etuvchi shaxs. “Ilm–amal birligi” tamoyili kompetensiyaviy yondashuvning ma’naviy asosidir.

¹ Ma’mura Xangilova. Ahmad Yassaviyning pedagogik g’oyalari // Scientific progress, volume 2 | issue 8 | 2021. – 336 b.

3. Sotsiologiyada bu konsepsiya ijtimoiy kapital va ishonchni oshiradi: saxovat, halollik va xizmatga tayyorlik jamiyatning “yopishtiruvchi moddasi”ga aylanadi.

Uchinchidan, Yassaviy mezonlarini amaliyotga tatbiq etish yo‘llari aniq va o‘lchanadigan shaklda belgilanishi mumkin:

1. Ta’lim: “Hikmat”lar asosida munozara va refleksiya darslari; “muhasaba daftari” (o‘zini tahlil qilish jurnali); xizmat o‘quvi (service-learning) loyihalari bilan ilm–amalni bog‘lash.

2. Yoshlar siyosati va tarbiya: volontyorlik soatlari, halol mehnat va raqamli odob (tarmoqda halollik, vaqtni boshqarish) bo‘yicha ustaxonalar.

3. Mahalla va fuqarolik tashabbuslari: saxovat karvonlari, qo‘shnichilik yordami, adolat va ishonchni kuchaytiruvchi mahalliy tashabbuslar.

4. Liderlik etikasi: boshqaruvda tavozi, shaffoflik va javobgarlikni “komillik mezonlari” bilan uyg‘unlashtirish.

To‘rtinchidan, samarani kuzatish uchun indikatorlar taklif etiladi:

- Ilm–amal: yakuniy loyihalar, ijtimoiy foydali ishlar ulushi.
- Halollik: akademik halollik ko‘rsatkichlari, ishonch so‘rovlari.
- Sabr va o‘zini boshqarish: vazifalarni kechiktirmaslik, mashaqqatli jarayonlarni yakunlash ko‘rsatkichi.
- Saxovat va birdamlik: volontyorlik ishtiroki, hamjamiyat tadbirlarida qatnashish.
- Ruhiy barqarorlik: stressni boshqarish ko‘nikmalari, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish holatlari.

Beshinchidan, talqinda muvozanat zarur: Yassaviy merosini ideallashtirish yoki formalizmga aylantirish xavfini chetga surish lozim. Komillik – majburlash emas, ichki ixtiyor bilan tanlanadigan taraqqiyot yo‘lidir. Plural jamiyatda mazkur qadriyatlar umuminsonga xos mezonlar bilan muvozanatli tarzda olib borilishi kerak.

Oltinchidan, tadqiqot istiqbollari:

- Yassaviy hikmatlarining mavzuiy xaritasi va zamonaviy psixologik konstruktlar (o‘zini regulatsiya, ma’no topish, farovonlik) bilan qiyosiy tahlil;
- “Hikmat”lar asosida tarbiyaviy dasturlarni pilot sinovdan o‘tkazish va natijalarni empirik o‘lchash;
- Yassaviy, Kubraviylik va boshqa tasavvufiy maktablarda komillik konsepsiyalarini qiyoslash.

Yakunda, Ahmad Yassaviy “Komil inson” konsepsiyasi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan: u shaxsning ichki poklanishi, ilm–amal uyg‘unligi va jamiyatga xizmatni bir nuqtada bog‘laydi. Globallashtirish sharoitida ma’naviy immunitet, ijtimoiy birdamlik va halollikni mustahkamlash uchun Yassaviy mezonlari kuchli metodologik asos beradi. Demak, “Hikmatlar” – tarixiy yodgorlik emas, yo‘l xaritasi: qalbni tarbiyalash, aqlni uyg‘otish va qo‘lni foydali amalda band etishning sinovdan o‘tgan modeli. Shu modelga tayangan holda, ma’rifatli jamiyat va barkamol shaxsni tarbiyalash yo‘lidagi ishlarimiz yanada mazmunli va barqaror natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон [Матн]: диний-маърифий. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 232 б.
2. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – 208 б.

3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 256 б.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2009. – 448 б.
5. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Наврӯз, 2018. – 360 б.
6. Hoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
7. Ma'mura Xangilova. Ahmad Yassaviyning pedagogik g'oyalari //Scientific progress, volume 2 | issue 8 | 2021. – 336 b.

Аннотация. Ушбу мақолада Аҳмад Яссавий, Нажмиддин Кубро, Паҳлавон Маҳмуд каби тариқат вакилларининг ижодларидаги фикр, ғоя ва тасаввуфий қарашлардаги муштарак жиҳатлар ҳақида баҳс юритилди.

Калит сўзлар: *Тасаввуф тариқатлари, адабий муштараклик, ташбеҳ, тавба, сабр, мақом, сукут, хомушлик, тасаввуф тили*

Abstract. This article discusses the common features in the thoughts, ideas, and Sufi views found in the works of representatives of Sufi orders such as Ahmad Yassawi, Najmuddin Kubra, and Pahlavon Mahmud.

Key words: *Sufism sects, literary commonality, allusion, repentance, patience, status, silence, silence, language of Sufism*

Аҳмад Яссавий ижодида рамзу тимсол, ташбеҳу мажоз ўзига хос. Ундаги сўфиёна рамзу ишоратларни тўғри талқин ва таҳлил этмоқ учун тасаввуфга оид маърифий-назарий асарлардан хабардор бўлиш керак. Айниқса, яссавийлик тариқати вакилларининг нафақат ирфоний-бадий асарлари, балки сўфиёна лириканинг асл ҳақиқатларини англаш учун ҳам тариқат асосчиси Аҳмад Яссавийнинг ижодий меросидан теран хабардор бўлиш жоиз. Зеро, унинг маслак ва ғоялари, бадииятидаги ўзига хос образлар оламининг салафларига таъсири шак-шубҳасиз. Шайх ҳазратлари кўпгина ҳол ва мақомларни тариқат ҳаётида ўз бошидан кечирган кечинмаларни ҳамда ўз тажрибалари ҳақида бир-биридан бетакрор ҳикматлар ёзиб қолдирди. Яссавийлик тариқатининг усулу аркони, ўзига хос томонлари ушбу асарларда батафсил ва жонли тарзда ифодаланган. Унинг издошлари руҳоний ҳаёт тажрибасидангина эмас, балки ижодий маҳоратидан ҳам баҳраманд бўлишган ва унумли фойдаланишган. Шу жиҳатдан унга том маънода маънавий фарзанд бўлишган. Аҳмад Яссавий асарлари билан таниш бўлмасдан, уларнинг мазмун-моҳиятини тушунмасдан яссавийлик тариқати вакиллари шахсияти ва ижодидаги асл мақсадни тафаккур ва тасаввур қилиш душвор. Яссавийлик тариқати наинки ўз салафларига, балки бошқа йирик тариқат вакиллари ижодига ҳам жиддий таъсир ўтказган.

Кубравийлик, бектошийлик, жавонмардлик, нақшбандийлик каби тариқат вакиллари ижодида ҳам яссавийлик анъаналари ўз аксини топган. Тариқатлар орасига чегара белгилаб бўлмайди. Чунки тариқатларнинг бирида назарий жиҳатдан изоҳланган бирор қарашнинг бошқа бирида шеърий ифодасини учратиш мумкин. Ёхуд шеърий ҳикматлардаги рамзий-мажозий ифодалар баъзи ирфоний асарларда назарий жиҳатдан изоҳланган. Масалан, Шайх Нажмиддин Кубро “Усул ал-ашара” рисоласида “Шайх ғассолга ўхшайди. Шу боис муриднинг шайхи ҳузуридаги ҳолати ғассол олдида турган ва исталган томонга айлантириладиган жонсиз вужудга менгзайди. Ушбу эътироф муриднинг эътирозни тарк этмоғини англатади. Таслимияти том бўлмагунча шайх ва устоздан баҳраманд бўлиш мумкин эмас. Файз олиш учун қалб робитаси ва алоқаси асосдир. Акс ҳолда ички дунёси туманли, хизмати нуқсонли, ҳаракатлари ноқис кимса ҳеч вақт кўзланган мақомга кўтарила олмайди. Валилик суви ила мурид вужудидаги кирларни ва унга кейинроқ илашадиган чиркинликларни поклайди” [Нажмиддин Кубро, 2004:261],– дейди. Шайх ва муриди

орасидаги муносабатни тўлақонли англатувчи ушбу рамзий ифодалар Аҳмад Яссавий ҳикматларида қуйидагича ўз аксини топган эди:

Мурид – мурда, пир – ғассол, ўқиб юрур ҳасби ҳол,

Кўрай дебон ул жамол, жавлон қилур доимо. [Аҳмад Яссавий, 2011: 95]

Айни бир ташбеҳ, яъни пирнинг ғассолга ўхшатилишининг ҳар иккала тариқат вакилида бир хилда келиши бадиий ижод издошлигида ҳам рамзий образлар ва қарашлар муштараклигидан далолатдир.

Нажмиддин Кубронинг худди шундай тасаввуф қўлланмаларида тариқатдаги муҳим вазифалардан бири сифатида оз сўзлаш, сукут алоҳида бобларда изоҳланади. Унинг муриднинг руҳий тарбиясидаги роли ирфоний асарларда махсус таъкидланади. Аҳмад Яссавийнинг “Факрнома” асарида факрнинг олти одоби саналар экан, сукут ҳақида шундай айтилади: “Эй дарвеш, факрнинг олти одоби бор: аввал яхши ва ёмон сўзга сукут қилмоқ ва пир олдида хомуш бўлмоқ ва беижозати пир сўзламамоқ, киши бирла аччиғ бўлмамоқ ва хосу омнинг хизматини қилмоқ...”

Ёки ҳикматларидан бирида ўқиймиз:

Пиринг ғассол, мурид мурда, сўзлаёлмас,

Кўнгул бергон пирдин ўзга кўзлаёлмас.

Ҳақни топқон ҳақдин ўзга излаёлмас,

Эшитиб, уқуб, хизмат қилинг, дўстларимо. [Аҳмад Яссавий, 2011: 97]

Аҳмад Яссавий бу ўринда муридни мурдага қиёс беришига сабаб у доимо пир олдида сукут сақламоғи, яъни хомуш турмоғи лозим. Бу сукут ҳолидир. Адибнинг сукут ҳоли ва одоби ҳақидаги ушбу кўрсатмалари Нажмиддин Кубронинг “Одоб ус-суфия” асарида ҳам сукутнинг 11 фойдаси саналган “Хомуший” (“Сукут ҳоли”) номли махсус бобда изоҳланади. Унда сукут ҳолининг ўн биринчи фойдасини шундай шарҳлайди: “Инсон дунё каломини сўзлашдан узоқлашса, унинг тили ва кўнглига доимо Ҳақ таолонинг зикри келур”. [Necmeddîn-i Kübrâ, 2015: 34] “Рисола илал ҳоим” асарида ҳам нафснинг қалбга айланиш жараёнида давомий сукутнинг қийматини баён қилиб, шайх муридларга шундай тавсиялар беради: “Сен ҳам беҳуда гап-сўзлардан кечиб сукут қилсанг, қалб каломи-ю садосини эшитишинг эҳтимолдан ҳоли бўлмас. Ҳақ субҳонаҳу ва таолога борадиган йўлдаги чақалоқ бу каломдир. Шунингдек, мурғак бир гўдак бўлган ҳазрати Исонинг гапиришини истагани замон Аллоҳ унинг онаси Марямга сукут қилишни ва кўринган одамларга: “... Мен Раҳмон йўлида рўза тутмокни назр (аҳд) қилганман, бас, бугун бирон инсонга сўзламайман... (Марям:19:26)”, дея жавоб беришни амр этган эди. Хуллас, тил гапира бошласа қалб жим қолади ва фароғат топади. Аммо тил сукут сақласа, қалб сўзлай бошлайди”. [Necmeddîn-i Kübrâ, 2015: 36]

Ҳар иккала тариқат асосчисининг фикрлари ҳам айни муридлар учун дастур ул-амал вазифасини бажаради. Азал-азалдан илғор ирфоний қарашларни кенг халқ оммасига етказишда бадиий ижоднинг ўрни жуда катта бўлган. Бу икки ижодкор тасаввуф таълимотининг етакчи талаби бўлган тавба ҳақидаги қарашларида тасаввуфий истилоҳлардан, турли рамз ва тимсоллар ҳамда бадиий санъатлардан унумли фойдаланган. Аввало, бундай рамз ва тимсолларнинг тасаввуф адабиётидаги маъноларини билган кишигина шоирнинг асл мақсади нима эканлигини англаб етади. Аҳмад Яссавий ўзининг “Факрнома” ва ҳикматларида, Нажмиддин Кубро ўзининг назарий асарларида ҳам рубоийларида ҳам бу масала устида жуда кўп қалам тебратади. Аҳмад Яссавий

“Факрнома”да факрнинг саккизта мақомидан биринчиси сифатида Тавба мақомини кўрсатади ва ҳикматларида ҳам бу мақомга айрича бир эътибор қаратади:

*Учмох мулкин уққон қуллар тавба қилсун,
Тавба қилиб ҳазратиға яқин келсун.
Ҳуру қусур, гилмон, вилдон ходим бўлсун,
Алвон-алвон киёр ташириф хилъати бор. [Аҳмад Яссавий, 2011: 90]*

Нажмиддин Кубро “Усул ал-ашара” асарида оламни билишнинг ўнта асосини изоҳлар экан, улардан биринчиси сифатида Шайх ҳам айни Тавба йўлини кўрсатади. Бу йўлнинг асосларини Шайх қуйидагича таърифлайди: 1.Қилган гуноҳига пушаймонлик; 2.Шу гуноҳни минбаъд қайта қилмасликка азм-у қарор; 3. Қазо этилган, амалга оширилмаган фарзларни ўташ; 4.Гуноҳ лаззатини тотган нафсга мағлубият аламинини ҳам тоттириш.[Нажмиддин Кубро, 2004:261] Ҳар иккала тариқат вакилининг ҳам айни тасаввуфий йўлнинг бошланишини тавба мақомида бериши бежиз эмас. Чунки инсон қилган гуноҳларидан тавба қилмай туриб, покланиш йўлига ўтолмайди.

Тасаввуфда мурид босиб ўтиши лозим бўлган мақомлардан бири бу Сабр мақомидир. Аҳмад Яссавий факрлик мақомларида ҳам, факрлик мартабаларида ҳам сабр ҳақида айтиб ўтади. Шайх Нажмиддин Кубро “Усул ал-ашара” рисоласида нафс мужодаласига оид баҳс мунозараларини айтар экан, ўн усулдан бири Сабр дейди. Ва сабрни шундай шарҳлайди: “Сабр, мисли маййит нафсга ҳузур-ҳаловат бағишлайдиган нарсаларга мужоҳада билан барҳам бермоқдир... Шу тариқа нафс улфатлик қилган ва истаган нарсаларини унга бермасдан намунали, чиройли йўл устида тўппа-тўғри юришни таъминлашда сабот кўрсатиш керак. Зеро, Аллоҳ таоло: “Улар (ўз динлари йўлидаги бало-кулфатларга) сабр-тоқат қилишгач, Биз улардан (одамларни) ҳидоят қиладиган пешволарни чиқардик. Улар Бизнинг оятларимизга аниқ ишонар эдилар” (Сажда, 32:24), дея марҳамат қилмоқда”.[Нажмиддин Кубро, 2004:261]

Аҳмад Яссавийнинг қарашларидан ва ижодидан таъсирланган Хоразм адабий муҳитининг йирик намояндаларидан бири Паҳлавон Маҳмуддир. У мавзу жиҳатидан ранг-баранг рубойлари билан адабиётимиз тарихида ўзига хос ўринга эга ижодкор саналади. Адиб тариқатнинг буюк вакиллари ўзига устоз деб билди, валий ижодкорлар асарларидаги тасаввуфий, дунёвий ғоя ва фикрларини ўз ижодида маҳорат билан ўзига хос тарзда давом эттирди. Тасаввуф вакиллари ва сўфий шоирлар фикр-қарашларидан озиқланиб, ўз мақсадини теран ифода эта олди.

Паҳлавон Маҳмуднинг шоирлик салоҳиятига, тасаввуфий-фалсафий дунёқарашига, тафаккур оламига бир неча тариқат вакиллари, масалан, яссавийлик тариқатининг таъсири ҳам анча сезиларли. Шоирнинг нодонлик, жоҳилларга нисбатан қарашлари акс эттирилган бир қанча рубойларида баҳс этилган фикрлар Яссавий тўртликларидаги мавзулар билан муштарак. Паҳлавон Маҳмуд нодон, номард ва нокасларнинг тубан қиёфаси очиб берилган мана бу рубойида шундай ёзади:

*Се сад кўҳи Қофро ба ҳомун судан,
На тоқи фалак ба хуни дил андудан,
Сад сол асири банди зиндон будан,
Беҳ зон, ки даме ҳамдами нодон будан.*

Т.Жалолов таржимаси:

*Уч юз Кўҳи қофни келида туймоқ,
Дил қонидан бермоқ фалакка бўёқ.*

*Ёинки бир аср зиндонда ётмоқ,
Нодон суҳбатидан кўра яхшироқ.* [Паҳлавон Маҳмуд, 1979: 52]

Суҳбатдошлик мавзуси Шарқ мумтоз адабиётининг етакчи мавзуларидандир. Зеро, ушбу масала илоҳий китобларда ҳамisha бош маслак бўлганки, мазкур китоблар таъсирида яратилган сўфиёна адабиётнинг ҳам ҳар доим диққат марказида бўлган. Паҳлавон Маҳмуднинг нодонлар билан суҳбатдошликнинг азобу ҳасратини акс эттирган ушбу рубойси беихтиёр яссавийлик тариқати асосчисининг мана бу ҳикматини эслатади:

*Нодон бирла ўтган умринг нори сақар,
Нодон борса дўзах андин қилгай ҳазар.
Нодон бирла дўзах сари қилманг сафар,
Нодон ичра хазон янглиз сўлдим мано.* [Аҳмад Яссавий, 2011: 90]

Албатта, нодонлар билан ўтказилган умрнинг жаҳаннам азобидан ҳам баттарлиги, жоҳиллардан дўзах ҳам ҳазар қилиши сингари тасвирлар Аҳмад Яссавий ҳикматларидаги ўзига хос ифодадир. Бироқ Паҳлавон Маҳмуд ҳам Аҳмад Яссавий каби нодонлардан ва жоҳиллардан қаттиқ нафратланганини рубойида тўла изҳор эта олган.

Биз юқоридаги каби муштарак фикрлар ва ташбеҳларни яна кўплаб санаб ўтишимиз мумкин. Чунки тасаввуф тариқатларининг барчаси сув ичган булоқлар бу Куръони карим ва Ҳадисдир. Куръон ғояларининг адабиётга кўчиши тасаввуф таълимотининг халқ орасида кенг ёйилиши учун замин ҳозирлади. Бошқача айтганда, “шеърятда яширин маънолар, тасаввуф тушунчаларига мўлжалланган алоҳида тил пайдо бўлди, “лисон ул-ғариб” усулида ёзилган рубойлар кўпайди. Энди адабиёт тасаввуфга хизмат қиладиган иллюстратив материал бўлиб қолмай, балки ўзи тасаввуф ғояларини баралла тарғиб эта бошлади, аниқроғи, тасаввуф ғоялари шеърят ғояларига айланди”. [Комилов Н, 2009: 68] Тасаввуф адабиёти вакиллариининг деярли барчаси ана шу тилда, яъни тасаввуфий тилда ижод қилган. Шу жиҳатдан Е.Бертельс таъкидлаганидек: “Аслида, биз мавзу, услуб ташки кўриниши бир хил, фақат тилдагина фарқ бўлган ягона адабиётга эгамиз”. [Ражабова М, 2012: 17] Ҳақиқатан ҳам, бу халқлар адабиёти фақат тил жиҳатидангина фарқланган, холос. Аҳмад Яссавий ва унинг издошлари туркий тилда, Нажмиддин Кубро ва унинг издошлари асосан араб ва форс тилларида. Ҳатто туркий халқлар орасида араблар босқинидан кейин тил ва адабиётнинг араблашув, форсий адабиётнинг таъсирида эса форсийлашув даврида яратилган катта давр ва улкан адабий-ирфоний мероси мавжудлигига гувоҳ бўламиз. Лекин тилларнинг айричалиги адабий муштаракликларга даҳл қила олмаганлигини биз юқоридаги ижод намуналаридан гувоҳмиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт (Таржимон ва нашрга тайёрловчилар И. Ҳаққулов ва А. Бектош). – Т.: Мовароуннаҳр, 2004.
2. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар куллийети. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
3. Necmeddîn-i Kübrâ. Âdâb Risâleleri. İnsan yayınları, İstanbul, 2015.
4. Сафарбаев М. Нажмиддин Кубро олами билиш йўллари ва босқичлари ҳақида. – Урганч: Маърифат юлдузи, 1997.
5. Паҳлавон Маҳмуд. Рубойлар (Форс ва ўзбек тилларида). – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
6. Маҳмудов Ж. Паҳлавон Маҳмуд: ўзбек маънавияти ва кураш санъатидаги ўрни. – Т.: Академнашр, 2018.
7. Комилов Н. Тасаввуф. - Т.: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон, 2009.
8. Ражабова М. Ўзбек адабиёти фанидан маъруза матнлари. – Бухоро, 2012.

Yassaviy maktabi shoirlari ijodining O'zbekistonda o'rganilishi

Azimova Nozima Shokirjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: nozimaazimova29@gmail.com

ORCID: 0009-0003-5650-9121

Annotatsiya: Xoja Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi bo'lib, uning ma'rifiy va axloqiy g'oyalari keyingi asrlarda ko'plab adiblarning ijodiga ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir natijasida yuzaga kelgan Yassaviy maktabi shoirlarining asarlarida nafs tarbiyasi, axloq pokligi va ruhiy yuksalish - bosh mavzulardan bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotimizda tasavvufiy mavzularning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hikmatnavislik an'anasi davrlar o'tib turli saviyadagi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tezisda Yassaviy maktabi mavzusida o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga doir fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, hikmat maktabi, tasavvuf, adabiyot, Fitrat.*

Изучение творчества поэтов школы Яссави в Узбекистане

Аннотация: Ходжа Ахмед Яссави был основоположником турецкой мистической поэзии, и его просветительские и нравственные идеи оказали влияние на творчество многих писателей последующих столетий. В результате этого влияния в творчестве поэтов школы Яссауи основное внимание уделялось самодисциплине, нравственной чистоте и духовному возвышению. Традиция Хикматнависа, оказавшая значительное влияние на развитие мистических тем в нашей классической литературе, на протяжении многих лет изучалась учеными разного уровня. В данной диссертации изложены мысли и комментарии по поводу исследований, проведенных узбекскими учеными по теме школы Яссави.

Ключевые слова: *Ходжа Ахмед Яссави, Школа мудрости, суфизм, литература, Фитрат.*

Study of the work of poets of the Yassavi school in Uzbekistan

Abstract: Khoja Ahmed Yassawi was the founder of Turkish mystical poetry, and his educational and moral ideas influenced the work of many writers in the following centuries. As a result of this influence, the works of the poets of the Yassawi school focused on self-discipline, moral purity and spiritual elevation. The tradition of Hikmatnavis, which had a significant impact on the development of mystical themes in our classical literature, has been studied by scholars of various levels for many years. This dissertation presents thoughts and comments on the research conducted by Uzbek scholars on the topic of the Yassawi school.

Keywords: *Khoja Ahmad Yassavi, School of Wisdom, Sufism, literature, Fitrat.*

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-ta'limiy qarashlari va she'riyati bilan turkiy xalqlar tarixida o'chmas iz qoldirganligi tarixdan ayon. U o'zining ta'limiy-axloqiy tushunchalarini asosan hikmatlari orqali bayon etdi. Ulug' purning ta'limoti ta'sirida shakllangan adabiy-tasavvufiy maktab ko'plab shoirlarni bir an'ana atrofida birlashtirdi. Bu maktabning asosiy xususiyati ma'rifiy fikr va g'oyalarni xalqchil tilda, she'riy tarzda ommaga yetkazishdir.

Ahmad Yassaviy va hikmat maktabining o'rganilishi haqida gap ketganda Abdurauf Fitratni tilga olmaslikning iloji yo'q. Chunki u o'tmish shoir va adiblar, ijodkor va so'fiylar orasida Ahmad Yassaviychalik keng ta'sirga ega bir mutasavvif ijodkorni uchratib bo'lmagligini e'tirof

etadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham Yassaviy va uning bir nechta shogirdlari sanab o'tilgan. Uning xalq orasida bu qadar mashhur bo'lishi, albatta, tasodif emas. Ulug' shayx yangi tariqatga asos solish bilan birga, bu tariqat maslagini sodda she'riy janrlarga joylashtirdi va ayni shu jihat bu tariqatning ham, ulug' pir murshidning ham el orasida mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu haqda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining "She'riyat va tasavvuf" nomli tadqiqotida shunday yozadi: "Yassaviygacha ham so'fiyona she'r irshod uchun bir vosita o'laroq qabul qilingan edi. Yassaviy, eng avvalo, ana shu uchun she'rga murojaat qildi. Diniy-tasavvufiy ma'nolar muridlaridan tashqari keng xalq ommasi ongi va qalbidan oson o'rin topishini ta'minlash niyatida she'r imkoniyatlaridan ham mohirlik ila foydalana oldi". Olimning yuqoridagi fikrlarida jon bor. Ahmad Yassaviy muridlari orasida ham, oddiy xalq orasida ham ma'lum va mashhur murshid bo'lgan. Hazrat Navoiy Yassaviyning bir qancha muridlarini qalamga olarkan, ularning nomlari qatorida Xoja Ahmadning ham nomini eslaydi. Jumladan, Qutbiddin Haydar, Hakim ato, Ismoil ato (Ahmad Yassaviyning ukasining o'g'li), Keshlig' ato, Sayyid ato, Bobi mo Husayn kabi shayxlarning tarjimai holi haqida ma'lumot berar ekan, ularning hayot yo'li Ahmad Yassaviy bilan kesishgani haqida qimmatli fikrlarni qayd etib o'tadi. Hazrat Navoiy Ahmad Yassaviy va uning shogirdlari zikri bilan bir qatorda uning ustozlarini ham tilga olib o'tadi. Bir qancha yassaviyshunos olimlar "Nasoyim ul-muhabbat"da Alisher Navoiy hikmatnavislik haqida so'z yuritmaydi, sababi esa hikmatlarning qo'lyozma nusxasi yo'q ekanligidir" deb ko'rsatadi.

Yassaviy va uning shogirdlari haqida ilmiy asoslangan holda o'rganganlardan biri olim Abdurauf Fitrat tadqiqotidir. Professor Ahmad Yassaviy va izdoshlarining ijodini tekshirishga kirishar ekan Yassaviyninig xalq orasidan chiqqan, xalq dardini kuylagan, samimiylkni sevuvchi el shoiri sifatida alohida ta'kidlaydi¹. Abdurauf Fitratning bu gapida albatta jon bor. Zero Yassaviy hikmatlari xalqona she'riy shaklda yozilgani bilan muhim ahamiyat kasb etganligi hatto sho'ro davrida ham alohida qayd etilgan.²

Ma'lumki, tarixda turkiy diyorlarga islomiyat kirib kelgan paytlarda xalq orasida asosan yagona Tangri inonchi mavjud edi. Ahmad Yassaviy xuddi mana shu jihatga e'tibor ko'rsatib, qadimgi turkiy e'tiqod unsurlariga hurmat bilan qaradi. Fitrat ham aynan shu jihatga to'xtaladi. U: "Yassaviy tariqatining, ayniqsa, dala turklari orasida muncha keng shaklda tarqalishig'a, bu tariqatning ularning eski ibodat shakllariga yot bo'lmag'ani ham katta roli bo'lg'an"ligiga alohida urg'u beradi³.

Ayonki, so'nggi davrlarda Ahmad Yassaviy va izdoshlariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy, tarixiy, tasavvufiy, adabiy manbalar kashf etildi. N. Hasanning tadqiqotlarida bu masalaga keng to'xtalingan.⁴ Fitrat ham Yassaviy shoirlariga bag'ishlangan maqolasida Yassaviy izdoshlari hayoti va ijodiga kengroq to'xtalib, "Rashahot", "Samarat ul-mashoyix" va "Lamahot" singari asarlarga tayangan holda tadqiqot yuritadi. Chunki mazkur manbalarda Yassaviy va davomchilarining hayoti, ijodi, fikr-qarashlariga doir muhim va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shunga qaramasdan, Yassaviy maktabi ijodkorlarining adabiy ilmiy, ma'rifiy merosi mavzusida yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari ancha oqsoq.

Fitrat ham bu masalani asrimizning boshidayoq dolzarb mavzu sifatida e'tirof etgan. Yassaviy maktabi ko'p shoirlarni jamlaganini e'tirof etgan holda "bu Yassaviy shoirlarining

¹ Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild.T.- Ma'naviyat. 2000.

² N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" monografiya. T. – Akademyashr. 2012.

³ Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. Maorif va o'qitguchi jurnali. 1928.

⁴ N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" dissertatsiya, Toshkent. 2017.

asarlari bo'lsun, o'zlari bo'lsun haligacha tamoman ma'lum bo'lmag'an, tekshirilmag'an"ligini alohida qayd etadi¹.

Haqiqatan, ayrim tekshirishlarni hisobga olmaganda Yassaviy maktabi shoirlari hayoti va ijodiy faoliyati yaqin kunlargacha to'liq o'rganilmagan. Bu borada Fitratning ushbu maqolalari XX asr boshida yaratilgan ilk o'zbek tadqiqoti sifatida ahamiyatga molikdir. Olim ushbu maqolasida Hakim ota Sulaymon Boqirg'oniy, Kamol Iqoniy, Shams O'zgandiy, Qul Ubaydiy, Shayx Xudoydod, Hubbi Xoja kabi Yassaviy izdoshlari haqida manbalardan dalillar keltiradi.

Ma'lumki, turkiy adabiyot asrlar mobaynida shoir, adib va mutafakkirlarning ijodi tufayli turli an'analar, oqimlar va yo'nalishlar ta'sirida shakllanib rivojlanib keldi. Fitrat adabiyot tariximizni davrlashtirar ekan, uchta muhim adabiy siymoni tilga oladi. Uning fikricha, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida uchta adabiy maktab faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan birinchisi Ahmad Yassaviy, ikkinchisi Alisher Navoiy va uchinchisi Amir Umarxon adabiy maktablardir. Yassaviy maktabining boshqa maktablardan farqi, uning xonaqoh, ya'ni "ibodat adabiyoti" bo'lganligidir².

Yassaviyshunoslarning e'tirof etishicha, "Fitrat tadqiqotidan dastlab, Ahmad Yassaviy merosini mukammal o'rganishga kirishgani, lekin o'sha davrdagi tazyiq va ta'qiblar sababli Yassaviy ijodiyotining sho'ro tuzumi g'oyalaridan kelib chiqqanligi, aniqrog'i esa "marksistik ustanovkada turib tekshirishga" to'g'ri kelgani ma'lum bo'ladi"³. Sho'ro hukumati O'zbekistonda tasavvufga qiziqish va intilishni to'xtatish uchun eng avval, Ahmad Yassaviy tariqati, ijodi va izdoshlariga qarshi hujum boshlagan. "Natijada saksoninchi yillarning ikkinchi yarmigacha «Devoni hikmat»ning nashri uyoqda tursin, Yassaviy ijodidan to'rt jumla ijobiy fikr aytishga ham imkon berilmagan. Yassaviyni qoralash, adabiy merosi va tariqatini tahqirlash uchun hech bir to'siq bo'lmagan. Ko'p olimlar bu «imkoniyat»dan nihoyatda unumli foydalangan... Ahmad Yassaviyning tarixiy xizmatlariga ijobiy nuqtai nazardan baho berishga uringan filologiya fanlari doktori E. Rustamovning qanday yakka-latilgani, boshiga ne-ne ofatlar yog'dirilganidan shaxsan o'zim xabardorman"⁴ deya ta'kidlaydi yassaviyshunos I.Haqqul. Shunga qaramay o'tgan asrning 70-yillariga kelib, Yassaviy mavzusiga qiziqish yana kuchaydi. 1972-yil prof. E.Rustamov o'zining "Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi" nomli maqolasida Ahmad Yassaviyning adabiyot tarixida turgan mavqeyini yangi nazar bilan baholashga urinadi. Bu maqolasi uchun bosim va tazyiqqa uchrasada, u o'z vazifasini bajargan edi.⁵ Professor ushbu maqolasida Fitrat va prof. A.K.Borovkovning Yassaviy hikmatlarining ko'p qismini uning shogirdlari tomonidan yozilgan degan fikrlarini rad etadi va dalillar keltiradi. Borovkov Yassaviyga nisbat bergan hikmatlarni Yassaviyga taqlidan yozilganligini asoslaydi. Masalan, Hakim otaning

Barcha yaxshi, biz yomon,

Barcha bug'doy, biz somon

misralari Ahmad Yassaviyning:

Qul Hoja Ahmad, yomonlarning yomonisan,

*Barcha bug'doy, el tutmog'on somonisan*⁶

¹ Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. Maorif va o'qitguchi jurnali. 1928

² Fitrat. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T- Ma'naviyat. 2000

³ Fitrat A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – B.180.

⁴ N. Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat". T. – Akademnashr. 2012

⁵ Rustamov.E. "Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi" nomli maqola. 4-son. – B 21

⁶ Rustamov.E. "Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi" nomli maqola. 4-son. – B 21

misralariga taqlidan yozilganligi va Hakim ota va Yassaviyning misralari bir-biridan farqli ekanligini ta'kidlaydi. Hikmatlarning barchasi emas, bir qismigina Yassaviyning shogirdlari tomonidan yozilgan degan xulosani beradi. Borovkovning ba'zi yuzaki yondashilgan fikrlarini to'ldirib, izohlar beradi. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida hikmatlar haqida to'xtalmaganligining sababini - Navoiyning qo'lida hikmatlarning asl nusxasi bo'lmaganligi deb ko'rsatadi.

Filologiya fanlari doktori Orif Usmon "Vahdat sharobin ichdim" nomli maqolasida Yassaviy shogirdlarining bir nechtasiga ta'rif va tavsif beradi. "Xuroson va Movarounnahrning valisi hazrat Ahmad Yassaviyning eng mashhur shogirdlari quyidagilardan iborat:

1. Mansur oto. Bul kishi Yassaviyni yoshligidan o'z tarbiyasiga olgan Arslon boboning o'g'li bo'lib, hijriy 594 yilda vafot etgan.

2. Abdul Malik oto.

3. Toj Xoja. Bu kishi Abdul Malik otoning o'g'li bo'lib, hijriy 596-yilda vafot etgan. Bu zot butun Toshkent viloyati aholisining mo'tabar piri buzrukvor Zangi boboning otasi hisoblanadi.

4. Hakim oto. Uning asl ismi Sulaymon bo'lib, mashhur mutasavvif shoir Sulaymon Boqirg'oniy ham mana shu zotdir. "Rashahot" asarining muallifi Ali Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiyning ma'lumotiga ko'ra, Hakim oto asli xorazmlik bo'lib, Bug'roxonning go'zal qizi Anbar onoga uylangan. Hakim oto yirik turkiyzabon klassik shoir, mutasavvif olim sifatida ustoz Ahmad Yassaviyning g'oyalarini xalq orasida keng targ'ib etgan.

5. Zangi oto. Bul zot Hakim otoning shogirdi bo'lib, nafaqat butun Toshkent viloyati o'rtasida, balki, barcha turkiy-islom dunyosi aholisi orasida dong'i ketgan yirik diniy-mazhabiy shaxs hisoblanadi. Uzun Hasan oto, Sayyid oto, Sadr oto va Badr otolar Zangi otoning atoqli shogirdlaridir.

Hazrat Yassaviyning yirik mutasavvif shogirdlaridan biri bo'lmish Hoji Bektoshi Vali tomonidan asoslangan "Bektoshiya" tariqati ham "Yassaviya" tariqatidan kelib chiqqan" deya ta'kidlaydi.¹ Shuningdek, olim Yassaviy shogirdlari shajarasini tariqat doirasida tuzib chiqqan. Professor E.Rustamovning Yassaviy hikmatlarini o'zi yozgan degan fikrlariga munosabat bildiradi va bu qarash hali hamon muammoli ekanligini e'tirof etadi. Sababini esa hikmatlarning asl qo'lyozma nusxasi hanuzgacha topilmaganligidir deb ko'rsatadi. Maqola so'nggida Olim Yassaviy va Amir Temur haqida rivoyatlar keltirib o'tadi. Jang oldidan Yassaviy Amir Temurning tushiga kirib, bir ruboiyni aytishini va unga g'alaba olib kelishini aytadi. Amir Temur ushbu ruboiyni

Yaldo kechasini shami-shabiston etkon,

Bir lahzada olamni guliston etkon.

Bas, mushkul ishim tushubdir, oson etgil,

Ey barchani mushkulini oson etkon.

70 marta aytganligini va zafar kelganligini aytib o'tadi.² Yassaviy va uning shogirdlarining tariqat jihatdan o'rganish, ularning hikmat an'anasi va adabiyoti, poetika jihatdan o'rganilgan ishlardan ancha kengroq, batafsilroqdir. Lekin hikmatlar poetikasi, Yassaviy izdoshlarining adabiy jihatdan o'rganish bir qancha oqsoqroq. Sezib turganingizdek, buning sababi esa hikmatlarning asl qo'lyozma nusxasi hali topilmaganligidadir. Shunday bo'lsada, "Devoni Hikmat"ning qayta

¹ Orif Usmon "Vahdat sharobin ichdim" nomli maqolasi

² Orif Usmon "Vahdat sharobin ichdim" nomli maqolasi

qayta nashrlariga murojaat etgan holda, boshqa devonlarda uchramaydigan yangi hikmatlarni ham o'rganish maqsadiga kirishdik. Fitrat ta'biri bilan aytganda "eski ibodat shakliga yo'g'rilgan" ushbu maktab shoirlarining hikmatlarini farqli va o'xshash jihatlarini o'rganish kerak.

Prof. I.Haqqul Yassaviy ijodining falsafiy va adabiy jihatlarini tahlil qilar ekan, "O'zbek tasavvuf she'riyatining o'rganish muammolari" nomli maqolasida Yassaviy va uning maktabi shoirlari ijodini o'rganishning dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. Bir qator professor olimlarning tadqiqotlari natijasida 90-yillarga kelib yassaviyshunoslikda yangi davr - turli saviyadagi izlanishlar davri boshlandi. "Devoni hikmat"ning turli nashrlari bosib chiqarildi. 1991-yil I.Haqqulov,¹ bir yil o'tib esa R.Abdushukurov, 2004, 2006, 2018-2024-yillarda I.Haqqul va N.Hasan Yassaviy hikmatlarini nashr ettirdilar². Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, turli kitoblar chop etildi. Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy merosimiz va buyuk ajdodlarimizning ulkan madaniy merosini keng ko'lamda tadqiq etish imkoniyati paydo bo'lganligi Ahmad Yassaviy ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganishga yo'l ochib berdi. Xususan, 2016-yilda UNESKOning Ahmad Yassaviy vafotining 850 yilligini keng nishonlash haqidagi qarori ham bu fikrning tasdig'i bo'ldi.³

Yassaviy maktabi shoirlari xususida tadqiqot olib borgan olimlar Abdurauf Fitrat ham, A.Borovkov ham bu maktab shoirlaridan yigirmaga yaqinini sanab o'tgan. Keyingi tadqiqotlar natijasi esa izdoshlarining soni ellikdan ortiq ekanligini ko'rsatadi. N.Hasanning monografiyasida ularning taxminiy adadi aytib o'tilgan.⁴ Haligacha nomlari ma'lum bo'lmagan Mafluj, Qul Musharraf, Qul Xayrulloh, Qul Mahviy, Qul Muhabbiy kabi bir necha izdoshlar ijod namunalari ham aniqlanganki, bu Yassaviy maktabi shoirlari ijodiyotini kengroq tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.⁵ Z.V.To'g'on tuzgan "Yassaviy maktabi shoirlari she'rlari fexristi"ga asosan Yassaviy izdoshlarining sonini yigirma to'qqizta deb ko'rsatadi.⁶ G'.Karimov ham Yassaviy shoirlari Sulaymon Boqirg'oniyan boshlanib, taxminan yigirmadan ortiq shoirni o'z ichiga olishini aytib o'tadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, "Devoni hikmat"ning yangi nashrlari bevosita uning izdoshlari, shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yassaviy hikmatlari Qul Sulaymon Hakim ota Boqirg'oni, Zangi ota, O'zgandiy, Iqoniy, Qul sharif, Qul Naziriy, Darvish Ali, Qul Umuriy, Zaliliy kabi bir qator Yassaviy maktabi shoirlarining she'rlari bilan birgalikda ko'chirilgan. M.Eshmuhammedova esa o'zining "Yassaviy maktabi shoirlari" maqolasida "Devoni hikmat"ning qo'lyozmalarida uchraydigan hikmatnavis shoirlarni sanab o'tadi. U maqolada qo'lyozmalarda nomlari uchragan shoirlarni 3guruhga (ismlari eng ko'p qayd etilgan shoirlar; ismlari kamroq qayd etilgan shoirlar va ismlari juda oz qayd etilgan shoirlar) bo'lib o'rganadi. Masalan, Qul Sulaymon ismining 66 o'rinda uchrashi yoki Shamsiddin O'zgandiy ismining 32 o'rinda uchrashini qayd etib o'tadi.⁷ Shuningdek, Yassaviy maktabi shoirlarini qaysi janrda ijod etganiga ko'ra ham tasniflab bergan. Hikmatnavis shoirlardan Sulaymon Boqirg'oni, Ubaydiy, Zangi ota, Holis va Azim Xoja Eshonlarning hayoti va ijodi qisman o'rganilganligi manbalardan ma'lum. Demak, Yassaviy hikmatlari ta'sirida ijod etgan, nomlari ilm olamida tanish – notanish bo'lgan shoirlar ijodini o'rganish jiddiy tadqiqot ekanligini ko'rsatadi.

¹ Hikmatlar (I. Haqqulov nashri)

² Devoni hikmat (R.Abdushukurov nashri)

³ <http://www.unesco.org.tr/?page=15:0:1:english>

⁴ N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat". T. – Akademnashr. 2012

⁵ N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat". T. – Akademnashr. 2012

⁶ To'gan Z.V. Yeseviliğe dair bazı yeni malumat. 60. Doğum yılı münasebetiyle Fuad Köprülü armağanı. – İstanbul, 1953. – S. 527

⁷ M.Eshmuhammedova. Yassaviy maktabi shoirlari. www.journal.fledu.uz

Ahmad Yassaviy hikmatlarining Shams Tabriziy, Hofiz She'roziy, Abdulloh Ansoriy, Qosim Anvor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor kabi turkiy va forsiy adabiyotning mashhur namoyondalarining she'rlari bilan birga ko'chirilganligi, shuningdek, birgina hikmat janrida emas balki, turli xil devon, bayoz, xalq qissalari, hikoyatlar, dostonlar, jangnoma, tarixnoma, merojnoma, vafotnoma, munojotlar, diniy, fiqhiy va tasavvufiy risolalar bilan birga yozilganligi Yassaviy hikmatlarini qanchalik sevib mutolaa qilinganligini ko'rsatadi.

Yassaviy maktabi shoirlariga xos xususiyatlardan biri - yagona g'oya ya'ni ezgulik, insonlarga yaxshilik ulashish va ogohlikka chorlash bo'lganligidadir. Yassaviy shoirlarining ijodi nafaqat ma'rifiy-falsafiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Ular xalqni ma'naviy uyg'otish, adolat va ezgulik tamoyillariga da'vat qilish orqali o'z davridagi ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda ushbu merosni ilmiy tahlil qilish, qo'lyozmalarni o'rganish va zamonaviy talqinlar asosida tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмед Ясави // Большая советская энциклопедия. Т.2. – М. 1970. С 1372
2. Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. Maorif va o'qitguchi jurnali. 1928
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – B.180.
- 4.M.Eshmuhammedova. "Yassaviy maktabi shoirlari" maqolasi.
5. N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" monografiya. T. – Akademnashr. 2012
6. N.Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" diss. T. – 2017 7.To'gan Z.V. Yeseviliğe dair bazı yeni malumat. 60. Doğum yılı münasebetiyle Fuad Köprülü armağanı. – İstanbul, 1953.
8. Rustamov.E. "Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi" nomli maqola. 4-son.
9. www.journal.fledu.uz

Ahmad Yassaviy ijodida insoniy illatlardan forig' qiluvchi yuksak fazilatlar

f.f.f.d. (PhD) Dilorom Muminova

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: muminovadilya86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning hikmatlarida insoniy fazilatlar haqida munosabat berib o'tilgan bo'lib, asosan, ishq, halollik, saxovat, yolg'onchilik, munofiqlik, hirs, ta'magirlik, kibr kabi insoniy illatlar haqida ba'zi baytlar asosida misollar berilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *ishq, halollik, saxovat, yolg'onchilik, munofiqlik, hirs, ta'magirlik.*

Abstract: This article discusses human virtues in the wisdom of Ahmad Yasawi, and mainly analyzes human vices such as love, honesty, generosity, deceit, hypocrisy, greed, greed, and arrogance, giving examples based on some verses.

Keywords: *love, honesty, generosity, deceit, hypocrisy, greed, greed.*

Özet: Bu makale Ahmed Yesevi'nin bilgeligindeki insan erdemlerini ele almakta ve esas olarak sevgi, dürüstlük, cömertlik, aldatma, ikiyüzlülük, açgözlülük, açgözlülük ve kibir gibi insan kusurlarını analiz etmekte ve bazı ayetlere dayanarak örnekler vermektedir.

Anahtar kelimeler: *sevgi, dürüstlük, cömertlik, aldatma, ikiyüzlülük, açgözlülük, açgözlülük.*

Mumtoz adabiyotda salmoqli o'ringa ega bo'lgan buyuk ijodkorlarimiz ko'plab uchraydi. Shulardan o'z hayoti va ijodi bilan katta ahamiyatga ega bo'lgan ijodkorlarimizdan biri Ahmad Yassaviydir. Ijodkor hayotiga nazar tashlar ekanmiz avvalambor ma'naviy-ma'rifiy, axloq-odob, iymon va e'tiqod kabi tuyg'ularga katta urg'u beradi. Bu kabi jihatlar asosan "Devoni hikmat" nomli she'riy kitobidan o'rin olganligini ko'rishimiz mumkin.

Ahmad Yassaviy Qur'oni karim, hadisi sharif va tasavvuf ta'limotidan bahra olib yashagan va ijod qilgan. U har doim ishq bilan oshufta bo'lgan ijodkorlarimiz kabi o'z ijodida ham ilohiy muhabbat, haqsevarlik, insoniylik, ishqiy tuyg'ular ulug'lanadi. Shoir fikri va dunyoqarashiga yuzlanar ekanmiz avvalambor u "Dardsiz odam odam emas", "Ishqsiz odam hayvon jinsi" - deya ta'kidlarkan haqiqatdan ham inson umri davomida ishqqa oshufta tarzda yashashi bu eng oliy tuyg'udir. Unga amal qilib, ishq yo'lida har qanday qiyinchiliklardan o'ta olgan oshiq, albatta Allohning marhamatidan benasib qolmaydi. Bunga monand tarzda ijodkor ijodiga yuzlanadigan bo'lsak:

Muhabbatsiz xaloyiqdan har kim qochsa,

Oriflarni suhbatida javlon qilur.

O'rtab, kuyib ishq yo'lida yoshin sochsa,

Subhon egam arsh ustida mehmon qilur¹.

deya keltirib o'tiladi. Haqiqatdan ham ishq, muhabbat qalbida bo'lmagan kishidan barcha uzoqlashadi. Hammaga masxara bolib, kulguga qoladi. Agarda ishq bilan hamnafas bo'lib, qalbida bu tuyg'u jo'sh ursa albatta, bir kun o'z mukofotiga erishadi, ya'ni eng ulug'lar qatorida bo'lib mukofotlarga sazovor bo'lishi ta'kidlaydi.

¹ Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" Toshkent, 1991. 159-b.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq yo‘lida kirgan Odam Ato farzandlarining eng katta dushmani bo‘lgan nafsga nisbatan murosasiz bo‘lishga undash g‘oyalari yetakchilik qiladi¹. Shuningdek, shoir ijodida yolg‘onchilik, ta‘magirlik, kibrilik, munofiqlik va shu kabi insoniy illatlardan forig‘ bo‘lish g‘oyasi ilgari surilgan. Bundan tashqari inson umri davomida o‘tkinchi hoyu havaslar va molu dunyoga berilmaslik singari talqinlar beriladi. Albatta, bu haqiqatdan ham o‘tkinchi bo‘lib, inson umri davomida bu kabi illatlarga berilmasligi kerak. Chunki to‘g‘ri qaror, to‘g‘ri yo‘ldan borish uchun chalg‘ituvchi vositalarga berilib adashib qolmaslik lozimligi uqtiriladi. Bu kabi tushunchalarni Ahmad Yassaviy ijodida keltirilgan misralar misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak:

*Dunyo topib haqni suygan topdi murod,
Haq sharobin ichgan oshiq shavqi ziyod.
Qiyomat kun kazzoblarning yuzi uyot,
Yolg‘onchilar haq yodini etkoni yo‘q².*

Albatta, bu kabi fikr va munosabatlar katta ahamiyatga ega. Bugungi turmush tarzimizda o‘rganilishi va ko‘proq xalqqa yetkazilishi lozim. Haqiqatdan ham molu dunyoga ega bo‘lib haqni yod etgan kishi o‘z maqsadlariga abadiy erishadi. Haqni yod etib uni har doim qalbida saqlagan oshiqni ishqiy yanada ziyoda bo‘ladi. Agarda haqni yod etmay, iymonsiz bo‘lsa qiyomatda uyalib qolishi va yolg‘onchilar haqni tanimasligi kabi fikr bayon etilgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonni to‘g‘ri yo‘lga chorlash, qalbini poklash, ishq yo‘lini tanlash, oshiqlik natijasida qanchalik mukofotlarga erishish kabi talqinlarni kuzatish mumkin. Unda komillikka yetaklovchi, ruhini yomon illatlardan forig‘ qiluvchi yuksak fazilatlar xususida fikr yuritiladi. Bundan tashqari Ahmad Yassaviy ijodida ilgari surilgan g‘oyalardan biri bu insoniylik bo‘lib, inson doimo qadrli va muhabbatga, ishqqa oshno bo‘lib yashashi haqidagi munosabatlarni ko‘rish mumkin. Haqiqatdan ham eng go‘zal fazilatlaridan o‘rin olgan va bugungi kun uchun ham eng kerakli fazilatlar albatta ijodkor ijodida aks etadi.

*Do‘zax ichra kirsas oshiq, parvo qilmas,
Ko‘rib, bilib, molu mulkin qo‘lga olsam.
Huru qusur g‘ulmonlarni ko‘zga ilmas,
Faryod etib g‘avg‘o qilib yurar bo‘lgay³.*

Bunda ham yuqorida berilgan fikrlar kabi oshiq obraziga urg‘u berilgan. Ya‘ni ishqqa duchor bo‘lgan kishi hattoki do‘zaxda ham ishq yo‘lida mast bo‘lib, beparvo bo‘lishi va barcha molu mulkidan ayrilsa ham atrofidagi parilarga beparvo bo‘lib o‘z ishqiy yo‘ldan borishi haqidagi munosabat berib o‘tilgan.

*Nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldin ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur.
Yotsa, qo‘psa shayton bila hamroh bo‘lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor⁴.*

Ahmad Yassaviy hikmatlarining ko‘pchiligida dunyoviy molu davlatga hirs qo‘ymaslik kerakligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Bu esa nafs yo‘ldan borgan kishi qanchalik qiyin ahvolda bo‘lishi aytilgan. Shuningdek, nafs inson xulqi, tarbiyasi, so‘zi, hattoki sog‘lig‘iga ham katta ta‘sir o‘tkazishi haqidagi eng sara fikr va mulohazalarni o‘z ichiga qamrab olgan.

¹ R. Vohidov, H. Eshonqulov O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 97-b.

² Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”. Toshkent, 1991. 191-b.

³ O‘sha kitob. 182-bet.

⁴ O‘sha kitob. 102-bet.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak albatta, adabiyotning go'zal jihatlaridan biri odob-axloqqa chorlovchi fazilatlarni ochib berish va shaxs tarbiyasiga tadbqiq qilishdan iboratdir. Bu esa bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki bu kabi ijodkorlarimizning asarlaridan bahra olib, dunyoqarashi boyishi va atrof muhitga bo'lgan munosabati ham o'zgarishiga ta'siri mavjud. Shuningdek, mumtoz asarlardan bahramand inson qalbi pok va insoniylik jihatdan yuksak darajada bo'ladi. Bundan tashqari halollik va saxiylik haqida ijodkor ijodidan o'rin olgan bo'lib, inson umri davomida halol va saxiy bo'lsa doimo xotirjam, barakali bo'lishi va shu kabi fikr va mulohazalar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy Hikmatlar. Toshkent, 1991.
2. R.Vohidov, H.Eshonqulov O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.
3. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987.
4. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. Toshkent, 1976.
5. A.Mo'minov. Yassaviya: ildiz va manbalar. "Fan va turmush" jurnali, 1993.

YASSAVIYA VA KUBRAVIYYA TARIQATLARI O'RTASIDAGI RUHIY UYG'UNLIK: TARIXIY-NAZARIY TAHLIL

Yassaviya va kubraviyya tariqatlari o'rtasidagi ruhiy uyg'unlik: tarixiy-nazariy tahlil

Shoira Hamdamova

Samarqand Davlat universiteti, doktoranti.

E-mail: hamdamovashoira1993@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf tarixida muhim o'rin tutgan Yassaviya va Kubraviyya tariqatlari o'rtasidagi o'zaro ruhiy aloqalar, tarixiy muloqotlar va ularga xos bo'lgan zikr uslublarining uyg'unligi tahlil qilinadi. XVI asrda yashab ijod qilgan mashhur murshidlarning suhbatlari, tariqatlararo muloqotlar, o'zaro hurmat va e'tirof masalalari tarixiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Maqola Kubraviya tariqatining pir-u murshidi Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy faoliyatidagi tariqatlararo munosabat va yassaviya pir-u murshidi Sayyid Ota shaxsi misolida ikki tariqat o'rtasidagi integratsiyani ochib beradi.

Kalit so'zlar: *Tasavvuf tariqatlari, Shayx Husayn Xorazmiy, Shayx Xudaydod Valiy, Lamahot, Sayyid Ahmad, zikr.*

Spiritual Harmony Between the Yassawiya and Kubrawiyya Sufi Orders: A Historical and Theoretical Analysis

Abstract: This article analyzes the spiritual connections, historical dialogues and the harmony of their distinctive styles of remembrance between the Yasawiya and Kubrawiyya orders, which played an important role in the history of Sufism. The conversations of famous murshids who lived and worked in the 16th century, inter-order dialogues and issues of mutual respect and recognition are examined based on historical sources. The article reveals the inter-order relations in the activities of the pir-u murshid of the Kubrawiyya order, Sheikh Kamoliddin Husayn Khorezmi, and the integration between the two orders on the example of the personality of the pir-u murshid of the Yasawiya order, Sayyid Ota.

Key words: *Sufi orders, Sheykh Huseyn Khorezmi, Sheykh Khudaydad Valiy, Lamahot, Sayyid Akhmad, zikr*

Kirish. O'rta asrlarda yurtimizda Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya, Chishtiya, So'xraverdiya, Qodiriya kabi tariqatlar xalq manfaati yo'lida o'zaro kelishuvchanlik ruhida faoliyat yuritganlar [Kattayev, 2017:13]. Shulardan tasavvuf tarixida Yassaviya, Naqshbandiya va Kubraviyya tariqatlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan eng asosiy tariqatlar hisoblanadi. Yassaviya tariqati, Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan bo'lib, xalq orasida diniy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishda katta rol o'ynagan. Kubraviyya tariqati esa Shayx Najmiddin Kubro asos solgan, ichki ruhiy tarbiya va falsafiy tafakkurga asoslangan yo'nalishdir. Bu ikki tariqatning o'zaro aloqalari, ayniqsa XVI asrda Samarqand muhitidagi diniy bag'rikenglik va ilmiy ruhiy uyg'unlikni namoyon etadi.

Shayx Najmiddin Kubro tuzgan tariqatning Husayniya-Hamadoniya-Kubraviya sulukining yirik namoyondasi Shayx Kamoliddin Husayn al-Xorazmiy ham mana shunday davrning yetuk vakillaridan edi. 1517-yilda Shayx Husayn Xorazmiy o'z shogirdlari bilan Samarqand diyoriga tashrif buyuradi. U zot Samarqandda muqim yashagan davrlarida nafaqat o'z faoliyatlarini keng yoydilar, balki boshqa tariqat murshidlari bilan ham mustahkam aloqalarni o'rnatdilar-ki, bu haqda ko'plab tarixiy manbalarda qayd etiladi. Jumladan, Yassaviya tariqatining taniqli pir-u murshidi

Olim Shayx Azizon (1564-1633) o'zlarining "Lamahot min nafahotul quds" ("Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar") asarida keltirishicha, Samarqanddagi Amir Temir Ko'ragoniy qurdirgan masjidul-jomeda (hozirgi Bibixonim jome masjidi) har-har zamonda Yassaviya tariqatining (Hazrati Shayx Xudoydod Valiy vafotlaridan keyingi) murshidi Hazrati Shayx Said Ahmad va Kubraviya tariqatining murshidi Hazrati Mahdumi Xorazmiylar o'rtasida muloqotlar bo'lib turganligi haqida ma'lumotlar beradi. Ana shunday ma'lumotlarning biri quyidagicha:

Naql borkim, Xazrati Shayx Sayid Ahmad juma namozini Samarqanddagi Amir Temur Ko'ragon qurdirgan masjidi jome'da o'tkazib, o'z tariqalaridagi darveshlar bilan suhbatga mashg'ul edilar. Va Xazrati Shayx Maxdumi Xorazmiy ham o'sha masjidda juma namozi adosidan so'ng darveshlari ila o'z tariqalariga doir suhbatda edilar. Tariqiy suhbatlar nihoyasiga yetgach, ushbu ikki aziz masjid sahnida bir-birlari bilan muloqot qildilar va ancha muddat boshlarini egib muroqaba etadilar. Shundan so'ng, bir-birlari bilan xayrlashib ajraladilar. Muxlislar ikki azizning har birlaridan qilgan suhbatlari ahvolidan savol berishdi. Har ikki buzurgvor bir tarzda javob berishadiki, - bu muroqabada Hazrati Muhammad mustafo sollollohu alayhi vasallamning mulozamatlariga yetishdik va o'z tariqalarimiz arzini yetkazdik. On Xazrat dedilarki, - "Har ikkingiz bizning maqbulimizsiz va biringiz birodarim va yana biringiz farzandim". Bu ikki murshid haqida ayni munosib ta'rif edi. [Kattayev, 2003: 22].

Bu voqea Yasaviyya va Kubraviyya shayxlari o'rtasida nafaqat hurmat, balki ruhiy yaqinlik va do'stona munosabat mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu so'fiy shayxlar hatto bir-birini ruhiy birlikdagi safarbardorlar, deb qabul qilganlar.

Shayx Husayn Xorazmiy, Shayx Said Ahmad va Shayx Mahdumi A'zam Dahbediy kabi murshidlar o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatlar, ularning bir-birining tariqiy usullarini qadrlashi va ruhiy kamolotga yetaklovchi vosita sifatida e'tirof etganliklarini ko'rsatadi. Bu muloqotlar orqali ular faqat o'z yo'llarining to'g'riligini emas, balki boshqalarning haqli yo'l tutayotganini ham tan olishgan.

Olim Shayx Azizonning "Lamahot min nafahotul quds" ("Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar") kitobida Shayx Husayn Xorazmiyning Samarqandda yashab turgan vaqtlarida tarixiy ahamiyatga molik qiziq bir holat bo'lgani haqida yozadilar. Miyonqolda yashaydigan Mavlono Ibrohim Sadrning otasining uyiga Hazrati Mahdumi A'zam Dahbediy (1461-1542), Hazrati Shayx Xudoydod Vali (1461-1532) va Hazrati Mahdumi Xorazmiy (1465-1551) kabi uch tariqatning (ya'ni, naqshbandiya-xufiya, yassaviya-jahriya va kubroviya-samoiya tariqatlarining) uch ulug'pir-u murshidlari mehmon bo'lib keladilar. Ancha vaqt bir-birlari bilan muloqot qilganlaridan so'ng, Shayx Husayn Xorazmiy mashshoqni chaqirib, nay chalishni buyuradilar. Nay chalina boshlagach, ul zot o'z tariqalari bo'yicha raqsu samo zikriga tushib ketadilar. U ikki murshid esa samoiy zikr hurmatiga tik oyoqda turadilar. So'ngra Mahdumi A'zam Dahbediy naqshbandiya tariqasi bo'yicha ko'p va'z zikrini aytadilar. Qolgan ikki buzurgvor zikr hurmatiga tik oyoqda turadilar. So'ngida Shayx Xudoydod Vali ham jahriya-yassaviya-sultoniya tariqatari bo'yicha zikri arraga mashg'ul bo'ladilar. U ikki buzurgvor zikrning hurmatiga tik oyoqda turadilar. Bu ish to peshin vaqtigacha davom etadi. So'ng bu uch aziz insonlar bir-birlari bilan xayrlashib o'z yo'llarida ravona bo'ladilar.

Turli tariqatlarga mansub allomalarning o'zaro do'stona munosabati va bir-birini qo'llab-quvvatlashi ayniqsa mana shu davrda ya'ni XVI asrning birinchi yarmida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular tez-tez yig'ilib turishadi, tariqiy muloqotlar tashkil etishadi va o'zaro boshqa tariqalarga hurmat bajo keltiradilar. Ularning bunday ahil munosabati nafaqat ular peshvolik qilayotgan xalq orasida, balki sulton-u hukmdorlarga ham juda katta ijobiy ta'sir o'tkazadiki, xalqni to'g'ri yo'lga

boshlash, tinchlikka yetaklash, hukmdorlarni esa adolatga va ezgu ishlarga, halollikka chaqirish ularning asosiy shiori bo'lib qoladi. O'zaro do'stlik munosabatidagi 3 tariqa vakillari o'z tariqatlarini bir-birlaridan foydalangan holda boyitganlar

Kitobda aniq va tafsilotli ravishda Kubraviyya va Yasaviyya shayxlari o'rtasida do'stona, ezgulikka asoslangan munosabatlar qayd etilgan. Ularning muloqoti nafaqat fiqhiy yoki zohiriy, balki botiniy, ruhiy maqomda ham yuksak baholangan.

Darhaqiqat, murshidlarning bu tarzda do'stona munosabatlari nafaqat o'z davri uchun, balki keying davrlarda ham tariqatlarining rivojiga, balkim xalqlarning tinch-totuv hayot kechirishlariga imkon yaratuvchi, hukmdorlarning bir-birlari bilan kelishuvchanlik siyosati olib borishlarida ibratli ta'sir ko'rsatar edi.

Yana bir qiziq holat Shayx Husayn Xorazmiy 1549-yil Haj safariga otlanganlarida Buxoroning Qorako'liga kelganlarida xalifalaridan biri Shayx Abdullo Xorazmiyning xonaqohlariga ham tashrif buyuradi, u zot xonaqoh egasidan ota-bobolari mashg'ul bo'lgan jahriya zikrini aytishni amr etadilar. Bu o'zga tariqatlarga bo'lgan hurmat ramzi edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Kubraviya tariqatining yetik namoyondasi Kamoliddin Husayn Xorazmiy yoshligida tariqat yo'lida o'ziga pir axtarib Buxoroga amalga oshirgan ilk tashrifi chog'ida dastlab jahriya tariqatidagi Shayx Jamoliddin (vafoti 1513)ning muridiga aylanadi. [Ismoilov, 2017: 89]. Tarixda bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin. Ya'ni tasavvufdagi ilk yo'lini bir tariqada boshlab, keyin boshqa tariqada davom etgan muridlar ko'plab uchraydi. Va bunga o'sha davrda normal holat deb qaralgan ko'rinadi, aks holda bir tariqadan chiqib boshqasiga o'tish kuchli qarshilik yoki tazyiqqa uchragan bo'lar edi. Demak murshidlar hech qachon o'z muridlarini majburan ushlab turmaganlar, aksincha kelganga ket, ketganga kel demaganlar.

XV-XVI asrda temuriyzodalar va shayboniyzodalar o'rtasida uchchala tariqatga ham mehr qo'yganlar. Masalan temuriyzoda Bobur Mirzo Hazrati Mahdumi A'zamni o'ziga pir-u murshid deb bilsa, Hazrati Shayx Xudoydod Valiga ham bir vaqtning o'zida juda katta e'tiqod qo'yganliklarini "Lamahot min nafahotul quds" ("Muqaddas xushbo'yliklardan lahzalar") asaridan bilsak bo'ladi. Hazrati Shayx Mahdumi Xorazmiyga esa Bobur Mirzoning hukmdor farzandlari juda katta e'tibor berganlar.

Yana bir manbaada keltirilishicha, Xo'jagiy Mahdumi A'zam G'aziraga yetganlarida shu davrning tanilgan shayxlaridan Bobo Xudoydod Valiy bilan uchrashib, bir-birlarining suhbatlaridan bahramand bo'lishadi. Ma'lumki Bobo Xudoydod Vali Yassaviya-Jahriya-Sultoniyah tariqatining ko'zga ko'ringan murshidlaridan bo'lib, Shayboniixon hamda temuriyzoda Bobur Mirzoning hurmatiga sazovor bo'lganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Mahdumi A'zam Dahbediy Bobo Xudoydod Valida shunday katta taassurot qoldiradiki, natijada Bobo Xudoydod Vali tuya junidan o'zlariga to'qilgan to'nni mamnuniyat bilan Mahdumi A'zamga tuhfa qiladilar. Bu hol tasavvuf tariqatida e'tirof etish va yuksak darajada qadrlash ramzi sifatida tushuniladi [Manoqib, 2003: 34]. Bunga javoban Mahdumi A'zam ham o'z faraj-ro'mol yopinchiqlarini Shayx Xudoydod Valiga kiygizadilar.

Zikrdagi uyg'unlikning tarixiy ildizlari. Tasavvufda musiqiy samo va jismoniy harakatlar bilan zikr qilish ruhiy ekstaz holatiga erishish vositasi sifatida qabul qilingan. Shayx Husayn Xorazmiy tomonidan o'tkazilgan samo marosimida ishtirok etgan boshqa tariqat vakillari, ya'ni Shayx Mahdumi A'zam va Shayx Xudoydod Vali, bu marosimga hurmat ko'rsatib, tik turgan holda zohiriy qatnashganlar. Bunday o'zaro ehtirom so'fiylikda naqadar yuksak odob-axloq tamoyillari bo'lganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda Yassaviya va Kubraviya tariqatidagi zikr masalasida o'zaro uyg'unlik va farqli tomonlariga to'xtalsak, yassaviya tariqati jismoniy harakat va musiqa bilan ijro etiladigan jahriy zikrga asoslangan. Kubraviya esa sukunat, tafakkur va xufiy zikrni ustuvor bilgan. Shu bois, tariqatlar zikrda uslubiy farqlarga ega bo'lsa-da, ularning maqsadi bir – Allohga yaqinlashish va ruhiy poklanish ekanligini yodda saqlash lozim. Yassaviyada xalq tili (turkiy)da hikmatlar, didaktik she'rlar keng tarqalgan bo'lsa, kubraviyada falsafiy-ruhoniylar risolalar, arabiy va forsiy matnlar ustunlik qilardi. Yassaviylar tarbiya bobida xalq orasida faol davlat, ommaviylikni targ'ib qilsalar, kubraviylar ichki sayr, suluk orqali ruhiy komillikka yetishish haqidagi g'oyani ilgari surganlar.

Ba'zi murshidlar, xususan Sayyid Ota, ushbu ikki yo'lni uyg'unlashtirgan kishilardan edi. U o'zining ruhi va amalda bu ikki tariqatning mohiyatini mujassamlashtirgan noyob shaxs edi. Manbalarda [Kattayev, 2017: 18] yassaviya va kubraviya tariqatlari vakillari o'rtasidagi munosabatlar haqida aniq ma'lumotlar keltiriladi. Sayyid Ahmad (Sayyid Ota) – Yassaviya tariqatining mashhur murshidlaridan biri bo'lib, u Zangi Otaning xalifasi sifatida shu tariqatga mansub bo'lgan. Onasi esa Kubraviya tariqati asoschisi Shayx Najmiddin Kubroning avlodidan bo'lgani sababli, Sayyid Ota goho Kubraviya tariqatiga ham rioya qilgan. Shuni ta'kidlash joizki, Sayyid Ota “kasirul-vird” (ko'p zikir qiluvchi), “mu'takif” (uzlatda ibodat qiluvchi) bo'lgan - bu Kubraviylar usuliga ham to'g'ri keladi.

Bundan ko'rinadiki, Sayyid Ota shaxsida ikkala tariqat – Yassaviya va Kubraviya – o'zaro birikkan, ya'ni u asosan yassaviya tariqati sulukini davom ettirgan bo'lsa-da, kubraviya tariqati urf-odatlariga ham amal qilgan. Bu holat ikki tariqat vakillari o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki ma'naviy yaqinlik va uyg'unlik bo'lganini ko'rsatadi. U Yassaviylikdagi jamoatchilikka yo'naltirilgan faoliyat bilan birga, Kubraviylikka xos botiniy suluk, uzlat, tafakkur, hamda falsafiy qarashlarni ham o'zida singdirgan. Tarixdan boshqa murshidlar faoliyatini tahlil qilib, Yassaviya va Kubraviya tariqatlari o'rtasidagi munosabatning ba'zi jihatlarini e'tirof etish lozim.

Zangi Ota - Yassaviya yo'nalishining asosiy halqasi bo'lib, Sayyid Ota - Zangi Otaning xalifasi hisoblangan. Kitoblarda Zangi Ota haqida Shayx Najmiddin Kubro o'zining hassasi va joynamozini tuhfa qilgani haqida ham rivoyat bor. Bu rivoyat orqali Kubraviylar Yassaviylar bilan aloqada bo'lgan, hatto ruhiy aloqani tan olgan, degan ma'no yuzaga chiqadi

Haqim Ota-Yassaviya xalifasi bo'lib, Sayyid Otaning piri Zangi Ota, Zangi Otaning piri esa Haqim Ota bo'lgan. Haqim Otaning ilmiy va ruhiy salohiyati yuqori bo'lib, Yassaviya sulukini olib borgan. Kubraviylar bilan bevosita bog'liq holat aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ammo Haqim Ota ham botiniy-ruhoniylar bilimni chuqur egallaganini aytiladi-bu esa Kubraviylikning asosiy yo'nalishlaridan biridir

Ismoil Ota va uning avlodlari - Yassaviya tarkibida Ismoil Ota Sayyid Otaning xalifasi bo'lib, butun Sirdaryo vodiysida mashhur bo'lgan. Naqshbandiya tariqatiga ham yaqin bo'lgani aytiladi, bu esa Yassaviya-Kubraviya-Naqshbandiyya o'rtasidagi ruhiy va ilmiy ko'priklarning mavjudligini isbotlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilinadigan bo'lsa, ikki tariqat o'rtasida ziddiyat emas, balki ruhiy aloqa, ilmiy-axloqiy ta'sirlar almashinuvi bo'lgan. Sayyid Ota-bu ikki tariqat o'rtasidagi asosiy ko'prik bo'lib xizmat qilgan. Kubraviylar yassaviylarga nisbatan ehtirom bilan munosabatda bo'lgan - bu Shayx Najmiddin Kubroning tuhfa voqeasida ochiq ko'rinadi. Tasavvufda nasab emas, xizmat va botiniy poklik muhim bo'lgani sababli, bu tariqatlar murshidlari bir-birining fazilatini tan olgan.

Shayx Najmiddin Kubroning faoliyatini davom ettirgan Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy singari murshid zotlar ham ushbu tariqatlararo zohiriy va botiniy aloqalarni davom ettirish orqali o'z xonaqohlarida muridlariga Kubraviya bo'yicha ilm bersalar-da yassaviya, naqshbandiya kabi tariqatlarga nisbatan ham do'stona munosabatda bo'lganliklari o'sha zamondagi so'fiy jamoalarining eng katta yutug'i edi, desak adashmagan bo'lamiz.

Yassaviya va Kubraviya tariqatlari o'rtasidagi tarixiy ruhiy yaqinlik, ularning o'zaro aloqalarida aks etgan. Murshidlarning bir-biriga bo'lgan hurmati, ziyofat va ziyorat marosimlari, zikr usullarining birgalikda ijrosi bu uyg'unlikni yanada kuchaytirgan. Bugungi kunda ham ushbu tarixiy namunalar diniy bag'rikenglik, ruhiy birodarlik va ilmiy hamkorlik uchun namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DeWeese, D. (1988). The Eclipse of the Kubraviyah in Central Asia. *Iranian Studies*, 21(1/2), 45-83.
2. Ismoilov, L. E. (2017). *Movarounnahr so'fiychiligi tarixi bo'yicha ocherklar (XVI asr)*. Novosibirsk: Voyaj nashriyoti.
3. Karimov, E. (2008). The Kubraviya vaqf (17th-19th centuries): Written sources on the late history of the Kubravi sufi brotherhood in Central Asia. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Kattayev, K. (2003). *Maxdumi Xorazmiy va xonaqohi tarixi*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
5. Kattayev, K. (2017). *Tasavvuf allomalari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Knysh, D. A. (2004). *Musulmon mistitsizmi: Qisqacha tarix*. Moskva–Sankt-Peterburg.
7. Namozov, B. (2022). Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi: O'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona.
8. Shayx Xudoydod Vali. (2003). *Manoqib (34-bet)*. Toshkent: Sharq.

Khoja Ahmad Yasawi: A Connecting Thread Between Iranian Sufism and the Vernacular Spirituality of Turkic-Speaking Communities

Arezoo Eslambolchi Moghadam

Assistance professor at Foreign oriental languages of Philology Faculty of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Uzbekistan.

Email: Arezoo.eslambolchi@yahoo.com.

Abstract: This article explores the spiritual and cultural legacy of Khoja Ahmad Yasawi, a pivotal figure in the transmission of Iranian Sufism to the Turkic-speaking world. As the founder of the Yasawiyya order, Yasawi played a key role in bringing mystical teachings to the people through accessible Turkic language poetry known as *hikmets*. The paper traces the historical, architectural, and literary dimensions of Yasawi's influence, examining his mausoleum in Turkestan, the content of *Divan-i Hikmet*, and his role in shaping a people-centered Sufi tradition. By bridging Persian metaphysical thought and the vernacular spirituality of Central Asia, Yasawi emerges as a foundational figure in Islamic mysticism. His teachings offer insight into how religious practice can resonate with cultural identity and linguistic diversity.

Keywords: *Khoja Ahmad Yasawi, Iranian Sufism, Turkic Mysticism, Divan-i Hikmet, Yasawiyya Order, Vernacular Spirituality, Central Asian Sufi Culture*

Xoja Ahmad Yassaviy: Eron tasavvufi va turkiy tilda so'lashuvchi xalqlarning ma'naviyati orasidagi aloqalar

Anotatsiya: Ushbu maqolada Eron tasavvufining turkiy tilli dunyoga yetkazilishida muhim rol o'ynagan Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy va madaniy merosi o'rganiladi. Yassaviy tariqati asoschisi sifatida hikmatlar deb atalgan turkiy tildagi she'riyat orqali tasavvufiy ta'limotlarni xalqqa yetkazishda asosiy rol o'ynadi. Maqolada Yassaviy ta'sirining tarixiy, me'moriy va adabiy jihatlarini yoritilgan, uning Turkistondagi maqbarasi, "Divon-i Hikmat"ning mazmuni va xalqparvarlik so'fiylik an'anasini shakllantirishdagi roli o'rganilgan. Fors metafizik tafakkuri va O'rta Osiyo xalq ma'naviyati o'rtasida ko'priklarni bog'lab, Yassaviy islom tasavvufining asoschisi sifatida maydonga chiqadi. Uning ta'limotlari diniy amaliyotning madaniy o'ziga xoslik va til xilma-xilligi bilan qanday rezonanslashishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, Eron tasavvufi, turkiy tasavvuf, "Divon-i Hikmat", "Yasaviyya" ordeni, xalq ma'naviyati, O'rta Osiyo so'fiylik madaniyati*

Introduction. Central Asia has long served as a vital crossroads in the history of Islamic mysticism, where diverse cultural and linguistic traditions intersected. Among the key figures in this spiritual landscape is Khoja Ahmad Yasawi, whose legacy represents a unique synthesis of Persian Sufi metaphysics and Turkic vernacular spirituality [1]. While previous scholarship has often focused on either the architectural grandeur of his mausoleum or the theological aspects of his teachings, there remains a gap in understanding how Yasawi localized Iranian Sufi thought through language, poetry, and public engagement. This paper aims to explore Yasawi's contribution to vernacular Sufism, particularly his use of Chagatai Turkic to disseminate mystical teachings among common people. Through a combined analysis of historical texts, architectural symbolism, and poetic content, the study seeks to illustrate how Yasawi shaped a people-centered mystical tradition that continues to influence Turkic cultures today. The paper is organized into five sections: a historical overview of Yasawi's life and era, an analysis of his mausoleum, a

discussion of Divan-i Hikmet, exploration of his mystical philosophy, and a reflection on his enduring cultural legacy.

Biography and Historical Context. Khoja Ahmad Yasawi, a disciple of Sheikh Yusuf Hamadani and one of the spiritual heirs of the Khwajagan order, played a pivotal role in spreading mystical teachings in a way accessible to the masses. Uniquely, he conveyed these teachings not in Arabic or Persian but in Turkic—a linguistic [2] shift that marked a new era in mystical expression and made him a continuation of the Iranian Sufi tradition.

Since the 10th century (4th century AH), the concepts of Sufism—rooted in Iranian and Khorasani thought—entered the spiritual life of Central Asian Muslims, spreading from Turkestan across Transoxiana and even into Anatolia.

After completing his spiritual journey, Yasawi returned to his birthplace and founded the Yasawiyya order—an accessible, simple, and people-centered form of mysticism. His tomb, located in the city of Turkestan (now in Kazakhstan), is a major pilgrimage site and often referred to as the “Kaaba of Turkestan.” [3]

When Tamerlane (Timur) visited the city of Yasi, he paid homage at Yasawi’s tomb and ordered the construction of a magnificent mausoleum over it. Completed within two years, the complex features minarets, prayer halls, and guest chambers. Beside Yasawi, his wife and Rabia Sultan Begum, Tamerlane's granddaughter, are also buried. This structure remains one of the most significant examples of Islamic architecture in Central Asia.

For centuries, Yasawi's shrine attracted pilgrims from across the region, particularly in winter when thousands would gather around his tomb in devotion. Ceremonies and vows were performed at the site, reflecting its deep spiritual magnetism.

A Glimpse from Historical Texts. In *Mehmannama-ye Bukhara* (The Guestbook of Bukhara), Fazlallah ibn Ruzbahan, writing about the reign of Muhammad Shaybani, describes Khoja Ahmad Yasawi as a spiritual refuge:

*"O you afflicted by sorrow, reach out to the robe of the Pole of Yasi,
He who commands the eternal path—Shah Yasi, Khoja Agha Ahmad.
His sanctuary is the Kaaba of hopes,
His retreat a place of divine communion."* [4]

ای تو گرفتار غم ناکسی دست تو و دامن قطب بیسی
آنکه سپه دار ره سرمد ست شاه بیسی خواجه آقا احمد است
درگه او کعبه حاجات شد خلوت او جای مناجات شد
خم فلک از بر او جرعه نوش جوف ملک گشته از او سبزپوش

This architectural masterpiece was restored two centuries after Yasawi’s death under the patronage of Timur, employing Iranian artisans from Tabriz, Isfahan, and Shiraz. [5]

The names of these craftsmen are engraved in the structure, and their descendants still live in Turkestan today. The mosque has often been compared in grandeur to the Bibi Khanum Mosque of Samarkand.

Within the mausoleum, a massive bronze cauldron (kazan) stands as a symbol of unity and hospitality in Turkic culture. Measuring 2.45 meters in diameter and weighing two tons, it bears the name of the Iranian master craftsman from Tabriz, Ustad Abdulaziz Sharafuddin Tabrizi. Pilgrims still make offerings into it today.

Teachings and Mystical Philosophy. Yasawi’s teachings rest on several core principles:

- **Asceticism and Piety:** Renunciation of worldly pleasures and a life of simplicity.

- **Divine Love and Practical Mysticism:** Sufism expressed through everyday actions and genuine service.

- **Serving Humanity:** Helping the poor and living among the people.
- **Spiritual Teaching in the Mother Tongue:** Yasawi was the first to present Sufi wisdom in the Turkic vernacular, using accessible poetic forms known as *hikmets* (wisdoms).

Divan-i Hikmet: The Voice of Turkic Mysticism

Divan-i Hikmet, Ahmad Yasawi's enduring literary legacy, is among the earliest and most significant texts of Turkic-Islamic mysticism. Composed in Chagatai Turkic, this collection of didactic and ethical poetry conveyed spiritual teachings in plain, heartfelt language.

The *Divan* outlines four essential stages of Sufi progression:

1. **Shari'a** – Outer observance of Islamic law
2. **Tariqa** – The inner path of self-purification
3. **Haqiqa** – Realization of divine truth
4. **Ma'rifa** – Mystical, experiential knowledge of God

Yasawi fused these levels into a cohesive spiritual framework, combining the outer form of religion with its inner essence. His poetry is not merely emotional expression, but a practical guide for spiritual seekers.

*"Whoever sees the self, sees God;
Washes the heart, and detaches from the ego."*

This couplet encapsulates his depth in simplicity—pointing to self-awareness as a gateway to God-awareness, and purification of the heart as the path to transcendence.

Cultural and Mystical Legacy

Khoja Ahmad Yasawi was more than a poet or mystic—he was a cultural reformer:

- **Founder of the Yasawiyya Order:** A Sufi school that later influenced others like the Naqshbandiyya and Bektashiyya.

- **Pioneer of Turkic Mysticism:** Bridged high Sufi discourse with the vernacular.
- **Inspiration for Turkic Poets and Mystics:** Including Yunus Emre (Turkey), Central Asian bards (*bakhshi*), and mystics in Tatarstan and the Caucasus.

- **Catalyst for the Islamization of Turkic Peoples:** His teachings helped introduce Islam to nomadic tribes in an accessible, heartfelt manner.

A Living Legacy

Today, Yasawi's mausoleum is not only a UNESCO-listed architectural marvel but a spiritual and cultural symbol of unity among Turkic nations. In 2003, UNESCO declared it the "Year of Ahmad Yasawi," prompting scholars and leaders to reevaluate his profound role in shaping religious and cultural identity in the Turkic world.

In Kazakhstan, he is revered as a national saint; in Turkey, he is a spiritual forebear to poets like Yunus Emre; in Uzbekistan, his works are part of a shared literary heritage; and in Kyrgyzstan and Turkmenistan, his name remains revered.

Conclusion. Khoja Ahmad Yasawi was not merely a mystic or religious leader—he was the architect of a spiritual worldview that wove religion into the language of the people, merged mysticism with the simplicity of daily life, and connected meaning with social engagement.

At a time when religion had become ritualistic and distant from the hearts of common people, Yasawi's sincere, accessible faith captured their souls. In a modern world where values such as spirituality, ethics, and simplicity are often lost, revisiting his teachings is not just a historical necessity—it offers a roadmap for reimagining meaningful life today.

“The thoughts of Khoja Ahmad Yasawi shine like a lamp in darkness, inspiring intercultural dialogue, ethical renewal, and spiritual connection in today’s world.”

Thus, Yasawi stands as a spiritual bridge between the intellectual traditions of Iran and the vernacular mystical heritage of Turkic peoples. From the *Divan-i Hikmet* to the towering dome of his mausoleum, his legacy continues to illuminate the paths of scholars, mystics, and communities across Central Asia and beyond.

References:

1. Ahmad Yasawi, K. (1995). *Hikmet*. Almaty: Art Publishing House.
2. Baqirkhani, S. (1991). *The Baqirkhani Book of Lyrical Poems and Stories*. Tashkent: Irochi Publishing.
3. Shalchi, A. (1999). *Diyar-e Ashena* [A Familiar Land]. (p. 340).
4. Ruzbahan, F. ibn. *Mehmannama-ye Bukhara* [The Guestbook of Bukhara]. Tehran: Elmi va Farhangi Publishing House. (*Describing the historical events of the reign of Abu'l-Fath Muhammad Shaybani*).
5. Art Publishing House. (1993). *Turkestan*. Almaty: Art Publishing House.
6. Behnamfar, M. H., & Molaei, M. (2012). Khwaja Ahmad Yasawi and the Development of the Yasawiyya Movement in Transoxiana and Turkestan. *Haft Aseman*, 14(55), 63–78.
7. Zarrinkoub, A. (1997). *Jostejo dar Tasavvof-e Iran* [A Quest in Iranian Sufism] (Vol. 1). Tehran: Amir Kabir.
8. Saffarzadeh, H. (n.d.). The Status of Khoja Ahmad Yasawi in Islamic Mysticism and Sufism: Epistemological, Methodological, and Historical Perspectives. Department of Persian Language and Literature, Farhangian University of Bojnourd, Iran.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi hikmatlarini o‘zbek olimlari orasida birinchi bo‘lib o‘rgangan Abdurauf Fitrat tadqiqoti dolzarbligi, ahamiyati tarixiy-biografik metod orqali sharhlab, aniqlab beriladi. Shuningdek, Abdurauf Fitratning bu tadqiqoti keyingi davr olimlari uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Ahmad Yassaviy, tadqiqot, o‘zbek olimlari, din, tasavvuf, tariqat.*

Abstract: The article analyzes and explains the relevance and significance of the research of Abdurauf Fitrat, who was the first among Uzbek scholars to study the life and works of Ahmad Yassavi, using a historical-biographical method. It also discusses the significance of Abdurauf Fitrat’s research for later scholars.

Keywords: *Ahmad Yassavi, research, uzbek scholars, religion, sufism, sect.*

Ajdodlar merosini, ularning hayotiy qarashlarini, ayniqsa, tasavvufiy tafakkurini o‘rganish ilmiy jihatdan nihoyatda muhim masalalardan biridir. Bu jarayon nafaqat tarixiy madaniyatimizni anglash, balki milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijtimoiy- jarayonlarni tushunish, til va adabiyot taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ajdodlarimizning hayot tarzi, dunyoqarashi va tafakkuri o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy holatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Xususan, tasavvufiy qarashlar Sharq tafakkurining ajralmas qismi sifatida rivojlangan bo‘lib, ularning adabiy, falsafiy va diniy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Tasavvuf faqat diniy yo‘nalish sifatida emas, balki inson ruhiyati, axloqiy kamolot va badiiy tafakkur bilan ham bog‘liq fenomen sifatida o‘rganilishi zarur.

Tasavvufiy g‘oyalar o‘zbek, fors, arab va turkiy tillardagi adabiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari mutafakkirlarning asarlari nafaqat ma’naviy-murabbiylik vazifasini bajargan, balki tilimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Tasavvufiy she’riyatda ishlatilgan ramziy obrazlar, majoziy ma’nolar va lingvistik konstruksiyalar bugungi filologik tadqiqotlar uchun zarur. Shunday muhim vazifani o‘zbek olimlari ichida birinchilardan bo‘lib bajarishga kirishgan va takomiliga yetkazgan olim – Abdurauf Fitratdir. Ijodkor o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi turli yo‘nalishlarni qamrab oladi. Xususan, Fitratning tasavvufga, xususan, Ahmad Yassaviy va yassaviylik tariqatiga bo‘lgan qiziqishi alohida e’tiborga loyiqdir.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) Ahmad Yassaviy ijodini o‘zbeklar orasida birinchi bo‘lib ilmiy asosda tadqiq etgan olim hisoblanadi. U 1927-yilda “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida “Ahmad Yassaviy” nomli maqolasini chop etgan bo‘lib, ushbu tadqiqot Yassaviyning hayoti, tasavvufiy qarashlari va adabiy merosiga bag‘ishlangan dastlabki o‘zbek ilmiy ishlaridan biri hisoblanadi. Fitrat o‘z maqolasida Yassaviyning “Hikmatlar” asarini tahlil qilib, uning turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatidagi o‘rnini yoritgan. U Yassaviyning tasavvufiy qarashlari, o‘zbek adabiyotiga ta’siri va she’riyati haqida ilmiy fikrlarni ilgari surgan. “Ahmad Yassaviyning bu asari hijriy beshinchi-oltinchi asrning adabiy bir yemishi, ya’ni mashhur “Qutadg‘u bilig” kitobidan bir asr so‘ngra “Hibat ul-haqoyiq” kitobi bilan bir asrda yozilmish bo‘lg‘ani uchun

adabiyot, ayniqsa, el tariximiz uchun katta ahamiyatliq asarlaridan sanalsa kerak. Hijriy beshinchi-oltinchi asrda yozilgan turkcha asarlarning ozlig'ini ko'zga olg'onimizda bu asarning qiymadi yana ortgan bo'lur edi. Lekin baxtga qarshi masalaning shu tomoni kutganimizdan biriz boshqachadir: "Devoni hikmat"ning bu kun ma'lum bo'lg'an nusxalarining hammasi, hech bo'lmag'anda bir qismi so'ng zamonda yetishkan mana shunaqa shogirdlarining asarlari emasmi?" (Abdurauf Fitrat, II jild. Ilmiy asarlar/ Ahmad Yassaviy. T.: "Ma'naviyat", 2000. – B.19). A. Fitrat yuqoridagi fikrlari bilan Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari va uning tarixiy-adabiy o'rni haqida fikr yuritilgan. "Devoni hikmat" hijriy V-VI asrlarda (milodiy XI-XII asrlarda) o'zbek adabiyotida muhim o'rinlarni egallagan boshqa asarlar bilan deyarli bir davrda yaratilganligi uni adabiyotimiz va tariximiz uchun muhim asar sifatida ko'rsatadi. Abdurauf Fitrat o'sha davrda turk tilida yozilgan asarlar juda kam bo'lgani uchun "Devoni hikmat"ning ahamiyati yanada ortganligini, Yassaviyning bu asari turkiy adabiyot va tasavvuf merosi uchun muhim hisoblanishini alohida ta'kidlab o'tgan. Lekin shuning bilan birga Yassaviy hikmatlaridagidek she'riy uslub keyinchalik an'anaga aylanib, bu uslubda ko'pchilik ijod qilganligi sababli bugungi kunda fanga ma'lum bo'lgan "Hikmatlar" Ahmad Yassaviy qalamiga mansubligi noaniq ekanligini aytib o'tgan. "Ahmad Yassaviydan keyin uning uslubida she'r yozmoq turk shayxlari orasida "mo'da" shakliga kirgan" (Abdurauf Fitrat, II jild. Ilmiy asarlar/ Ahmad Yassaviy. T.: "Ma'naviyat", 2000. – B.20). Muallif "Devoni hikmat"ning bizgacha yetib kelgan nusxalari haqida shubha bildiradi. Hozir ma'lum bo'lgan qo'lyozmalar asl nusxalar emas, balki keyingi davrlarda shogirdlari yoki izdoshlari tomonidan to'plangan va qayta yozilgan bo'lishi mumkin. "Bu kun(gi) "Devoni hikmat"ning hammasi, hech bo'lmag'anda bir qismi so'ng zamonda yetishkan mana shunaqa shogirdlarining asarlari emasmi?" (Abdurauf Fitrat, II jild. Ilmiy asarlar/ Ahmad Yassaviy. T.: "Ma'naviyat", 2000. – B.19). Fitratning ushbu qarashlari ilmiy-nazariy muhokamalar uslubida yozilgan bo'lib, "Hikmatlar"ning asl shakli va uning keyingi davr nusxalari o'rtasidagi farq haqida fikr yuritadi. Bu savol hozirgi adabiyotshunoslikda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Fitratning bu tadqiqoti keyinchalik boshqa olimlarning Yassaviy merosiga qiziqishiga turtki bo'lgan. Ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotshunosligi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki Fitrat o'z davrida Yassaviyni faqat diniy shaxs sifatida emas, balki uning adabiy va falsafiy ahamiyatini ham ochib bera olgan. Keyinchalik Fitratning izidan boshqa olimlar ham Yassaviy ijodini chuqurroq o'rganishga kirishgan.

Ijodkorning ushbu tadqiqoti bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, u o'zbek tasavvuf adabiyotini ilmiy tahlil qilishda asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Yassaviyshunoslik, ya'ni Ahmad Yassaviy ta'limoti, uning she'riyati va tariqatining tarixi bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalish Fitrat asarlarida ham o'z aksini topgan.

Ahmad Yassaviy Movarounnahr va Turkiston o'lkasining buyuk mutasavvufi bo'lib, uning hikmatlari islomiy-irfoniy g'oyalarni keng xalq ommasiga yetkazishda muhim o'rin tutgan. Fitrat esa Yassaviy ijodining tarixiy, falsafiy va adabiy jihatlarini o'rganib, uning o'zbek adabiyoti va madaniyatiga ta'sirini ochib berishga harakat qilgan. Fitratning yassaviyshunoslikka doir ilmiy ishlari, bir tomondan, uning ma'rifiy islohotchilik harakatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, turkiy xalqlarning madaniy va diniy merosini chuqur anglash istagidan kelib chiqqan. Uning ilmiy izlanishlarida Yassaviy tariqatining ijtimoiy va axloqiy jihatlar ham muhim o'rin egallaydi. Fitrat, ayniqsa, Ahmad Yassaviy ta'limotining xalq orasida qanday tarqalganiga va uning turkiy xalqlar hayotida qanday o'rin tutganiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u Yassaviy hikmatlarining mazmuniy jihatdan islomiy va milliy qadriyatlar uyg'unligini aks ettirganini ta'kidlaydi.

Fitratning yassaviyshunoslikka qo'shgan hissasi uning tarixiy va adabiy yondashuvlari orqali namoyon bo'ladi. U Yassaviyning ijodiy merosini nafaqat diniy-falsafiy jihatdan, balki uning she'riyati va adabiy uslubining xususiyatlari nuqtayi nazaridan ham tahlil qiladi. Shu boisdan, Fitrat asarlari nafaqat yassaviyshunoslar, balki kengroq o'quvchilar doirasi uchun ham qimmatli ilmiy manba sifatida baholanadi.

Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy hamda uning ijodini ilmiy tadqiqotlari obyektiga aylantirar ekan buning sababini jumladan quyidagilar bilan izohlaydi: "Ahmad Yassaviy to'g'risida matbuotimizda bir-ikki yo'la gaplar bo'lib o'tgan edi. Lekin, ular quruq maxtachlar ham anchagina falsafalardan to'ldirilgan; shuning uchun Ahmad Yassaviy hikmatlarini bo'lg'ani kabi tasvir qilib berish xizmatidan ojiz maqolalar edilar. O'zbek adabiyoti tarixini yozib turganim munosabati bilan Ahmad Yassaviy bilan ancha mashg'ul bo'lishg'a to'g'ri keldi. Mana shu mashg'uliyatlarning qisqag'ina bir xulosasini "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining o'qig'uchilarig'a arz etishni munosib ko'rdim". (Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur: Esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar. T.: "Sharq", 2007. B.19). Fitratning ta'kidlashicha, Ahmad Yassaviy haqida avval matbuotda yozilgan ba'zi maqolalar bor edi, lekin ular asosan maqto'v va falsafiy mulohazalarga asoslangan bo'lib, Yassaviyning hikmatlarini asl holda tasvirlash imkoniyatidan yiroq edi. Bundan tashqari, Fitrat O'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etayotgani sababli, Ahmad Yassaviy ijodiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'ldi. Chunki Yassaviy ijodi turkiy xalqlar adabiyoti va ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. "Ahmad Yassaviyning turkiy adabiyotdagi tarixiy xizmati faqat hikmatnavislik an'anasini boshlab berganligi bilan chegaralanmaydi, albatta. "Devoni hikmat"da munojot, qasida, munozara janri talablariga muvofiq keladigan she'rlar bilan bir qatorda "Me'rojnom" ham o'rin olgan"¹ (Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur: Esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar. T.: "Sharq", 2007. B.19). Fitrat o'z tadqiqotlari natijalarini keng ommaga yetkazish maqsadida "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining o'quvchilariga qisqacha xulosalarni taqdim etishga qaror qilgan. Fitrat Yassaviy ijodini ilmiy asosda o'rganish, uning hikmatlarini asl mohiyatida tushuntirish va o'zbek adabiyotining rivojlanish jarayonida tutgan o'rnini aniqlash maqsadida tadqiqot olib borgan.

Xulosa qilib aytganda, Fitratning Yassaviyshunoslik sohasidagi ishlari hazrat Ahmad Yassaviy shaxsiyatining turkiy-islom madaniyatidagi o'rnini ochib berishga qaratilgan. U Yassaviya tariqatining shakllanishi, uning turkiy xalqlar ruhiyatiga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, Ahmad Yassaviyning hikmatlari orqali ommaviy diniy va axloqiy tarbiyaning qanday yo'lga qo'yilgani haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Fitrat o'z asarlarida Yassaviyning tasavvuf falsafasi, uning Turkiston xalqlari ma'naviy hayotidagi roli va u qoldirgan merosning ahamiyati haqida ilmiy yondashuv asosida fikr yuritgan. Fitrat Yassaviya tariqatining o'ziga xos xususiyatlarini, uning boshqa tasavvuf yo'nalishlaridan farqini ham o'rganib chiqqan. U Yassaviy falsafasining asosiy g'oyalari – insoniylik, ma'naviy poklik, adolat va xalq manfaatlariga xizmat qilish kabi tushunchalar orqali jamiyat hayotiga ta'sirini tadqiq etgan. Shuningdek, Fitrat o'z davrining ijtimoiy masalalarini Yassaviy qarashlari bilan bog'lab, xalqni isloh qilish g'oyasini ilgari surgan. Abdurauf Fitratning Yassaviyshunoslikka qo'shgan hissasi nihoyatda muhim, uning tadqiqotlari Yassaviya tariqatining tarixi va uning turkiy xalqlar hayotiga ta'siri haqida aniq ilmiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shu sababli, Fitratning bu boradagi asarlari hozirgi kungacha qimmatli ilmiy manba sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyati hamda dolzarbligini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat, II jild. Ilmiy asarlar/ Ahmad Yassaviy. T.: "Ma'naviyat", 2000. –15-45-bet

2. Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur: Esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar. T.: “Sharq”, 2007. 19-30-betlar.
3. Hikmatlar kulliyoti/ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar/ Sulaymon Boqirg‘oniy; I. Haqqul, E. Ochilov. T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 464 b.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining etnolingvistik xususiyatlari

Hayitova Mahliyo Ilhom qizi

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti tayanch doktoranti,

E-mail: hayitovamahliyo96@gmail.com

Annotatsiya: Ahmad Yassaviy butun turkiy dunyoning eng koʻzga koʻringan mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Uning diniy qarashlarni badiiy ifodalagan hikmatlarini nafaqat adabiy-badiiy, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham keng oʻrganish mumkin.

Kalit soʻzlar: *“Hikmat” etnolingvistik birlik, frazeologik birlik, xalq ogʻzaki adabiyoti, maqol.*

Ethnolinguistic features of Ahmad Yassavi's wisdom

Abstract: Ahmed Yassavi is considered one of the most prominent thinkers of the entire Turkic world. His wisdom, which artistically expresses religious views, can be widely studied not only from a literary and artistic perspective, but also from a linguistic point of view.

Keywords: *“Hikmat” ethnolinguistic unity, phraseological unity, folk oral literature, proverb*

Sharq tasavvuf adabiyoti va turkiy adabiyotda mutasavvuf olim va ijodkor Ahmad Yassaviyning oʻrni nihoyatda katta. Garchi XII asrda yashab ijod qilgan boʻlsa ham, uning hikmatlarini bugungi til kishisi ham qiynalmasdan oʻqiydi, maʼno-mazmunini toʻliq tushuna oladi. Islomiy tafakkurni oddiy xalq tilida, aynan ular tushunishi va anglashi uchun sheʼriy hikmatlar tarzida ifodalagan Adib Ahmadning hikmatlarida nihoyatda koʻp xalqona jumalardan, frazeologik birliklardan, metaforik birikmalardan, xalq ogʻzaki ijodiga tegishli boʻlgan maqol-u hikmatli soʻzlardan ham foydalanilgan. Mazkur maqolada adib hikmatlarining til xususiyatlariga eʼtibor qaratib, ularni etnolingvistik jihatdan tadqiq etishga harakat qilamiz.

Jahon tilshunosligida fanlarning oʻzaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan fanlardan biri aynan etnolingvistikadir. Bu soha til, madaniyat va etnosni oʻzaro birlashtirgan holatda tadqiq qiladi. Akademik N.I.Tolstoyning taʼkidlashicha: “...keng maʼnoda etnolingvistika dialektologiyani, folklor tili va tarixning tarixiy dialektologiya va xalqning madaniy-etnik tarixi bilan bogʻliq qismini oʻz ichiga oladi” [Tolstoy N.I. 1983: 156]. Etnolingvistik tadqiq muayyan bir etnosning tili orqali uning madaniyati, urf-odatlarini, dunyoqarashini oʻrganishdir. Demak, har qanday davrga oid boʻlgan matn va manbalarni etnolingvistik nuqtayi nazardan tahlil maydoniga tortish mumkin. Quyida Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” asaridan olingan ayrim badiiy parchalarni aynan shu nuqtayi nazardan koʻrib chiqamiz.

Kichiklikda qilgʻon ishdin emdi yondim,

Tavba toʻnin kiydim, tavfiq qurin tongdim.

Nafs qopini markab qilib, tepib mindim,

Ondin tegdi tariqatni yoʻli mango. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 15]

Adibning yuqoridagi hikmatida “toʻn” etnolingvistik birligi qoʻllangan boʻlib, oʻzbek etnomadaniyatida bu kiyim alohida oʻrin tutadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida toʻn soʻziga quyidagicha taʼrif berilgan: “Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon. Kimxob toʻn. Olcha toʻn. Banoras toʻn” [OʻTIL, 2006: 239]. Oʻzbek etnomadaniyatida muhim oʻrin tutadigan bu milliy kiyimning tarixi qanchalik uzoq davrga borib taqalishini Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan ham koʻrishimiz mumkin. Ammo kontekstda bu etnolingvistik birlik

ko'chma ma'no ifodalab, "tavba to'nin" shaklida qo'llanyapti. Demak, muallif qilgan va qilishi mumkin bo'lgan gunohlari uchun shunchalik chuqur qayg'udaki, hatto tavbani ham egniga to'n qilib kiyib olgan. Bu orqali muallif har bir inson biror bir amalni qilishdan oldin uning gunohini o'ylab ko'rishi va shu orqali bunday ishlardan tiyilishi kerakligini uqtiradi. Tavba qilishni esa biror lahza bo'lsa ham, unutmastikka da'vat etadi.

Mayxonag'a kirgan tolib holi o'zga,

Oyat, hadis bayon qilsang, yetar so'zga,

*Ahlin tobsa, izin olib, **surar ko'zga,***

Ondog' oshiq bu olamda turg'oni yo'q. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 23]

Yuqoridagi matnda ham "ko'zga surtmoq" frazeologik birligini etnolingvistik birlik sifatida tadqiq qilish mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida bu birlik "ortiq darajada qadrlamoq, e'zozlamoq" [O'TIL, 2006:447] deb izohlab ketilgan. Ya'ni bir insonning boshqa bir insonga yoki narsaga nisbatan bo'lgan hurmatining eng yuqori darajadagi ko'rinishi. Bu harakat o'zbek va bir qator turkiy etnomadaniyatda ko'p qo'llanadi. Masalan, rizq-nasiba ramzi non yerga tushib ketsa, yerdan olinganda ko'zga suriladi. Yoki yoshi ulug' onaxonlarimiz ko'klamga yetishganda boychechaklarni ham ko'zga surib, e'zozlab qo'yishadi. Shu bilan birgalikda, qardosh turk xalqida keksa kishilar, yoxud o'zlarining ota-onalari bilan ko'rishayotganda ularning kaftlarini ko'zga surib qo'yish odati bor. Yuqoridagi tahlilga tortilgan matnda esa "agar tolibi ilm o'ziga mos va o'zi mos keladigan davrani topsa, uning ahli bosib o'tgan izlarni ham ko'zga surtib, ehtiromini namoyon etishga tayyor bo'ladi" degan mazmunni uqish mumkin.

Qul Xoja Ahmad, kundek yorur ko'nglum nuri,

*Holatim yo'q, **qonim yo'q,** rangim sori.*

Quadrat qanot berdi, uchtum Arshdin nori,

Ro'zi qildi dargohida borin mango. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 15]

Yuqoridagi badiiy parcha tarkibidagi "ko'ngli kundek yorishmoq" va "rangida qon yo'q" frazeologik birliklarini ham etnolingvistik jihatdan tahlil qilish mumkin. Chunki o'zbek etnomadaniyatida yuzdagi qizillik sog'lomlik ifodasi hisoblanadi. Demak, yuzda qizillik yo'qligi – qon yo'qligi insonning ichki xotirjamligining yo'qligi belgisi hamdir. O'zbek frazeologiyasida "ko'ngil" konsepti asosida shakllangan birliklar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Ahmad Yassaviy tomonidan esa bu iboraning badiiy talab nuqtayi nazaridan biroz o'zgargan shakli qo'llanmoqda. Inson har qancha jismonan toliqmasin, agar unga g'oyibdan quvvat beriladigan bo'lsa, hammasi tamoman o'zgarishi uqtiriladi. Ruhiy quvvat jismoniy quvvatsizlikning ham o'rnini to'ldiradi, degan fikrni uqish mumkin.

Davlat yang'lig' shunqor qushi kimga qo'nar,

Lochin yang'lig' halqa ichra o'zin urar.

Jonni qushi parvoz qilib hozir turar,

Hozir bo'lub, tavba qilib yurung, do'stlar. [Xoja Ahmad Yassaviy, 2004: 32]

Qadimgi turkiy xalq og'zaki ijodiyotida podshoh tanlash uchun alohida marosim tashkil qilingani aytiladi. Unga ko'ra agar amaldagi podshoh vafot etsa, uning o'rniga hukmdor tanlash uchun saroydan qush uchirilgan. O'sha qush kimning boshiga qo'nsa, aynan u podshoh qilib ko'tarilgan. Ahmad Yassaviy ham aynan shu marosimni keltirish orqali qadimiy xalq etnografiyasi va diniy tafakkurni uyg'unlashtira olganini ko'rish mumkin. Ijodkor bu jumlaning ko'chma ma'noda qo'llagan bo'lib, o'lim qachon kimning boshiga kelishini hech kim bilmaydi, shu bois doim tavbada yurish kerak degan g'oyani ham ilgari surmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviy va “Devoni hikmat” asari butun turkiy va tasavvufiy adabiyotning eng yorqin namunasi hisoblanadi. Hikmatlar she’riy yo’lda yozilganligi, xalq og’zaki ijodiga yaqin bo’lganligi bois o’qilishi oson, yod olinishi tez. Ayni shu sabab ham hikmat namunalari xalq tilida keng tarqalgan. Bunday she’riy parchalar tarbiyaviy va axloqiy xususiyatlarga ega bo’lishidan tashqari, tilshunoslik sohasi uchun ham muhim manba hisoblanadi. Asar tili, uning leksik-semantik xususiyatlari, etnolingvistik va lingvokulturologik jihatlari ham anchagina tahlil talab hisoblanadi. Ularni tilning yangi sohalari nuqtayi nazaridan tahlil qilish esa asarning yangi xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaxarova M. O’zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. Avtoreferat. – Toshkent. 2009. – 28 b.
2. Древнетюркский словарь (ДТС). – Л., 1969. – 676 б.
3. Толстой Н. И. О предмете этнолингвистики и ее роли в изучении языка и этноса // Ареальные исследования в языкознании и этнографии (Язык и этнос). Л., 1983. 252 с.
4. Hoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 83 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. IV. – 591 б.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining yoshlarga ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

f.f.b.d. (PhD) Yunusova Bahora Axtamovna

Samarqand davlat universiteti

Dots. Yunusova Durdona Axtamovna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Ahmad Yassaviy hikmatlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni, axloqiy tarbiya inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil ekanligi, nafs inson kamolotiga xalaqit beruvchi yovuz kuch ekanligi haqida so'z boradi. Unda Yassaviy g'oyalarining axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlar targ'iboti orqali ta'lim jarayoniga integratsiyasi, hikmatlarning inson hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *axloqiy tarbiya, komil inson, tarkidunyochilik, nafsga qarshi kurashish, ilm olish, ta'lim-tarbiya.*

Аннотация: В статье рассматривается роль мудрости великого мыслителя Ахмада Яссави в воспитании молодежи, то, что нравственное воспитание является важным фактором повышения духовности человека, и что это является злой силой, препятствующей совершенствованию человека. Анализируется интеграция идей Яссави в образовательный процесс через пропаганду моральных, духовных и социальных ценностей, а также важность мудрости в жизни человека.

Ключевые слова: *равственное воспитание, совершенный человек, мирская жизнь, борьба с похотью, приобретение знаний, образование.*

Annotatsion: The article discusses the role of the wisdom of the great thinker Ahmad Yassawi in the education of youth, that moral education is an important factor in increasing human spirituality, and that the ego is an evil force that hinders human improvement. The integration of Yassavi's ideas into the educational process through the promotion of moral, spiritual and social values, as well as the importance of wisdom in human life, is analyzed.

Key words: *moral education, perfect man, worldly life, struggle with lust, acquisition of knowledge, education.*

XXI asr – ma'naviyat, tafakkur va ruhiy yuksalish davridir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma'naviy kamoloti muhim o'ringa ega bo'lib, ular mustaqil fikrlovchi, axloqiy barkamol, vatanparvar shaxs bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Shu maqsadda buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosiga murojaat qilish, ayniqsa, Ahmad Yassaviy hikmatlarini o'quv-tarbiya jarayoniga kiritish alohida ahamiyat kasb etadi. U o'zining hikmatlari orqali islom axloqiyati, insoniylik, sabr-qanoat, halollik, odob, e'tiqod, nafs tarbiyasi kabi fazilatlarni targ'ib qilgan. Bu insoniy fazilatlar bugungi yoshlar uchun ham muhim tarbiya mezondir.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari xalqona axloqiy tarbiyaning mujassam namunasi hisoblanadi. Yassaviy hikmatlarining tili ifoda uslubi sodda, ravon va yod olinishi qulay she'rlar bo'lib, asrlar mobaynida turkiy xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida muhim o'rin tutib keladi [Köprülü F., 1991, 120]. Shu sababdan hozirgi kun yoshlari uchun hikmatlar qulay va oson o'qiladigan, ma'nosi tez tushuniladigan xazinadir.

Yassaviyning hikmatlari yengil, xalqona, lekin chuqur mazmunli, axloqiy-ma'rifiy g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Haqiqatga yetishish yo'li sabr va poklik ekanligi, nafs bilan kurashish orqali ruhiy yetuklikka erishilishi, ustoz-shogird an'anasiga qat'iy rioya qilish, ilm eng oliy fazilat

ekanligi, kamtarlik, mehr, halollik, sabr komil inson fazilatlarini ekanligi, murshid, piri komil, Ollohgaga bo'lgan ishq tarbiyaning asosiy sarchashmasi ekanligi Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu g'oyalar bugungi kun yoshlari uchun ijtimoiy moslashuv, axloqiy yuksalish, vatanparvarlik va ruhiy sog'lomlik nuqtayi nazaridan bebaho manba hisoblanadi. Shuningdek, Yassaviy hikmatlarida ilmga intilish, bilimga, ma'rifatga chorlash yetakchilik qiladi, misralarda ilmli kishilarning qadri baland ekanligi teran yoritiladi:

*Ey do'stlarim, oriflar xolis suhbat etorlar,
Ul suhbatda ma'rifat durlarini sochorlar
Suhbat vaqti hozir bo'l, eranlarga nozir bo'l!*

Ul holatda eranlar, erga nazar qilurlar [Ahmad Yassaviy, 2004: 28].

“Devoni hikmat”dagi ilm va aqliy tarbiyaga doir fikrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy faqat yirik din arbobi bo'libgina qolmay, ajoyib shoir va buyuk ma'rifatparvar, pedagog ekanligi bilan ham ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning atrof-muhitdagi hayot ziddiyatlarini kuzatishlari juda nozik va teran pedagogik mushohadalarga, boyligi bilan ajralib turadi. Bir zamonlar gullab yashnagan, ilm-u urfon yuksakligiga erishgan Buxoroda ham, boshqa shaharlardagi kabi, shohlar va hokimlar, vazirlar va hatto olimlardan himmat, ma'rifat, insof-diyonat yo'qolib ketganligi, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada bo'shliqning paydo bo'layotganligi Yassaviyni juda qattiq tashvishga solayotganligini quyidagicha ifodalaydi:

*Nokas, xasis bediyonat qullar hokim,
Manmanlik haddin oshib, bo'ldi zolim
Xalq ichinda xor bo'ldilar darvesh, olim*

Himoyati xalqni kofir bo'ldi, ko'ring [Ahmad Yassaviy, 1991:190].

Bu misralar nafaqat yoshlarni, balki barcha xalqni ogohlantiruvchi, aqliy, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini u hamma vaqt tarbiyada, ilmga, axloqiy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozongan.

Xoja Ahmad Yassaviy fanni, bilimni chala, sayoz o'rganishga qarshi chiqadi. Har bir so'zning ma'nosini bilib olgan holda ularni xalqiga, o'sib kelayotgan yosh avlodga nishon deb keltirgan hikmatlaridagi so'zlarini dur va gavhar bilan tenglashtiradi. Xoja Ahmad Yassaviy o'z vazifasiga yuzaki qarovchi, palapartish bajaruvchi, bilimi sayoz olimlarni ayovsiz tanqid qiladi va “haqiqiy olim kim?” degan savolga qator hikmatlari orqali javob beradi:

*Olim uldur, xisht yostanib tahsil qilsa,
Kecha-kunduz Tangrisiga zori qilsa,
“Falyazhaku” oyatini tafsir qilsa,*

Andog' olim olim bo'lur, do'stlarimo [Rafiddinov S., Hasan N., 2022: 28].

Ahmad Yassaviyning xalqsevar va insonlar qalbidan o'rin oluvchi jo'shqin nidolari komil inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida zamondoshlarini va bugungi kun yosh avlodini ham faqat yaxshilik, mehnatsevarlik, ulug'lik, mardlik, poklik, ilmsevarlikka undaydi:

*Qul Xoja Ahmad er bo'lmasang o'lgon yaxshi,
Qizil yuzing qaro yerda so'lg'on yaxshi,
Tufrog' sifat yer ostida bo'lg'on yaxshi,*

Zoti ulug' Xojam, sig'nib keldim sanga [Rafiddinov S., Hasan N., 2022: 53].

Yassaviy shaxsni inson sifatida shakllantiruvchi omil sifatida, eng avvalo, ustozni qo'yadi. U insonning yaxshi xulq va odobni, maqbul ish va ma'qul kasbni o'zlashtirishi ustozsiz amalga oshmaydi, deb belgilaydi. Ustozlarni yoshlarni yaxshi kunga yetaklovchi shaxs deb hisoblab, ularga yuksak talablarni qo'yadi. Savodsiz ustozlarni tanqid ostiga oladi. Shuningdek, badiiy so'z,

musiqaning, yoshlarga nafosat tarbiyasini berishda ahamiyati katta ekanligi, soʻz-suhbat jon ozigi ekanligini tushuntiradi. Odamni boyligi emas, balki uning yaxshi ishlari, ilmi azoblardan qutqaradi, shu sababli inson har bir xatti-harakatining meʼyori, oʻlchamini bilishi zarur, deydi. Barcha yomon ishning asosida dunyoparastlik, ochkoʻzlik yotishi, johillar mol-u dunyo yigish uchun Xudoni, podshoni, odamlarni aldashi, fozillar esa, aksincha, Xudoga itoat qilib, pokiza yashashlari kerak, degan fikrlarni bayon qiladi. Inson oʻzini-oʻzi boshqara olishi, kuchli iroda egasi boʻlishi, yaʼni yomon taʼsirlarga berilmasligi lozimligini uqdiradi. Bu xususiyatlarni egallash uchun esa unga ixlos zarur boʻladi, deb quyidagi satrlarni keltiradi:

*Ursa-soʻksa pir etogin mahkam tutgil,
Ayo tolib xizmat ichra qonlar yutgil.
Jon ber desa ixlos birla jondin oʻtgil,
Eshitib, uqub, xizmat qiling, doʻstlarimo.*

Bu hikmatdan koʻrinib turibdiki, insonning ilm-maʼrifat ahliga boʻlgan ixlosi, sadoqati, bu yoʻlda har qanday zahmatdan qoʻrqmasligi, sabr bilan mashaqqatni yengib ilm-fanni egallashi, uni yomon ishlardan asrab qoladi.

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yana bir jihati tarkidunyochilik, yaʼni gunoh, nuqson, kamchiliklarni tark etish aqidasi. Bunda ikkita goya - yaxshi fazilatlarini takomillashtirish va nuqsonlarni tark etish bir-birlarini toʻldiradi. Har bir kishi umri davomida xatolar qilishi mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy oʻz xatolarini tuzatishning birdan bir yoʻli - tavba qilish, oʻz xatosini oʻzi tuzatishga intilish, oʻzini-oʻzi qayta tarbiyalash, deb tushuntiradi va oʻzi ham umri davomida bunga amal qiladi. Xoja Ahmad Yassaviy odob bir daraxt boʻlsa, hayo uning mevasidir, deb koʻrsatadi.

Agar shaxsda takabburlik mavjud boʻlar ekan, undagi saxovat, odob, axloq, hayo chiroqlari oʻchadi, deb quyidagi satrlarni keltiradi:

*Ulugʻ-kichik yoronlardin adab ketti,
Qiz-u zaif javonlardin hayo ketti,
“Al-hayou min al-imon” deb Rasul aytti
Hayosiz qavm ajoyiblar boʻldi, doʻstlar [Rafiddinov S., Hasan N., 2022: 105].*

Hadis soʻzlari “Alhayo-u al-imon”ni Rasulloh tomonidan aytilishi kabilar ana shu “daraxt”ning hayotiga, yaʼni har bir shaxsgagina emas, balki butun bir xalq, millat hayotiga ham taʼsir koʻrsatadi. Bu esa, oʻz navbatida, odamlar oʻrtasida hurmatsizlik, oqibatsizlik, shafqatsizlik kabi sifatlarni kuchaytiradi. Bunday ijtimoiy-maʼnaviy muhitda riyo, bir-biriga ziyon berish, qavmlar orasidagi mojarolar va makkorlik kabi salbiy holatlar odatga aylanadi.

Shu oʻrinda Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni taʼkidlash oʻrinli boʻladi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi.

Nafsini jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq boʻlsa, bunday sabrli ishq egasining “mahshar kunida armoni” boʻlmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida “Nafsni tepib dargohiga loyiq boʻlgʻil”, deb taʼkidlanadi. Bu ham nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga koʻtarila olishiga doir mulohazadir.

*Ishqqa tushding, oʻtga tushding, kuyib oʻlding,
Parvonadek jondin kechib axgar boʻlding,
Dardga toʻlding, gʻamga toʻlding, telba boʻlding,
Ishq dardini soʻrsang hargiz darmoni yoʻq [Ahmad Yassaviy, 1991: 80].*

Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy, avvalo, uni bamisoli o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'xshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas.

Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga "shum" sifati beriladi. Shoir "nafsi bad", "nafs yo'li", "nafs ilgi" singari istioralarni ham qo'llaydiki, bu orqali hikmatlarning ta'sirchanligini, tasviriyligini oshirishga yordam beradi. Adib to'g'ridan to'g'ri nafsga qarshi kurashni, uning yo'rig'iga yurmaslikni targ'ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko'rsatib beradi. Boshqa bir she'rida shunga urg'u berib yozadi:

*Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.
Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor [Ahmad Yassaviy, 1991: 102].*

Ahmad Yassaviyning hikmatlar tili unchalik murakkab emas. Masalan:

*Rabbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam,
Asal yanglig' suchuk bo'lur tilim mening.
O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglim mening [Ahmad Yassaviy, 1991: 102].*

Birinchi misradayoq she'r mavzu yo'nalishini anglab olish mumkin. Zotan, Yaratguvchini yodlash odamni xotirjam qiladi, achchiq tili shirin tilga aylanadi. Shoir o'zini juda kamtar tutadi va shu kamtarligi ortidan ko'ngli yuksaklikka parvoz qiladi. "Muqir" arabcha so'z bo'lib "iqrar bo'lmoq, bo'yniga olmoq" ma'nolarini anglatadi. Shoir faqatgina faqir-u haqirligini emas, balki Yaratguvchiga banda ekaniga iqrar bo'ladi. Adib hikmatning har bandida ichki qofiyalarni qo'llab, o'z ichki kayfiyati, holini o'ynoqi bir uslubda bayon qilar ekan, shu mamuniyat sabablarini ham "nafsim qochdi", deb o'z nafsini yengganiga olib borib bog'laydi; o'zini tuproqqa tenglashtiradi.

Umuman olganda, Ahmad Yassaviy hikmatlari yengil, xalqona, lekin chuqur mazmunli, axloqiy-ma'rifiy g'oyalar bilan to'yingan. Har bir hikmat o'zida insoniy komillik sari chaqiriqni ifodalaydi.

*Nodonlarni mendan so'rma, ko'ksun jaqa,
Haqdin qo'rqib motam qo'rsam, kular qah-qah,
Og'zi ochuq, nafs ulug', misli laqqa,
Nodonlardan qo'rqib senga keldim mano [Rafiddinov S., Hasan N., 2022: 38].*

Yuqorida keltirilgan bir qator hikmatlardan ko'rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy uchun yoshlarning komil inson bo'lib shakllanish asosini ruhiy poklanish, nafsni tiyish, irodani kuchaytirish, o'zini o'zi qayta tarbiyalash kabi omillar tashkil qiladi. Haqiqatan ham, bu omillar shaxsning ma'naviyati, dunyoqarashi, ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardir. Albatta, insonning shaxs, shaxsning esa komil inson bo'lib shakllanishida biologik omillardan tashqari, ijtimoiy ta'sirlarning, ya'ni atrof-muhit, ta'lim-tarbiya kabi jarayonlarning ahamiyati kattadir. Komil inson tushunchasi Yassaviy ta'limotida ma'naviy kamolotga erishish va axloqan yuksalishni maqsad qilib qo'ygan komil insondir. Bugun ham faqatgina moddiy hayotlarini boyitish uchun harakat qilgan va yolg'iz o'zini o'ylab atrofdagilarga loqayd qaraydigan xudbin kishilar Yassaviy tarbiyasiga, albatta, muhtojdirlar.

Biz bugungi kunda komil inson tushunchasini bugungi kun hayot tarzidan, bugungi kun yoshlarini qiziqtirgan masalalardan uzoqlashmagan holda talqin etishimiz kerak. Buning uchun Yassaviy tariqati, ularda ilgari surilgan komil inson tushunchalarining ahamiyati juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Köprülü F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. -Ankara: Diyanet yayınevi, 1991, s.120.
2. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). – T.: Movarounnahr. 2004. – 83 b.
3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 1991. –255 бет.
4. Rafiddinov S., Hasan N. Turkiy adabiyot durdonalari (4-jild).– T.: O‘zbekiston. 2022. – 592 b.

Annotatsiya. Ahmad Yassaviyning hikmatlari to'rtliklar shaklida sodda, tushunarli yozilgan bo'lib, unda qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalardan biri o'xshatishlar shoirning fikrlarini yanada ta'sirchan yetkazishga xizmat qiladi. Insonga xos jihatlar, olam haqidagi tasavvurlar oddiy tushunchalar orqali obrazli ifodalangan. Yassaviy hikmatlarida o'xshatishlarning qo'llanilishi orqali shoir qarashlari, falsafasi mohirona ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *tashbeh, o'xshatilmish, o'xshatish vositalari, obrazli, estetik, tashbihi mufassal.*

The use of smiles as one of the artistic means of depiction in the works of Ahmad Yassavi

Abstract: Ahmad Yasawi's wisdom poems are written in a simple, understandable form in the form of quatrains, and one of the artistic means of expression used in them is similes, which serve to convey the poet's thoughts more effectively. Aspects inherent in man and ideas about the world are figuratively expressed through simple concepts. In Yasawi's wisdom poems, the poet's views and philosophy are skillfully revealed through the use of similes.

Keywords: *simile, simile, means of simile, figurative, aesthetic, detailed simile.*

XI-XII aslarda tasavvufning mashhur namoyandalardan biri Xoja Ahmad Yassaviy yashab o'tib, o'zidan bizga takrorlanmas ijodiy merosni qoldirdi. "Devoni hikmat" nomi bilan yetib kelgan hikmatlar to'plami Yassaviyning shogirdlari tomonidan yetib kelgan asardir. "Devoni hikmat" da bildirilgan fikrlar hali hanuz qimmatini yo'qotmasdan, o'quvchini mushohadaga tortadi. Undagi fikrlar inson va olam munosabati, insoniy g'oyalar, davlatchilik asoslari kabi davrning ma'naviy tushunchalari umumlashtirilgan manbadir. O'z davridanoq hikmatlarning sodda va tushunarli tili xalq ichida tez tarqalib, hikmatlarning tildan tushmasdan yetib kelishiga sabab bo'lgan. Ushbu hikmatlarda qo'llangan badiiy tasviriy vositalardan biri bo'lmish tashbeh eng ko'p qo'llangan vositadir. "Tashbih" arab tilidan olingan so'z bo'lib, "o'xshatish" degan ma'noni anglatadi. Bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisaga o'xshatish orqali amalga oshadi. V.Rahmonov ta'kidlaganidek, tashbehdan maqsad: o'sha o'xshatilgan narsani aniqroq tasavvur etish; butun ta'sirchanligi bilan ko'z oldiga keltirish; o'xshatib suydorish va o'xshatib bezdirish; o'xshatib maqtash va o'xshatib rasvoi jahon qilish [Ulug'ov, 2017].

Tashbeh san'ati unsurlari to'rttadir:

1. Mushabbih – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbihun bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shabih – mushabbih bilan mushabbihun bih orasidagi munosabat.
4. Vositayi tashbih – o'xshatilish belgisi [Hojiahmedov, 1998. 14-b.].

Quyidagi hikmatlar qancha davrlardan o'tsa ham hech ham o'z mohiyatini yo'qotmagan:

*Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzro tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydir yo'ldosh,
Mardona bo'l, g'arib bosh, umring yeldek o'taro.*

Yuqoridagi to'rtlikda "umring" so'zi – mushabbih,"yeldek" so'zi –mushabbihun bih, "o'taro" so'zi – vajhi shabih, yeldek so'zidagi "-dek" qo'shimchasi – vositayi tashbih. Hamma juzvi mavjud bo'lgan o'xshatish **"tashbihi mufassal"** deb ataladi [Hojiahmedov, 1998. 15-b.]. Yuqoridagi bayt tashbihi mufassalga misol bo'ladi.

Bu dunyoning tashvishlari uchun g'amga botmaslik, turli narsalarga chalg'ituvchi hayotda, inson o'z maqsadini yaxshilab anglab olishi, Haqni tanish masalalari, shuningdek, bironing moliga xiyonat qilmaslik, bu foni dunyo barchaga vaqtinchalik berilganligi, faqat mardona bo'lib bu sinovlardan o'tishni uqtiradi. Umr yel (shamol)ga o'xshatilib, shamoldek o'tib ketishi, vaqtning oqar daryoligiga ishora qiladi.

*Sunnat emish kofir bo'lsa berma ozor,
Ko'ngli qottig' dil ozordin Xudo bezor.
Alloh haqqi ondog' qulg'a Sijjin tayyor,
Donolar din eshtib bu so'z aydim mano.*

Ushbu hikmatlarni o'qibq Hazrat Navoiyning ko'ngilga ozor bergan kishi Ka'bani vayron qilganga teng hikmati yodga keladi. Yassaviy davridayoq inson qalbi alohida qadrlanganligi, ko'ngilni dil ozorlaridan asrash, hatto Olloh ham undaylardan bezor bo'lishi yod etiladi.

Ayniqsa bizni e'tiborimizni tortgan jihat, Ahmad Yassaviy ijodida badiiy tasvir vositalaridan tashbehni tez-tez uchrab turishi. Bu tasvir vositasi bayonni obrazli qilish, ta'sirchan o'qilishi uchun xizmat qiladi. Bu vositalar S.Karimov ta'kidlaganidek, faqat alohida olingan ijodkor qalamigagina mansub bo'lsa, ohori to'kilmagan holda, badiiy ijodning nodir namunasi sifatida yashayveradi [Karimov, 1994. 7-b.]. Nutqiy jarayonlarning asosiy vositasi so'zlar bo'lganligi bois, so'zlarning o'z ma'nosi bilan birga ular ifodalagan uslubiy ma'nolarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

*Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim kovla,
Dunyoparast, nojinslardin bo'yun tovla,
Bo'yun tovlab, daryo bo'lub toshtim mano.*

Ushbu hikmatda o'xshatilayotgan "Mustafo" so'zi arabcha so'z bo'lib, tanlangan, saralab olingan, dovyurak ma'nolarini bildiradi va bu nom Muhammad (s.a.v.)ning siyratlaridan biridir. Oqil, dono bo'lishni xohlasang, Mustafodek elni kezib, elning dardi, yetimlarning dardi bilan yasha, dunyoga berilganlardan bo'yin tovla deb uqtiradi. Shoir o'zini bu dardlar ichra daryo kabi toshganini keltiradi. Mustafo – o'xshatilayotgan so'z, o'xshatiluvchi vosita –dek qo'shimchasidir. Bu hikmatda **-dek** qo'shimchasi mutlaq tashbehni yuzaga keltirgan.

Tashbeh nafaqat so'z o'yini sifatida, balki ijodkor tafakkurining, g'oyalarining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

*Ko'nglum qottig', tilim achchig', o'zum zolim,
Qur'on o'qub amal qilmay, yolg'on olim,
G'arib jonim sarf aylayin, yo'qtur molim,
Haqdin qo'rqub, o'tga tushmay, pishtim mano.*

Yassaviy ijodida doim insoniyatning nafsga qarshi kurashi bahs-munozaraga sabab bo'ladi. Shoir hamma vaqt nafsni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsini jilovlagan inson sabr-qanoatga erishishini ta'kidlaydi.

*Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding,
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,*

Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

Ushbu to'rtlikda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o'tga tushgan odam holiga o'xshatadi. Shuningdek, shamda kuygan parvonaga misoli axgar, ya'ni lahcha, cho'g' bo'lgan kapalakka o'xshatadi.

Yana bir hikmatida shoir falsafasini keltirishda o'xshatishdan mohirona foydalanilgan:

*Robbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam,
Asal yanglig' suchuk bo'lur tilim mening.
O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglim mening.*

Yaratganni yod etish go'yo achchiq tilni asal kabi shirin qilishga teng. Shoir kamtarligi har bir hikmatiga xos bo'lib, "O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir" deyish orqali o'zini kamtar tutadi. "muqir bo'lmoq" arabchadan "iqror bo'lmoq", "bo'yniga olmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Hikmat so'ngida shoir ana shu kamtarligi evaziga qanot qoqib uchib yurgan qushga o'zini o'xshatadi. Asal, qush o'xshatilmish, yanglig', -dek qo'shimchalari o'xshatish vositalaridir. Yassaviy ijodida eng ko'p qo'llangan vositalar –dek, -day qo'shimchalari, shuningdek yanglig' so'zlari tez-tez uchraydi. Shoir falsafiy qarashlarini ochib berishda insoniy fazilatlardan kamtarlik, sadoqat, odillik, mehr-muhabbat, haqiqat kabi masalalar olqishlanadi. Johillik, adolatsizlik, nodonlik, adolatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Ularni o'xshatishlar orqali obrazli tarzda o'quvchiga yetkazadi. Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda o'xshatishlarning o'rnini alohida. Nutqda ular hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'lib, nutqning ta'sirchanligini, ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yasaviy. Devoni hikmat (nashrga tay. A.Abdushukurov). — T.:1992.
2. Ahmad Yasaviy. Hikmatlar (nashrga tay. I Haqqul. — T.: 1991).
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. —T.: Sharq, 1998.
4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi (darslik). —T.: G'afur G'ulom, 2017.
5. Каримов С.А. Бадийй услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. —Самарқанд, 1994.
6. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarning izohli lug'ati. —T.: Ma'naviyat, 2013.

Rossiya imperiyasi mustamlakachi ma'muriyatining Samarqand viloyatidagi yassaviya xonaqohlariga munosabatiga doir

Tangirov Sherzod Abduraxmonovich

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti. E-mail: tangirovsherzod04@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy va uning ilmiy-ma'naviy merosini Turkiston, xususan Samarqand diniy-madaniy hayotidagi o'rni, Yassaviya tariqatining Turkistondagi o'rni, shuningdek Samarqand viloyatida faoliyat yuritgan Yassaviya tariqatiga oid xonaqohlar, ularning asoschilari va bu xonaqohlarning vaqf mulklari bilan bog'liq arxiv hujjatlariga qaratilgan. O'zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan XIX asr oxiriga oid rasmiy xat-xabar va arizalar, shuningdek devon yozishmalari asosida Rossiya imperiyasi ma'murlarining Yassaviya vakillari, ularning huquqlari va mol-mulklariga nisbatan munosabati yoritiladi. Maqolada Muhammad Olim Siddiqiy (Olim Shayx Azizon), Muxlisxon ota kabi yirik Yassaviya vakillari faoliyati va ularning Samarqanddagi ziyoratgohlari tarixiy manbalar asosida o'rganiladi. Arxiv materiallari asosida Rossiya imperiyasi tomonidan diniy-ma'naviy obidalarni nazorat qilish, ularning huquqiy maqomi va vaqf daromadlarining tartibga solinishi kabi masalalar ochib berilgan. Mazkur tadqiqot Yassaviya tariqati va unga aloqador tarixiy obidalarni ilmiy muomalaga kiritish hamda ularning huquqiy holatini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, Yassaviya tariqati, Samarqand, Xonaqohlar tarixi, Vaqf mulklari, Rossiya imperiyasi siyosati, Diniy-ma'naviy meros, Muhammad Olim Siddiqiy (Olim Shayx Azizon), Muxlisxon ota xonaqohi, Mustamlakachilik davri manbalari, Zarafshon okrugi (Samarqand viloyati) ish yuritish hujjatlari.*

On the attitude of the Russian imperial colonial administration toward Yasawiya khanqahs in the Samarkand province

Abstract: This article examines the role of Ahmad Yasawi and his scholarly and spiritual legacy in Turkestan – particularly within the religious and cultural life of Samarkand – alongside the significance of the Yasawiya Sufi order throughout the region. It also investigates the Yasawiya-affiliated *khanqahs* (Sufi lodges) that operated in the Samarkand province, their founding figures, and archival documents related to their **waqf** (endowment) properties. Additionally, the study explores the activities of prominent Yasawiya representatives such as Muhammad Olim Siddiqiy (Olim Shaykh Azizon) and Mukhliskhan Ota, and the historical background of their shrines in Samarkand.

Drawing on official letters, petitions, and chancellery records from the late 19th century preserved in the National Archives of Uzbekistan, the article illuminates the Russian imperial administration's attitude toward members of the Yasawiya order, including their rights and property. The research further reveals how the Russian Empire oversaw religious and spiritual monuments, clarifying their legal status and regulating **waqf** revenues. This study thus serves as an important resource for incorporating the Yasawiya Sufi order and its associated historical monuments into scholarly discourse, as well as for examining their legal status.

Keywords. *Ahmad Yasawi, Yasawiya Sufi Order, Samarkand, History of Khanqahs, Waqf Properties, Russian Imperial Policy, Religious and Spiritual Heritage, Muhammad Olim Siddiqiy (Olim Shaykh Azizon), Mukhliskhan Ota Khanqah, Colonial-Era Sources, Administrative Records of Zarafshan District (Samarkand Province)*

Tarixdan ma'lumki, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va uning ilmiy-ma'naviy merosi Turkiston diniy hayotida muhim o'rin tutgan siymolardan biridir. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davrida o'sha davrning davriy matbutotlarda ham Ahmad Yassaviy shaxsiyati va uning ilmiy-ma'naviy merosiga oid turli maqolalar uchraydi. Masalan, "Туркестанские ведомости" gazetasining 1906-yilgi sonlarida Ahmad Yassaviy shaxiga oid maqolalar keltirilgan bo'lib, unda "Mahalliy aholisi orasida hech bir adabiy nom "Muqaddas Sulton" – Xoja Ahmad Yassaviy nomidek hurmat va ehtiromga sazovor emas... "Avliyolar podshosi – Hazrati Sulton Xoja Ahmad, butun turkiylarning yo'lchi yulduzi, Turkistonning quyoshi, o'z nuri bilan shaharlar va qal'alarni yorituvchi, barcha turkiylarning peshvosi" ekanligi, shuningdek "Rus istilosi davrida Xoja Ahmadning qabri Turkistonning shimoliy qismidagi eng muhim mahalliy muqaddas ziyoratgoh, Uning joylashgan shahri – Turkiston ham ko'pincha shu muqaddas shaxs nomi bilan "Hazrat" deb ham atalgan. Ruslar tomonidan bu shahar bosib olinishi mahalliy musulmonlar e'tiqodiga chuqur ta'sir ko'rsatgan – bu holat keyinchalik Samarqand bosib olinganida ham takrorlangan edi. Mahalliy musulmonlar bu ikki shaharni "kofirlar" qo'lidan qaytarish uchun alohida yurishlar uyushtirganlar" [Туркестанские ведомости, 1906: 764].

"Xoja Ahmad Yassaviy hayotlik chog'ida ulug' avliyo darajasiga erishgan va barcha turkiy avliyolarining otasi hisoblanadi. Chunki undan keyin kelgan turkiy avliyolarining barchasi tariqat yo'lida aynan uning ta'limotiga ergashganlar", deb qayd qilinadi [Туркестанские ведомости, 1906: 772].

"Туркестанские ведомости" gazetasining 1907-yil 17-apreldagi sonida esa nomi ko'rsatilmagan muallif o'z maqolasida Ahmad Yassaviy va uning Markaziy Osiyo musulmon xalqlari orasidagi chuqur ma'naviy-ta'siri haqida so'z yuritib, uning o'rni faqat tarixiy emas, balki hozirgi kunda ham tirik ruhiy-ma'naviy kuch sifatida e'tirof etilishini ta'kidlaydi. Amir Temur tomonidan Turkistonda qurilgan Yassaviy maqbarasining diniy va madaniy ahamiyati haqida so'z yuritilib, uning hozirgi holati xavotir bilan tilga olinadi. Maqola mahalliy musulmonlarni ushbu muqaddas yodgorlikni saqlash va uni obod etishga da'vat etadi [Туркестанские ведомости, 1907: 476]. Ko'rinib turibdiki maqolada ma'muriyat emas, aynan xalq – mahalliy musulmon jamoasi o'z ixtiyori bilan, xashar yo'li bilan ushbu muqaddas obidani ta'mirlashi kerakligi ta'kidlanadi.

Yassaviylik ta'siri nafaqat butun Turkiston hududlarida, xususan, Samarqanda ham chuqur iz qoldirgan. Ma'lumki, Yassaviya tariqati Samarqanddagi xonaqohlar, masjid va madrasalar faoliyatiga, shuningdek, adabiyot va xalq og'zaki ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan tarixiy hujjatlar asosida Samarqandning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishidan mustamlakachi ma'muriyatning Samarqand viloyatida joylashgan Yassaviya xonaqohlari, ularning vaqf mulklaridan keladigan "ta'minoti" yoki daromadiga munosabati masalalariga oid arxiv hujjatlari Yassaviya xonaqohlarining bu davrga oid tarixini o'rganish, shuningdek tarixiy dalillar olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, O'zbekiston Milliy arxivi I-18-jam'garma – Samarqand viloyati boshqaruvi ish yuritish hujjatlarining 1-ro'yxat, 9832-yig'majildda Baxshoyish shayx xonaqohi hujjatlari saqlanadi [O'zMA, I-18-jam'garma: 68-varaq]. 1564-1634-yillarda yashagan Muhammad Olim Shayx Azizon tomonidan 1624-yilda yozilgan "Lamahot min nafahoti-l-quds" ("Muqaddas hidlardan shu'lalar") asarida qayd qilinishicha: *"Bu kishi (Baxshoyish shayx) qishda Hazratning huzurlarida bo'lar, yozda esa maktabdorlik qilar edilar, ham Hazrat Azizon aytar edilar. Baxshoyish o'ta betakalluf edilar. Dunyoviy rasm – rusmlarni bilmas edilar. Shu sababdan Hazrat Azizonimiz buyurdilar. Siz Mankitiston shayxi bo'ling. U kishi irshodlari bilan u joyga borib bir*

necha yillar xalqni tarbiyat qildilar. Keyin Hazrat Azizon qabrlarini ziyorat kilish uchun uch yuz so'fi-yu-sofi bilan kelibdilar, ular ham rasm-rusmni bilishmas ekanlar "Tasavvuf tarki rasmdur". Ziyorat qilib bo'lgach Samarqandga kelibdilar. Samarqand xalqi ajablanib faryod ko'tarishibdi, chunki shayx yomg'irda kiyiladigan kuloxni dastor ustidan tikib olgan edilar" [Муҳаммад Олим Шайх Азизон. 2007: 158].

O'zMA I-18-jam'garma 10356-yig'ma jildida esa Muhammad Olim Siddiqiy (Olim Shayx Azizon) xonaqohining vaqf xujjatlari saqlanadi. Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida qayd qilinishicha – Olim shayx Azizon (Muhammad Olim Siddiqiy)ning silsilalari tariqat sultoni hazrat xoja Ahmad Yassaviyga ulanadi. U Imomquli Bahodurxon davrida Samarqandda a'lam edi va u zamonasi imomlarining imomi edi. U kishining asrida Aliobod mavze'i obod shaharcha edi va hazrat eshon u yerga jome' masjidi, xonaqoh va madrasa bino qilgan edilar. U binolarning asari hozirda ham bor [Абу Тоҳирхожа. 1991: 59].

Afsuski bugungi kunda ushbu binolardan faqat masjidning eski binosi qolgan bo'lib, saqlanish ahvoli juda xarob. Muhammad Olim Siddiqiyning tarjimai holiga oid ma'lumotlar K.Kattayev [Каттаев К. 2023: 24-25], B.Aminov [Аминов Б. 2007: 346-350], N.Hasanov [Ҳасанов Н. 2007: 342-346, Ҳасан Н., Султонов Ў. 2006 № 3: 16-25, Ҳасанов Н., Султонов Ў. 2006 № 3: 194-197, Ҳасан Н. 2006: 33-37], O'.Sultonov [Султонов Ў.А. 2022 : 152] tadqiqotlarida uchraydi.



1-rasm. Muhammad Olim Siddiqiy (olim Shayx Azizon) masjidi va unda saqlanib qolgan bitik. Samarqand viloyati Oylovotxo'ja qishlog'i

Muhammad Olim Siddiqiyning xonaqohi bugungi kunda Oylovotxo'ja qishlog'ida joylashgan. Masjid devorida saqlangan matn parchasi (1-rasm) ham ushbu masjid binosining tarixiy ekanligini dalillaydi.



2-rasm. Muhammad Olim Siddiqiy (olim Shayx Azizon) qabr toshi va ziyoratgoh mutavallisi. Samarqand viloyati Oylovotxo'ja qishlog'i

Bu ziyoratgohda bo'lgan tadqiqotchi B.Aminov shayxning geneologiyasini o'rganish jarayonida uning qabrtoshidagi yozuvlardan manba sifatida foydalangan (2-rasm) [АМИНОВ Б. 2011 № 2: 123-126; 2011 № 4: 290-292]. Ammo O'zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan bu joyga tegishli tarixiy hujjatlar hozirgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan va u alohida tadqiqotni talab etadi.

1887-yilda xonaqoh mutavallisi Qamariddinxo'ja Oyatulloxoxo'ja mazkur xonaqohga tegishli vaqf hujjatlarini Zarafshon okrugi boshqarmasiga qabul qilib olish haqida o'zbek tilida yozilgan ariza bilan murojat qilgan. U o'z arizasiga 1862-yilda Buxoro amirining devonidan berilgan muboraknomani ilova qilgan. Unda yozilishida Chelak tumaning Aliobod mavzeyidagi bir qo'sh yer xonaqoh vaqfi ekanligi va unga dahl qilmaslik aytilgan. Ushbu hujjatlar haqida O'ktam Sultonov [Султонов Ў.А. 2022: 39-40] va Mirzo Mehrojiddin [Мирзо Мехрожиддин. 2017: 92]lar qisqa to'xtalib o'tgan. Ularning matnini to'liq tarjima qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, 1878-yil 7-iyun kuni Samarqan uyezdi boshlig'i Zarafshon okrugil devonxonasiga Muxlisxon ota xonaqohi va avlodlariga ajratilgan vaqf haqida hujjat taqdim qilgan. Bu hujjat 1200-yil Ramazon oyida (1786-yil iyul) amir topshirig'i bilan yangilangan nusxadir. Unda 15 dan ortiq muhr bosilgan. Muhrlar egalari orasida ikki hukmdor (Amir Donyor (1188/1774) va Amir Haydar) va qozikalon Mir Abdulhayxoja ibn Mir Abulxayrxoja boshqalarga nisbatan ancha taniqli shaxs ekanligi, voqif (vaqf etuvchi)ning shartiga ko'ra olinadigan daromad asosan xonaqoh ta'miri uchun, qolgan qismi esa 10 ga bo'linishi kerak ekanligi qayd qilingan.

Samarqand viloyat boshlig'ining 1895-yil 13-yanvardagi ko'rsatmasi bilan Samarqand viloyat «Yer va soliqqa oid» komissiyaning 3 uchastka komissari I.Nerovetskiy 1895-yil 17-noyabr kuni tekshirish o'tkazgan. Unda yozilishicha:

– vaqf yerlariga tegishli hududda Katta va Kichik Sug'onchi qishloqlari joylashgan bo'lib, uning aholisi voqif (vaqf etuvchi)ning (ya'ni Muxlisxon otaning) avlodlari hisoblanadi. Ular 90 dan ortiq hovlidan iborat bo'lib, shundan 20 hovli 1893-yildagi hududiy o'zgarish natijasida Turk qishlog'i tarkibiga kiritilgan [O'zMDA, 18-jamg'arma: 13^a];

– yerlarga yer egalari, ya'ni Muxlisxon otaning avlodlari tomonidan ishlov beriladi. Vaqf mulkining mutavallisi Azizxo'ja Eshonxo'ja o'g'li Sug'onchi qishlog'ida yashaydi;

– tekshirish jarayonida Muxlisxon otaning quyidagi avlodlari – Xo'jajon Saodatxon o'g'li, Zokirxon Boboxo'ja o'g'li, Katta Akbarxon Boboxo'ja o'g'li, Ismoilxon Musoxo'ja o'g'li, Rustamxon Xo'jaxon o'g'li va boshqalar bilan muloqot qilingan;

– So'g'onchi qishlog'idagi masjid Muxlisxon otaning shaxsan o'zi tomonidan qurilgan deb hisoblanadi. Muxlisxon otaning qabri ustiga qurilgan xonaqohi pishiq g'ishtdan to'rtburchak shaklda qurilganligi qayd qilinadi [O'zMDA, 18-jamg'arma: 13^b].

1895-yil 22-noyabrda tuzilgan viloyat «Yer va soliqqa oid» komissiyaning bayonnomasi (protokoli)ga ko'ra Polkovnik Chernevskiy raisligidagi komissiya Samarqand viloyat boshqarmasiga 1895-yil 15-dekabrda hisobot yozgan. Unda Muxlisxon ota xonaqohi va avlodlari vaqfiga oid hujjat bo'yicha tekshirish natijalari bayon etilgan [O'zMDA, 18-jamg'arma: 14^a]. Qayd qilish kerakki, Rossiya imperiyasi ma'murlarining Muxlisxon otaning avlodlariga

1 1868-yilda Zarafshonning o'rta oqimi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, shu yilgi "Muvaqqat qoidalar"ga asosan Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugi tashkil qilingan edi. 1886-yilda qabul qilgan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom" ga asosan esa Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirilib hudud ma'muriy jihatdan 4 ta: Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax uyezdlariga bo'lingan.

ko'rsatgan munosabatini o'rganishda Zarafshon okrugi (Samarqand uyezdi) ish yuritish hujjatlari ham muhim manbaviy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Rossiya imperiyasi ma'murlari diniy-madaniy obidalar va ularning huquqiy asoslariga nisbatan ehtiyotkor va tartibga soluvchi yondashuvini amalga oshirgan. Samarqandda yashab o'tgan yirik Yassaviya vakillari va ularning avlodlari tomonidan qurdirilgan xonaqohlar, masjid va madrasalar, ularning vaqf mulklari va hujjatlariga oid tadqiqotlar muhim hisoblanadi. Xususan, Rossiya imperiyasi davrida vaqf hujjatlarining rasmiy maqomi va daromad taqsimoti hamda mahalliy aholining bu mulklarga egalik huquqlari kabi bu xonaqohlar ustidan olib borilgan turli ko'rinishdagi mustamlakachi ma'muriyatning "nazorat"lari aks etgan arxiv xujjatlarni o'rganish va nashr etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Тоҳирхожа. Самария. Форсчадан А. Сатторий таржимаси, нашрга тайёрловчилар т.ф.к. Б. Аҳмедов, А. Жувонмардиев. кўрсатгичларни М. Хўжаева тузган. – Тошкент: Камалак, 1991. 59-бет
2. Аминов Б. Олим Шайх Азизоннинг насабномаси (кабртошлардаги битиклар асосида) // Имом ал-Бухорий сабоқлари 2011 № 2. 123-126-бетлар; 2011 № 4. 290-292 бетлар.
3. Аминов Б. Самаркандские шейхи йасавийа // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент-Самарканд: Фан, 2007. 346-350-бетлар
4. Каттаев К. Шайх Худойдоди Вали тарихи. – Тошкент: Oltin kitob, 2023. 24-25-бетлар
5. Мирзо Мехрожиддин. Дарвеш шайх Азизон. – Тошкент. 2017. 92-бет
6. Муҳаммад Олим Шайх Азизон. Ламаҳот. Яссавия тариқати пирлари мақомоти. Форсчадан К.Каттаев ва А.Нарзуллахонов таржимаси. – Самарқанд. 2007. – 158 бет
7. Султонов Ў.А. Шайх Зайниддин бобо шахсияти, аждодлари ва авлодлари. – Тошкент: Fan ziyosi, 2022. – 152 бет
8. Султонов Ў.А. Шайх Зайниддин бобо шахсияти, аждодлари ва авлодлари. – Тошкент: Fan ziyosi, 2022. 39-40-бетлар
9. Туркестанские ведомости. 18 августа 1906. № 125 Ст. 764
10. Туркестанские ведомости. 20 августа 1906. № 126 Ст. 772
11. Туркестанские ведомости. 17 апреля 1907 № 58 Ст. 374
12. Ҳасан Н. Олим Шайх ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Адабиёт кўзгуси: илмий тўплам. – Тошкент, 2006. № 9. 33-37-бетлар
13. Ҳасан Н., Султонов Ў. Олим Шайхнинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ва унинг яссавийшуносликдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. № 3. 16-25-бетлар.
14. Ҳасанов Н. Самарқандлик икки яссавийа шайхи ҳақида // Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараккиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент-Самарқанд: Фан, 2007. 342-346-бетлар
15. Ҳасанов Н., Султонов Ў. Муҳаммад Олим Сиддикий ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2006. № 3. – Б. 194-197; 2006. № 4. 277-279-бетлар.
16. O'zMA, I-18-jam'garma, 1-ro'yxat, 9832-yig'majild, 68-varaq
17. O'zMDA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12709-yig'ma jild, 13^a-varaq
18. O'zMDA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12709-yig'ma jild, 13^b-varaq
19. O'zMDA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12709-yig'ma jild, 14^a-varaq

MUNDARIJA

Kirish soʻz.....	3
-------------------------	----------

I. TURKIY ADABIYOTDA HIKMATNAVISLIK TARIXI VA TARAQQIYOTIDA ADABIY TAʼSIR MASALASI

1. Hasanov Nodirxon. Yassaviylikka doir yangi topilgan asarlar haqida.....	4
2. Qobilov Usmon. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va adabiy anʼana.....	8
3. Tilavov Abdumurod. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini yosh avlodga yetkazish tajribasidan (Turkiyalik olim Hayati Bijening “Yassaviy bobo hikoyatlari” kitobi asosida).....	13
4. Amonov Mehrojiddin. Yassaviy tariqati: azizon va iqoniya.....	17
5. Suvonova Jumagul. Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodida izdoshlik anʼanalari.....	21
6. Mihitdinova Badea. Sayidahmad Vasliy Samarqandiy qalamida Ahmad Yassaviy taʼrifi.....	27
7. Yakubov Ixtiyor. Ahmad Yassaviy ijodi yuzasidan Turkiyada olib borilgan tadqiqotlar haqida.....	31
8. Rasulov Baxtiyor. Tasavvuf tarixida Yassaviya taʼlimotining oʻrni.....	34

II. AHMAD YASSAVIY IJODI VA YASSAVIYA TARIQATI: TASAVVUFIY OHANGLAR

9. Kemal Yavuz Ataman. Dervişlerle Tebliğ, Hikmetlerle Fetih ve Yesevi Stratejisi.....	37
10. Boynazarov Zokir. Yesevîlik Geleneginde Hoca Hasan Andakî'nin Tesiri.....	45
11. Otayorova Umida. Ahmad Yassaviy hikmatlarining maʼrifiy-irfoniy tahlili.....	51
12. Hasanova Mashhura, Abruyeva Madina. Ahmad Yassaviy hikmatlarida dunyo mazammati.....	54
13. Xoliqulova Gulsanam. Abulvajd Forigʻiy “Devon”i va uning nashri masalasiga doir mulohazalar.....	58

III. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINING UMUMINSONIY VA UMUMBASHARIY AHAMIYATI

14. Eshmuhammedova Maryam. Devoni hikmatning Oʻzbekiston fondlarida saqlanayotgan qoʻlyozmalari.....	61
15. Ruzmanova Rohila. Alisher Navoiy ijodida ahmad Yassaviy ijodiga izdoshlik masalasi.....	65
16. Hasanov Nodirxon, Tajiyeu Hamidulla. Orta Asya Didaktik Edebiyatında Ahmed Yesevî İzleri (19.yüzyılın sonu ve 20.yüzyılın başı).....	73
17. Muhitdinova Nazmiya. XVIII-XIX asr oʻzbek sheʼriyatida Yassaviy anʼanalari.....	81
18. Xusanova Zarifa. Ahmad Yassaviy faoliyati Fitrat talqinida.....	86
19. Yallaqayev Zoyir. Yetti aʼzo sirlari.....	92
20. Neʼmatova Sapura. Ahmad Yassaviy Sharq falsafasi va estetik tafakkuri.....	99
21. Rahmonova Parvina. Lamahot min Nafahotul Quds: Imomqulixon davri Yassaviya shayxi Muhammad Olim Siddiqiyning qoʻlyozma asari tahlili.....	106

IV. AHMAD YASSAVIY IJODIDA TIL VA USLUB MASALALARI

22. **Suvanova Roxila.** Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asaridagi lugʻaviy birliklar.....111
23. **Buzrukov Muhammadixon.** Samarqand davlat universitetida saqlanayotgan yassaviya muhtiga oid qoʻlyozma manbalar.....114
24. **Emrah Yilmaz.** Ahmet Yesevî Hikmetleri Günümüze Ne Söyler?.....118
25. **Yusupova Orzibonu.** Ahmad Yassaviyning hikmatlarida murojaat birliklarning qoʻllanilishi.....125
26. **Gʻafforov Alisher, Mahmadiyev Shavkat, Islamova Dinara.** Ahmad Yassaviy hikmatlari tili haqida baʼzi mulohazalar.....142
27. **Amirqulov Sanjar.** Xoja Ahmad Yassaviy ijodi: til, uslub va tasavvufiy-estetik tafakkur.....146
28. **Islamova Dinara, Fayzullayeva Navruza.** Yassaviy hikmatlari leksikasining baʼzi xususiyatlari.....149
29. **Narziyeva Maʼmura.** Sheʼriyatda inson konsepsiyasining tadriji.....153
30. **Bayram Bilir.** Divan-i Hikmetʼte Ağlamak: Tasavvufî Bir Motif Olarak “Gözyaşı”.....157
31. **Ubaydullayeva Maftuna.** Ahmad Yassaviy hikmatlarida turkiy terminlar tahlili.....161
32. **Vafayeva Muhayyo.** “Devoni hikmat”dagi baʼzi iboralar tahlili.....165

V. AHMAD YASSAVIY IJODIDA KOMIL INSON GʻOYASI MASALASI

33. **Sharipova Sunbula, Ergasheva Ozoda.** Ahmad Yassaviyning hikmatlarida komil inson gʻoyasi.....170
34. **Toshniyozova Difuza.** Ahmad Yassaviy hikmatlarida anʼana va adabiy taʼsir masalasi.....174
35. **Ahrorova Mahina, Raxmatova Difuza.** Axloqiy Kamolot va komil inson talqini: Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy qarashlari tahlili.....178
36. **Azimova Fotima.** Manoqib janri va Yassaviy haqidagi manoqibnomalarning tuzilish prinsiplari.....184
37. **Shokirov Rahmatilla, Ernazarov Rahmon.** Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson gʻoyasi va uning maʼnaviy ahamiyati.....191
38. **Joʻrayev Ilyos, Mamatqulov Poʻlat.** Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson tushunchasi: tasavvufiy tushunchada maʼnaviy yetuklik mezonlari.....200
39. **Ametova Ulboʻsin.** Adabiy mushtaraklik.....207
40. **Azimova Nozima.** Yassaviy maktabi shoirlari ijodining Oʻzbekistonda oʻrganilishi.....211
41. **Moʻminova Dilorom.** Ahmad Yassaviy ijodida insoniy illatlardan forigʻ qiluvchi yuksak fazilatlar.....217

VI. YASSAVIYA VA KUBRAVIYYA TARIQATLARI OʻRTASIDAGI RUHIY

UYGʻUNLIK: TARIXIY-NAZARIY TAHLIL

42. **Hamdamova Shoir.** Yassaviya va kubraviyya tariqatlari oʻrtasidagi ruhiy uygʻunlik: tarixiy-nazariy tahlil.....220

43. Arezoo Eslambolchi Magdaham. Khoja Ahmad Yasawi: A Connecting Thread Between Iranian Sufism and the Vernacular Spirituality of Turkic-Speaking Communities.....	225
44. Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi. Abdurauf Fitrat - yassaviyshunos.....	229
45. Hayitova Mahliyo Ilhom qizi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining etnolingvistik xususiyatlari.....	233
46. Yunusova Bahora, Yunusova Durdona. Ahmad Yassaviy hikmatlarining yoshlarga ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....	236
47. Aminova Nafisa. Ahmad Yassaviy ijodida badiiy tasviriy vositalardan biri o'xshatishlarning qo'llanilishi.....	241
48. Tangirov Sherzod. Rossiya imperiyasi mustamlakachi ma'muriyatining Samarqand viloyatidagi yassaviya xonaqohlariga munosabatiga doir.....	244

TURKIY ADABIYOTDA AHMAD YASSAVIY YO‘LI VA MEROSI

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari
(Samarqand, 13-14 iyun, 2025-yil)**

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

ISBN 978-9910-9829-5-8

2025-yil 4-oktabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 9-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.^{1/16}. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartli bosma tabog‘ı –15.75.

Adadi 10 nusxa. Buyurtma №738

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



